

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

T. J. ENAZAROV, A. Y. YESEMURATOV, J. T. JUMANAZAROV,
Y. T. QODIROVA, G. T. JUMANAZAROVA

O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING

ETIMOLOGIK LUG'ATI

TOPONIMLAR TILSIMI
(O'QUV LUG'ATI)

«Nodirabegim» nashriyoti

TOSHKENT – 2019

Annototsiya

Mazkur lug‘at “O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi”ni tuzish bo‘yicha ilk tajriba sifatida tayyorlangan. Unda o‘zbek tilidagi toponimlarning etimologik tadqiqiga e’tibor qaratilgan hamda mamlakatimizdagi bir qancha toponimlarning etimologik tahlili va ularning ilk shakli hamda ilk ma’nosini bo‘lgan etimonlari turli-tuman dalillar vositasida asoslab ko‘rsatilgan. Bu lug‘atda onomastik leksika, xususan, toponimik leksika ham dialektal leksikaning bir qismini tashkil etishi asoslanilgan.

Bu lug‘at “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek onomastikasi”, “O‘zbekiston tarixi”, “Tarixiy toponimika”, “Tarixiy geografiya”, “Geografik onomastika”, “Onomastik terminologiya” masalalari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi, aspirant va talabalarga hamda keng ilmiy jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Аннотоциуа

Словарь терминов «Этимологический словарь узбекских топонимов. Топонимическая магия». Основное внимание уделяется этиологическому изучению топонимов на узбекском языке, а также этиологическому анализу некоторых из топонимов в нашей стране, а также их первой формы и первого значения, которые были подтверждены различными доказательствами. Этот словарь основан на том факте, что ономастическая лексика, в частности топонимическая лексика, составляет часть диалектной лексики.

Этот словарь предназначен для исследователей, аспирантов и студентов, занимающихся такими вопросами, как «Современный узбекский литературный язык», «Узбекская ономастика», «История Узбекистана», «Историческая топонимика», «Историческая география», «Географическая ономастика», «Ономастическая терминология».

The annototsiya

Glossary of terms "Etimological dictionary of Uzbek toponyms. Toponymic magic." The focus is on the etymological study of toponyms in the Uzbek language, as well as the etiological analysis of some of the toponyms in our country, as well as their first form and first meaning, which have been confirmed by various evidence. This dictionary is based on the fact that onomastic vocabulary, in particular toponymic vocabulary, is part of dialect vocabulary.

This dictionary is intended for researchers, graduate students and students dealing with such issues as "Modern Uzbek literary language", "Uzbek Onomastics", "History of Uzbekistan", "Historical toponymy", "Historical geography", "Geographical onomastic", "Onomastic terminology".

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor Z. Xolmonova.

filologiya fanlari doktori, professor N. Husanov.

filologiya fanlari doktori B. Abdushukurov.

Mas’ul muharrir:

filologiya fanlari doktori, professor A. Sobirov.

Ushbu lug‘at Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2018-yil 28-apreldagi 11-sonli qaroriga asosan nashrha tavsiya etilgan.

“...fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o‘ta muhim tarmoqlarda o‘zbek tili o‘zining haqiqiy o‘rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turganini qayd etish lozim” (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13-mayda e’lon qilingan Farmonidan).

SO‘ZBOSHI

Bilamizki, nomlar, xususan, ularning bir turi bo‘lgan toponimlar to‘g‘risida qancha fikr aytilsa, shuncha kam. Ularni o‘rganadigan fan “*Onomastika*” yoki “*Nomshunoslik*” deb ataladi. Biz oldingi ilmiy ishlarda bu fanning ikki qismdan iboratligini kuzatgandik¹: “*Umumiy onomastika*” va “*Xususiy onomastika*”. Ushbu fikrlarimizni nomlar yuzasidan amalga oshirilgan mavjud nazariy va amaliy xarakterdagi tadqiqotlarga asoslanib, tadrijiy taraqqiyotda rivojlantirgan holda mazkur fanni ilmiy va amaliyligi jihatdan yana bir necha qismga bo‘lib o‘rganishni, albatta, o‘rinli deb bilamiz:

- 1) “*Onomastika*”; 2) “*O‘zbek onomastikasi*”; 3) “*Onomastika bo‘limlari tadqiqi*”; 4) “*Umumiy onomastika*”; 5) “*Xususiy onomastika*”; 6) “*Tarixiy onomastika*”; 7) “*Zamonaviy onomastika*”; 8) “*Geografik onomastika*”; 9) “*Nazariy onomastika*”; 10) “*Amaliy onomastika*”; 11) “*Onomastik grammatika*”; 12) “*Onomastik leksikografiya*”, 13) “*Onomastik qonuniyatlar*”; 14) “*Onomastik transkripsiya va transliteratsiya*”; 15) “*Onomastik leksika hamda terminologiya*”; 16) “*Onomastik kvalimetriya*”; 17) “*Toponimik kvalimetriya*”.

Bular “Umumiy onomastika” haqidagi manbalarda aralash holda berilganki, ular yana kichik-kichik bo‘limlarga bo‘lib berilsa, qiziqib qidirilayotgan mavzuning topilishi shunchalik tez amalga oshib, sohaning maqsad hamda vazifalari ham aniqlashsa, ushbu fanning qiziqlarligi, ommabopligi, ilmiyligi, shu jumladan, ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham yanada ortadi.

¹ Эназаров Т., М.Хусанова, А. Есенмуратов. Ўзбек номшунослиги. -Т., Наврўз, 2015. 5-52-бетлар.

Albatta, ularga “*Onomastik kvalimetriya*” va “*Toponimik kvalimetriya*” nuqtai nazarlaridan baho berilsa, kelajakdagи ilmiy tadqiqotlarga foydaligi nuqtai nazaridan qaraganda ham shunchalik kam hisoblanadi. Ko‘pchilik “*oltin bitik*” termini noyob qo‘lyozmalarga nisbatan ishlatishadi. Aslida, nomlarimiz kabi toponimlar ham xalqlarning azaliy qadriyati, ruhiyati, tiliyu dili bilan bir butun holda qadim tarix sahifalarida muhrlangan “*oltin bitik*”dir. Ular insoniyat qancha yashagan va yana qancha yashasa, shuncha vaqt davomida o‘zining betakror mazmun-mohiyatini, aniqrog‘i, “*oltin bitik*”ligini namoyon qila oladi. Albatta, buning uchun ilm-fanning, aniqrog‘i, “*Onomastika*” hamda “*O‘zbek onomastikasi*”ning bugungi taraqqiyotidan kelib chiqqan holda mukammal toponimik tahlilga asoslanilgan etimologik va izohli tahliliy jarayonlarni amalga oshirish lozim. Bunday tadqiqot olib borish uchun ilmiy nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan¹.

Bizningcha, birikma ko‘rinishidagi “*oltin bitik*” terminining quyidagi ma’no nozikliklari bor²: 1) topib aytilgan ma’nili, mazmunli ibratomuz fikr-mulohazalar; 2) qadimiylar qo‘lyozma asar; 3) noyob toshbitik; 4) xalq tiliga xos, lekin haligacha maxsus o‘rganilib, yig‘ib olinmagan dialektizmlar; 5) ulug‘ ijodkorlarning tanlangan asarlari; 6) kam miqdordagi qadimiylar asar; 7) kam nus’hali mukammal asar; 8) qadimiylar va tarixiyligi bilan ham xalq tilini, ham xalq tarixini ulug‘lovchi nom(toponim, oykonim, oronim, gidronim, dromonim, fitonim, zoonim, etnonim kabi)lar; 9) yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga mo‘ljallangan zamонави, biroq har jihatdan mukammal va saylanma tipidagi asarlar. Xullas, bu fikrimizda nomlarimiz “*oltin bitiklar*” ma’nosida qo‘llanilmoqda. Zero, Yusuf Xos Hojibning “*Kishi mangi*

¹ Суперанская А. В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. -М.,Наука, 1969. Суперанская А. В. Обшая теория имени собственного.-М., Наука, 1973. Суперанская А. В. Лингвистический аспект ономастических исследований // ВО. -Самарканд, СамГУ, 1976. -С. 5-12. Суперанская А. В. Апелляция - онома // Имя нарицательное и собственное. - М., Наука, 1978. -С. 5-33. Суперанская А. В. Что такое топонимика? -М., Наука, 1985. Суперанская А. В. Теоретические проблемы региональных топонимических исследований II Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. -С 10-11. Суперанская А. В., Сталтмане В. Э., Подольская Н. В., Султанов А. Х. Теория и методика ономастических исследований. -М, Наука, 1986.

² Номларнинг бир тури бўлган топонимлар “олтин битиклар” деб атаса-да, бироқ шу бирикмани ушбу лугатимизнинг сарлавҳасига олиб кириш баҳсли бўлди. Бунга сабаб, биринчидан, бирикманинг кам қўлланиши бўлса; иккинчидан, шу бирикма кўринишидаги терминда ҳам илмийлик, ҳам бадиийлик деб номланган маъно нозикликларининг борлиги.

emas, uning nomi mangudir, odamdan uning nomi mangu yodgorlik bo'lib qoladi. O'zing mangu emassan, oting mangudir, oting mangu bo'ldimi, o'zing mangudirsan. Odam yaxshi nom bilan olqish oladi"¹, degan hikmatlari alohida ahamiyatga ega.

Agar nomlarimiz, xususan, toponimlarimiz "Oltin bitiklar" hisoblanar ekan, demakki, ularning to'plangan va bir butun holdagi majmui esa "Oltin bitiklar fondi" hisoblanadi. Xullas, mazkur "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati. Toponimlar tilsimi" ham "Oltin bitiklar fondi"ning bir bo'limini tashkil etishi aniqdir.

O'zbek lug'atchiligidagi ayni vaqtgacha ko'p lug'atlar yaratilganligi bor haqiqat. Biroq "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati. Toponimlar tilsimi" haligacha yaratilmagan. Chunki bunday lug'atning o'ziga xos muammo va vazifalari bor². To'g'ri, bir necha olimlarning o'zbek tili toponimlarining ta'birli, izohli, o'quv izohli lug'atlari, ularning etimologik tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlari nashr etilgan³. Sh. Shoabdurahmonov esa "O'zbek tilining tarkibiy-etimologik lug'ati uchun materiallar" nomli maqola yozgan⁴.

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг // Ўзбек адабиёти бўстони. Қадимий ҳикматлар. -Т.,Faafur Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 98-бет.

² Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990.-С. 5-25.

³ Пизани В. Этимология (История-проблемы-метод). Перевод с итальянского Д. Э. Розенталя. -М., Наука, 1956. Фозилов Э. Ўзбек тилидаги сепки, тулки, эски сўзларининг этимологияси ҳақида // ЎТА. -Т., Фан, 1962. 5-сон. -Б.78-80.Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. -М., Мысль, 1966. Абдуллаев Ф. Этимология бўйича кузатишлар // Ўзбек халқ ижоди. -Т., Фан, 1967. -Б. 154-161. Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд // СТ. 1973. 4-сон. -С. 43-50. Дмитриев Л. В. Некоторые тюркские этимологии // Языки народов Сибири. Кемерово, 1979. Вып. 3. -С. 37-46. Добродомов И. Г. География и этимология // Топонимия центральной России. Вопросы географии. -М., Мысль, 1974. С.159-165. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. Каримова Л. Баъзи топонимларнинг этимологиясига доир // Научные труды ТашГУ. -Т., 1976. 501-сон. -Б. 117-120. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым,1990. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. -Қарши, Насаф, 1993. Найимов С. Н. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Бухоро,1997. Эназаров Т. Ж. Топонимлар этимологик тадқиқининг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари (I китоб). -Т., 2001. Эназаров Т. Ж. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқики (II китоб). -Т., Университет, 2002. Эназаров Т. Ж. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини ("Ўзбекистон топонимикаси" номли маҳсус курс учун материаллар). -Т., 2004.

⁴ Шоабдурахмонов Ш. "Ўзбек тилининг таркибий-этимологик луғати" учун материаллар // ЎТА. -Т., Фан, 2001.1-сон.-Б. 27-29.

Toponimlarning ta’birli va izohli tahlillariga bag‘ishlangan lug‘atlar nashr etilgan, ammo ular etimologik lug‘at(lar) holatiga keltirilmagan. Chunki bu olimlarda toponimlarning etimologik lug‘atini tuzish maqsadi bo‘lmagan ham. Mazkur lug‘at o‘zbek lug‘atchiligidagi shunday ilk lug‘at bo‘lganligi sababli mualliflar ancha ehtiyyokorlik bilan ish olib borishgan. Albatta, “*O‘zbek onomastikasi*”ga hamda uning bo‘limlariga oid oldingi ilmiy va ilmiy metodik ishlarga tanqidiy yondashib, tanqidiy baho berish vaqtি keldi.

Ushbu “*O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi*”ni shakllantirish uchun joy nomlarining etimologik tahlilini etimologik tadqiq tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirish lozim bo‘ladi. Etimologik tahlil toponimlar to‘g‘risidagi mavjud tahlillarning eng mukammali va murakkab ko‘rinishi hisoblanadi. Shu bilan birga so‘z hamda toponimlarning etimologik tahlillari ham bir-biridan tubdan farq qiladi, ularni aralashtirib yuborib bo‘lmaydi.

Markaziy Osiyo, jumladan, mamlakatimiz toponimlarini o‘rganish qadim-qadim zamonlardan boshlangan bo‘lsa ham, XX asrning 50-60-yillardan boshlab toponimlarning nomlanish asoslari, motivlari, motivatsiyasi, ba’zi bir nomlarning tavsiiy, tasnifiy, enseklopidik talqinlariyu izohi va etimologiyasiga doir fikrlarni ilmiy asosda mukammal tadqiq qilish amalga oshirila boshlangan¹. Bugungacha toponimlar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarning tahlili majmui joy nomlarining etimologik tahlili zarurligini ko‘rsatadi². O‘zbekiston onomastikasi, xususan, toponomikasi bo‘yicha o‘ndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilingan, bir necha monografiyalar va joy nomlarining izohli lug‘atlari nashr etilgan. Bu ishlarni amalga oshirishga o‘zbek nomshunos olimlaridan H. Hasanov, E. Begmatov, Z. Do‘simov, B. O‘rinboev, S. Qoraev, T. Nafasov, F. G‘ulomov, M. Mirakmalov, N. Husanov, N. Oxunov, S. Naimov, Yo. Xo‘jamberdiev, L. Karimova, J. Latipov, M. Ramazanova, T. Rahmatov, Sh. Qodirova, A. Zokirov, K. A. Abdumuratov, T. Enazarov, N. Uluqov, X. Xolmo‘minov, A. Otajonova, A. Turopov, A. Esemuratovlar hissa qo‘shishdi.

Hozirgacha, ya’ni XXI asrning boshlarigacha yurtimiz toponimlari monografik tadqiqot sifatida maxsus etimologik tadqiq etilmagan.

¹ Qarang: Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. -Т., Ўзбекистон, 1981.

² Пизани В. Этимология (История-проблемы-метод). Перевод с италиянского Д. Э. Розенталя. -М., Наука, 1956. -188 с.

O‘zbekiston toponimiysi bo‘yicha yozilgan ilmiy ishlarning ko‘pchiligida joy nomlarining lug‘aviy qatlamlariga oid bir qancha fikrlar bildirilgan. Ammo bu qatlamlarga oid tahlillar hajman qisqa bo‘lib, ularga oid ayrim mulohazalargina aytilgan, xolos. Buning ustiga, ushbu tahlillarda joy nomlari talkiniy, tasnifiy hamda tavsify mazmunda izohli talqin qilingan. Ularda toponimlarning yasalish xususiyatlari va izohlanishi, geografik tafsiloti haqidagi fikr-mulohazalar, an’anaviy grammatika talablari asosida tahlil qilish ustun edi.

Ammo XX asrning 90-yillarigacha so‘zlarni apellyativ (odatdagi) so‘zlar va onomastik (nomlash uchun) leksika deb ikkiga bo‘lib o‘rganilishi; ularning farqlari farqlab berilmagani; topoasos, topoformant hamda topoindikator terminlari talqinlari; toponimlashuv, etnonimlashuv; nomlarning imlosi va talaffuzi masalalari; topoobektlarga nom qo‘yish qonuniyatlari hamda ularni qayta nomlash talab va me’yorlari; toponimlar tahlilining oddatdagi grammatik tahlildan farqlari; nom hamda toponimlarning tahlili toponimik tahlilligi va ularning onomastik tahlil talablariyu me’yorlariga, ya’ni omil, usul hamda tamoyillarining amal qilishligi, mamlakatimiz hududidagi onomastik qonuniyatlarning o‘ziga xosligi; onomastik leksikografiyaning talab va me’yorlari; onomastik hamda toponimik lug‘atlarni tuzishning talab va me’yorlari; onomastik grammatika hamda topogrammatika talablarining lingvistik grammatikadan farqlanishi; onomastik morfologiya, topomorfologiya, onomastik sintaksis va toposintaksis masalalarining nazariy hamda amaliy talqinlari; nom va toponimlarning “*Oltin bitiklarning oltin fondi*” - qizil kitobi masalasi, nom hamda toponimlarning mukammal izohli tahlili va etimologik tadqiqotga asoslangan etimologik tahlili, undagi haqiqatga yaqinlik hamda etimon masalalari ilmiy nazariy va ilmiy amaliy jihatlardan asoslanmagan edi.

Sababi, “*O‘zbek onomastikasi*” XX asrning 20-yillaridan to XX asrning 90-yillarigacha shakllanish davrida ediki, bu davrda onomastika sohasida yevropa va rus olimlarining ilmiy kuzatishlarining ilmiy tadqiqotlar sifatida muvaffaqiyatli amalga oshirilib, ularning ilmiy nazariy hamda amaliy natijalari tarjima qilinmagan va tarjima qilingan holatlarda “*O‘zbek onomastikasi*”ga singayotgani; ilmiy kuzatishlar odatdagi apellyativ so‘zlar bilan nomlashga asos bo‘ladigan onomastik leksika sathiga oid so‘zlar endi-endi farflanayotgani; onomastik obektlarning nomlari bo‘yicha enseklopedik, tavsify, tasnifiy va izohli

tahlillar amalga farqlab oshirilayotgani; onomastik obektlar bilan boshqa turdag'i obektlar bir-biridan ma'no, mazmunu mohiyat jihatlardan ajratilayotgan; grammatic tahlil bilan onomastik va toponimik tahlil, leksik ma'no onomastik, xususan, toponimik ma'nolardan ajratish masalalarini farqlash jarayonlari bo'yicha ilmiy kuzatishlar yakunlanayotgani, o'zbek onomast olimlari soha doirasida kengroq doiralarda ilmiy kuzatishlar olib borishga kirishayotgani o'z aksini topgan bir davr edi.

XX asrning 80-90-yillarida taniqli nomshunos olimlardan biri bo'lgan filologiya fanlari doktori, professor E.Begmatovning ushbu sohadan ilmiy ish olgan shogirdlari endigina ilmiy kuzatishlarga kirishishgan, o'zbek onomastikasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy nazariy hamda ilmiy amaliy xarakterdagi sara kitoblari nashr etilmagan. Shuningdek, filologiya fanlari doktori Enazarov Tolibning doktorlik dissertatsiyasi¹ muvaffaqiyatli himoya qilinmaguncha yurtimiz toponimlari monografik tadqiqot tarzida maxsus etimologik tadqiq qilinmagan. Sababi, ularni etimologik tadqiq qilishning tamoyil, usul va omil singari me'yorlari o'rganilmagan edi. Shuning uchun ular toponimlarning etimologik tadqiq yo'llari sifatida amalda qo'llanmagan. Bu hol respublikamizdagi toponimlarning yetarli to'planmaganligini, o'ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlari mukammal tadqiq etilmaganligini, ularni etimologik tadqiq qilishning me'yoriy tizimi maxsus tadqiqot obekti bo'limganligini hamda amalga oshirilgan ba'zi bir joy nomlarining tahlillari, asosan, *qayd etish – taxmin – xalqona talqin* tarzida olib borilganligini, ya'ni to'liq yakunlanmaganligini anglatadi. Holbuki, toponimlarning etimologik tadqiqi *muammo – tadqiq – taxmin – tahlil – talqin – yechim* shaklida olib borilishi bilan ularda mamlakatimizdagi xalqlarning milliy ruhi va til tizimining ichki rivojlanish qonuniyatları mujassamlashganligini mantiqiy izchillikda ko'rsatish lozim. Chunki vaqtি kelsa, tosh ham, temir ham yemirilishi mumkin, lekin nomlar, shu jumladan, toponimlar hyech qachon yemirilmaydi. Bu fikrimizning isbotiga "*Oltin bitiklar*" hisoblanadigan tarixiy va zamonaviy nom hamda obrazli nomlanishli toponimlar asos, qadim tarix esa guvohdir.

¹ Эназаров Толиб Жуманазарович. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т.,2006.

Toponimlarni faqat tilshunoslik yoki tarix, yoxud geografik jihatdan o‘rganish noto‘g‘ri. Sababi, ular tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining bir butun holda tadqiq etish obektlari sanaladi. Demak, har bir toponomining etimologik tahlilida boshqa fanlar bilan birga tilshunoslik, geografiya, tarix va boshqa fanlarga oid dalillardan zaruriyatga qarab o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Mana shunday holatda ish yuritilgandagina joy nomlarining etimologik tahlilini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimiz toponimiyasining turkiy, arabiylar, eroniylar hamda boshqa qatlamlarida O‘zbekiston toponimlari tizimining tarixiy rivoji, o‘zgarish va boyish tendensiyalari, eskirish va yangilanishining me’yoriy xususiyatlari, ijtimoy lisoniy, sabab va asoslari o‘z ifodasini topgan. Toponimlar qatlami ona-Vatanimiz o‘tmish-da yashagan turli qavmlar, elatlarning joylarni nomlash bilan bog‘liq udumlari, an’analari, nom ijod qilish mahorati va san’ati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli lisoniy manbadir. Toponimlarda obrazli nomlanishlari orqali o‘tmish ajdodlarimizning madaniy-ma’naviy qarashlari, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari, ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat, e’zozi mujassamslashgan. Ular har bir joyni o‘ziga xos va mos ravishda nomlashga intilgan. Mamlakatimizdagи joy nomlari betakror ma’nosiyu-mohiyati, shaklan qisqa, lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda toponimlar O‘zbekiston xalqlarining qadim tarixini, ajdodlarimizning tafakkur yo‘sini, yashash tarzini, turli topoobektlarga nom berish me’yor, omil va usullarini o‘zida jamul-jam’ qilgan ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlarning uzviy qismidir. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganidek, “*Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o’sishidan, xalkning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz*”¹.

Albatta, tilshunoslik ilmida ism, nom yoki atoqli otlar deb atalayotgan mavjud lug‘aviy birliklar majmui tilimizning beba ho madaniy yodgorligi, ma’naviy merosi hamda tarixiy boyligi. Shuning uchun ham: “*Barcha tarixiy nomlar va joylarning nomlari xalqning milliy mulki hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi*”, - deyiladi 1989 yilning 21-oktyabrida qabul qilingan “Davlat tili

¹Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. -Т., Ўзбекистон, 1997.140-бет.

haqida”gi Qonunning 24-moddasida¹. Bu – nomlarning (ismlarning ham), aniqrog‘i, barcha atoqli otlarning kishilik jamiyatidagi ahamiyatini hamda ularning amalda qo‘llanishi zarurligining e’tirofi va ularning tabiiyligini, milliyligini saqlashga hamda tilshunoslik, geografiya, etnografiya, tarixshunoslik singari bir qancha sohalardagi tadqiqotlarda ilmiy tahlil etishga qonuniy asosdir.

Til ijtimoiy hodisa sifatida har bir xalqning aloqa ehtiyoji ta’sirida yuzaga kelar ekan, undagi apellyativ so‘zlar kabi nominativ birliklar ham ayni shu ehtiyoj ta’sirida paydo bo‘ladi. Toponimlar ham nominativ birliklardan biri sifatida o‘zaro munosabat va aloqaga, ya’ni zaruriyatga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda toponimlar bebahoh tarix ham sanaladi. “*Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustaxkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish - hayotdan judo bo‘lish demakdir. Zotan, tarix - xalq ma’naviyatining asosidir*”². Tarixning, xususan, mamlakatimiz tarixinining noma’lum sahifalarini ishonchli hamda asosli dalillar bilan tez va osonroq bilish yo‘llaridan biri bu hududimizdagi toponimlarning ma’nolarini “*chaqa bilish*”, ya’ni ishonarli dalillar bilan amalgalashirilgan toponimik tahlillar ko‘rinishidagi etimologik tahlil(lar)ni o‘qib, o‘rganib, o‘zlashtira bilish kerak.

Bundan tashqari, nomlarning, xususan, toponimlarning boshqa til birliklaridan farq qiladigan qo‘srimcha vazifasi, ya’ni toponimik vazifasi va toponimik ma’nosи ham borki, bu haqida maxsus to‘xtalib o‘tish joiz. Uning bu vazifasi odamlarning makon hamda zamonda topoobektlarga nisbatan qanday harakat qilishni ham belgilaydi. Chunki muayyan hududda joylashgan son-sanoqsiz topoobektlar qurshovida insonning adashmasdan u topoobektidan bu topoobektga borishi, topoobektlar orasidan o‘ziga zarur obekt(lar)ni topa olishi, makonda mavjud bo‘lgan turli xil geografik muhitlarni bir-biridan farqlab olishi, topoobektlarning bir-biriga nisbatan joylashuvidan xabardor bo‘lishi kabi nom, shu jumladan, toponimlarning ma’nolarini bilish va farqlash ham ayni vaqtida yosh avlodni zamonaviy toponimik tarbiya bilan, ya’ni

¹ Абдумажидов Г.А., Шоҳназаров Т.Т. Ўзбекистоннинг Давлат тили хақидаги қонунга шархлар. Тошкент, Ўзбекистон, 1990, 32-бет.

² Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998.9-, 10-, 21-бетлар.

ona-Vatanga hamda el-yurtga sadoqatli barkamol insonlar sifatida tarbiyalash jarayonida katta ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy-ma'naviy ahamiyatga ega.

Buning uchun esa inson avvalo shu topoobektlarning nomlarining ma'no-mohiyatini yaxshi bilishiyu tushunishiga shart-sharoitu imkoniyat hozirlash, ularning axborot almashinuviga yaroqli nomlar tizimini ham yaratilishi maqsadga muvofiq. Chunki tarixiy va zamonaviy nomlar ham o'quvchi hamda talaba yoshlarimizga milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi, ularni vatanparvar, elparvar hamda har tomonlama bilimdon insonlar bo'lib kamolotga yetishishlarida eng zarur vositalardan biridir.

Mazkur lug'at toponimik lug'atlarining bir turi bo'lgani uchun unda etimologik tahlilga tortilgan toponim(lar)ning shunday tahlili haqiqatga mos kelishi yohud mos kelmasligi tushuntirib berilgan har bir fikrni dalillashga, kerakli va ishonchli faktlar bilan boyitilishiga harakat qilindi. Nomlar to'g'risidagi ba'zi noo'rin fikr-mulohazalar esa bir necha ilmiy dalillar bilan rad etildi.

Shuningdek, toponimlar haqida jamlangan taxminlarining ishonchliligi, topoasos, topoformant, topoindikator(toponimik aniqlagich)larning joylashishida toponimik qoliplanish qonunining ahamiyati, etimologik tahlilning haqiqatga yaqinligini asoslovchi etnonimlashuv, toponimlashuv va nom ko'chishi jarayonlarining xalqimizning milliy va madaniy qadriyatları, etnografik an'analari nomlarning ilk ma'nosi va ilk shakli bo'lgan etnimon(lar) bilan bog'liqligi masalalariga e'tibor berildi.

Va boshqa lug'atlarda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kam berilishi yohud umuman berilmasligi holatlari kuzatilgan holda mazkur lug'atda esa bunday adabiyotlarning ro'yxatini nisbatan mukammalroq tarzda berishga harakat qilindi. Zero, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining berilishi ham nomlarga xos etimologik tahlillarning murakkab hamda bahslilagini asoslaydi. Ilk marta tayyorlangan bu lug'at sohada dolzarb va hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muammo hamda masalalar mavjudligini ko'rsatib turibdi. Sohadagi muammolarni hal qilish uchun qilingan ishlarni tanqidiy tahlil bilan baholashga asoslangan "*"Onomastik kvalimetriya"*" va "*"Toponimik kvalimetriya"*" nomli kichik, biroq zarur sohalarning ham rivojlanishi bugungi zamon talablari ijrosi jumlasiga kiradi.

Bu lug‘atning materiallaridan shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, o‘zbek onomastik leksikasi, xususan, o‘zbek toponimik leksikasi xalqimiz shevalariga xos dialektal leksikaning bir qismini tashkil etishi ham nazariy, ham amaliy jihatlardan qaralganda-da dalillanganligi bilan ajralib turibdi. Sababi, mamlakatimiz hududidagi joylarni, albatta, qachon va qaerda bo‘lmasin, shevalarimizning vakillari tomonidan nomlangani haqqi rost. Agarda mamlakatimiz hududidagi mikro va makro nomlarni jamlab, nomlarimizning “*Oltin bitiklar fondi*” deb nomlangan alohida fondini tashkil eta olsak, ularning miqdori ayni vaqtida bir necha million bo‘lishi tabiiy. Chunki bizning mamlakatimiz hududidan bir necha marta kichik bo‘lgan Shevitsariya hududidan to‘rt yarim milliondan ortiq nomlar yozib olingan.

Nomlarga, shu jumladan toponimlarga munosabat mamlakatimizning mustaqillik davridan boshlab davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ushbu fikrimizning isboti sifatida 1989 yil 21-oktyabrda qabul qilingan “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni, 2012 yil 11-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining geografik nomlari to‘g‘risida”gi qonunlarni eslash o‘rinlidir. Mana shu jarayonlarni ilmiy jihatdan asoslab ko‘rsatish uchun ham professor E.Begmatov mustaqil davlatimizning toponimik siyosati to‘g‘risida davomli ilmiy maqola va kitoblar yozgan¹. Bular esa xalq va davlat e’tirof etayotgan barcha nom hamda toponimlar, so‘zsiz, oltin bitiklar ekanligini tasdiqlaydi.

“O‘zbek onomastik leksikasi, xususan, o‘zbek toponimik leksikasi xalqimiz shevalariga xos dialektal leksikaning bir qismini tashkil etishi ham nazariy, ham amaliy jihatlardan qaralganda-da dalillanganligi bilan ajralib turibdi. Sababi, mamlakatimiz hududidagi joylarni, albatta, qachon va qaerda bo‘lmasin, shevalarimizning vakillari tomonidan nomlangan va nom sifatida e’tirof etiladi. Agarda mamlakatimiz hududidagi mikro va makro nomlarni jamlab, nomlarimizning “oltin bitiklar fondi” deb nomlangan alohida fondini tashkil eta olsak, ularning miqdori ayni vaqtida bir necha million bo‘lishi tabiiy. Bizning taxminiy hisob-kitoblarimizga ko‘ra, ona-Vatanimizdagi nom va toponimlarning miqdorini juda kamaytirib aytganimizda ham, ularning miqdori besh milliondan ortiq. Xullas, nom hamda toponimlarning obrazli

¹ Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. -Т., Фан, 1997. 3-сон. -Б. 3-9. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. -Т., Фан, 1997. 4-сон. -Б. 7-9. Бегматов Э. Жой номлари - маънавият кўзгуси. -Т., Маънавият, 1998. -64 б.

nomlanishlari orqali bir butun majmua sifatidagi oltin bitikligiga asos ularning qadim-qadimdan umuminsoniy qadriyatlarning biri sifatida hamon amalda - tilda va dilda qo'llanib kelinishidir.

Ushbu lug‘atning yanada yaxshi hamda mukammal bo‘lishi uchun o‘z munosabatlarini bildiradigan hamkasblarimizning fikr-mulohazalarini mammuniyat bilan qabul qilib, uning keyingi nashrlarida hisobga olamiz.

ETIMOLOGIK LUG‘AT, ETIMOLOGIK TAHLIL VA ULARGA OID TERMINLAR

Lug‘atlar tuzish, shuningdek, toponimlarning etimologik lug‘atlarini tuzish va ularni zarur materiallar bilan ta'minlash tilshunoslik sohasida o‘ziga xos bahsli masalalardan biri. Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limida boshqa lug‘atlar kabi etimologik lug‘at(lar) to‘g‘risida ham fikr yuritiladi. Izohli lug‘atda so‘zlarning izohi qat’iy bir tartibda berilgani singari etimologik lug‘at(lar)da so‘z va toponimlarning etimologik tahlillari xuddi shu tartibda beriladi. Bunga rus va chet el olimlarining, shuningdek, o‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullaevning “*O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*” 2000 yilda nashr etilgan (Toshkent, Universitet, 2000) lug‘atini ko‘rsatish mumkin¹. Bungacha muallif bir qancha hamkasblari bilan o‘quv lug‘ati deb aytmagan holda “*O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*”ni kichik-kichik hajmli ko‘rinishlarda to‘rtta kitobcha holatida nashr ettirgan².

¹ Qarang: Абдрахманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Ғылым, 1975. Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. –Алма-Ата, Ғылым, 1990. –С. 21. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". -М., Наука, 1978. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г", "Д". -М., Наука, 1980. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. -М., Мысль, 1974. –С.78-79. Уринбаев Б. У., Бегматов Э. А., Караев С. К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. –С. 3-5. Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов. Изд. Ростовского университета. 1986.–С.3-96. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлар ва улар билан ҳосилалар). -Т., Университет, 2003.

² Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. Биринчи қисм. -Т., Университет, 1997. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. Иккинчи қисм (б-й ундошлари билан бошланадиган туркий сўзлар). -Т., Университет, 1998. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа

Yana lingvistik gramatika va onomastik grammaticaning qiziq, ammo bahsli masalalariga e'tibor qaratish kerak, deb bilamiz. Bu - so'zlarining etimologik tadqiqi va etimologik tahlili bilan nom hamda toponimlarning etimologik tadqiqi hamda tahlillari boshqa-boshqa narsalar ekanligi ko'p hollarda farqlanmay qolmoqdaki, bu holat esa ba'zi bir ilmiy ishlarni o'qiyotganda jiddiy e'tirozlarni ham shakllantiradi. Shuning uchun ham bo'ladigan e'tirozlarni o'rnida rad etish imkoniyati sifatida bu lug'atdagi katta sarlavhadan keyingi kichik sarlavhalarni ham mundarijada ko'rsatishni o'rini, deb bilamiz.

Biz o'ttiz yillik ilmiy kuzatishlarimiz asosida "*O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati. Toponimlar tilsimi*" nomli lug'atining ilk shaklini tayyorlashga kirishdik. Zero, etimologik tahlil va etimologik tadqiq qanchalik murakkab bo'lsa, ularning majmuuni etimologik lug'at holatiga keltirish ham shunchalik bahsli.

Mazkur lug'atda toponimlarning etimologik tahlillarini ma'lum tartib va mezonlarda keltirib o'tamiz. Shuning uchun toponimlarning etimologik lug'at tuzish tamoyillari bilan birgalikda onomastika va O'zbek nomshunoslikdagi nomlanish qonuniyatlarining nomlarga ta'siri doimo e'tiborda bo'lish o'rnlidir.

Agar inson toponimik obektlarni ehtiyojidan kelib chiqqan holda nomlab olmasa, mavjud makonda qanday harakat qilishini bilmay, son-sanoqsiz obektlar orasida uning o'zi ham yo'qolib qolar edi. Har qanday voqyea-hodisa amalda sabab va oqibat kabi bog'lanishlar bilan uyg'un tarzda yuzaga keladi, jumladan, toponimlar ham. Xuddi shu ma'noda obektlar yuzaga keldimi, demak, uni boshqa obektlardan farqlaydigan belgi-xususiyatlari asosida nomlash zaruriyati seziladi. Toponimlarning paydo bo'lishi hamda ularning etimologik tahlilini zaruriyat va tasodif kabi falsafiy kategoriylar bilan asoslanish o'rini. Shuning uchun quyidagi fikrlarni ham shu o'rinda berishni lozim, deb bilamiz. Sababi, "*Zaruriyat - hodisa ichki elementlarining mohiyati bilan bog'liq, sababi va zamini o'zida bo'lgan voqyealar rivoji jarayonida qonuniy va muqarrar tarzda ro'y beradigan hodisadir. Tasodif esa rivojlanishning tadrijiy jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan, asosi va kelib chiqish sababi*

этимологик луғати. Учинчи қисм (к-т ундошлари билан бошланадиган туркий сўзлар). - Т., Университет, 1999. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қиска этиология луғати. Тўртинчи қисм. -Т., Университет, 1999.

mazkur hodisaning ichki mohiyati, muhim tomoni bilan emas, balki tashqi jarayon va aloqa, omillar bilan belgilanadigan hodisadir"¹.

O'zbek tilidagi toponimlarning etimologik tahlil va unga xos xususiyatlarning mohiyati haqida ayni vaqtgacha yagona fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida professor Tolib Enazarovning doktorlik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadiki, undagi ilmiy g'oya sifatida keltirilgan joy nomlarining etimologik tadqiqi hamda etimologik tahliliga tegishli jarayonlarni ommalashtirib borishni lozim deb bilamiz. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda toponimlarning etimologik tadqiqi hamda tahliliga zaruriyat va tasodif nuqtai nazaridan baho berilsa, maqsadga muvofiq ish qilingan bo'lardi. Buning uchun quyidagi holatlarni hisobga olish o'rinnlidir:

1. Mavjud toponimik obektlarni bir-biridan farklash uchun ularga nomlar berish obektiv va hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Aks holda, kishi o'ziga tegishli manzillarni topa olmasdan ovorai sarson bo'lib yurardi. Shuning uchun ham mamlakatimizdagi shahar, tuman, ko'cha va mahallalar nomlangani kabi qishlok, soy, daryo, tepe kabilarning ham nomlanishi tabiiy holdir.

2. Toponomik obektlarga nomlar berish uchun appelyativ leksikadan onomastik leksika sathiga o'tgan lug'aviy asoslardan birining tanlanishi esa onomastik tasodif hisoblanadi. Demak, O'zbekiston toponimlari tizimida turkiycha (**Oqtepa** (Tosh. sh. mahalla). **Qizilyozi** (Na.m. v. Yangiyo'rg'on t. k-; «yozi - cho'l, dasht, tekislik»)); arabcha (**Ulug'nor** (Far. v. kanal, daryo; nor - arabcha nahrning o'zgargan shakli); fors-tojikcha (**Zarafshon** (Sam. v. daryo; «zar sochuvchi»); **Kitob** (Qash. v. t. va sh. «kifti ob (forsiy izofali birikma) - suv yuqoris*²*»); so'g'diycha (**Novqat** (Far., Qash. v. q.; «qat - shahar, qishloq»); **Xonjizza** (Sur. v. Denov t. t.; «jiz, diz – qal'a, istehkom»³; xonning yoki xonlikning qal'a, istehkomi) so'zlarning toponimlar uchun lug'aviy asoslar vazifasini bajarishi jarayonlari mavjud toponimik obektlarga nom berish zaruriyat asosida yuzaga kelgan onomastik tasodifning mavjud nomlanish sharoitiga ko'ra voqye bo'lishidir.

3. Vaqt o'tishi bilan toponimlar tarkibidagi topoasos, topoformantlarda tovushlarning o'zgarishi yoki tushishi holatidagi

¹ Фалсафа. Қомусий луғат. Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2000. 132-134- 6.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.98-бет.

³ Қораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978.48-бет.

fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Natijada, ularning ma’nolarini tushunish, ilg‘ash ancha qiyin bo‘lib qoladi. Bu esa toponimlar tizimida o‘z-o‘zidan ikkinchi zaruriyatni yuzaga keltiradi, ya’ni toponimlarni etimologik tadqiq qilish uchun obektiv ehtiyoj yuzaga keladi”.

Sababi, “*Faqat babs, munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin*”¹. Ushbu hol esa falsafada zaruriyat va tasodifiy holatlar bir-birini ham talab, ham inkor qiladigan tizimi kategoriyalar bo‘lgani kabi toponimik obektlarning nomlanishi, qo‘llanishi va turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab, tushunib bo‘lmaydigan shaklga kelganligi uchun ularni etimologik tahlil qilinishi bir butun tizim tarzida ekanligini ifodalab turibdi. “*Maqsad shuki, fanda bizning tarixiy tomirlarimizni aniqlaydigan, milliy g‘ururimizni yuksaltiradigan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishi kerak*”². Bu yo‘nalishlardan biri nomlarning, xususan, toponimlarning yuza kelishi va etimologik tadqiq qilishni o‘rganadigan ilmiy-nazariy yo‘nalishdir. Demak, toponimlarning shakllanishi va etimologik tahlilini ham tabiiy, ham ijtimoiy, ham ma'rifiy ehtiyojlar yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot – toponimlarning etimologik lug‘ati toponimlarning etimologik tahliliga bag‘ishlanganligi bilan ularning izohli lug‘atlaridan farqlanadi. Bugungacha yaratilgan joy nomlarining izohli lug‘atlari zaminida ularning etimologik lug‘atlari yaratiladi. Mana shu ma’noda tayyorlangan “*O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi*” mamlakatimiz joy nomlari etimologik lug‘atining boshlanishi sanaladi.

Bu ishda etimologik tahlil qilinadigan toponimlardan so‘ng qavs ichida ularning qaysi viloyat, tumanlarda uchrashi va qanday obektligi bayon etilgan. Har bir toponimning etimologik tahlilida haqiqatga yaqinlikni ta’minalash uchun ular haqidagi taxmin va farazlar birma-bir keltirilib, to‘g‘ri fikr sifatida ulardan bittasi tanlanib, ilmiy hamda amaliy dalillar bilan asoslangan. Ularning etimologik tahlillari oxirida ularga oid bo‘lgan ilk shakl va ilk ma’no sifatida etimonlari qayd etilgan.

Etimologik tahlilda o‘rganilayotgan nom haqida aytilgan bir necha taxminiy fikr va mulohazalar ko‘rib chiqilib, ulardan birining xalq tili va

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. 6-бет.

² Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998.30-бет.

diliga, milliy hamda ma'naviy qadiriyatlariyu etnografik an'alariga mosligi bir qancha ishonchli dalillar bilan asoslab beriladi. Xuddi mana shu jarayonlar qadim-qadimdan kishilarning diqqat-e'tiborida bo'lganligi tabiiy. Chunki nomlar va ular tahlillarining ilmiy hamda hayot haqiqatiga asosliligi bilan kishilarni ishontirish zaruriyati qadimdan paydo bo'lgan. Shuning uchun ham XX asr boshidagi taniqli jadidchilardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy XX asrning o'ninchi yillarda o'zining bir maqolasida xalqimizga xos nomlarning zarurligi va ahamiyatini quyidagicha bayon qilgan: "*Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydug 'onlarni «qul» - «marquq»* (manqurt) derlar¹", - deb yozgan edi. Zero, boshqa xalqlardagi kabi xalqimiz uchun ham "Nom – nomus", ya'ni eng muqaddas tushuncha.

Etimologiya va etimologik tahlil tushunchasi². Etimologiya tilshunoslikning bir bo'limi, etimologik tahlil esa so'z hamda toponimlarning kelib chiqishini tarixiy taraqqiyotda ko'rsatadi³. So'z va toponimlarni etimologik tahlil qilish bilan ularga xos bo'lgan etimologik tahlil qilinayotgan arxaik (yashirin) ma'nolari, nom yohud toponimlarning esa bugungi kunda tushunilishi sal xiralashgan toponimik ma'nosi va ularning etimonlari aniqlanadi. V. Pizani (grek tili materiallari asosida ilmiy etimologik tahlil jarayonini asoslab bergan), A. Abdurahmanov, E. V. Sevortyan, L. S. Levitskaya kabi olimlar bu sohada bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan bo'lsa, E. M.

¹ Маҳмудхўжа Беҳбудий.Ҳақ олинур, берилмас. Садойи Фарғона, 1914 йил (Мақоланинг маълум бир қисми Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетасининг 2012 йилнинг 1-сентябрдаги сонининг 4-саҳифасида берилган (35(4174)-).

²Qarang: Пизани В. Этимология (История-проблемы-метод). Перевод с итальянского Д. Э. Розенталя. -М., Наука, 1956. Абдрахманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Фылым, 1975. -208 с. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные.-М., Наука, 1974. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". -М., Наука, 1978. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г", "Д". -М., Наука, 1980. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. -М., Мысль, 1974. -С.78-79. Уринбаев Б. У., Бегматов Э. А., Караев С. К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. -С. 3-5. Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов. Изд.Ростовского университета.1986.– С.3-96. Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. –Алма-Ата, Гылым, 1990. –С. 21.

³ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли лугати. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 136-бет.

Murzaev etimologik tahlilda toponimlarning kelib chiqishi va ma’nosini tushuntirish zarurligini aytgan¹.

Turkiyada ham so‘zlarning etimologik tadqiqiga oid ishlar amalga oshirilmoqda². Etimologiya va etimologik tahlil haqidagi amalga oshirilgan ham amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham bor³, ular yangi ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘ladi.

Etimologik tahlil turlari masalasi⁴ A. Fulomov, F. Abdullaev, Sh. Rahmatullaev, E. Fozilov A. Ishaev, B. Bafoev kabilarning⁵ tadqiqotlarida u yoki bu darajada qayd etilgan. B. O‘. O‘rinboev, E. A. Begmatov va S. Qoraevlar toponimlarning tadqiqida ham etimologik tahlil zarurligini qayd etishgan⁶, biroq bu tadqiqning nazariy asoslari to‘g‘risida fikr yuritishmagan. L. A. Vvedenskaya va N. P. Kolesnikovlar mustaqil, xalqona hamda okkozional etimologiya haqida fikr bildirishgan⁷. Ilmiy etimologik tahlil toponimlar yuzasidan olib borilganda tilshunoslik, geografiya, geologiya va tarix fanlariga oid dalillarga ham e’tibor qaratiladi. Xalqona etimologik tahlilda so‘z yoki joy nomlarining kelib chiqishi turli xil va turli mazmundagi rivoyatu afsonalarga bog‘lab tushuntirilib, izohlanadi. Folklor an’analari asosida shakllangan afsonalar hamda rivoyatlar kishilarning mana shu sohaga qiziqishlarini ko‘rsatadi⁸. Misol uchun «Kuntug‘mish» va «Go‘ro‘g‘li» dostonlaridagi toponim hamda kishi ismlarini olish mumkin. Ular afsona hamda mifologik nomlar hisoblanadi. **Go‘ro‘g‘li** nomi «ko‘r o‘g‘li» va

¹ Qarang: Абдрахманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Фылым, 1975. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". -М., Наука, 1978. Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г", "Д". -М., Наука, 1980. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. -М., Мысль, 1974. –С.78-79.

² Баскаков Н. А. Проблемы языкоznания в журнале "TURK DILI" (1960-1970) // ВЯ. №6.1970.–С.105-110.

³ Бу ҳақида Толиб Эназаровнинг докторлик диссертацияда мукаммал маълумот берилган.

⁴ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли лугати. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 136-бет. Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов. Изд.Ростовского университета.1986. –С.3-96.

⁵ Юқорида қайд этилган.

⁶ Уринбаев Б. У., Бегматов Э. А., Караев С. К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. –С. 3-5.

⁷ Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов. Изд.Ростовского университета. 1986.–С.3-96.

⁸ Жўраев М., Сайдова Р. Бухоро афсоналари. -Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.

«go'rda tug'ilgan o'g'il» degan ma'nolarni anglatadi. Bizningcha, ushbu ismda «go'rda tug'ilgan o'g'il» ma'nosi ustunroq: go'rda tug'ilgan o'g'il > go'r o'g'il > go'ro'g'il > go'ro'g'li > **Go'ro'g'li**. Nomga asos bo'lgan birikmaning motivlanishi natijasida o'zakdagi i tovushi, qo'shimcha (-da) va so'z (tug'ilgan) tushib qolib, uchinchi shaxs egalikni bildiruvchi -i qo'shimchasi qo'shilgan. Uning etimoni - go'rda tug'ilgan o'g'il birikmasi. Bu nomdagi go'r so'zining «yorug'lik», «nur», «quyosh», «tog' hamda qabr», «g'or», «yer osti dunyosi bilan aloqador» ma'nolari bor¹. Nutqda quyoshni «kun» deyilishi e'tiborga olinsa, u holda **Kuntug'mish** nomi esa «doim quyosh chiqsin», «yaxshi kunlar keladi» ma'nolarini bildiradi. Bu yerda xalq etimologiyasi bilan ilmiy etimologiya dalillari bir-birini to'ldirgan. Afsona va mifologik mazmundagi nomlarni etimologik tahlil qilish o'zbek tilshunosligida an'ana tusiga kirgani yo'q. Ammo bu holga misol sifatida V. N. Toporovning **Kupala, Soviy, Uslynya** kabi mifologik ismlarning etimologik tahlilini ko'rsatish mumkin².

Okkozional etimologik tahlilda ikki va undan ortiq so'z yoki nomlarning shaklan o'xhash bo'lgani uchun etimologik tahlili bir xil bo'ladi. L. A. Vvedenskaya va N. P. Kolesnikov ba'zi hollarda okkozional etimologik tahlil hamda ilmiy dalillar bilan asoslangan etimologik tahlil o'zaro o'xhash bo'lishini ham ko'rsatishgan³. Xalq etimologiyasiga oid holatlarning badiiy asarlarda uchrashini I. Toshaliyev bayon qilgan⁴. Ushbu etimologiya uslubiy (stilik) talab bo'yicha va ijodiy maqsadga mos holda amalga oshiriladi. Badiiy etimologiyadagi xalqona hamda ilmiy etimologik tahlil qilish xususiyatlari publisistika va badiiy ijodda o'ziga xos vosita vazifasini bajaradi.

Etimon tushunchasi⁵. “Onomastika” va “O'zbek onomastikasi” sohalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda toponimlarning etimologik tadqiqi yo'llari va etimoni masalasi o'rganilmasa, ular

¹ Турдимов Ш. Гўрўғли номи хусусида // ЎТА. -Т., Фан, 2000. 3-сони. 62-65-бетлар.

² Топоров В. Н. Из наблюдений над этимологией слов мифологического характера // Этимология. 1967. -М., Наука, 1969.—С.11-21.

³ Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. –Ростов. Изд. Ростовского ун-та. 1986. –С.71-84.

⁴ Тошалиев И. Халқ этимологиясига доир баъзи кузатишлар // Ўзбек тилида сўз ясалиши. Илмий ишлар тўплами. 608-сон. -Т., 1979. 38-50-бетлар; Тошалиев И. Бадиий этимология -стилистик приём сифатида // Ўзбек тили стилистикаси масалалари. -Т., 1982. 29-30-бетлар.

⁵ Белецкий А. А. Принципы этимологического исследования (на материале греческого языка). Издательство Киевского государственного университета им. Т. Г. Шевченко. -Киев, 1950. –С.12-13.

yuzasidan olib borilayotgan etimologik tahlil mukammal bo‘lmaydi. A. A. Beletskiy ham o‘z vaqtida etimologik tahlil qilishda so‘zlarning birinchi shakli va ilk ma’nosи sifatida etimonni talqin etgan¹. N. V. Podolskaya *etimon* terminini nomning ilk shakli va ma’nosи sifatida sharhlagan². «*Etimon - hozirgi tilda bor bo‘lgan so‘z yoki morfemaning kelib chiqishiga asos bo‘lgan so‘z yoki morfema. Mas., qattiq so‘zining yuzaga kelish asosi qot (qotmoq fe’li) va -(i)q affiksi bo‘lgan; -yap affiksi –yatip (-yotib) dan yuzaga kelgan»³.*

Bizningcha, *etimon* nom uchun asos bo‘lgan belgixususiyatlarning so‘z bilan atalgan ilk ko‘rinishi hamda ilk ma’nosи hisoblanadi. Bu borada Sh. Rahmatullaevning “*Etimologik talqin berilayotgan so‘z ma’no jihatdan o‘zgargan bo‘lsa, bunday ma’no taraqqiyoti qaysi ma’no asosida ro‘y bergani izohlanadi*”, degan fikri foydadan holi emas⁴. Albatta, so‘z yohud toponimning ilk shakli va ilk ma’nosи bo‘lgan etmonni ko‘rsatish etimologik tahlilning asosiy vazifasi bo‘lgani kabi tuzilayotgan toponimlarning etimologik lug‘ati tuzish tamoyillarida ham etimon masalasi asosiy masaladir.

So‘z va toponimning etimologik tahlili masalasi⁵. So‘zning etimologik tahliliga O‘TELda namunalar berilgan⁶. Toponimlarning etimologik tahlil qilish talablari⁷ quyidagilar: 1) uning qaerda joylashganligi, qanday va qaysi obektlarning nomi ekanligi haqida ma’lumot berish; 2) toponim to‘g‘risidagi farazlarni qayd etish; 3) qayd etilgan farazlarni dalillar asosida tahlil etish; 4) har bir farazga munosabat bildirib, toponimning yuzaga kelishiga oid yangi fikrni ilgari surish; 5) toponimning etimologik tahlil qilish jarayonida qo‘llanilgan tamoyil, usul va omillar haqida to‘xtalish; 6) bunday tahlil davomida

¹ Белецкий А. А. Принципы этимологического исследования (на материале греческого языка). Издательство Киевского государственного университета им. Т. Г. Шевченко. -Киев, 1950. -С.12-13.

² Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. -С.167.

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 136-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 6-бет.

⁵ Эназаров Толиб Джуманазарович. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т.,2006. 16-бет.

⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 248-бет.

⁷ Биз бунда сўзларнинг этимологик таҳлили талабларини берамиз, деган даъвони илгари сурганимиз йўқ.

dalil sifatida ko‘rsatilgan manbalarning sahifalarini aniq ko‘rsatish; 7) toponimning etimologik tahlilida so‘nggi fikrga kelib, uning apellyativ leksikadagi etimoni haqidagi oxirgi taxminni dalillar bilan asoslash.

So‘z va toponimlarning etimologik tahlillari bir-biridan amalda quyidagicha farqlanadi: 1) so‘zlarning etimologik tahlilida ularning tarixiy taraqqiyoti kuzatiladi, toponimlarning etimologik tadqiqida unga asos bo‘lgan so‘zlarning etimologik tahlili toponimlashuv jarayonini hisobga olgan holda amalga oshiriladi; 2) so‘zlarning etimologik tahlili bir bosqichli, toponimning etimologik tahlili esa ikki bosqichli tahlildir; 3) so‘zlar nomlanish tufayli predmet, hodisa kabilarning nomi bo‘lib keladi, toponim ekstralengvistik omillar ta’sirida va lingvistik omillar asosida shakllanadi; 4) so‘zda leksik ma’no asosiy ma’no hisoblanadi, toponimda unga asos bo‘lgan apellyativning ma’nosini birlamchi ma’no bo‘lgan holda, unga turli obektlarni atash uchun yuklangan toponimik ma’no yetakchi ma’no sanaladi; 5) so‘z va toponimning etimologik tahlilida mazkur tahlilning haqiqatga yaqinligi muammosi ilgari suriladi¹.

Toponimlarning etimologik tahlilida haqiqatga yaqinlik muammosi². Nafaqat matematikada shu birga tilshunoslik sohasida ham *lingvistik haqiqatga yaqinlik* to‘g‘risida fikr yuritish mumkin³. Joy nomlarining etimologik tahlilida uning kelib chiqilishi haqida bir necha farazning berilishi shart. Mana shunda “*Nom yoki toponimning kelib chiqishi to‘g‘risidagi qaysi bir taxmin boshqalariga nisbatan to‘g‘ri?*” degan savolga javob topiladi. Toponimlarning etimologik tahlilida *haqiqatga yaqinlik muammosini* aniq anglatish uchun *taxmin* va *faraz* so‘zлари qo‘llangan. Ularga oid so‘nggi farazda *haqiqatga yaqinlik* ishonchli dalillar bilan ifodalashga harakat qilinadi. Shuning uchun A. T. Kaydarov *qozoq // qazaq // kazak* so‘zining kelib chiqishi haqida yuzlab farazlari borligini aytib, ularni haqiqatga yaqinlik jihatdan uchta guruhga

¹ Эназаров Т.Ж. “Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т., 2006. 16-бет.

² Ушбу масала ф.ф.д., проф. Т.Эназаровнинг “Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари (Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т., 2006.) номли тадқиқотида батафсил берилган.

³ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. -М., Наука, 1973. –С.99.

bo‘lgan¹. Toponimlarning etimologik tadqiqi va tahlilida tarix, tilshunoslik, geografiya fanlari dalillarining o‘zaro muqoyasa qilish bilan toponim kelib chiqishining *haqiqatga yaqinligi* muammosi oydinlashtiriladi. Bu esa to‘g‘ri va ishonchli toponimik tahlilning haqiqiy fikrni nohaq fikrdan ajratadigan etimologik tahlil jarayoniga aylanishini asoslashga xizmat qiladi. Shu sababli ham Jaloliddin Rumiy bekorga quyidagi fikrni aytmagan: ”*Nom agar o‘ksuk esa, harfdin emas, Suv agar achchiq esa zarfdin emas* – Ism(nom)ing chiroyli (va mazmunli) bo‘lmasa, harf aybdor emas, otang qo‘ygan uni. Suvning achchiqligi sariqligida emas, ayniganidan deb bil”². Sababi, ”*Nom nomusga egadir*”³.

Ustozlarimiz bo‘lgan O‘zMUNing taniqli olimlari - professorlar Sh.Rahmatullaev, M. Mirtojiev va Yo.Tojiev, shuningdek, dotsent M.Qodirovlarning ”*O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*”ni tuzishdagi asosli ilmiy nazariy hamda amaliy qarashlari ham ushbu lug‘atning shakllanishiga ma’lum darajada ma’naviy turki bo‘ldi⁴.

Bizning ushbu tadqiqot esa o‘zbek leksikografiyasidagi mavjud tajribalarga suyanilgan holda, turli tillar onomastikasi, xususan, toponimikasiga oid bugungacha amalga oshirilgan ilmiy nazariy va ilmiy amaliy xarakterdagи tadqiqot ishlariga asoslanib tuzildi. Va, albatta, O‘zR toponimlari ushbu ishning ilmiy-amaliy xarakterdagи manbaidir.

Biz nom va toponimlarning etimologik tahlilida aytيلayotgan fikrlarni asoslovchi ishonarli dalillar keltirish shartligini etimologik tahlillarning asosiy vazifalaridan biri deb bilamiz. Sababi, nomshunoslik ilmida va yana umuman ilm-fanda orqaga qaytishga yo‘l yo‘qligini hamma biladi. Shuning uchun toponimlarning tadqiqida doimo e’tirof etiladigan ba’zi bir ustozlarimizning toponimik tahlil

¹ Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. –Алма-Ата, Гылым, 1990. –С. 21.

² Жалолиддин Румий.Оқибат тупроқ бўлурмиз. Т., Муҳаррир нашриёти, 2010. 6-бет.

³ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ.Зоминнинг тил қомуси.Т., Академнашр, 2012.188-189-бетлар.

⁴ Қаранг: Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Биринчи қисм. -Т., Университет, 1997. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Иккинчи қисм (б-й ундошлари билан бошланадиган туркий сўзлар). -Т., Университет, 1998. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Учинчи қисм (к-т ундошлари билан бошланадиган туркий сўзлар). -Т., Университет, 1999. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Тўртинчи қисм. -Т., Университет, 1999. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.

talablari asosida etimologik tahlil etilgan toponimlarning shakllanishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari ishonchli dalillar bilan rad etilgan bo‘lsa, bu holni “O‘zbek onomastikasi” sohasidagi etimologik tadqiq hamda etimologik tahlilning taraqqiyoti mahsuli, deb bilish kerak. Shu o‘rinda o‘rinda ta’kidlashni istardikki, toponim(lar) to‘g‘risida aytilgan har qanday fikr (ular kimlar tomonidan aytilishidan qat‘iy nazar) to‘ularning etimologik tahliligacha taxmin yohud taxminiy fikr yoki taxminiy fikr-mulohaza deb yuritildi. Etimologik tahlildan so‘ng ular ilmiy dalil sifatida e’tirof etildi. Mana shu jihat bilan ham toponimlarning etimologik tahlili tavsifiy, tasnifiy, enseklopidik va izohli tahlillardan farqlanadi. Shuning uchun ilmiy toponimik tahlilning bir turi bo‘lgan etimologik tahlil jarayonida eng ishonchli dalillar asosida ishlangani sababli ba’zi bir hamkasblarimizning fikrlariga zid fikr yuritishga majbur bo‘lingani uchun oldindan uzr so‘raymiz. Toponimik tadqiqotlar taraqqiyotida bunday holatlar bo‘lishi aniqligini professor H.Hasanov Andijon toponimining kelib chiqishi to‘g‘risidagi fikrlari misolida bundan qirq besh yil oldin aytib o‘tgan.¹

Ba’zi bir ilmiy ish va ilmiy manbalarda “so‘z (yoki toponim)ning etimologiyasi” haqida fikr yuritilganligini kuzatilgan. Aslida, so‘z (yoki toponim)ning etimologiyasi bo‘lmaydi, balki so‘z (yoki toponim)ning etimologik tahlili haqida fikr yuritish lozimligi o‘rinli mantiqiy jarayondir.

Mazkur lug‘atning boshlanishidagi bir qancha sahifalari etimologiya nazariyasi va amaliyotiga oid fikrlar keltirildiki, kelajakda bu sohadagi ilmiy ish qiluvchilar yangidan tadqiqot olib borishmasdan, etimologik tadqiqning kelib qolingan joydan ilmiy kuzatishlarni boshlashlari o‘rinlidir. Albatta, so‘z hamda toponimlarning etimologik tadqiqi hamda etimologik tahlili yuzasida hali juda ko‘p ilmiy ishlarni amalga oshirish mumkinligini tabiiydir. Faqat, faqat ilmiy izlanishlarni rejali ravishda olib borish kerak.

MAZKUR LUG‘ATDA QO‘LLANILGAN TERMINHLAR

Bu lug‘atagi tanlangan toponimlarning etimologik tahlillarini yaxshiroq tushunish uchun quyidagi ba’zi bir terminlarning qisqacha izohiga to‘xtalishni o‘rinli bilamiz. Zero, etimologik tahlilga oid terminlarning qisqacha izohi ham bu sohadagi tushunilishi kabi qiyin

¹ Қаранг: Ҳасанов X. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т., Фан, 1975. 41-51-бетлар.

masalalarga ham ma'lum darajada ba'zi bir aniqlik va oydinliklar kiritiladi, degan umiddamiz.

Agroonim - ekinzor yerkarning nomlari. Ekinlarning turi ko'p bo'lgani kabi agroonimlarning ham miqdori ko'p bo'lishi tabiiy.

Agroonimiya - ekinzor yerlar nomlarining majmui.

Antroponim - kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi va laqablari hisoblanadi.

Antropotoponim - kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi va lakablari asosida shakllangan toponimlar sanaladi.

Antropotoponimiya - kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi va lakablari asosida shakllangan toponimlar majmui.

Apellyativ (lug'aviy asos) - obektning nomlanishi uchun tanlangan va toponimik ma'no yuklangan turdosh so'z.

Apellyativ leksika - obektning nomlanishi uchun tanlangan va toponimik ma'nolar yuklangan turdosh so'zlar yig'indisi.

Birinchi nomlanish qonuni - apellyativ leksikadagi so'z, so'z birikmasi va qo'shma so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri onomastik leksika tarkibiga o'tishi birinchi almashinuv qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunning ramziy ko'rinishi tubandagichadir:

Birikmali toponimlar - *aniqlovchi+aniklanmish*, *to'ldiruvchi+to'ldirilmish*, *hol+hollanmish* holatlarida shakllangan joy nomlari.

Gibrild nomlar - ma'noli qismlari turli tillardagi so'zlardan iborat bo'lgan toponimlar.

Gidronim - suv inshootlari (daryo, ariq, xovuz, suv ombori kabilar) ning nomi.

Gidronimiya - suv inshootlari (daryo, ariq, xovuz, suv ombori kabilar) ning nomilarining majmui.

Gidrotoponim – suv inshootlari nomlari bilan atalgan joy nomlari.

Gidrotoponimiya – suv inshootlari nomlari bilan atalgan joy nomlarining majmui.

Geotoponim – yerning o'ziga xos maxsus xususiyatlaridan ba'zilarini o'zida namoyon qilgan toponim.

Geotoponimiya – yerning o'ziga xos maxsus xususiyatlaridan ba'zilarini o'zida namoyon qiladigan toponimlar yig'indisi.

Dialektal ma'no – shevaga oid so'zlarning ko'pchiligida uchraydigan ma'no nozikligidir. Ular adabiy tilda boshqa ma'noda, o'zbek xalq shevalarida esa boshqa bir ma'noda ishlatalishi tabiiydir.

Toponimlar ham dialektal so‘zlar bo‘lgani uchun ularda ham toponimik ma’no, ham dialektal ma’no nozikliklari seziladi.

Detoponimizatsiya - toponimlarning oddiy so‘zlarga aylanishi.

Dromonim - yo‘l va yo‘lakchalarining nomlari.

Dromonimiya - yo‘l va yo‘lakchalarining nomlarining majmui.

Dromoformant – yo‘l hamda yo‘lakchalarining nomlarini shakllantiruvchi qo‘sishma ko‘rinishidagi vositalar.

Zoonim — hayvon nomlari.

Zoonimiya — hayvon nomlarining majmui.

Zootoponimlar – hayvonlar nomlari bilan atalgan joy nomlari.

Zootopoformant - hayvonlar nomlari bilan atalgan joy nomlarini yasovchi qo‘sishma ko‘rinishidagi vositalar.

Ikkinchchi nomlanish – qayta nomlanishning bir ko‘rinishi.

Ikkinchchi nomlanish qonuni - joy nomlari kichik hamda katta obektlarning nomlarini ifodalashiga ko‘ra ikki guruxga bo‘linadi:

1) mikrotoponimlar - kichik topoobektlariing nomi. Shunga ko‘ra ular kichik hududlardagina ma’lum va mashhur bo‘ladi. Bunday toponimlarga mahalla, guzar, jarlik, buloq, qishloq, ariq, manzil kabi alohida kichik toponimik obektlarning nomlari misol bo‘ladi;

2) makrotoponim - katta hududda ma’lum bo‘lgan toponimik obekt nomi. Shahar, tuman, viloyat kabi hajm ko‘lami katta bo‘lgan obektlarning nomlari makrotoponimlar jumlasiga kiradi. Mazkur joy nomlariga tuman, viloyat, shahar va shahar tip posyolkalar, tog‘ va cho‘llar kiradi.

Taxmin yoki faraz – toponim(lar)ning kelib chiqishi to‘g‘risidagi fikrlar majmui. Ular til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelmay, xalqona etimologiya ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelib, toponimik ilmiy tahlil bo‘lgan etimologik tahlil jarayoniga ijobiy turtki beradigan taxmin (faraz)lar ham bo‘lishi tabiiy. Chunki taxmin (faraz)larni aytuvchilar xalq vakillari, aniqrog‘i, yoshi ulug‘ onaxonlaru otaxonlar, o‘qituvchi, olim hamda ilmiy ish bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar.

Toponimlarning bunday guruhanishiga ular ifodalagan toponimik obektlarning boshqa toponimik obektlar tizimidagi mavqyei, darajasi hamda o‘zlariga xos hamda mos bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari o‘z ifodasini topgan. Bu holatni quyidagicha ko‘rinishda qayd qilish o‘rinli:

Lug‘aviy asos(lar) > mikrotoponim > makrotoponim (toponim).

Ushbu ramziy ifodadan ko‘rinib turibdiki, makrotoponim mikrotoponimidan, mikrotoponimlar esa kundalik turmushda ko‘p qo‘llanadigan apellyativ so‘zlardan shakllangan.

Indikator - xalq geografik topotermirlari bo‘lib, biz ushbu terminni toponimik aniqlagich (TA) deb ham qo‘llashni o‘rinli bilamiz. Ular topobektning turiga qarab oykonimik, gidronimik, oronimik, agroonimik, dromonimik aniqlagichlar ham hisoblanadi.

Makrotoponim - hajman katta va ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan toponimlar.

Makrotoponimiya - hajman katta va ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan toponimlarning yig‘indisi.

Ma’noli qism (bo‘lak) - tilshunosliqda ko‘llanuvchi morfemalarga teng bo‘lib, topoleksema, topoassos va topoformatlarni anglatadi.

Mikrotoponim - hajman kichik hamda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lмаган toponimlarning majmui.

Mikrotoponimiya - hajman kichik hamda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lмаган toponimlarni o‘rganish sohasi.

Muqaddaslashtirilgan joy nomlari ~ diniy va muqaddas, shuningdek, ziyoratgoh joylarning nomlari. Bunday nomlar e’tiborsizlik natijasida hisobga olinmagan. Mustaqillik sharofati tufayli ushbu toponimlar ham maxsus o‘rganilishi hamda tadqik etilishi zaruriyat bo‘lib qoldi.

Nomlash me’yorlari - joy nomlarini atashda zarur bo‘lgan tamoyillar (qonuniyat va qoidalar).

Obrazli nom va toponimlar – nom hamda toponimlarning alohida bir turi bo‘lib, nomlashdagi betakroriyligi bilan kishilar e’tiborini o‘ziga tortadi. Ularga *Itolmas*, *Alamiddin*; *Izboskan*, *G‘alcha*, *Qaynaquvdi*, *Molguzar* (asli *Morguzar*) kabilarni misol sifatida keltirish o‘rinlidir.

Oykonom - shahar, kishloq, guzar, mahalla, ovul kabi aholi yashaydigan topoobektlarning nomlari.

Oykonomiya - shahar, kishloq, guzar, mahalla, ovul kabi aholi yashaydigan topoobektlarning nomlari yig‘indisi.

Oykoformant – shahar, qishloq, guzar, mahalla, ovul kabi aholi yashaydigan topoobektlarning nomlarini yasovchi qo‘shimcha ko‘rinishidagi vositalar.

Onomastika - tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganadigan bo‘limi. U ham bir necha qismlarga bo‘linadi: antroponimika, toponimika, kosmonimika, etnonimika va boshqalar.

Onomastik (yasalish) derivatsiya - oddiy so‘z yasalishidan farq qilgan holda onomastik formant(lar)ni qabul qilib, yangi nomlarning yasalishini amalga oshiradigan jarayonning nomi.

Onomastik konversiya - apellyativ va onomastik leksika sathidagi so‘zlarni topoobektlarni nomlash ehtiyoji tufayli toponimik leksika satxiga ko‘chishi. Onomastik konversiya ikki xil bo‘ladi:

1) ichki konversiya - atoqli ot(onomastik so‘z)larning toponimga ko‘chishi;

2) tashqi konversiya - turdosh ot(apellyativ so‘z)larning toponimga ko‘chishi.

Onomastik tahlil – mavjud nomlar yuzasida amalga oshiriladigan tahlil turlari majmui.

Oltin bitiklar - 1) topib aytilgan ma'nili, mazmunli ibratomuz fikrmulohazalar; 2) qadimiylar qo‘lyozma asar; 3) noyob toshbitik; 4) xalq tiliga xos, lekin haligacha maxsus o‘rganilib, yig‘ib olinmagan dialektizmlar; 5) ulug‘ ijodkorlarning tanlangan asarlari; 6) kam miqdordagi qadimiylar; 7) kam nus’hali mukammal asar; 8) qadimiylar va tarixiyligi bilan ham xalq tilini, ham xalq tarixini ulug‘lovchi nom(toponim, oykonim, oronim, gidronim, dromonim, fitonim, zoonim, etnonim kabi)lar; 9) yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga mo‘ljallangan zamonaviy, biroq har jihatdan mukammal va saylanma tipidagi asarlar.

Oltin bitiklarning oltin fondi – nomlarning, shu jumladan, toponimlarning qizil qitobi

Oronim - tog‘, tepa, tekislik, adir, jar, qoyalarning. ya’ni yer yuzi shakllarining nomlari.

Oronimiya - tog‘, tepa, tekislik, adir, jar, koya kabilarning nomlari majmui.

Sodda toponimlar - topoasos yoxud topoasos va togyuformantdan tashkil topgan toponimlar.

Spelionim - g‘or va ungurlarning nomi.

Spelionimiya - g‘or va ungurlar nomlarining majmui.

TA (toponimj aniqlagich) - toponimlarning belgi-xususiyatlarini ifodalaydi.

Topoasos - toponimning shakllanishi uchun xizmat qiluvchi asos(o‘zak).

Topovaziyat - obektlarning nomlashga bo‘lgan ehiyojlarning majmui.

Topoleksema - toponimni shakllantirishda qatnashadigan so‘z(lar).

Toponim - alohida ajratib olingan obektning nomi. Tadqikotda takrordan qochish ma'nosida bu termin bilan birga joy nomi va geografik nom degan atamalar ham qo'llanildi.

Toponimik ma'no – so‘zning apellyativ leksikadagi leksik ma'nolaridan farq qiladigan va onomastik leksika sathida faqat toponim uchun shakllangan ma'nodir.

Toponimlar tilsimi – joy nomlarining bilinadigan hamda bilinmaydigan, ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan, anglanadigan hamda anglanmaydigan topogrammatik xususiyatlarini; toponimik tahlil bilan ulardagi toponimik ma'noni ishonchli dalillar bilan asoslab beradigan mavjud toponimlar haqidagi toponimlarning etimologik lug‘atidir.

Toponimiya - onomastikaning alohida ajratib olingan obektlar nomlari yig‘indisi.

Toponimlashuv hodisasi - so‘z va qo‘shimchalarning so‘z sifatida bir butun holatda shakllanib, so‘ng joy nomi vazifasini bajarishi.

Toponimik (yasalish) derivatsiya - oddiy so‘z yasalishidan farq qilgan holda joy nomining yana topoformant(lar) qabul qilib, yangi toponimlarning yasalishini o‘zida ifodalaydi.

Topogrammatika – toponimlarni onomastik sathga xos grammatik talablar bo‘yicha o‘rganishda ishlataladigan termin.

Topomorfologiya – toponimlarning onomastik leksikadagi morfologik xususiyatlarini tadqiq etishda qo‘llanadigan termin.

Topoonomastika - onomastikaning joy nomlarini o‘rganib, tadqiq etuvchi bir bo‘limi.

Toponimik xarita – o‘rganilayotgan hududga oid toponimlarning joylashishi ko‘rsatilgan xarita.

Toponimik tarbiya – yosh avlodni mamlakatimizdagи joy nomlarining shakllanishi, yasalishi, qo‘llanishi, qayta nomlanishi, topogrammatik xususiyatlari talqini, izohi va etimologik tahlillari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda berishni amalga oshiradigan tarbiyaviy jarayon majmuidir. Ayni vaqtida mustaqil davlatimizning uzoqqa mo‘ljallangan toponimik siyosati amal qilmoqda. Bunday jarayonni ikkinchi nom bilan zamonaviy toponimik tarbiya deyish o‘rinli.

Toponimik tahlil – toponimlar yuzasida amalga oshiriladigan tahlil turlari majmui.

Topoformant - toponimlarning yasalishida faol qatnashadigan toponim yasovchi formantlar.

Toposharoit - toponimning shakllanishiga oid ekstralinguistik va lingistik omillar yig‘indisi.

Toponimik qonuniyat – toponimik tizimdagi (so‘zlarning apellyativ leksikadan onomastik leksikaga tanlab, saralab olinishi qonuni; toponimik tahlil qilish qonuni; toponimik nisbiylik va toponimik negativlik qonuni; umumonomastika va xususiy onomastika qonuni; onomastik hamda toponimik yasalish jarayonlari qonuni; onomastik hamda toponimik ketma-ketlik qonuni; nom va toponimlarning etimonlari aniqlash qonuni; nom hamda toponimlar etimologik tahlili natijasi bo‘lgan etimonlarning haqiqatga yaqinligi masalasi qonuni; toponimik ma’no qonuni; topogrammatika va topomorfologiya qonuni; gidronimlashuv, fitonimlashuv, etnonimlashuv va toponimlashuv qonuni; birinchi, ikkinchi hamda uchinchi nomlanish qonuni; toponimik qoliplanish qonuni; topoobektlarni nomlash va qayta nomlash qonuni; bir obekt nomning ikkinchi bir obekt nomi uchun ham nom bo‘lib kelishi qonuni kabi) mavjud qonunlar majmui.

Uchinchi nomlanish qonuni - kundalik hayotda ishlatilayotgan apellyativ so‘zlardan antroponim, fitonim, etnonimlar hosil bo‘lishi va ularning antropotoponim, fitotoponim, etnotoponimlarga aylanishi jarayoni, joy nomlariga xos uchinchi almashinuv qonunini ifodalaydi. Demak, mazkur qonun quyidagi uchta onomastik jarayonlar mazmunini bir butun holda ifodalaydi:

Lug‘aviy asos(lar) > antroponim > antrotoponim.

Lug‘aviy asos(lar) > fitonim > fitotoponim

Lug‘aviy asos(lar) > etnonim > etnotoponim.

Fitonim - o‘simlik nomi.

Fitonimiya – o‘simliklar nomlari majmui.

Fitonimika – o‘simliklar nomlari majmuini o‘rganuvchi bo‘lim.

Fitotoponim o‘simlik nomlari asosida shakllangan joy nomlari.

Fitotoponimiya - o‘simlik nomlari asosida shakllangan joy nomlari majmui.

Etimologiya - tilshunoslikning so‘z hamda morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o‘rganuvchi bo‘limi. Ayni vaqtida ushbu bo‘lim 1) so‘zlarning etimologiyasi; 2) nomlarning etimologiyasiga ajralgan.

Etimologik tadqiq - so‘z va toponimlarning kelib chiqishi hamda etimonlarini ko‘rsatib beradigan ilmiy tadqiqot.

Etimologik talqin - so‘z yoki joy nomlarining kelib chiqishi va ularning etimonlarini ko‘rsatib beradigan etimologik tahlillar majmui.

Etimologik tahlil - so‘z va toponimlarning kelib chiqishi hamda etimonlarini ko‘rsatib beradigan tahlil turi. Mazkur tahlil ham o‘z ichida ikkiga bo‘lingan: 1) so‘zlarning etimologik tahlili; 2) nomlarning etimologik tahlili.

Etimon - so‘z yoki toponimning ilk shakli va ilk ma’nosini o‘zida ifodalaydigan topoasos (so‘z yoki so‘z birikmasi).

Etnonim - urug‘-qabila va elatlarning nomlari.

Etnonimiya - urug‘-qabila hamda elatlarning nomlari majmui.

Etnonimika - urug‘-qabila va elatlarning nomlarini ilmiy asoslarda o‘rganuvchi bo‘lim.

Etnonimlashuv - apellyativ leksikada ko‘llanuvchi so‘zlar ning etnonimga ko‘chishi.

Etnotoponim - urug‘-qabila hamda elatlarning nomlari asosida shakllangan toponimlar.

Etnotoponimiya - onomastikaning urug‘-qabila va elatlarning nomlari asosida shakllangan toponimlarni tadqiq etuvchi sohasi.

Etnoformant - etnonim yasashda qo‘llanadigan formant.

Bular nomlarning, xususan, toponimlarning etimologik tahlili va tadqiqi jarayonlarida qo‘llanib, ilmiy fikr-mulohazalarni to‘g‘ri o‘zanga solib yuborishga xizmat qiladigan terminlarning bir qimi. Mana shu terminlarning o‘zi ham nom hamda toponimlarning etimologik tahlili va tadqiqi lingvistik yoki grammatic tahlil emas, balki topogrammatik jarayonlarga xos bo‘lgan toponimik tahlillarning bir ko‘rinishi sanaladi. Bu esa ustoz - professor E.Begmatov ta’kidlaganidek, joy nomlarining etimologik tahlili va tadqiqi, shuningdek, ularning bir butun holda toponimik yoki onomastik tahlillarga birlashishi oliy ta’lim tizimiga yangidan qo‘yilayotgan “*O‘zbek onomastikasi*” o‘quv kursining shakllanishiga ham amaliy, ham ilmiy-nazariy manbalar rolini bajarishi tabiiy. Bu nom(lar)ga e’tibor ma’nosidagi tabiiy va qonuniy holdir.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarning yakuni xulosasi sifatida taniqli jadidchilardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asrning o‘ninch yillarida quyidagi fikrlarni haqli ravishda keltirib o‘tishni lozim deb

bilamiz: “*Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydug ‘onlarni «qul» - «marquq»* (manqurt ma’nosida) derlar¹”.

LUG‘ATNING TUZILISHI

1. Etimologik tahlil qilingan toponimlar alfavit tartibida berildi.
2. Lug‘at maqolalarning ko‘pchiligi bir necha taxminlar vositasida shakllantirildi.
3. Toponimlarni hosil qilgan topoasos, topoformant, topoindikatorlar apellyativ so‘zlardan emas, balki onomastik so‘zlardan shakllanganligi ta’kidlab o‘tilgan.
4. Bu ishda keltirilgan har bir toponimdan so‘ng qavs ichida ularning qaysi viloyat, tumanlarda uchrashi va qanday obektligi bayon etilib, qaer(lar)da joylashganligi hamda qanday obekt ekanligi ko‘rsatildi.
5. Toponimlarning dialektal so‘zlar jumlasiga kirishi hisobga olingan holda ba’zi bir lug‘at maqolalarda toponimik ma’no hamda dialektal ma’no terminlari ham keltirib o‘tildi. Sababi, toponimlarni ham dialektizmlar kabi o‘zbek xalq shevalarining vakillari aytishadi.
6. Ularning etimologik tahlilidagi zaruriyatga qarab, tilshunoslik, tarixshunoslik va geografiyaga oid materiallardan ham foydalanildi.
7. Lug‘at maqola(lar)ning sarlavhasi ma’nosida avval etimologik tahlil etilayotgan toponimning bosma harflardagi ko‘rinishi va uning yonidan parallellik (//) belgisini qo‘yib, toponimning yozma shakli ham berildi. Masalan, **TOSHKENT // Toshkent; SAKSONKAPA // Saksonkapa.**
8. Toponim(lar) to‘g‘risida aytilgan har qanday fikr (ular kimlar tomonidan aytilishidan qat’iy nazar) to ularning etimologik tahliligacha taxmin yohud taxminiy fikr yoki taxminiy fikr-mulohaza deb yuritildi. Etimologik tahlildan so‘ng ular ilmiy dalil sifatida e’tirof etildi. Mana shu jihat bilan ham toponimlarning etimologik tahlili tavsifiy, tasnifiy, enseklopidik va izohli tahlillardan farqlandi. Shuning uchun ilmiy toponimik tahlilning bir turi bo‘lgan etimologik tahlil jarayonida eng ishonchli dalillar asosida ishlashga harakat qilingani sababli ba’zi bir hamkasblarimizning fikrlariga zid fikr yuritishga majbur bo‘lingani uchun oldindan uzr so‘raymiz.

¹ Махмудхўжа Беҳбудий.Ҳақ олинур, берилмас.Садойи Фарғона, 1914 йил(Мақоланинг маълум бир парчаси Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетасининг 2012 йилнинг 1-сентябрдаги сонининг 4-саҳифасида берилган (35(4174)-).

TOPONIMLAR TILSIMI

Bahs yo‘q joyda haqiqat bo‘lmaydi (Maqol).

A

AYRITOM // Ayrитом (Sam. v. Jomboy t. tepa; Qash. v. Chiroqchi t. q.). Mazkur joy nomining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlar bor:

1. Shu toponim atrofida yashovchilarning fikricha, ushbu toponim “*ajratib qurilgan*” hamda “*qurilishida kamchiligi bo‘lgan tom, ya’ni uy*” degan ma’noni anglatadi. Bunday tarzda tahlil qilinishi toponimning shakllanishiga xalqona munosabatlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

2. “**Ayritam** - Respublikada **Ayritam** (Ayritom) degan qishloqlar ko‘p. Turkmanistonda, Qoraqalpog‘istonda ham Ayritam toponimlari uchraydi. O‘zbekiston bilan Afg‘oniston o‘rtasida Amudaryoga qurilgan ko‘prikning Afg‘oniston tomoni **Hayraton** deb ataladi. Uning O‘zbekiston tomonida **Ayritom** degan joy bor. Ikkalasi bir toponimning talaffuz shakllari bo‘lsa kerak. Etimologiyasi noma’lum. Turkmanlarda *ayritam* (аугытамлар) degan urug‘ bo‘lgan¹.

3. Bu toponimi uchta ma’noli bo‘lakdan shakllangan: *ayir, -i, -tom*. Ayir so‘zi “*Alohida, yakka ayrilgan*”, degan ma’nolarini anglatadigan so‘z bo‘lib, ikkilamchi indikatordir. *-i* topoformant bo‘lib, *ayir* va *tom* so‘zlarini bog‘lab kelishda hissa qo‘shadi. U *tom* so‘ziga qo‘shilganda belgi ma’nosini ifodalaydi. “*Alohida bo‘l*” ma’nosidagi *az fe’liga -ir* qo‘shimchasini qo‘shish bilan *azir // azri* so‘zi hosil bo‘lgan².

Keyinchalik so‘zdagi *z* undoshi y undoshiga almashgan: *z > m*. Bunda *ayir* so‘ziga *i* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yangi so‘z hosil bo‘lgan: *ayir+-i > ayiri > ayri*. So‘ngra so‘z quyidagi holga kelgan: *az~-bir > azir > ayir+-i > ayiri > ayri*³. Bu holda so‘zga *-i* qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan *r* tovushidan oldingi *i* unlisi tushib qolgan. Toponimlashuv hodisasi tufayli *ayri* so‘zi onomastik leksika sathiga o‘tgach, unga “*yashash joyi, uy*” ma’nolaridagi *tom* topoasosi

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 8-бет.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.15-бет. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.146-бет. Киргизско-русский словарь. 1 т. (А-К). -М, 1965. 36-б. Саъдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. -Т., Ўқитувчи, 1996. 115-б.

³ Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этиологик луғати. Биринчи қисм.-Т., Университет, 1997.22-23-бетлар.

qo'shilgan: *ayri+tom* va bir butun toponimni shakllantirgan. *Tom* so'zi "uy, hovli" ma'nolarini anglatadi.

Demak, toponim haqida aytilgan birinchi va ikkinchi fikrlarda dalil kam, ikkinchi fikr esa asosli - alohida uy, hovli bor joy **Ayritom** deb atalgan. Uning etimoni *ayri tom* ko'rinishidagi birikma bo'lib, toponimlashuv hodisasi tufayli u alohida nom(so'z)ga aylanib, joy nomini ifodalaydigan holatga kelgan: *ayri+tom* > *ayri tom* > **Ayritom**. U ijtimoiy ahamiyatga molik joy nomlaridan biri.

ANDIJON //Andijon (O'zR ning bir viloyati va shu viloyat markazi bo'lган shahar nomi) toponimining kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminiy fikrlar mavjud:

1. Emishkim, oldinlari uzoqqa ketganlar ona yurtlarini sog'inib, u yoqda "ota-onam, oilam, bola-chaqam, qarindosh-urug'larim va do'st birodarlarim qoldi" degan ma'noda *anda jonim qoldi*, deyishar ekan. Shundan shahar nomi shakllangan, deyishadi.

2. Turklarning afsonaviy podshosi Afrosiyobning *Odinajon* degan qizi nomiga katta shahar qurib, unga *Odinajon* deb nom bergan. Talaffuzda so'z tarkibidagi quyidagi o'zgarishlar ro'y bergan: o unlisi a unlisiga (*o* > *a*), *d* undoshi o'rniga *n* undoshi almashgan. Bularning natijasida turkiy tillar fonetikasining asosiy qon tomiri bo'lган singarmonizm qonunining palatal singarmonizm ko'rinishi yuzaga kelgan: *Odinajon* > *Ondijon* > *Andijon* > **Andijon**. Ushbu taxminda xalq etimologiyasi mazmuni bor, lekin nom – toponim tarkibida fonetik o'zgarishlarning ko'rsatilgan darajada bo'lishi uning nisbatan ishonchliroq ekanligiga asos bo'ladi. Chunki Afrosiyobning qizi *Odinajon* deb atalmasa hamki, bo'lган, uning nomi *Qaz* ekanligini Mahmud Koshg'ariy qayd etgan¹.

3. "X asrdan boshlab arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida *Andiyon*, *Andikon*, *Andugon* shakllarida qo'llashgan"².

4. Shoh va shoир Zahriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma"sida shahar *Andigon* va *Andijon* deb qayd etgan³.

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғат-ит турк. Т., Фан, 1960. 110-бет. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Индекс луғат. -Т., Фан, 1967. 390-бет.

² Хўжамов М., Лафасов М., Муллажонова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. Т., Мумтоз сўз, 2014. 139-бет.

³ Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т., Юлдузча, 1989. 5-, 6-, 25-бетлар.

5. H.Hasanov “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” nomli kitobida Andijon to‘g‘risida quyidagilarni yozgan: “ Shu vaqtgacha xitoylik malika *Andukon* ismidan olingan yoki «*Ozadagon*» va «*Mardagon*» so‘zidan («*ozodalar shahri*», «*mardlar shahri*») hosil bo‘lgan deb izohlab kelingan. Holbuki, bular shahar nomi emas, balki laqab, maqtov so‘zlaridir.

Sharqshunos A. Juvonmardiev yaqindagina «*andu*» — qabila, «*gon*» — forscha *jami*, *birga yig‘ilishlik* degan ma’nodagi qo‘sishimcha bo‘lib, Andugon — o‘zbeklarning jami va yig‘ilgani demakdir. Talaffuzda osonlashtirib, **Andijon** bo‘lib ketgan, deb izohladi¹.

Mabodo, shu izoh yanada mustahkamlanishi lozim bo‘lsa, bir dalil qo‘sish mumkin. Mahmud Qoshg‘ariyning mahalliy aholi «*Farg‘onani Uzkend — o‘z shahrimiz deydilar*» (Devon, I, 330) izohi ham Farg‘ona, jumladan, Andijon o‘zbeklar to‘plangan joy, «*o‘z shahrimiz*» deb atalganini isbotlaydi.

Ammo «*Andijon*»ni boshqacha izohlasa ham bo‘ladi. *An- di*, albatta, qabila nomi. Hatto, andijonliklarni osongina «*andi*» deb ham ataganlar, -*jon* qo‘sishimchasi ehtimol qadimiylardan biri -*gan*, -*gon* bo‘lib, «*daryo*» ma’nosida emasmikan? Bu qo‘sishimcha *Andigon*, *Chimgon*, *Namangan*, *Pungon* singari nomlarda formant vazifasini o‘taydi. Ehtimol, -*gon* so‘zi hindcha -*ganga* («*daryo*»), O‘zbekistondagi *Shopurkom* - *Shofirkon*, *Konimex*, *Piskom*, *Ugom* nomlariga o‘xshab transformatsiya bo‘lgandir.

Andijon tog‘lari - Qashqar bilan Farg‘ona orasidagi tog‘lar (G‘iyosiddin naqqosh, Bobir). Andugon - Andijon shahri². Bu olimning fikrlarida ham bu toponimning mazmunini yoritishga harakat bor.

6.Tarixshunos akademik A.Muhammadjonov ushbu shahar nomini *andi*, *gon*, *kon*, *jon* shaklidagi ma’noli guruhlarga bo‘lib o‘rgangan. O‘zbeklarning milliy qadriyati va an‘analarining biriga aylangan *quda-andachilik* jarayonidagi *anda* // *andi* so‘ziga ham muallif bee’tibor bo‘lmaydi.

¹ А. Жувонмардиев, Шахарларнинг номларидан баҳс. Ер ва эл. № 4, 1962. 29-бет.

² Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т., Фан, 1975. 41-51-бетлар.

Sababi, eski turkiy til matnlarida *andi* – yaqin degan ma’noni anglatadi, qadimgi turkiy va eski o‘zbek tilida esa *gon*, *kon* va *jon* so‘zlari *suv* hamda *soy* ma’nolarini anglatishini ham muallif hisobga oladi va mazkur toponim “*soy bo‘yidagi shahar*”, “*suv yoqasidagi shahar*”, “*soy yoki soylikka yaqin shahar*” ma’nolarini alohida ko‘rsatib, bu ma’nolardan “*soy bo‘yidagi shahar*” ma’nosи joy nomining toponimik ma’nosи ekanligini ta’kidlab o‘tgan¹. Unda toponimning etimoni *andigon* yasama so‘zidir: *andi* > *andi+-gon* > *andi gon* > *andigon* > *andijon* > ***Andijon***. Bu holda *g* undoshi *j* undoshiga o‘rin bo‘shatgan.

Bizningcha, avval toponim uchun *andi* topoasos bo‘lgan, *gon* soy va suv ma’nosini anglatgani uchun toponimik aniqlagich bo‘lgan, topoformant emas, ammo topoformant holatida qolgan. Vaqt o‘tishi bilan bu ikki toponimik vosita bir butun holda topoasosga birlashib ketgani uchun unga *shahar* toponimik aniqlagichi qo‘shilgan: *andi* > *andi+-gon* > *andi gon* > *andigon* > *andijon* > ***Andijon*** + *shahar* > ***Andijon shahri***. Xullas, bu toponim ham tarixiy taraqqiyotda o‘ziga xos obrazli nomlanishga ega bo‘lgan joy nomlaridan biri. Xullas, toponim to‘g‘risidagi birinchi va ikkinchi taxminlar xalqona etimologiya bo‘lsa, uchinchi hamda to‘rtinchi taxminlar toponimning yozilishi bilan bog‘liqlikni, beshinchi taxmin esa uning tavsifiy va izohli tahlilining ko‘rinishi, oltinchi tahmin va bizning fikrimiz esa etimologik tahlilini ifodalamoqda.

АРНА // Arna (Xorazm v. va boshqa viloyatlarda mikro hamda makrotoponim holatidagi gidronim) gidronimlarining qilib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxmin bor:

1. Xorazmdagi sug‘orish tizimi tarixini o‘rgangan olim Ya.G.Gulyamov “arna” so‘zini katta kanal yoki daryo; yab // yap so‘zini esa kichik kanal deb qayd etgan².

2. Arnasoy gidrotoponimidagi *arna* topoasosining kelib chiqishini Z.Do‘simov eron tillarida *suv* ma’nosida qo‘llanadigan *ar* so‘ziga bog‘laydi³. Shunday fikrni o‘z vaqtida A.P.Dulzon ham aytgan⁴. Ammo

¹ Муҳаммаджонов А. Андижон – Сойбўйи демакдир // Мозийдан садо. 2 (14). –Т., 2002. 44-45-бетлар. Муҳаммаджонов А. Айрим топонимлар семантикаси // ЎТА. -Т., Фан, 2004. 2-сони. 39-42-бетлар.

² Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. Т., 1957. С.294.

³ Дўсимов З.Арна сўзи ҳакида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 6-сони. 56-бет.

⁴ Дулзон А.П. Древные топонимы Южной Сибири индоевропейского происхождение. Сборник. Топонимика Востока. М., 1966. с.344.

til tarixi materiallarida *ar* so‘ziga –*na* qo‘shimchasi qo‘shilib, turkiy tillarga xos *arna* so‘zi shakllangan bo‘lishi ham mumkin-ku.

3. “*Arna* so‘zining ma’nolari va areali ancha keng. Qadimgi xet tilida *arna* «*buloq*», «*chashma*» degan ma’noni anglatgan. Xorazmda katta kanallar *arna* deb ataladi.

Qadimgi eron tilida **ar (ir)** «*suv*» ma’nosini bildirsa, arnas va sanskrit tillarida «*oqim*» «*suv oqimi*» demakdir. Bu so‘zning arealiga kelganda shuni aytish kerakki, *arna* turli ma’nolarda O‘zbekistonning Xorazmdan boshqa hududlarida, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning ko‘pgina joylarida, hatto, Kavkazda ham qayd qilingan. Jizzax viloyatida suv o‘yib ketgan jarni *arna* deyishadi.

Endi *arna* so‘zidan tarkib topgan toponimlardan misol keltiraylik: **Arna** qishlog‘i (Buxoro viloyati), **Arnabo‘yi** (Xorazm viloyati), **Arnasoy** (Sirdaryo, Jizzax viloyatlari), **Arnaqapchig‘ay** darasi (Qashqadaryo viloyati), **Kattaarna**, **Kichikarna** soylari (Qirg‘izstan), **Arnabulok**, **Arna-Gvay** (“Arna yaqinidagi joy” - Kavkaz), **Xo‘jaarna** qudug‘i (Surxondaryo viloyati); *arna* termini Xorazm viloyatida ayniqsa ko‘p uchraydi: **Arnao‘tkan**, **Bog‘lonarna**, **Kesikarna**, **Nazararna**, **Otaliqarna**, **Paxtaarna**, **Urgancharna**, **Shovotarna** va boshqalar. Bulardan tashqari **Arna**, **Arnaboshi**, **Kattaarna**, **Kichikarna** kabi mikrotoponimlar ham bor”¹.

3. Sun‘iy kanallarning bu termin bilan atalishiga sabab bu kanallar hajm jihatidan daryoning bir qismi deb hisoblanadi. Masalan, **Paxtaarna**, **Shovotarna**, **Polvonarna**, **Otaliqarna** xuddi shundaydir. Shu bilan birga, Amudaryoning **Bog‘lanarna**, **Kesikarna** kabi shaxobchalari ham shu terminda yuritiladi.

Demak, *arna* qadimiy xorazmcha so‘z bo‘lsa ham, hozirgi vaqtida juda katta hududlarda suv bilan bog‘liq turli ma’nolarni anglatadi: bir joyda (Xorazm, Turkmaniston) «*katta kanal*» yoki «*daryo shaxobchasi*», boshqa bir yerda (Jizzax, Samarqand viloyatlari) «*jar*», Janubiy O‘zbekistonda (Qashqadaryo viloyatida) «*dara*» (anna), Qozog‘istonda «*daryo o‘zani*», qaysidir hududlarda «*daryo*», hatto «*buloq*». Sirdaryo yaqinidagi **Arnasoy** ko‘li ana shunday jar o‘rnida hosil bo‘lgan. Ba’zi bir joylarda arna *anna* deb talaffuz qilinadi.

4. *Arna* so‘zi toponim sifatida faqat Xorazmdagina qo‘llanmaydi, agar yaxshilab zehn solib kuzatilsa, Samarqand va Qashqadaryo

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 10-11-бетлар.

viloyatlaridagi sheva vakillari ham sel kelganda yangidan hosil bo‘ladigan suv yo‘llarini *arna* – *orna* – *onna* shakllarida ishlatishlarini kuzatish mumkinligini hamda shu bilan birga ariq va arna so‘zлari o‘zaro o‘xshashligini Xo‘jamurod Jabborov tadqiq etgan¹. Bu olim bu ikki topoleksemani turkiy tillarga, xususan, o‘zbek tiliga oidligini asoslashga harakat qilgan². Bu ikkala so‘zda ham suv oqimi natijasida suv o‘zanining ikkiga bo‘linishi holati ma’nosи saqlanadi.

Xorazmda *arna* so‘zining asl ma’nosи «*daryo tarmog‘i*», «*shaxobchasi*» bo‘lib, keyinchalik bu termin kanallarga nisbatan ham ishlatilgan turkiy so‘zlardan biri. Bu gidronim hamda gidronimik terminning “O‘zbekiston tarixi”da alohida ahamiyatga egaligi tarixshunoslikka oid ilmiy manbalarda ham e’tirof etilgan.

Xullas, *ariq*, **Ariq**³ kabi *arna*, **Arna** ham turkiy tillarga oid so‘zlardir. Yohud ular turkiy va eroniy tillar o‘rtasidagi mushtarak so‘zlar jumlasiga kiradi. Bu toponimning kelib chiqishi to‘g‘risidagi taxminlar esa bir-birining mazmunini ma’lum darajada to‘ldirib turadi.

Yuqoridaqilardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz hududida *arna* so‘zi Xorazmda faol, qolgan joylarda esa kam bo‘lsa hamki uchraydi. Bu holatlar “*Arna* so‘zi o‘zlashgan so‘zmi yohud turkiy so‘zmi?”, degan savolga javob topishni talab etadi. Keltirilgan taxminlarning oxirgi ikkitasi mantiqan bir-biriga bog‘liq, ya’ni *arna* so‘zi tarixiy dialektizmlardan biri⁴, ya’ni turkiy so‘z. Shu so‘z bilan shakllangan Arna gidronimi ham turkiy tillarga oiddir.

ARNASOY // Arnasoy (Jiz. v. tuman) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi fikr mavjud:

1. Toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *arna*, *soy*. Toponim tarkibidagi *arna* so‘zi sanskrit tilidagi *arnos* so‘zidan olingan bo‘lib, “*suv, suv oqimi*” ma’nolarini ifodalaydi⁵, degan fikrga qo‘shilmaymiz. Chunki ilm-fanga yangi ma’lumotlar kiritiladi, bu oldingi fikrlarni rad ham etadigan imkoniyatga egaligimizni bildiradi.

¹ Жабборов Х.Арна ва ариқ сўзларининг этимологияси хусусида // Тил ва адабиёт таълими.1996.4-сони.67-бет.

² Жабборов Х.Арна ва ариқ сўзларининг этимологияси хусусида // Тил ва адабиёт таълими.1996.4-сони.67-70-бетлар.

³ Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари. Т., 2009. 85-бет.

⁴ Кейинги олиб борилган илмий кузатишларимиз шуни тасдиқлаяпти, она тилимизнинг бойлиги бўлган диалектизмлар қўлланиш даврига кўра ҳам иккига бўлиниши табиий жараён: 1) бугунги замонавий диалектизмлар; 2) тарихий диалектизмлар.

⁵ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. С.18.

2.Ushbu *arna* gidronimik xususiyatga ega bo‘lgan termin (so‘z) toponim sifatida faqat Xorazmdagina qo‘llanmaydi, agar zehn solib kuzatilsa, mamlakatimizning Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi sheva vakillari ham sel kelganda yangidan hosil bo‘ladigan suv yo‘lini *arna* – *orna* – *onna* – *anna* shakllarida ishlatishlarini kuzatish mumkinligini hamda shu bilan birga ariq va arna so‘zlari o‘zaro o‘xhashligini Xo‘jamurod Jabborov tadqiq etgan¹. Bu olim mazkur ikki topoleksemani turkiy tillarga, xususan, o‘zbek tiliga oidligini asoslashga harakat qilgan². Bu ikkala so‘zda ham suv oqimi natijasida suv o‘zanining ikkiga bo‘linishi holati ma’nosи saqlanadi.

Unda gidronimni ifodalovchi so‘z ikki marta qo‘llanilgan. Bunda birinchi so‘zning ma’nosи xiralashi natijasida soy so‘zi unga qo‘shilgan: *arna+soy* > *arna soy*.

Hosil bo‘lgan *arna soy* birikmasi toponimlashuv hodisasi natijasida onomastik leksika sathiga o‘tib, toponimni hosil qilgan: *arna+soy* > *arna soy* > **Arnasoy**.

Mazkur joy nomining etimoni *arna soy* birikmasi sanaladi. Bunday nomlanishga sabab bu yerda dehqonchilik uchun suv muammosining birinchi o‘rinda turishi. Toponim oldin gidronimiga nom bo‘lgan, keyinchalik u bir obektning nomi ikkinchi obektga ko‘chishi qonuniga asoslanib, tumanning nomi sifatida ishlatilgan: **Arnasoy** (soyi), **Arnasoy** (tumani).

Demak, o‘zbek xalq shevalarida ham ishlatiluvchi **Arna** turkiy tillarga oid so‘z. U turkiy va eroniy tillar o‘rtasidagi faol qo‘llanuvchi mushtarak so‘zlar jumlasiga kiradi.

ARG‘IN // Arg‘in (Sam. v. Narpay t.; Tosh. v. Zangiota va O‘rta Chirchik t. k.) – toponimining kelib chiqishi haqida bir necha taxminiy faraz bor:

1. S. Qoraev ushbu toponimni *arg‘in* degan turkiy qabila nomiga bog‘lab³, mo‘g‘ulcha deydi:

¹ Жабборов Х.Арна ва ариқ сўзларининг этимологияси хусусида // Тил ва адабиёт таълими.1996. 4-сони.67-бет.

² Жабборов Х.Арна ва ариқ сўзларининг этимологияси хусусида // Тил ва адабиёт таълими.1996. 4-сони.67-70-бетлар.

³ Кораев С. Географик номлар маъноси -Т.,Ўзбекистон,1978. 28-29-бетлар.

«*Mazkur etnonim mo‘g‘ulcha arg‘in* (*o‘zagi - arg‘*) «*duragay*» *so‘zidan kelib chiqqan*». **Arg‘in, arg‘un** – o‘zbeklar, qozoqlar, boshqirdlar tarkibida uchraydigan urug‘. Bu urug‘ O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qayd qilingan *argu* qabilasining davomi bo‘lsa kerak. “Boburnoma”da, o‘zbek urug‘larining dastlabki yozma shajarasi – Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmuat-tavorix” asarida keltirilgan o‘zbek elatlari ro‘yxatida bu urug‘ **arg‘un** shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo‘g‘ulcha **arg‘in** (*o‘zagi arg‘* – “duragay”) so‘zidan kelib chiqqandir. Arg‘in (argun) so‘zi qirg‘iz tilida ham ana shu ma’noni anglatadi.

Respublikamizning Asaka, Qibray, Zangiota, Navoiy, Qorako‘l, Denov tumanlarida **Arg‘in** qishloqlari bor¹. Ammo muallif bu fikrini zarur dalillar bilan asoslamagan.

2. Ushbu joy nomi ikki ma’noli qismidan tashkil topgan: *argu*, - *n*. M. Koshg‘ariy «Devonu lug‘ot-it turk» asarida arg‘u so‘zining ma’nosini ikki tog‘ orasidagi vodiy deb izohlaydi va turkiy xalqlar ichida boshqa qabilalar bo‘lgani kabi arg‘u qabilasi borligini ham qayd etgan².

Demak, ikki tog‘ orasidagi vodiyda yashovchilar arg‘un deb atalgan: *arg‘u+-n* > *arg‘un*. *Arg‘in* etnonimi *arg‘un* apellyativ so‘zining etnonimlashuv jarayonida onomastik leksika sathiga ko‘chib, fonetik o‘zgarishga uchrashi tufayli hosil bo‘lgan: *arg‘u +- n* > *arg‘un* > *arg‘in*. Hosil bo‘lgan so‘z fonetik o‘zgarishlarga uchrab, mana shu holga kelgani uchun arg‘un so‘zining ma’nosini toponimik ma’nosi holatida o‘zida ifodalaydi. Bu yerda *u* > *i* ko‘rinishidagi fonetik hodisa ro‘y bergen. Toponimdagи -*n* topoformanti, ya’ni -*n* (-on // -an) qo‘srimchasi esa ko‘plik ma’nosini anglatadi³.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, *arg‘u*, *arg‘un*, *arg‘in* so‘zlari bir o‘zakdan shakllangan so‘zlar bo‘lib, ular etnonimlashuv tufayli apellyativ leksikadan onomastik leksika sathiga o‘tib, qabila nomiga ko‘chgan: *arg‘u+-n* > *arg‘un* > *arg‘un* // *arg‘in*. Mazkur etnonim ikki tog‘ orasida yashovchilar degan ma’noni anglatadi. Joyga nom qo‘yish

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 11-12-бетлар.

² Маҳмуд Кошгарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 65-,94-,114-,148-, 308-бетлар.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.88-90.

talabi bilan etnonim toponimlash tufayli toponimga ko‘chgan: *arg ‘u+-n* > *arvun* > *arg ‘un* > **Arg‘in**. Uning etimoni ikki tog‘ orasida yashovchilar ma’nosidagi yasama so‘z bo‘lgan *arg ‘un* yasama so‘zi. “*Qadimgi qabila va xalqlar kelib ketganlari*”¹ kabi *arg ‘inlar* ham oldin yashashgan. Bugungi kunda toponimlar sifatida ularning nomi, demakki, tarixi ham saqlanib qolgan.

Demak, **Arg‘in** toponimining etimologik tadqiqida toponimlar tarkibini o‘rganish va rekonstruksiya usullari, shuningdek, fonetik tamoyil me’yorlari bilan etimologik tahlil etildi.

ASAKA // Asaka (And. v. t., Buxoro v. Jondor t. joy nomi) toponimining kelib chiqishi haqida tarxiy, arxeologik, geografik va lisoniy xususiyatlarni o‘zida jamlagan quyidagi taxminiy fikrmulohazalar mavjud:

1. U to‘g‘risida «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da quyidagi fikrlar qayd etilgan: «Shahar nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Ayrim tadqiqotchilar (prof. T. Shirinov) **Asaka** nomini Farg‘onada miloddan avval YI-Y asrlarda yashagan *sak // saks // shak* qabilalarining nomlanishi bilan bog‘laydi. Chunki bu qabilalar ba’zi joylarda «assakenlar» nomi bilan ham yuritilgan. Ularda «*asvaka – ot, assaka – otliqlar*» ma’nosini bildirgan².

2. Arxeolog B. Matboboev yuqoridagi fikrni vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan asoslashga harakat qilgan va shu joylarda nasldor otlar yetishtirilgan degan fikrni ilgari surgan³.

3. Toponomist olim S. Qoraev **Asaka** tumanidagi **Axtachi** qishlog‘i nomi mo‘g‘ulcha bo‘lib, «*ot tabibi (sinchi)*», «*otboqar*» degan ma’noni bildirishini ta’kidlab, yuqoridagi mulohazalarni birmuncha tasdiqlaydi. Shularga asoslanib, **Asaka** shahrining 60 yilligi (1997 y.) munosabati bilan katta yo‘l yoqasidan shaharga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykalchasi qo‘yildi⁴.

Bu toponim to‘g‘risidagi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da berilgan fikrlar keltirildi va ularga quyidagi e’tirozlarimiz bor:

1) *sak // saks* qabilalari O‘rta Osiyo hududida yashashgan;

¹ Саъдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. -Т., Ўқитувчи, 1996. 15-бет.

² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. 443-444-бетлар.

³ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. 443-444-бетлар.

⁴ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. 443-444-бетлар.

2) *ot, otliqlar* deb izohlanayotgan *asvaka, assaka* so‘zlarining ma’nolarini manbalardan topish kerak;

3) otlar tasviri tushirilgan toshlar nafaqat Farg‘ona vodiysidan, shu bilan birga, boshqa joylardan ham topilgan;

4) S. Qoraev **Axtachi** toponimi boshqa viloyatlarda ham obektlarning nomi sifatida uchrashini ko‘rsatgan

Demak, bu fikrni **Asaka** toponimining etimologik tahlili uchun asos deb olish ham o‘zini oqlamaydi. Uni *asvaka, assaka* so‘zlaridan keltirib chiqarish, toshlardagi ot tasviri va **Axtachi** toponimini oldingi fikrga bog‘lash mumkin emas. Bu fikrda ekstralivingistik omillar bilan lingvistik omillar mosligi yo‘qolgan. Ammo yuqoridagi tahlilning berilishi ham amaliy ahamiyatga ega.

4. S. Qoraev bu joy nomini bir o‘rinda «Ba’zi nasabnomalarda o‘zbek urug‘lari orasida *asaka* urug‘i tilga olingan» desa¹, boshqa joyda uni «*sak, saka nomi bilan aloqador bo‘lsa kerak. Ba’zi bir mulohazalarga ko‘ra, asaka «otliqlar» degan ma’noni bildiradi»²,-deb yozgan.*

5. “**Asaka** – ko‘chmanchi o‘zbeklar orasida tilga olingan urug‘lardan biri. Qirg‘izlarning *sayaq* qabilasi tarkibida ham *asaka* degan urug‘ qayd qilingan. Joy nomlari shaklida uchraydi. Masalan, **Asaka** shahri (Andijon viloyati); Oltinko‘l tumanidagi **Asakalik** qishlog‘i ham shu urug‘ nomi bilan atalgan bo‘lsa kerak, *-lik* qo‘srimchasi topoformantlar biri sifatida toponimlar tarkibida, jumladan, etnonimlar oxirida shunday vazifani bajaradi: **Boyliq** «boylar», **Xo‘jaliq** «xo‘jalar», **Taqachilik** «takachilar», **Asakalik** «asaka urug‘i vakillari» (yashaydigan qishloq).

Qoraqalpog‘iston Respublikasida **Asakaovdon** degan botiq bor. Geologlar fikricha, bu yerda yuqori to‘rtlamchi davrda katta ko‘l bo‘lgan (**ovdon**, to‘g‘risi **obdon** «suv havzasisi», «suv ombori»)³.

6. Toponim ikki ma’noli qismdan tashkil topgan: *as, aka*. Ushbu ma’noli qismlarning birinchisida fonetik o‘zgarishlarning bir turi bo‘lgan tovush tushishi natijasida so‘zning ikkinchi bo‘g‘ini tushib qolgan: *asil* > *as*. Toponim bu tarzda shakllangan: *asil+aka* > *asil aka* >

¹ Кораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978. 29-бет.

² Кораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. -Т., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2005. 205-бет.

³ Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. -Т., Turon zamin ziyo, 2015. c.264. Караев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 12-бетлар.

asilaka > *asaka* > **Asaka**. *Asil* – arabcha so‘z¹. Bunda ikki so‘z o‘zaro birikib oldin so‘z birikmasini, so‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan. Shu qo‘shma so‘z toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayonida toponimga ko‘chgan: *asaka* > **Asaka**. Uning etimoni - *asil aka* birikmasi. Bu yerda toponimning tuzilishi bilan *as aka* birikmasi shaklan teng kelib qolgan: **Asaka** // *as aka*. Ular ma’nosi boshqa-boshqa so‘zlar sanaladi.

7. S. Y. Boychorov toponimdagи *as* ma’noli qismni etnonimning nomi sifatida olib, etimologik tahlil qilgan². S. Ataniyazov mazkur joy nomining etnonimlarda *adak* (*adaq*) holda ham, etnonimning bir ma’noli qismi sifatida ham qo‘llanganini ko‘rsatgan³.

8. Unda *as*, *aka* topoleksemalari bor. *As* so‘zi tojikcha bo‘lib, «*zo ‘r, tajribali, hunarli*» ma’nolarida qo‘llanadi. Toponim «*zo ‘r, tajribali, hunarli aka*» yoki «*hurmatli kishi*» ma’nosini ifodalab, quyidagicha shakllangan: *as+aka* > *as aka* > *asaka* > **Asaka**. Uning etimoni - *as aka* birikmasi. *As aka* birikmasi ham toponim bilan shaklan teng kelib qolgan. Ular ma’nosi bilan farqlanadi.

9. Bu toponimda *as*, *aka* shaklidagi ma’noli qismlar bor. *As* so‘zini Mahmud Koshg‘ariy *yog‘och o‘zagi* deb ko‘rsatgan⁴. Qadimgi turkiy tilda *as* so‘zi «*oqsuvsar va uning terisi*» ma’nosini bergen⁵. Undagi *as*, *aka* topoleksemalari birikib so‘z birikmasini, so‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan. Bu so‘z onomastik konversiya jarayonida joy nomiga ko‘chgan: *as+aka* > *as aka* > *asaka* > **Asaka**. *As* so‘zining Mahmud Koshg‘ariy ko‘rsatgan ma’nosini qadimgi turkiy tildagi ma’nosiga mos. *Yog‘ochning o‘zagi* uning eng o‘rta qismi bo‘lgani kabi *oqsuvsarning terisi* «*eng asil narsa*» ma’nosini ifodalaydi. Toponim «*oqsuvsar terisidan tikilgan kiyimni kiygan hurmatli odam yashagan yaxshi va asil joy*» degan ma’noda **Asaka** deb atalgan. Uning etimoni - *as aka* shaklidagi so‘z birikmasi.

10. H. Hasanov ushbu toponimni **Adoq** // **Odoq** nomli toponimlari bilan bog‘lashga intilib, ular haqida to‘xtalib, ularni Amudaryoning etagidagi shahar va Andijon shahrining bir nomi deydi⁶.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 57-бет.

² Байчоров С. Я. Этимология этнонима ас // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990. -С. 279-289.

³ Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке. -Ашгабад., Ҷылым, 1994. -С.61.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. І т. -Т., Фан, 1960. 81-бет.

⁵ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.59.

⁶ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. -Т.,Фан, 1965. 59- ва 71-бетлар.

11. **Asaka** toponimining *ayaq* (*oyoq // oyoq*) so‘ziga aloqadorligi bor. *Adaq*, *yadaq*, *azaq*, *ayaq* kabi turli shakllarda qadimgi yozma yodgorliklarda va hozirgi turkiy tillarda qo‘llanib, “*oyoq*, *zina*, *oxir*, *daryoning quyi qismi*” kabi ma’nolarni anglatadigan *ayaq* so‘zining borligini A. Matg‘oziev e’tirof etgan¹.

12. “**Odoq** – biron narsaning past tomoni, etak tomoni, soy-daryoning quyi oqimi. G‘ijduvon tumanida **Odoq**, Vobkent tumanida **Odoqariq**, **Qamashi** tumanida **Odokjonboz** degan toponimlar bor. *Odoq*, *oyoq*, *etak* so‘zları asli bir so‘zning fonetik shakllari. *Oyoq* so‘zining toponimiyada «*etak*»dan tashqari «*idish-tovoq*» ma’nosи ham bor. Masalan, itga ovqat berish uchun yerni o‘yib yoki loydan yasalgan chuqurcha *itoyoq* deyiladi. Tojikistondagi Jergetol vodiysidagi qирг‘излар о‘та badavlat, idish-tovoqlari ham tilladan bo‘lgan boylarni *qiziloyoq* deyishadi (qizil – oltin, tilla). **Qiziloyoq** degan toponim ham bor”².68-b.

13. Qирг‘из tilida *adaq* so‘zi *adak* shaklida qo‘llanib, «*tugamoq*, *oxiri*» ma’nosida³, tofalar va tuva tillarida *azaq*, *adaq* shakllarida qo‘llangan⁴.

14. Joy nomi uchun «*tog‘ tagi*», «*daryo izi*», «*daryoning boshlanishi*» ma’nolariga ega bo‘lgan *saqa* so‘zi asos bo‘lgan⁵. So‘z oldidan *a* unlisi orttirilgan, q undoshi k undoshiga o‘tgan⁶: *saqa* > *asaqa* > **Asaka**.

15. Toponim ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan: *asak*, *-a*. Qadimgi turkiy tilda «*quyi*, *oyoq* (*oyoq*), *oxir*» ma’nosida *adaq* so‘zi qo‘llangan⁷. So‘zdagi *-a* qo‘shimchasi haqida ham ikki xil fikr bor:

1) mazkur so‘zga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* (-*ka*, *-qa*, *-a*) qo‘shilgan: *adaq+-qa* > *adaqqa* > *adaqa*. Talaffuz jarayonida

¹ Матғозиев А. Қадимги туркий тилга ҳос лексик элементлар // ЎТА. -Т.,Фан,1976. 58-63-бетлар.

² Қораев С. Ер тилининг калити (Ўзбекистон географик номларини ҳосил қиласиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар). Қисқача луғат. Т., 2009. 68-бет.

³ Киргизско-русский словарь. 1 т. (А-К). -М., 1965. –С.21.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. –С.38.

⁵ Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские лексические основы на буквы Л.М.Н.П.С. М., Восточная литература, РАН, 2003. –С.158-159.

⁶ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. –С. 30. Дўсимов З. Топонимлардаги фонетик ҳодисалар // ЎТА. -Т., Фан, 1970. 2-сон. –Б.80.

⁷ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. –С.8,27.

so‘zdagi ikkita *q* tovushidan biri tushib qolgan. Shakllangan so‘z quyidagi fonetik jarayonlarni bosib o‘tib, toponimga ko‘chgan: *adaq* > *adaq+qa* > *adaqqa* > *adaqa* > *azaqa* > *azaxa* > *azaka* > *asaka* > **Asaka**. Ushbu holda topoformantni olib shakllangan *adaqqa* so‘zi - mazkur toponimning etimoni;

2) bizningcha, kichraytirish-erkalatish ma’nosida qo‘llanuvchi – a// - □ qo‘shimchasi¹ *adaq* > *azaq* > *asaq* > *asak* ko‘rinishidagi tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zga qo‘shilgan². Hosil bo‘lgan so‘z «*oxiri, quysi*» ma’nolarini anglatgan: *asaka*. Mana shu shakldagi onomastik konversiya jarayoni natijasida so‘z toponimga ko‘chgan: *adaq* > *azaq* > *asaq* > *azax* > *asak* > *asaka* > **Asaka**. So‘z to toponimga aylanguncha quyidagi fonetik o‘zgarishlar bo‘lgan: *q* > *k* (*q* > *x* > *k*), *d* > *z*, *z* > *s*³.

Mazkur topoobekt tog‘ oldida, nisbatan quyida joylashgan. Ushbu holda «*oxirroq, quyiroq*» ma’nosidagi *asaka* yasama so‘zi - uning etimoni. Qadimgi davrlarda ham **Adaq** tarzida nomlangan aholi punkti borligi⁴ yuqoridagi *adaq* so‘zi bilan bildirilgan ilmiy fikrni asoslaydi.

Birinchi va ikkinchi taxminlardagi ma’no toponimning sinxron planda kuzatilishi natijasida yuzaga kelgan. Uchinchi farazda olingan so‘z toponimdagi birinchi ma’noli qism bilan shaklan bir xil bo‘lib qolgan. To‘rtinchi faraz tarix, geografiyaga oid bo‘lib, lingvistik material unda asosli dalillanmagan. Uchinchi va beshinchi fikrlarga esa toponim etnonimga bog‘langani uchun ishonish qiyin. Oltinchi va yettinchi taxminlarda esa bu toponim haqida berilgan dalillar sinxron va diaxron planda ilmiy kuzatilib, ma’lum bir umumlashma fikrga kelingan. *Yog‘ochning o‘zagi* ma’nosidagi *as(az)* so‘zi bilan «*quyi joy, oxir, oyoq*» ma’nolaridagi *adaq* so‘zi ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liq. Axir *as* so‘zi «*yog‘ochning o‘zagi*» ma’nosida *uning oxiri bo‘lgani* kabi *adaq* so‘zi ham «*oyoq, quyi, oxir*» ma’nolarini ifodalab, semantik bir butunlikni hosil qilgan. Bunda toponimning qadimiy ekanligi ham o‘z ifodasini topgan. Shu fikr biror yumushni bajarishga undab aytildigan «*Asakang ketdimi!?*» va «*Asakang ketadimi!?*» iboralarining ma’nosi qayd etilgan beshinchi, oltinchi hamda yettinchi fikrlardagi ma’noga

¹ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. –С.102.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. І т. -Т., Фан, 1960. 112-бет.

³ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 161-, 166-167-бетлар; Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. –С.30,38,57.

⁴ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. –С.8.

mos. Sakkizinchi, to‘qqizinchi, o‘ninchи va o‘n birinchi taxminlarda toponim haqidagi ishonchli dalillar bilan asoslanilgan sara ilmiy fikr hamda mulohazalar berilgan.

AXSI // Axsi (Nam. v. Uychi t. q.) - toponimi haqida quyidagi taxminiy fikrlar bor:

1. U turli fonetik o‘zgarishlarga” uchragan joy nomlaridan biri. H. Hasanov «”Boburnoma”da XY-XY1 asrlardagi jop nomlari o‘sha davr talaffuzi va yozilishida berilgan bo‘lib, etimologik izohlar, taqqoslar juda ko‘p» deb, Boburning: “*Axsini kitoblarda Axsikat bitirlar*” degan fikrini ko‘rsatgan¹. Ushbu gapda H. Hasanov aytgandek, ushbu joy nomining etimologik izohi yo‘k, balki mazkur toponim haqida qisqa ma’lumot bor, xolos.

2. Bu joy nomini XI asrda cho‘loqlandi, oqsoq ma’nosida qo‘llangan axsadi so‘zining o‘zgargan shakli deyish o‘rinli: axsadi > axsa > axsi². Fonetik tamoyilga asosan bunda a > i fonetik o‘zgarishi ro‘y bergach³, hosil bo‘lgan axsi so‘zi toponimlashuv hodisasining bir ko‘rinishi bo‘lgan onomastik konversiya tufayli apellyativ leksika sathidan onomastik leksika sathiga ko‘chib, obektning nomini ifodalay boshlagan: axsi > **Axsi**. Toponimga asos bo‘lgan *axsadi* // *axsa* so‘zi turkiy tillarda *aqsa*, *ag’sa* shakllarida qo‘llanadi⁴. Bu esa toponimning etimologik tahlilida morfologik tamoyil va rekonstruksiya usuli qo‘llanganligini tasdiqlaydi.

3.S. Qoraev bu toponimning «**Axsikat** shakli sug‘d tilida «Oq shahar» demakdir»⁵ deydi. Bu degani toponim sug‘dcha degani emas. Balazuriy asarida (ushbu asar haqida ma’lumot berilmagan⁶) keltirilgan **Xshikat** toponimi, bizningcha, Axsikat toponimining noto‘g‘ri o‘kilishi oqibatidir. Mazkur toponim XII asrda **Axsikat** shaklida qo‘llangan⁷. Oldingi davrlarda yo‘l yurish uchun asosiy vosita ot bo‘lganligini

¹ Ҳасанов Ҳ. Ер тили. -Т., Ўқитувчи, 1977. 12-бет.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.276-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.71.

³ Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнфуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 384-бет.; Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.10.

⁴ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Об-щетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974.с.123.

⁵ Қораев С. Тошкент топонимлари. -Т., Фан, 1991.29-30-бетлар.

⁶ Қораев С. Тошкент топонимлари. -Т., Фан, 1991.29-30-бетлар.

⁷ Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX- начала XIII вв. -Т., Ўзбекистон, 1996. С.111.

e'tiborga olinsa, bu topoobekt oqsoqlanib, cho'loqlanib qolgan otlarni yaxshi otlarga almashtirish joyi bo'lган. Mana shu jarayon joy nomining shakllanishiga ekstralivingistik omil sifatida ta'sir ko'rsatgan.

Demak, toponimning etimoni “*oqsoqlanib qoldi, cho'loqlanib qoldi, arang yuradi*” kabi ma'nolarni o'zida ifodalagan *axsa* so'zi sanaladi. XU-XU1 asrlarda toponimga *kat* indikatori qo'shilgan¹, bugungi kunda u *kat* indikatorisiz qo'llanmokda: **Aksi**. Ushbu joy nomini etimologik tahlil qilishda fonetik va morfologik tamoyillar bilan birga diaxron hamda rekonstruksiya usullaridan ham foydalanildi.

B

BALIQCHI // Baliqchi (Andijon v.sh. va t.) toponimining kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminlar bor:

1. Ushbu toponim baliqchilik bilan shug'ullanuvchi kishilar yashaydigan joyga nisbatan qo'yilgan nom, degan fikr bor: *baliq* > *baliq+-chi* > *baliqchi* > **Baliqchi**. Uning etimoni baliqchilik bilan shug'ullanuvchi degan ma'noni anglatadigan *baliqchi* yasama so'zidir.

2. “**Baliqchi** – o'rta asrlarda tilga olingan qabilalardan biri. Qirg'izlarning mendi, saruu qabilalari tarkibida, tuvaliklarda, turkmanliklarning ersari qabilasi tarkibida *baliqchi*, boshqirdlarda *baliqsi* urug'i qayd qilingan. Baliqchi, Chust tumanlarida **Baliqchi** qishloqlari bor. Balikchi «*baliq tutuvchi*» yoki «*shahar qo'riqchisi*», «*shaharlik*» ma'nosidadir².

3. Toponimdagи *baliq* so'zi O'rta Osiyo hududidagi toponimlar tizimida *shahar* ma'nosida qo'llanadi³. **Baliqchi** > baliqchi > **Baliqchi** shaklida yuzaga kelgan baliq so'ziga -chi topoformanti qo'shilishi bilan etnonim yuzaga kelgan. Ya'ni bu so'z (baliq) avval shahar ma'nosini bildirgan. Keyinchalik so'z *baliq+chi* holatiga kelgach, shu shaharda yashovchilar bir etnonimga aloqadorlikni hosil qilishgan, ya'ni *baliqchi* etnonimi yuzaga kelgan. Etnonimdan obektni nomlash ehtiyoji tufayli, ya'ni toponimlashuv jarayonida apellyativ leksikadagi *baliqchi* yasama so'zi ushbu joy nomini hosil qilgan. Shuning uchun ham toponimning etimoni *baliqchi* ko'rinishidagi yasama so'z etnonim hisoblanadi. Xullas, mazkur toponim turkiy urug'lardan biri bo'lган

¹ Ҳасанов Ҳ. Ер тили. -Т., Ўқитувчи, 1977. 12-бет.

² Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 68-бет.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 22-24-бетлар.

baliqchi urug‘i yashagan joy degan ma’noni ifodalaydi, ya’ni etnotoponimlardan biri sanaladi.

Demak, bu toponimning shakllanishi to‘g‘risidagi birinchi taxmin sodda, xalqona etimologik tahlil bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi taxminlar esa ilmiy etimologiyaning toponimik tahlil jarayonidagi ifodasidir.

BAXMAL // Baxmal (Jiz. v. tuman va tog‘; Sur. v. Sho‘rchi t. q.) toponimining shakllanishiga oid farazlar bor:

1. Toponimning birinchi ma’noli qismini «*toklar o’sgan joy*» ma’nosidagi *bog*¹ so‘ziga bog‘lash mumkin, ikkinchi ma’noli qismi bo‘lgan *mal* tovush o‘zgarishiga uchragan: *n* > *l* (*man* > *mal*). Birinchi va ikkinchi ma’noli qismlar orasida izofa qo‘llangan: *bag*‘+*man* > *bag*‘*iman* > *baxman* > **Baxmal**. Uning etimoni - *bog*‘*iman* so‘zi.

2. S. Qoraev «Toponim «*duxoba*» ma’nosidagi *baxmal* so‘ziga hyech dahli yo‘q» deb, bu joy nomining qaerlarda uchrashini aytgan². “**Baxmal** – duxoba, baxmal; baxman urug‘i nomining talaffuz shakli”³.

3. Uni T. Nafasov Qashqadaryo viloyati qovchinlarining kichik bir tarmog‘i (*baqman* - *boqmon*)ning nomiga bog‘laydi va etnonim oykonimga o‘tgan deydi⁴, ammo bu fikrini asoslaydigan dalilni qayd etmagan.

4. Joy nomining shakllanishida *bog’lanmoq* (*bag‘lanmoq*)⁵ so‘ziga ishora bor: *bag’lanmoq* > *bag’lan* > *baqlan* > *baxlan* > **Baxmal**. Unda *l* va *n* undoshlari o‘zaro o‘rin almashgan, *g‘* undoshi *q* undoshiga, so‘ngra *q* undoshi *x* undoshiga o‘zgargan⁶: *g‘* > *q* > *x*. Uning etimoni *bag’lanmoq* so‘zi sanaladi.

5. Toponimning shakllanishi *bag‘lam* (*bog‘lam*)⁷ so‘ziga aloqador: *bag‘lam* > *baqlam* > *baxlam* > **Baxmal**. So‘z tarkibidagi *g‘* undoshi tovush o‘zgarishlariga uchrab, *q* undoshiga, so‘ngra *q* undoshi *x* undoshiga o‘zgargan⁸: *g‘* > *q* > *x*. Joy nomining ikkinchi ma’noli

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963. 166-бет.

² Қораев С. Географик номлар маъноси. -Т., Ўзбекистон, 1978. 34-бет.

³ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 18-бет.

⁴ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 28-бет.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 143-бет.

⁶ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 121-бет. Дўсимов З. Топонимлардаги фонетик ҳодисалар // ЎТА. -Т., Фан, 1970. 2-сон. -Б.80.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 142-бет.

⁸ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 121-бет.

qismida *l* va *m* undoshlari o‘zaro o‘rin almashgan: *lam* > *mal*. Toponimning etimoni *bag‘lam* (*bog‘lam*) sanaladi. Uning etimologik tahlilida fonetik tamoyil bilan birga diaxron va rekonstruksiya usullari amal qilgan. Bu joy nomi birinchi taxminda tokzor, ikkinchi hamda uchinchi taxminlarda (*baxman* va *baqman* - *boqmon* urug‘lari katta qabilaning kichik qismlari bo‘lgani uchun ham keng tarqalmagandir) etnonim nomiga *bog‘langan*.

To‘rtinchi va beshinchi farazlarda esa toponim *bag‘ladi* (*bog‘ladi*) so‘zi bilan aloqador. Tatar tilida bu so‘z bəyləddu so‘zi bilan ifodalanadi¹. Avval qo‘llangan *bag‘la* (*bog‘la*), *bag‘lan* (*bog‘lanmoq*), *bag‘lat* (*bog‘lat*) so‘zlari uning shakllanishiga *bag‘ladi* (*bog‘ladi*) so‘zi asos bo‘lganini tasdiqlaydi²: Haqiqatan ham, **Baxmal** toponimining obekti tog‘ bilan o‘ralgan. Bu esa uning etnonimga bog‘liq emasligini tasdiqlaydi. Mazkur nom avval toqqa nisbatan qo‘yilgan, keyin shu hududdagi aholi punkti nomiga berilgan. Ya’ni bu topoobektga nom qo‘yish nomlash jarayonining nisbiylik tamoyili asosida amal oshirilgan³.

BEGISH // Begish (Sam. v. Qo‘shrabott.; Qash. v. Kitobt. q.) - toponimining kelib chiqishi haqida uch xil taxmin mavjud:

1. Bu toponim *begning ishi* ma’nosini anglatadi: *begning ishi* > *begishi* > **Begish**. Bu holda qaratkich kelishigi qo‘shimchasi tushib qolgan va ikki so‘z birikib qo‘shma so‘zga aylangan. So‘ngra u toponimik leksika sathiga ko‘chgan.

2. Etnonimdan hosil bo‘lgan joy nomi: *begshi* > **Begish**. Qatag‘on urug‘ining bir bo‘limi **begish** deb atalgan⁴.

3. Odamlar “*Beglar yashagan joy*” ma’nosida topoobektga **Begish** deb nom berishgan: *beg+-ish* > *begish* > **Begish**. Bunda *beg* so‘zi bazi amaldorlarga beriladigan unvon, bunday unvonga ega bo‘lgan amaldorlar ma’nosini ifodalaydi⁵. -*ish* topoformanti ko‘plik ma’nosini bildiradi: *beg+-ish* > *begish* > **Begish**. Bu joy nomi toponimik derivatsiya jarayonida hosil bo‘lgan. Uning etimoni beglar ma’nosidagi *begish* yasama so‘zidir.

¹ Толковый словарь татарского языка. В трех томах. 1. А-Җ. -Казан, Татарское книжное издательство, 1977. –С.206.

² Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. –С.78.

³ Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик тамойиллари // ЎТА. -Т., Фан, 1984. 4-сон. –Б. 12-15.

⁴ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.30-бет.

⁵ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Шарқ, 1999. 97-бет.

Shu o'rinda T. Nafasovning ushbu toponim etnonimdan shakllangan etnotoponim degan fikriga qo'shilmaymiz¹. Bizningcha, yuqorida keltirilgan uchinchi fikrda asos bor: *beklar yashagan joyning shunday atalishi tabiiy*. Uning etimoni beglar ma'nosidagi *begish* yasama so'zi hisoblanadi.

BEKBERGAN // Bekbergan (QqR Shumanay va Qorao'zak t. quduk.) toponimining kelib chiqishito 'g'risida ikkita taxmin bor:

1. Bek degan odam bergen, tortiq qilgan ma'nosini anglatadi: *bek* > *bek+bergen* > **Bekbergan**. Bunda "quduq qazish uchun yer bergen" degan ma'no kelib chiqadi.

2. Bu gidronim uchta ma'noli qismdan iborat: *bek*, *ber*, *-gan*. Uning birinchi ma'noli qismi bek so'zi ot so'z turkumiga oid, ikkinchi ma'noli qismi esa ber fe'l o'zagi, unga *-gan* ko'rinishidagi sifatdosh formasi qo'shilgan. Ushbu ot+ sifatdosh shaklidagi predikativ birikma onomastik konversiya hodisasi ta'sirida toponimga ko'chgan: *bek ber+gan* > *bek bergen* > **Bekbergan**.

Bek so'zining ayrim turkiy xalqlarda feodalizm davridan meros bo'lib o'tgan unvon va shundap unvonli amaldor shaklidagi birinchi ma'nosisi² bermoq fe'lining qo'liga tutqizmoq, qo'liga yoki ixtiyoriga topshirmoq ko'rinishidagi avvalgi ma'nosisi³ ga mos tushgan. Shu holda so'z birikmasini hosil qilgan: *bek bergen*. "*Bek hadya qilgan, bek o'zi bergen*" degan ma'nolarni ushbu predikativ birikma ifodalagan. Bermok fe'li *-gan* qo'shimchasini olib, fe'lning tuslanmaydigan shakli bo'lgan sifatdoshni hosil qilgan: *bek ber+-gan* > *bek bergen*. Onomastik konversiya jarayoni tufayli ushbu predikativ birikma onomastik birlik bo'lib, toponimik xususiyatni o'zida ifodalagan: *bek bergen* > **Bekbergan**.

Joy nomining etimoni ot-sifatdosh ko'rinishidagi *bek bergen* predikativ birikmasi. Albatta, bu nomlanish obektning motivlanishi jarayonlari bilan bog'liq. Bu toponimning tahlilida tarixiy usuldan foydalanish o'rinli. Agar hozirgi kun nuqtai nazaridan sinxron usul qo'llansa, unda *bek* so'zi unvon, unvonli amaldor emas, balki kishi ismiga qo'shiladigan so'z ma'nosidagi leksik birlik bo'lib qoladi. Demak, birinchi almashinuv qonuni bilan apellyativ Isksikadagi *bek bergen* predikativ birikmasi toponimga aylangan va o'zining semantik

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 30-бет.

² Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Шарқ, 1999. 97-бет.

³ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Шарқ, 1999. 104-105-бетлар.

xususiyatlarini joy nomiga oid maxsuslashgan bir ma’no doirasida chegaralagan.

BESHTENTAK // Beshtentak (Sam. va Tosh. v. q.) toponimining shakllanishi va kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha farazlar mavjud:

1. Avvallari odamlar bir-biriga haddi siqqani uchun hazillashib chaqirish ma’nosida bir guruh vakillari ikkinchi guruh vakillarini chaqirishda “*besh tentak*” deyishgan.

2. Toponim ikki ma’noli qismdan iborat: besh, tentak. Ikkalasi ham topoassos hisoblanadi. Bular birikib oldin qo‘shma so‘zni, keyin etnonimlashuv jarayonida etnonimni, so‘ngra topominlashuv jarayonida etnotoponimni hosil qilgan: *besh+tentak* > *besh tentak* > **Beshtentak**. Demak, bu toponim etnonimdan shakllangan bo‘lib, **beshtentak** urug‘i vakillari yashagan joy degan ma’noni anglatadi.

Uning etimoni qo‘shma so‘z shaklidagi beshtentak etnonimi, etnonimning etimoni esa besh tentak qo‘shma so‘zi sanaladi. **Beshsariq** toponimi ham etnonim nomidan hosil bo‘lgan. Toponim ikki topoleksemadan tashkil topgan: besh, sariq. U quyidagicha shakllangan: *besh+sariq* > *besh sariq* > *beshsariq* > **Beshsariq**. Ikki so‘zning qo‘shilishidan, avval beshsariq etnonimi hosil bo‘lgan, so‘ngra etnonim toponimga ko‘chgan. Toponim *beshsariq* urug‘i vakillari yashagan obektning nomini ifodalab, etnotoponimlardan biri hisoblanadi. Uning etimoni *beshsariq* etnonimi, etnonimning etimoni esa *beshsariq* qo‘shma so‘zi hisoblanadi.

BIYASIG‘MAS // Biyasig‘mas (Qash. v. Deh. t. dara , eski qishlok) – oykonimining shakllanishining talqini bo‘yicha bir necha taxminlar bor:

1. Bu toponim chorvadorlar tomonidan yaratilgan. Ular yashaydigan joylari tor bo‘lgani uchun *biyasig‘mas* deb atashgan. Oldin bu birikma bir xonodon uchun aytilgan keyin butun qishloqqa shu birima nom bo‘lib qolgan.

2. Toponimi uchta ma’noli qismdan iborat: *biya*, *sig‘*, *-mas*¹. Bu toponimda ikkita topoleksema bor: *biya va sig‘moq*. Tabiiy geografik omilning ta’sirida, obektning nomlanish ehtiyoji bilan hamda toponimlashuv va toponimik derivatsiya oqibatida joy nomi shakllangan: *biya+sig‘ + -mas* > *biya sigmas* > **Biyasig‘mas**. Ungacha

¹ Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 49-,221-бетлар. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 157-,59- бетлар.

biya sig ‘mas ko‘rinishidagi predikativ birikma holatida bo‘lgan. *Biya so‘zi* bir ma’noga ega. Otning urg‘ochisi. Bu ma’nosи bilan ushbu so‘z *sig ‘moq* so‘zining *joylashmoq* ma’nosiga moslashgan. Sifatdoshning bo‘lishsizlik shaklini hosil qiluvchi -*mas* qo‘shimchasi bu predikativ birikmaning yuzaga kelishida vosita bo‘lgan.

Biya sig ‘mas predikativ birikmasi toponimikadagi birlamchi o‘tish qonuni asosida toponimga aylangan. So‘zsiz, bu yerda ham toponimik derivatsiya jarayoni bor. Hosil bo‘lgan joy nomining etimoni predikativ birikmaning ot+sifatdosh ko‘rinishidagi birikmaga oid: *biya sig ‘mas*. Bu yerda, albatta, ekstralivingistik omillardan biri bo‘lgan geografik omilning mavjudligini ta’kidlash shart.

BOYMOQLI // Boymoqli (Sur. v. Jarqo‘rg‘on t. va Jiz. v. G‘allaorol t. q.) toponimining kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor:

1.S. Qoraevning qayd etishicha, kemiruvchi hayvonlardan bo‘lgan sug‘urning bir turi *baybaq* (*baymoq*) deb atalgan¹. Bunda *b* > *m* tovush o‘zgarishi² ro‘y bergen: *baybaq* > *baymoq*. Demak, mazkur joy nomining etnonimi apellyativ leksikada kemiruvchi hayvon hisoblangan sug‘urning bir turi *baybaq* (*baymoq*) nomi bilan atalgan.

2. “*Baymoqli, boymoqli* – qo‘ng‘irotlar tarkibidagi urug‘lardan biri. *Baymoq* – oyoq yoki oyoq kafti egri, maymoq. Dasht kemiruvchilaridan sug‘urni qadimgi, turkiy tilda *baymoq* deyishgan – sug‘urning oyoqlari ham *maymoq* bo‘ladi.

Bu so‘z rus tiliga ham kirgan – *sug‘urning beso‘naqay yirik turini ruslar baybak* deyishadi. Boysun, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on tumanlarida **Baymoqli** qishloqlari bor”³, deb mulohazasini aytgan S.Qoraev. Lekin birorta dalilni keltirmagan.

3. Bizningcha, u ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan joy nomi: *baymoq* va -*li*. Birinchisi topoasos, ikkinchisi esa topoformantdir. Topoobekt nimalarga yoxud kimlarga qarashli ekanligini ko‘rsatish uchun etnonimning nomiga joy nomlarida ko‘p qo‘llanuvchi -*li* topoformanti qo‘shilgan hamda hosil bo‘lgan so‘z toponimlashuv jarayonida joy nomiga ko‘chgan: *baybaq* (*baymoq*)+*li* > *baybaq* (*baymoq*) *li* > *baymoqli* > **Baymoqli**. Uning etimoni etnonim nomiga -*li* topoformanti qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan *baybaq* (*boymoq*)li

¹ Қораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978. 38-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.40.

³ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 15-бет.

shaklidagi yasama so‘z. Shuningdek, bu etnonim nomi biron bir topoformantni qabul qilmagan holda ham mamlakatimiz hududida ham toponim bo‘lib keladi: **Baymoq** (Nam. v. Chust t. va Sam. v. Pastdarg‘om tumanida q.; Xorazm v. Xazorasp t. botqok joy). Mazkur toponim *baymoq urug‘i vakillari yashagan joy* ma’nosini beradi. Uning etimoni esa etnonimni hamda sug‘urning bir turini ifodalovchi *baymoq* (*baybaq*) so‘zi.

So‘zning ikki bo‘g‘indan iboratligi hamda har ikki bo‘g‘inning ham yopiq bo‘g‘indan iborat bo‘lishi, so‘ng esa ikkinchi bo‘g‘inning b undoshi bilan boshlanishi bu so‘zning *sug‘ur* ma’nosidagi baybaq so‘ziga alokador emasligini, agar aloqador bo‘lgan takdirda, uning yana boshqa qismlardan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni yo *bah-bah* ko‘rinishidagi undov so‘z bo‘lib, *q > y* va *h > h* o‘zgarishi ro‘y bergen yoki *barbaq* shaklidagi qo‘shma so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, *r > y* hamda *b > m* hodisalari sodir bo‘lgan.

Hatto, bu so‘z aslida *barmoq* so‘ziga aloqador bo‘lishi ham mumkin. Bu holda *barmoqli* so‘zi *barmoq+-li* shaklida yasalgan: *barmoq+-li > barmoqli > baymoqli > boymoqli* kabi. Undagi *r* undoshi *y ga*, *a* unlisi esa *o* unlisiga o‘tgan.

Bizningcha, bu so‘z aslida *boy+baq* qo‘shma so‘ziga aloqador. *Boy* va *baq* - umumturkiy so‘z. Birinchi so‘z otlashgan sifat, ikkinchi so‘z esa yedirmoq, to‘yg‘izmoq ma’nolaridagi baq fe’li. Ayniqsa, baymahli so‘zining *boy +bog+-li* ko‘rinishida bo‘lganligi ko‘proq ishonarli: *baybog‘li* (*bog‘li bay*) -bog‘i bor, *boqqa ega boy* > *baybaqli* > *baymaqli* shakliga kelgan. Keyin bu so‘z etnonimlashuv tufayli urug‘ nomiga aylangan va so‘ngra toponimlashgan: *baybog‘li* (*bog‘li bay*) -bog‘i bor, *boqqa ega boy* > *baybaqli* > **Boymoqli**.

BORSAKELMAS // Borsakelmas (QqRda Orol dengizidagi orol, sho‘rxok yerning nomi.) toponimi to‘rtta ma’noli bo‘lakdan tashkil topgan: *bor*, *-sa*, *kel*, *-mas*. Joy nomi tarkibidagi ikki o‘zak apellyativ leksikada faol qo‘llanadi. *-sa* shart mayli qo‘shimchasi, *-mas* esa sifatdoshning bo‘lishsizlik formasi bo‘lib, ular o‘zaklarga toponimik derivatsiya hodisasidan oldin qo‘shilgan. Ular toponimik direvatsiya tufayli toponimga aylangan.

Ushbu toponimning boshqa joy nomlaridan farqi:

- a) unda uyushiq kesim mavjud (*borsa- kelmas*);
- b) birinchi ma’noli qism shart mayli shaklini olgan;

v) ikkinchi ma'noli kism esa sifatdoshning inkor shakli *-mas* topoformanti bilan ifodalangan.

Mazkur toponim predikativ birikma qolipli topominlarning boshqa turlaridan tubdan farq qiladi. Bu joy nomi bir nomning bir necha topoobektga nom bo'lishiga misol bo'ladi. Mamlakatimiz mikrotoponimlar tizimida ham ular uchrab turadi. Ular Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz va Yakkabog' tumanlarida, shuningdek, Surxondaryo viloyatining Denov tumanida ham odam yashamaydigan yer ma'nosida mavjud.

Nutqda hazil tarzida aytildigani *borsa kelmas* shaklidagi predikativ birikmaning qo'llanishini ham tez-tez kuzatish mumkin. Bu birikma onomastik konversiya jarayonidan so'ng bir butun holatda toponimga o'tgan. To'g'ri, turli tumanlarda kishilar ba'zi bir joylarni o'zlaricha **Borsakelmas** deb atashlarining guvohi bo'lganmiz. Masalan, Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani va Surxondaryo viloyati Denov tumanida bunday nomlanish holatga duch kelindi. Biroq ular hali mikrotoponim ham emas, chunki o'sha yerda yashovchilardan ushbu kichik obektlarning nomlarini bir xil tarzda atashlari talab qilinadi.

Bor so'zining mavjudlik ma'nosи, *kel* so'zining birinchi ma'nosи bo'lgan kelish va yurish, so'zlovchi ko'rsatgan joyga borish ma'nosи¹ *borsa kelmas* predikativ birikma tarkibida mavjud. Bu apellyativlardan shakllangan toponimdan borsa kelmas ma'nosи anglashilib turibdi. Albatta, bu toponim ancha oldin yaratilgan, aniqrog'i, XIX asrning oxirigacha bo'lgan davrda yaratilgan. Bugungi kunda bunday salbiy ma'no anglatadigan joy nomlari kam. Oldingi davrlarda, texnika rivojlanmagan vaqlarda uzoq joylarga ketganlarga kinoya qilib, *borsa kelmasga ketishdi* iborasi ishlatilgan. Ammo vakt o'tishi bilan geografik omillardan bo'lgan botqoqlik va yomon yo'llar tugatilgan. Nom qo'yishga asos bo'lgan geografik omillar ta'sirida shakllangan predikativ birikmaning toponimga aylanishida nomlanish jarayoni bilan bog'lik bo'lgan toponimik derivatsiya hodisasi uning nomlanishida asosiy vazifani bajargan.

Bormoq so'zi so'zlovchi yoki kuzatuvchining turgan joyidan, nazaridan uzoqlashmoq, manzil tomon harakat qilmoq, jo'namoq, yo'l olmoq² ma'nolari kelmas so'ziga birikib, gap qolipli birikmani yuzaga

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 130-131-, 337-338-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 132-бет.

keltirgan: *borsa kelmas*. Uning tarkibidagi fe'lning shart mayli qo'shimchasi -sa va sifatdoshning bo'lishsizlik shaklini hosil qiluvchi -mas qo'shimchalarining predikativ birikma hosil qilishdagi roli katta. Ular tufayli ikki o'zak morfema birlashib, predikativ birikmani hosil qilgan: *bor+sa+kel+-mas* > *borsa kelmas* > **Borsakelmas**.

Shu predikativ birikma birinchi ko'chish qonunining amalda bo'lishi bilan, nomlanish talabi va toponimlashuv jarayoni vositasida obektning nomiga aylangan, ya'ni onomastik leksika satxiga ko'chgan: *borsa kelmas* > **Borsakelmas**. Uning etimoni - predikativ birikma ko'rinishidagi *borsa kelmas* birikmasi. Orol dengizidagi **Borsakelmas** oroli ham e'tiborga olinsa, ushbu toponim ikkita obektning nomi bo'lib, salbiy ma'noni ifolalagan. Tarixdan ma'lumki, Xorazm xoni XII asrda mo'g'ullardan bir necha baravar ustunlikka ega bo'lган qo'shini bo'lган holda noto'g'ri siyosat yuritib, mag'lub bo'ladi va mana shu orolda dushmanidan bekinadi. Shu sababli bu joy nomi kam obektli toponimlar sirasiga kiradi.

BUZUQLI // Buzuqli (Sam. v. Kattako'rg'on t. tepe, q.) toponimning shakllanishi to'g'risida quytdagi taxminlar mavjud:

1.Bu toponim ikkita ma'noli qismdan iborat: *buzuq*, -li. *Buzuq* so'zi *buz* fe'lidan -uq qo'shimcha si bilan yasalgan: *buz+uq* > *buzuq*¹ Ushbu so'z asosida oykonim yasalgan. Binobarin, mazkur so'z toponim tarkibida yurib bo'lmaydigan joy, ya'ni qisman salbiy ma'noni anglatgan.

2.B. O'rinoev bu toponimni yurib bo'lmaydigan tik yon bag'rdagi joy deb ko'rsatgan². Sababi, bunday nomlangan obekt tog'li hududda joylashgan qishlokdir. ~li topoformanti esa xususiyatga tegishlilik, ega bo'lganlik ma'nosini ifodalab, buzuq so'ziga birikib kelgan: *buzuq-li* > *buzuqli*.

Hosil bo'lgan yasama so'z toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida apellyativ leksika satxidan onomastik leksika sathiga ko'chgan: *buzuq+-li* > *buzuqli* > **Buzukli**. Demak, toponim *yurib bo'lmaydigan tik joy* ma'nosini ifodalaydi. Uning etimoni esa *buzuqli* shakliga ega bo'lgan yasama so'z sanaladi. Joy nomi to'g'risidagi ikkala taxmin bir-birini ma'lum ma'noda to'ldirib borgani uchun bir mukammal ilmiy tahlil yuzaga kelgan.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.65-бет.

² Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. -С., 1997.32-бет.

BULUNG‘UR // Bulung‘ur (Sam. v. t.) toponimining kelib chiqishi haqida uchta taxminiy faraz bor:

1. Mahalliy aholining aytishicha, ushbu toponim «*koyish* va *qarg‘ash*» ma’nosidagi *bo‘lingur* so‘zi asosida shakllangan: *bo‘linib ketgur* > *bo‘linib ketgur* > *bo‘lingur* > *bo‘ling‘ur* > **Bulung‘ur**. Bu holda o‘ > u, i > u shaklidagi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergen va birikmadagi –ib, ket bo‘g‘inlari talaffuz jarayonida tushgan.

2. *Bulturgi* so‘zi fonetik o‘zgarishga uchragach, *oldingi* joy ma’nosidagi shu toponim shakllangan: *bulturgi* > *bulung‘ur* > **Bulung‘ur**.

3. Toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *burun*¹, *g‘ur(kir, xur, xir)*. Mazkur ikki topoleksema birikkanda, r undoshi l undoshiga almashgan (r > l)² va toponimik derivatsiya jarayonida hosil bo‘lgan yasama so‘z toponimga ko‘chgan: *burun+g‘ur* > *burung‘ur* > *bulung‘ur* > **Bulung‘ur**. Uning ma’nosini B. O‘rinboev *uzunasiga ketgan yassi tog‘ning burchagi* deb ko‘rsatadi³.

Bu fikrga qo‘shilamiz: «*Bulun (burun, burung) burchak, oxir, chegara*» ma’nolarini, *g‘ur (kir, xir, xur)* so‘zi «*tog‘ yon bag‘ridagi tik soylik, tog‘ etagi, tog‘ qirrasi*» kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ushbu toponim so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z va toponimik derivatsiya jarayonini boshidan kechirib, joy nomiga aylangan: *burun+g‘ur* > *burun g‘ur* > *burung‘ur* > *bulung‘ur* > **Bulung‘ur**. Uning etimoni *bulun (bulung) g‘ur* so‘z shaklidir. Urgut shevasida *burun – bulun – bulung* so‘zi «*burchak*» ma’nosini ifodalaydi⁴. Buni janubiy Qirg‘iziston toponimiyasida xuddi shu ma’noda qo‘llanuvchi *bulung* topoleksemasi tasdiqlaydi⁵. Uning etimoni *burun g‘ur* shaklidagi birikma bo‘lib, to‘plangan toponimlar ichida bir marta uchradi. Mazkur toponim geo va gidronimik xususiyatlarga ega bo‘lgan joy nomlaridan biridir.

BURCHMO‘LLA // Burchmo‘lla (Tosh. v. Bo‘stonliq t. q.) toponimining etimologik tahlili bilan uning etimoni ham bahsli va unutilgan jarayon nomi ekanligi ko‘rsatildi. Toponim haqida ikkita taxmin bor:

¹ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.86; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 70-бет.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 74-бет.

³ Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. -С., 1997. 33-бет.

⁴ Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. -С., 1997.33-бет.

⁵ Конкобаев К. Топонимия южной Киргизии. -Фрунзе, Илим, 1980. -С.52,147.

1. Toponim ikki ma'noli qismdan tashkil topgan: *burch*, *mo'lla*. Undagi *mo'lla* - so'zi *mulla* so'zining o'zgargan shakli. Bu joy nomi «*burchli mulla*» degan ma'noni beradi: *burchli* + *mulla* > *burchli mulla* > *burchmulla* > **Burjmo'lla**. Mazkur toponimda u > o' fonetik hodisasi ro'y bergan. Ammo toponimning ma'noli qismlariga qarab, «*burchli mulla*» degan ma'noni anglatadi deyish, bizningcha, xalq etimologiya sanaladi.

2. Oykonim ikki ma'noli qismdan iborat: *burj*, *mo'lla*. *Burj* so'zi «*qal'a, qo'rg'on devori bilan tutashgan kuzatuv binosi*» ma'nosini ifodalaydi¹. *Mo'lla* so'zi toponim uchun lug'aviy asos bo'lgunga qadar asli *mo'la* shaklida bo'lgan. U lug'aviy asos sifatida tanlangach, bir l undoshi orttirilgan: *mo'la* > *mo'lla*. T. Nafasovning qayd etishicha, *mo'la* - *tuproq uyib, chim yo g'isht (tosh) qalab, baland qilingan so'risimon joy*. *Mo'la* - *kuzatish, qo'riqlash, xabar berish obekti*². Agar *mo'la* lug'aviy asosining yuqoridagi ma'nolari e'tiborga olinadigan bo'lsa, u holda harbiy termin sifatida qo'llanadigan *mo'ljar* so'zi ham u bilan ma'no jihatdan bog'liq: «*xandaq oldidagi tuproq uyumi*»³. Ehtimol, *mo'ljar* apellyativi fonetik o'zgarishlarga uchrab, *mo'la* shakliga kelib qolgan: *mo'ljar* > *mo'lja* > *mo'la*. O'rganilayotgan lug'aviy asos tarkibidan talaffuz vaqtida avval r undoshi, so'ngra j undoshi tushib qolgan.

Bizningcha, *burj* so'zi *mo'lla* so'zidan keyin toponimga qo'shilgan. Arablar bu obektga yetib kelishgach, uning «*kuzatish, qo'riqlash, xabar berish obekti*» ma'nosidagi *mo'lla* so'zi ekanligini tushunib-tushunishmay, uning arabcha ko'rinishi bo'lgan *burj* so'zini ham birgalikda qo'llashgan: *burj* + *mo'lla* > *burj mo'lla* > *burchmo'lla* > **Burjmo'lla**. Uning shakllanishi jarayonida j tovushi *ch* tovushiga o'tgan: *j* > *ch*⁴.

Toponimdagagi ikki lug'aviy asosning ma'nolari bir-birini to'ldirib, *qo'riqlash va kuzatish punkti bo'lgan harbiy inshootni bildiradi*. Mazkur topoobektning tog' o'rtasida joylashishi ham u ifodalayotgan toponimik ma'noga zid emas. Shuning uchun ham **Burjmo'lla** toponimi oldingi

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-том.-Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. 254-бет.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 134-бет.

³ Дадаев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. -Т., 2003. 91-бет.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. С.53.

davrlarda «*qurilgan kuzatish, qo'riqlash punkti joylashgan joy*» ma'nosini anglatgan. Demak, uning etimoni *burj* va *mo'la* lug'aviy asoslarining birikishidan hosil bo'lgan *burj mo'la* birikmasi hisoblanadi. Xullas, bu toponim xalqimiz qadimdan himoya – qo'riqlash tizimiga e'tibor berganligini asoslab turibdi.

D

DANG‘ARA // Dang‘ara (Far. v. shahar va t.) - toponimi kelib chiqishi haqida **bir necha taxmin bor**. Xalq vakillari mazkur toponimning kelib chiqishini quyidagi tarzda talqin qilishgan:

1. **Dang‘ara** (Far. v. shahar va t.) bilan **Dong‘ara** (Jiz. v. Baxmal t. q.) toponimlarini farqlamaslik natijasida ikkalasi ham so‘g‘d tiliga oid deyilgan faraz ham bor¹. Bu mulohazaning assoslari yo‘q.

2. Joy nomi *dang* va *g‘ara* ma’noli qismlaridan tashkil topgan. *Dang* so‘zi tarkibida ng tovushi adabiy tilda *n* shaklida yoziladi. Toponimning ikkinchi kismi bo‘lgan **g‘ara** so‘zi esa qara so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli: *qara* > *g‘ara*. Bulardan anglashilib turibdiki, toponim lol bo‘lib qol, *dong* *qot* ma’nosidagi *dang* harat-holat birikmasidan shakllangan: *dang+qara* > *dang qara* > *dangqara* >*dang‘ara* > **Dang‘ara**. Uning etimoni hayratdan es-hushini yo‘qotib, *qotib* *qolmoq* ma’nosidagi *dang qara* birikmasi hisoblanadi.

3. Kishilar bu toponimni *dan* (*don*) va *g‘ara*(*g‘aram*) so‘zlarining birikishidan kelib chiqqan deb izohlashadi: *dan+g‘aram* > *dan g‘ara* > *dang‘ara* > **Dang‘ara**. Bunda *don*, aniqrog‘i, g‘allaning *g‘aramlanishi* e’tiborga olingen va ikkinchi so‘zning oxirgi tovushi bo‘lgan m undoshi tushgan. Biroq hamma yerda g‘allaning *g‘aramlanishi* shu tarzdaligini hisobga olinsa, bu fikr ham xalk etimologiyasining bir ko‘rinishi ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

4. Mazkur toponim haqida A. Devonaqulov ham munosabat bildirib², uning paxdoviy tilidagi *dan* va *gara* shaklidagi ikkita so‘zdan tashkil topganligini aytib, dap so‘zi *xursandlik*, *namoyish qilmoq*, *harakat qilmoq* ma’nolariga egaligini, «Avesto»ning sharhlarida esa *azim hayot*, *katta ulug‘*, *bilmoq*, *tanishmoq* deb izohlanganligini ko‘rsatgan. Muallif *g‘ara* (*g‘arr*, *g‘ard*) so‘zining *yer yorig‘i*, *yerning*

¹ Алмаматов М. Тил тарихи дарсларида топонимик материаллардан фойдаланиш // Ўзбек тили ва адабиёти таълими. 2002 йил. 6-сон. 13-бет.

² Девонақулов А. Асрори номҳои кишвар (Тайны сокровенных наименований). -Душанбе, Ирфон, 1989. 101-107-бетлар.

*balandu qattiq yo‘li, qilich dami, yog‘och uy, zamon, xushbo‘y giyoh, shahar nomi kabi ma’nolari borligini, ikkala ma’noli kismlar birlashib, joy nomini hosil qilgani uchun ma’rifat joyi, ilm joyi, hayot makoni, vatani muazimin, ulug‘larni asrovchi, duoxonlar vatani degan ma’nolarni anglatishini qayd etgan¹: dan gara > dan gara > dangara > **Dangara**. Uning etimoni *dan g‘ara* birikmasi sanaladi.*

5. Toponim ikkita ma’noli qismidan tashkil topgan: *dan, g‘ara*. *Dan* so‘zi aslida *dana* tarzida bo‘lgan². Uning ma’nosи bilimli, dono demakdir. Toponimning ikkinchi ma’noli qismi bo‘lgan g‘ara so‘zi oldin qara shaklida bo‘lgan: *qara* > *g‘ara*. Ushbu so‘zda *q* > *g* shaklidagi fonetik o‘zgarishi ro‘y bergen³. Mazkur ikki so‘zning birikishidan «*dono, bilimli odamga qara*» ma’nosidagi so‘z birikmasi, so‘ngra qo‘shma so‘z hosil bo‘lgan: *dana~-ga* + *qara* > *danaga qara* > *dang‘ara*.

Dana so‘zidagi ikkinchi a tovushi ikki so‘zning birikishi natijasida tushib qolgan. Hosil bo‘lgan ko‘shma so‘z onomastik konversiya jarayonida toponimga ko‘chgan: *dangara* > **Dang‘ara**.

Toponimning kelib chiqishi haqida yuqorida aytilganlarni e’tiborga olsak, to‘rtinchi faraz asosli. Sababi, bu taxminda berilgan fonetik o‘zgarishlar turkiy tillar uchun doimiy va odatiy hol. Bundan ko‘rinib turibdiki, toponim quyidagi tarzda shakllangan: *dana+-g‘a+qara* > *danag‘a qara* > *dang‘ara* > **Dang‘ara**. Bu joy nomining etimoni *dono, bilimli odamga qara* ma’nosidagi *donoga qara* birikmasi. Bizningcha, toponimning uchinchi taxminidagi ma’rifat joyi,shm joyi, hayot makoni, vatani muazimin, ulug‘larni asrovchi, duoxonlar vatani ma’nosи to‘rtinchi farazdagи dono, bilimli odamga qara ma’nosiga mazmunan sinonim bo‘lib kelgan, ya’ni qadimdan bilim va ma’rifatga jiddiy e’tibor berilgan. Bu fikrlar O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti yurtboshimizning “*Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma’rifatdir*”, - degan⁴

¹ Девонақулов А. Асрори номҳои кишвар (Тайны сокровенных наименований). -Душанбе, Ирфон, 1989. 103-107-бетлар.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.158.

³ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.с.76; Маҳмудов Қ. Қадимги Туркистон. -Т., Ижод дунёси, 2003.138-бет; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 74-, 76-бетлар.

⁴ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. 7-бет.

fikrlariga hamohangdir. Demak, uchinchi hamda to‘rtinchi taxminlar bir-birini mazmunan to‘ldirgan

DUXCHI // Duxchi (Sam. v. Sam. t.; Qash. v. Shah. t. q.) joy nomining kelib chiqishi haqida ikkita taxmin mavjud:

1. Toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *tug* ‘> *tug* > *tux+-chi* > *tuxchi* > *duxchi* > **Duxchi**. Bayroq so‘zi turkiy tillarda *to* ‘ // *tug* so‘zi bilan ataladi¹. To‘ // *tug* so‘zi fonetik o‘zgarishlarga uchrab, *t* > *d*, *g* > *x*² o‘zgarishlari natijasida *dux* so‘zi paydo bo‘lgan: *tug* ‘> *dug* > *dux*. Unga -chi qo‘srimchasi qo‘silib, bayroq dor ma’nosidagi *duxchi* so‘zi yuzaga kelgan: *dux+-chi* > *duxchi*. Ushbu so‘z topominning etimoni. Unda fonetik tamoyil amal qilgan. Hosil bo‘lgan *duxchi* so‘zi etnonimlashuv hodisasi natijasida apellyativ leksikadan onomastik leksikaga o‘tib, etnonimning nomini bildiradi: *duxchi* > *duxchi*. So‘ngra bu etnonim onomastik konversiya tufayli topominiga ko‘chgan: *duxchi* > **Duxchi**. Uning etimoni esa bayroq dor ma’nosidagi *tuxchi* so‘zi.

2. Bu topomin bir ma’noli qismdan iborat: *tuxsi*. T. Nafasov uni *tuxsi* etnonimining fonetik o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi, deb³ ko‘rsatgan: *tuxsi* > *tuxchi* > *tuqchi* > *duxchi* // *duqchi*. Bunda *s* undoshi *ch* undoshiga o‘tgan: *s* > *ch*⁴. So‘ngra onomastik konversiya jarayonida etnonim topominik leksika sathiga ko‘chib, joy nomini hosil qilgan: *Duxchi* > **Duxchi**. Uning etimoni *tuxsi* etnonimi hisoblanadi. Ushbu topominning shakllanishiga etimon asos bo‘lgani uchunetnotopomin xisoblanib, bayroq dorlar va *duxchi* qabilasi vakillari yashaydigan joy degan ma’noni ifodalaydi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, ikkala taxmin ham bir-birini to‘ldiradi. **Duxchi** topominiga qachon duch kelsak, ozodlik hamda mustaqillik uchun kurashchilardan biri bo‘lgan *Dukchi eshon* qo‘zg‘oloni esga tushaveradi.

Y

YERQOCHGAN // yerqochgan (Jiz. v. Do‘stlik t. maydon va joy. Toshkent sh. joy nomi) topominining kelib chiqishi haqida quyidagi taxminlar bor:

¹ Мұхаммад Фиёсүддин. Фиёс ул-лугот. Жилд 1. -Душанбе, Адиб, 1987. 158-бет.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.74-, 77-бетлар; Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.37; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 121-,140-бетлар.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.66-бет.

⁴ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004. 74-бет.

1. Oldinlari odamlar o‘zлari dehqonchilik qilayotgan yerkarni o‘lchashda turli kamchilikka yo‘l qo‘yishgani uchun yer qochgan iborasini qo‘llashgan. Keyinchalik bu ibora shu joyning nomining aylangan. Bunda toponim agroonimlardan biri sanaladi.

2. Toshkent shahrida 1966 yilda bo‘lgan zilzilaning markazi xalq tilida ham shunday nomlangan. U jarlik va alohida obektning nomi. Mazkur predikativ birikma uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *yer*, *qoch*, -*gan*. Toponim predikativ birikmadan shakllangan: *yer qochgan*. Tabiiy hodisalardan biri bo‘lgan zilzila tufayli yerning silkinishi natijasida unda katta yoriqlar paydo bo‘lgan. Ushbu toponimning nomlanishiga zilzila bo‘lmish geografik omilning, ya’ni ekstralivingistik omilning ta’siri seziladi. Shuning natijasida nomlanish zaruriyati va toponimning motivlanish talabi bilan oldin predikativ birikma yuzaga kelgan. So‘ngra esa u toponimga aylangan: *yer+qoch+-gan* > *yer qochgan* > *yer qochgan* > ***yerqochgan***. Ushbu toponim birinchi ko‘chish qonuni asosida nomlanish talabi bilan boshqa obektlarga ham nom sifatida qo‘llangan.

Toponimning etimoni *yer yorilib ketgan* ma’nosida qo‘llanuvchi *ot + sifatdosh* ko‘rinishidagi predikativ birikma: *yer qochgan*. *yer* so‘zining sakkizinchи ma’nosи¹ (biror punktdai naridagi joy) qochmoq so‘zining ikkinchi ma’nosи² (biror tomonga yo‘l olmoq, nari ketmoq, biror joydan uzoqlashmoq) bilan birgalikda mazkur predikativ birikmani hosil qilgan: *yer+qoch+~gan* > *yer qochgan*. Toponimik derivatsiya hodisasi tufayli bu predikativ birikma obektning nomiga aylangan.

YETTIKECHUV // yetti kechuv (Sur. Sho‘rchi t.; Qash. v. G‘uzor t. daryodan o‘tish joyi) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir qancha fikr-mulohaza bor:

1. Agar sheva vakillari gap bo‘laklarini aralashtirib qo‘llshlarini hisobga olsak, **yetti kechuv** topogidronimi : “*kechuvga yetib keldi*”, degan ma’noni ifodalash haqida sho‘a yerda o‘sha yerda yashovchilar gapirib berishgan.

2. Toponimi uchta ma’noli kismdan tashkil topgan: *yetti*, *kech*, ~*uv*³. *yetti* so‘zi miqdor sonni bildiradi. *Kech* payt va harakatni bildiradigan omonim so‘z bo‘lib, harakat ma’nosidagi *kech* so‘zi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 248-249-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 606-бет.

³ Ўзбек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981. 69-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 251-, 384-бетлар.

ko 'priksiz joydagi suvdan o 'tadigan sayoz joy ma'nosini ifodalaydi¹, -uv harakat nomi yasovchi qo'shimcha.

Apellyativ leksikada bu ma'noli qismlar faol qo'llanadi: *yetti + kech +uv > yetti kechuv > yetti kechuv*. Hosil bo'lgan predikativ birikma nomlanish talabi bilan toponimlashuv hodisasi ta'sirida onomastik leksikaga o'tib, mavjud obektlarni nomlash zaruriyati tufayli obektning nomi sifatida ishlatilgan: *yetti+kech+-uv > yetti kechuv > yetti kechuv > yetti kechuv*. Undagi yetti so'zi ko'plik ma'nosini ifodalaydi. Bu toponim kiishlar suv o'zanidan doimo o'tishi mumkin bo'lgan sayoz joyning ma'nosini anglatadi.

Ushbu toponimning etimoni *yetti+kech+-uv > yetti kechuv* predikativ birikmasi. Mana shunday predikativ birikma qolishsh toponimlar mamlakatimiz toponimlari tizimida juda kam qo'llanadi. Shuning uchun ham ularni bir obektli toponimlar sirasiga kiritish o'rinni. Mazkur toponimni ham shu guruhga kiritish lozim.

YOMCHI // Yomchi (Qash. v. Shah. t. Shakarteri qishloq kengashida q.) - topooykonimi ikkita ma'noli qismidan tashkil topgan: yom, -chi. Birinchi ma'noli qism bo'lgan yom so'zining qaysi tilga oidligi va kelib chiqishi ikkita faraz bor:

Avvalgi taxmin: birinchi ma'noli qism mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Pochta hamda bekat so'zlarining mo'g'ulcha ko'rinishi yom deyiladi. Bu so'zning pochta, bekat ma'nolarida ko'llanishini 1419-yildan to 1422-yil avgust oyigacha Hirotdan Xitoyga borib, elchilik qilib kelgan G'iyosiddin Naqkosh o'zining kundalik daftarida ko'rsatgan: "Yom yoki yomxona - elchilar, davlat xodimlarshing yo'l harakatlarida ot almashtirish va kerakli yaroqlarni hozirlash uchun tayin qilingan manzil"².

Keyingi taxmin: Mazkur so'z haqida yuqoridagi fikrlarni L. V. Dmitriev ham tasdiklab, mo'g'ul tilidagi yom so'zi, rus tilidagi yamshik so'zining pochta stansiyasi ma'nosini bu so'zdan tarakqiy etgan, deydi³. Yom (yom) so'zi tilimizda fonetik o'zgarishlarga uchragan holda ham, o'zgarishlarga uchramagan holda ham ishlatilgan: Yom // Jom. Fonetik o'zgarishlarga uchrab, ya'ni shevaning ta'sirida yom so'zi jom holatiga

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 206-бет.

² Ўринбоев А., Бўриев О. Фиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. -Т., Фан, 1991. 14-, 19-бетлар.

³ Дмитриев Л. В. Некоторые тюркские этимологии // Языки народов -Сибири. Кемерово, 1979. Вып. 3. -с. 37.

kelgan. Bunday fonetik hodisalarning bo‘lishi o‘zbek tilidagi kipchoq lahjasining xarakgerli xususiyatlaridan biri. **Yomchi qishlog‘i** Shahrисабз tumani hududidagi aholining shevasi qorluk laxjasining Qarshi guruhiga kiradi. Bu guruxdagi shevalarda va umuman bu lahjada j- lashish holati yo‘q.

Jom - yam - pochta stansiyasi viloyatlar o‘rtasidagi aloqa bekti, aloqa otlari boqiladigan, saqlanadigan joyi; *jomchi - jam-chi - yamchi* so‘zлари esa o‘sha yerlarda turli xizmatlarni qiluvchi kishi yohud otboqar ma’nolarida ishlataladi. Sababi, katta hududni bosib olgan mo‘g‘ullar o‘zaro aloqa uchun yo‘llar bo‘yida saroylar, bekatlar, himoya qal’alari barpo etishgan. *Yomchi* so‘zi O‘zbekistonning janubiy tumanlaridagi toponimlar tarkibida o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llangan. Toponimga asos bo‘lgan *yom* so‘zi -*chi* topoformantining qo‘shilishi natijasida yomchi ko‘rinishiga ega bo‘lgan hamda onomastik konversiya jarayoni tufayli oykonimga aylangan: *yom+-chi* > *yomchi* > **Yomchi**.

Yom so‘zi Aliyomchi (Bux. v. kanal), **Yomchi qishlog‘i** (Qash. v.), Yom kishlog‘i (Sir. v.) ko‘rinishlarda toponimlar tarkibida uchraydi. Bu hol ushbu so‘z vositasida yasalgan toponimlar ham yom so‘zining nafaqat apellyativ leksikada, balki onomastik leksikada ko‘p qo‘llanishini anglatadi. **Yom** so‘zi bekat, karvon saroy ma’nolarini ifodalaydi. **Yomchi** yasama so‘zi esa bekat, karvon saroylarda xizmat qiluvchi xizmatchi ma’nosini anglatadi.

Navbatdagi fikr - *yom* (*yom*) o‘zbekcha so‘z bo‘lib, katta, ulkan xum ma’nosini bildiradi¹. *Yom* (*yom*) so‘ziga -*chi* qo‘sishimchasi ko‘shilib, *yomchi* (*yomchi*) ko‘rinishidagi yasama so‘z hosil bo‘lgan. Bu so‘z xum qipuvchi degan ma’noni, *yom* so‘zi esa xumni bildirgan². Demak, *yomchi* (*yomchi*) so‘zi xum yasovchi degan ma’noni ifodalaydi.

S. Qoraev *yomchi* so‘zini saroy urug‘ining bir tarmog‘i deb ko‘rsatgan³. Ushbu fikrda ham asos bor - **Yomchi** qishlog‘i (Jiz. v. Forish t.) etnotoponimlar jumlasiga kiradi, ammo toponimga asos bo‘lgan etnonimning kelib chiqishi *karvon saroy xizmatchisi* degan ma’noga borib taqaladi. Urug‘ nomini anglatgan yomchi (*yomchi*) yasama so‘zi toponimning etimonini tashkil qilgan.

¹ Ўзбек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981.76-77-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.257-бет.

³ Қораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978.52-бет.

“**Yom** – bekat, pochta stansiyasi. Klassik mo‘g‘ul yozma tilida, shuningdek hozirgi mo‘g‘ul tili shevalarida *yom* so‘zi *jam*, *zam*, *yam* shakllarida uchraydi va «yo‘l» degan ma’noni anglatadi; mo‘g‘ullar imperiyasi davrida esa «pochta stansiyasi», «bekat» degan ma’noni bildirgan. *Yom* so‘zi yakutlar, ruslar, turklar, mo‘g‘ullar, xitoylar, anamitlar, tibetliklar kabi ko‘plab xalqlarning tillarida turli fonetik shakllarda uchraydi va hamma xalqlarda deyarli bir ma’noda keladi.

Yom so‘zi mo‘g‘ullarda XIII asrga kelib paydo bo‘lgan va turkiy tillarga o‘tib, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoda keng tarqalgan va usmoniy turklarga yetib borgan. L.Z.Budagov «Turkchataarcha shevalarning qiyosiy lug‘ati»: «Yom – chopar minadigan ot», yomchi – chopar (ruschasi *yamshik* so‘zi shundan kelib chiqqan).

V.V. Radlov «Turkiy shevalar lug‘ati tajribasi»: «Yom: 1) (uyg‘urcha) pochta stansiyasi; 2) (usmoniy turkcha, chig‘atoycha) «pochta otlari». Elchi va choparning bir bekatdan ikkinchi bekatga almashtirib, minib ketadigan otlari saqlanadigan joy *yomxona* deyilgan. Ruslarga *yam* termini turkiy tillardan *Oltino‘rda* orqali o‘tgan».

Yomlar chingiziylar davrida qurila boshlagan. Yom qurishga Chingizzonning kichik o‘g‘li Ugedey ayniqsa katta ahamiyat bergen. Masalan, Qoraqo‘rum shahridan Xitoyga boradigan yo‘lda har 5 farsaxda (tahminan 30 chaqirimda) bittadan hammasi bo‘lib 37 yom qurilgan, har bekatda 100 kishi xizmat qilgan. Har kuni shu yo‘ldan 500 arava oziq-ovqat keltirilib omborlarga to‘kilar edi.

Mo‘g‘ullar o‘zları bosib olgan boshqa hududlarda ham ko‘pdan-ko‘p yomlar qurbanlar. O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullardan keyin ham yomlar bo‘lgan. Masalan, Bobur Hindistonning Agra shahridan Afg‘onistondagi Kobul shahrigacha har 18 kuruh joyda (bir kuruh – 2 chaqirimga yaqin) bir yom qurdirgan.

Bu so‘zdan tarkib topgan toponimlar yozma tarixiy yodgorliklarda qayd qilingan. Samarqand atrofida bir necha *yom* bo‘lgan. Chunonchi, Siyob arig‘i yaqnidagi hozirgi Cho‘michli qishlog‘i XVII asrda **Yom** deb atalgan. «Boburnoma»da ham Samarqand atrofida **Yom** degan joy tilga olingan. Zomin tumanidagi **Yom** qishlog‘i ham qadimiy aholi punktidir. Eronda ham «**Yom**» degan joy bor.

Yomdan tashqari **Jom** degan joylar ham bor. Kattaqo‘rg‘on shahri yaqinidagi, Samarqand bilan Shahrisabz orasidagi **Jom** qishloqlarini, Samarqand viloyatidagi **Jom cho‘lini** aytib o‘tish mumkin. Bu ikkalasi bir so‘zning fonetik shakllaridir. Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining «Zafarnoma»sida, Muhammad Solih o‘zining «Shayboninoma»sida bu so‘zning har ikkala variantini ham ishlatganlar. Buyuk fors-tojik shoiri Abdurrahmon Jomiy dunyoga kelgan Jom shahri nomi ham o‘sha *yomning* o‘zginasidir.

Jizzax viloyatining Forish tumanidagi, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi, Buxoro shahri biqinidagi, Eron Ozarbayjonidagi **Yomchi** toponimlari yom otlarida «choparlik qiluvchi» yoki «yom xizmatchisi» demakdir. Rossiya Federatsiyasining yevropa qismi oblastlarida *yam* so‘zidan tarkib topgan bir necha toponim uchraydi. Naxchivon Respublikasida **Yomxona** degan qishloq bor. Bularning hammasi *yom* termini arealining naqadar keng ekanligini ko‘rsatadi. **Yomchi** – yomga xizmat qiluvchi bekat qorovuli”¹.

So‘nggi fikr - yuqoridagi fikrlardan anglashilib turibdiki, birinchi fikrdagi *yomchi* bilan keyingi fikrdagi *yomchi* o‘zaro omonimik birlik. Bu yerda pochta, karvonsaroylarda ishlovchilarning *yomchi* nomi bilan xum tayyorlovchi ma’nosidagi *yomchi* shakliy bir xillikka ega bo‘lgan, xolos. Binobarin, Toshkent, Samarkand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida uchrovchi *yom* qismli joy nomlarida karvon saroy yoki pochta stansiyasi xizmatchisi ma’nosni mavjud. Demak, Jomqishloq pochta stansiyasi yoxud karvon saroy joplashgan qishlok ma’nosini ifodalaydi (*jom qishloq*). Bu toponim tarkibida so‘z boshidagi *y* undoshi *j* undoshiga o‘tgani: *y > j*. **Jomboy - hamma narsasi bor**, *boy karvon saroy (jom boy)* va turkiy urug‘lardan birinshg nomi ma’nosidagi toponim. **Yomchi** - karvon saroy xizmatchisi va shu nomdagи urug‘ vakillari yashagan joy ma’nosini bildiradi (*yomchi*). **Jombuloq** toponimi esa karvon saroy oldidagi buloq degan ma’noni anglatadi (*jom buloq*). **Jombuz** - oqish rangli karvon saroy (*jom bo‘z*). **Jombo‘zsaroy** - *karvon saroy oldidagi oqish rangli saroy (jom bo‘z saroy)* ma’nosini ifodalaydi. Bu toponim tarkibidagi *bo‘z* so‘zi oqish ma’nosida kelgan.

Geografik omilga asoslaniladigan bo‘lsa, pochta bekatida ishlovchilar Shahrisabz shahrining sharq tomonidagi pochta bekatdarida

¹ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 38-39-бетлар.

turishga hojat bo‘lman, chunki ushbu shaharning sharq tomoni o‘tab bo‘lmaydigan tog‘ bilan o‘ralgan. Shuning uchun *katta*, *ulkan xumlar* yasovchi ma’nosidagi *yomchi* (*yom-chi*) so‘zi esa ishonchliroq, chunki sanoat ishlab chiqarishi bo‘lman vaqtarda odamlar xumlarda zarur ichimliklarni, hatto, g‘allani ham saqlashgan. Demak, **Yomchi** (Qash. v. Shax. t.) toponimining etimoni *xum yasovchi* ma’nosini anglatuvchi *yom - chi* > *yomchi* yasama so‘zi hisoblanadi. **Yomchi** (Sur. v. Boysun t.) toponimi esa karvon saroy xizmatchisi yashagan va shu nomdagi urug‘ nomi bshan atalgan joy ma’nosini ifodalaydi (*yomchi*). Mazkur so‘zdan etnonim ham, oykonim ham yasalgan, ya’ni apellyativ leksikaga oid karvon saroy xizmatchisi ma’nosidagi bu yasama so‘z onomastik leksika sathiga o‘tib, ikkita vazifani bajargan:

1. Etnonim nomi: *Yomchi*.
2. Joy nomining shakllanishi: *yom+~chi* > *yomchi* > *Yomchi* > **Yomchi**.

YAMALOQTEPA // Yamaloqtepa (Nam. v. Yangiqo‘rg‘on t. tepa) - toponimining etimologiyasi haqida uch xil taxmin bor:

1. Toponim uchta ma’noli qismdan iborat: *yama*, *-loq*, *tapa*. Bunda *yama* ma’noli kismi uning sun’iy tarzda shakllanganligini, o‘ydim-cho‘ydim bo‘lib yotganligini, ya’ni kishilar tomonidan tiklangan tepalikligini ifodalaydi: *yama+-loq* > *yamaloq tepa* > *yamaloq tepa* > *yamaloqtepa* > **Yamaloqtepa**. Toponim *yamalgan* // *yamalgan* tepa ma’nosini ifodalaydi. Mazkur faraz xalq etimologiyasining bir ko‘rinishi.

2. Toponimdagи *yamaloq* so‘zi asli yumaloq shaklida bo‘lib, fonetik o‘zgarishlarga uchrab, shu holga kelib qolgan: *yumaloq* > *yumaloq+tapa* > *yamaloq tepa* > *yamaloqtepa* > **Yamaloqtepa**. *Yumaloq* so‘zi adabiy orfografik yozuvda yumaloq tarzida qayd qilinadi¹. *Yumaloq* so‘zining yumaloq shaklida yozilishi an’anaga aylangan: *yumaloq* > *yumaloq*.

3. Toponimda ikkita ma’noli qism bor: *yamaloq*, *tapa*. Aslida bu ma’noli qism yapaloq holatida bo‘lgan. Talaffuzda *p* > *b* > *m* shaklida tovush o‘zgarishlari² ro‘y bergan: *yapaloq+tapa* > *papaloq tepa* > *yabaloqtepa* > *yamaloqtepa* > **Yamaloqtepa**. Ushbu holda toponim

¹ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 467-бет.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004. 73-, 75-76-бетлар; Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. 39-41-бетлар.

yalpaygan, yalpoq, yassi shaklidagi kichikroq tepe¹ ma’nosini ifodalab, toponimik derivatsiya jarayonida shakllangan.

Agar mavjud tenalikning yumaloq(yumaloq)roqlikdan ko‘ra yapaloq ekanligi hisobga olinsa, uchinchi fikrda bayon kilingan ekstralingvistik omil toponimning shakllanishiga vosita rolini bajargan. Demak, toponimga *yapaloq tepe* birikmasi etimon vazifasini bajargan.

YORTEPA // Yortepa (Nam. v. To‘raqo‘rg‘on t. q.) – toponimi to‘g‘risida ikkita taxmin mavjud:

1.Hamdard, hamdard tepe ma’nolarini anglatadigan nom: **Yortepa (Yortepa)**. Kishilar ba’zan ruhan qiynalishganda o‘zlariga do‘st-yor, ya’ni hamdard va hamfikrlarni qidirishlari bor haqiqat. Mana shu jarayon oqibatida oronim, ya’ni tepalik **Yortepa** deya nomlangan. Aholi talaffuzda qisqalikka erishish uchun *do‘st-yor tepe* deyish o‘rniga *yor tepe* > **Yortepa** deb atashgan².

2.Mazkur toponim ikkita ma’noli qismidan shakllangan: *yor, tepe*³. Birinchi ma’noli qism aslida uchta bo‘g‘indan iborat bo‘lgan: yarilgan (*yor so‘zi oldin ya:r holida cho‘ziq aytilgan, keyinchalik cho‘ziqlik kamaygan*). U (birinchi bo‘g‘in) talaffuz vaqtida va nomlanish jarayonida ekonomiya (iqtisod) prinsipi asosida qisqarib, *yar* holatida kelib qolgan. Ushbu qismga toponimlashuv jarayoni oqibatida *tepe* toponimik aniqlagichi, ya’ni oronimik xarakterdagи indikator qo‘shilgach, unda tovush o‘zgarishi va bo‘g‘in(lar) tushishi hodisasi ro‘y bergen: *yarilgan* > *yarilgan+tepe* > *yaril tepe* > *yar tepe* > *yortepa* >**Yortepa**.

Tepa(liklar) tabiiy-geografik obektlardan biri bo‘lib, o‘z-o‘zidan yorilmaydi, tabiiy ofat bo‘lgan zilzila tufayli yer, shu jumladan, tepalar ham ma’lum bir vaqtdagina yorilishi geografiya va geologiyaga oid ilmiy kuzatishlarda tasdiqlangan. Bu toponimning etimologik tahlilida geografik va rekonstruksiya usullari leksik, fonetik tamoyillar bilan birga ishlatilgan.

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. 484-бет.

² Бу тахмин топообъект ёнидаги кишилардан сўраб ёзиб олинган.

³ Ўзбек тилининг изохли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.261-бет; Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. Учинчи қисм (к-т ундошлари билан бошланадиган туркий сўзлар). -Т., Университет, 1999.135-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.239; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 331-бет.

Demak, ekstralinguistik omil ta'sirida ushbu oronimik obekt, aniqrog'i, tepalik nomlangan. Toponim haqidagi birinchi taxmin xalqona etimologiyaning bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi taxmin ancha ishonchli ilmiy mulohazadir. *Yorilib ketgan tepe* ma'nosidagi ushbu topominning etimoni *yarilgan tepe* // *yorilgan tepe* birikmasi sanaladi.

YASHIQ // Yashiq (Nam. v. Nam. t. q.) joy nomi ikkita ma'noli qismdan iborat: *yash*, *-iq*¹. Toponimning birinchi ma'noli qismi *yash* so'zi hozirgi kunda yosh tarzida aytildi, chunki a unli tovushi vaqt o'tishi bilai o unli tovushiga aylangan². *-iq* qo'shimchasi *-liq* qo'shimchasining fonetik jihatdan o'zgargan shakli: *-liq* > *-iq*. Bunda fonetik o'zgarishning alohida bir turi bo'lган tovush tushishi ro'y berib, *l* undoshi tushgan.

Demak, *yash* so'ziga *-liq* topoformantining qo'shilishi bilan yasama so'z hosil bo'lган, so'ngra onomastik konversiya jarayoni ro'y berib, mazkur topomin shakllangan: *yash~-lyiq* > *yashlyiq* > *yashliq* > *yashiq* > **Yashiq**. Bunda *-lyiq* topoformantidagi *ы* unlisi *i* unlisiga o'tgan: *ы* > *i*³ va *l* undoshi tushib qolgan. Ushbu topomin «*yoshlar yashagan yer*» yoxud «*yangi joy*» degan ma'nolarni anglatadi. Toponim uchun *yashliq* yasama so'zi etimondir. Undan **Yashiq** shaklida topomin hosil bo'lган, so'ngra **Yashiq** qishlog'ida yashovchilar degan ma'noda etnonim yasalgan: *Yashiq* > **Yashiq**. Bularidan ko'rinib turibdiki, topomin tarkibidagi *l* tovushi tushgan.

YAKKABOG' // Yakkabog' (Qashqadaryo viloyatidagi t. nomi) toponimi to'g'risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Fors-tojikcha yakka so'zi bog' so'ziga qo'shilganda bu fitotopomin hosil bo'lган: *yakka* > *yakka+bog'* > *yakka bog'* > *yakkabog'* > **Yakkabog'**. Bitta bog' degan ma'noni beradi, degan fikr mavjud. Bu taxmin yakka so'zining *bir*, *bitta*, *yolg'iz* ma'nolari asosida shakllangan⁴: *bir bog'*, *bitta bog'*, *yolg'iz bog'*. Bu ma'nolar esa shu so'zning eshitilishi bilan kishining esiga tushadigan ma'nolar hisoblanadi.

¹ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.245; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 274-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.9-10.

³ Севорян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. с.21-22.

⁴ Qarang: Ўзбек тилининг изохли лугати. 3-том.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 101-бет.

2.Mazkur toponimning kelib chiqishi haqida ikkinchi taxmin ham yakka so‘zining *yagona*, *noyob*, *tengi yo‘q* va *o‘xshashi yo‘q* ma’nolarining ishtirokida¹ shakllangan toponimdir: *yakka* > *yakka* + *bog‘* >*yakka bog‘* >*yakkabog‘* > **Yakkabog‘**. Ushbu taxminda esa toponim: *yagona bog‘*, *noyob bog‘*, *tengi yo‘q bog‘* va *o‘xshashi yo‘q bog‘* ma’nolari majmuidagi *betakror* va *noyob bog‘* ma’nosiga ega. Mazkur toponim joylashgan hudud kuzatilsa, *tog‘* va *tog‘* yon bag‘ri, bir qancha soylar hamda ikki katta daryo oqib o‘tadigan bu joyda *bir-biridan yaxshi*, *go‘zal* va *noyob bog‘lar* borligiga shubha qilmaysiz. Toponim *noyob bog‘*, *tengi yo‘q bog‘*, *o‘xshashi yo‘q bog‘* ma’nolari majmuidagi *betakror* va *noyob bog‘* ma’nosiga ega.

YAKKASAROY // Yakkasaroy (Tosh. sh. tuman nomi) – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1.Bu toponim u joylashgan hududda bittagina bo‘lgani uchun shunday nomlangan: *yakka+saroy* > *yakka saroy* > *yakkasaroy* > **Yakkasaroy**. Agar xalqimiz qadimdan har ishda ijodkor hamda mehnatkashligini hisobga olsak, bu taxmin xalq etimologiyasi bo‘lib chiqadi.

2. Mazkur joy nomida ikkita ma’noli bo‘lak bor: *yakka*, *saroy*. *Yakka* so‘zining *yagona*, *noyob*, *tengi yo‘q* va *o‘xshashi yo‘q* ma’nolarining bor². *Saroy* so‘zi ikkita ko‘rinishdagi omonim so‘z bo‘lib, uning birinchi shakldosh so‘zining ma’nosi (*saroy turkiycha so‘z bo‘lib*) *o‘zbeklar tarkibiga kiruvchi urug‘-qabilalar uyushmasi*³. Ikkinci omonim so‘zning esa quyidagi ma’nolari mavjud: “*uy, boshpana; qasr; karvonsaroy; yopiqbozor; xon, amir, podshoxdarning doimiy qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona; saroydagi davlat boshqaruvi; hokimiyat, saltanat; umuman, istiqomat qilish yoki biror ijtimoiy faoliyat uchun mo‘ljallab, zamonaviy me’morlik uslublarida qurilgan hashamatli katta bino va majmular; karvonlar, savdogarlar qo‘nadigan, mehmonxonali, hovli va otxonali joy; karvonsaroy, rabot*”³.

Mazkur toponim esa birinchi omonimik so‘zning ma’nolaridan shakllangan joy nomidir. Chunki oldingi davrda saroy qabilalar uyushmasining urug‘lari markazga yaqin shahar va qishloqlarda istiqomat qilishgan.

¹ Қиёсланг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 101-бет.

² Қиёсланг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 101-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 452-453-бетлар..

Bizningcha, toponimning shakllanishi uchun saroy etnonimi topoasos bo‘lgan va Yakkasaroy etnotoponimi yuzaga kelgan: *yakka+saroy* > *yakka saroy* > *yakkasaroy* > **Yakkasaroy**. Mazkur joy nomi *yakka* so‘zining “*yagona, noyob, tengi yo‘q va o‘xhashi yo‘q*” ma’nolari bilan etnonimning etnonimik ma’nosini birikkan: *yakka+saroy* > *yakka saroy* > *yakkasaroy* > **Yakkasaroy**.

Keyinchalik vaqt o‘tishi bilan saroy so‘zining etnonimlikdan boshqa quyidagi ma’nolari ham toponimning toponimik ma’nosiga singganday tuyuladi, ammo singmagan: “*qasr; karvonsaroy; yopiqbozor; xon, amir, podshoxdarning doimiy qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona; umuman, istiqomat qilish yoki biror ijtimoiy faoliyat uchun mo‘ljallab, zamonaviy me’morlik uslublarida qurilgan hashamatli katta binolar; karvonlar, savdogarlar qo‘nadigan, mehmonxonali, hovli va otxonali joy; karvonsaroy, rabot*”¹. Bu hol esa uning bugungi kunda ham joy nomi sifatida saqlanishiga asos bo‘lgan. Demak, toponim *yagona, tengi yo‘q* ma’nosidagi *saroy* etnonimidan etnotoponim sifatida shakllangan, uning etimoni *saroy* etnonimi hisoblanadi.

YALOQTEPA // Yaloqtepa (Sam. v. Urgut va Payarik t. q. va tepe) toponimi haqida ikki xil faraz bor:

1.Gala-gala bo‘lib uchadigan qorakush va chug‘urchuqlar *qorayaloh* deb ataladi. Ba’zan esa ularni *yaloqqush* yoki *yaloq* deb aytishadi. Ikki so‘z birikib, so‘z birikmasini, qo‘shma so‘zni, so‘ngra onomastik konversiya tufayli toponimik leksika sathiga ko‘chgan: *yaloqqush+tепа* > *yaloqqush tepa* > *yaloqqushtepa* > *yaloqtepa* > **Yaloqtepa**. B. O‘rinboev chug‘urchuqlar ko‘p bo‘ladigan tepe va ust qismi yassi, tekis balandlik, *suyritepani Yaloqtepa* deb atalishini ta’kidlaydi². Ushbu fikrga qo‘shilmaymiz. Sababi, bunday tepalar ko‘p, ammo bu tarzda nomlanmagan.

2.Bizningcha, mineral tuzlar va ularning birikmalari yerimizda mavjud. Mana shunday xususiyatga ega bo‘lgan *tepalikni yalagan* yoki *uning biror parchasini olib so‘rgan kishilar og‘zi, tili va oshqozoni uchun foydali shifo topishgan*. Mamlakatimiz hududi o‘zining mana shunday tabiiy boyliklari bilan qadimdan mashhur bo‘lgan. Unga mana shu toponim kabi **Ko‘ktosh** (Qash. v. Qamashi t. tepe) joy nomini

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З-тум.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 452-453-бетлар.

² Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. -С., Зарафшон, 2003. 167-бет.

ham misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Ko‘k yo‘tal kasaliga chalinganlar **Ko‘ktoshdagi** toshga suv qo‘yib, so‘ng idishga solib ichishsa, bu darddan forig‘ bo‘lishgan.

Binobarin, Yaloqtepa mineral tuzlarga boy bo‘lgani uchun yalangan tepe degan ma’noni ifodalaydi: *yaloq + tepa > yaloq tepa > yaloqtepa > Yaloqtepa*. Uning ilk ma’nosini va shakli *yaloq tepa* birikmasi sanaladi.

YANAQAZG‘AN // Yanaqazg‘an // Janaqaz (qudug‘i) (Nav. v. Tomdi va Qiziltepa t. quduq) toponimi haqida ikkita taxminiy izohli fikr bor:

1. Joy nomi uchta ma’noli bo‘lakdan tuzilgan: *yana, qaz, -gan*. Toponimik derivatsiya jarayoni tufayli ular birlashib, bir butun holatda toponimni tashkil qilgan: *yana <- qaz + qan > yana qazgan > Yanaqazgan*. So‘ngra unga quduq indikatori qo‘shilgan: *yana qazgan > Yanakazg‘an + qudugi > Yanaqazg‘an qudug‘i*. Uning tarkibidagi quduq indikatori ba’zan talaffuzda tushib qolgan: **Yanaqazg‘an qudugi > Yanaqazg‘an**.

2. *Yana* so‘zi ravish so‘z turkumiga oid bo‘lib, shevalarimiz, xususan, qipchoq lahjasiga oid shevalarda *jana* formasida ham qo‘llanadi, *-gan* fe’lning sifatdosh shaklini yasovchi qo‘shimcha. *Quyi* va *qudi* so‘zlarining *-q* so‘z yasovchi qo‘shimcha ta’sirida hosil bo‘lgan *kuduq* ko‘rinishiga kelishi o‘zbek tiliga xos bo‘lgan singarmozm hodisasiga bog‘liq¹. Hosil bo‘lgan so‘zda *i* > *u* va *y* > *d²* shaklidagi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergan va *-i* egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan. Undagi *quduq* indikatori topoasosga qo‘shilmaydi. Toponimning quduq indikatori ba’zan tushib qolgan: *Yanaqazg‘an + qudug‘i > Yanaqazg‘an qudug‘i > Yanaqazg‘an*. Unga *yana qazgan qudug‘i* ko‘rinishidagi relyativ birikma etimon hisoblanadi.

YANAQISHLOQ // Yanaqishloq // Janaqishloq (Qash. v. Yakkabog‘ t. k.) - toponimining shakllanishi haqida ikki xil faraz bor:

1. Toponimning birinchi ma’noli qism yana II jana so‘zi ravish so‘z turkumiga oid³, ikkinchi ma’noli qism diaxron planda uchta ma’noli qismga bo‘linadi: *qish+ -la+-q > qishloq*. Yasalgan so‘z sinxron planda bir ma’noli o‘zak morfema. Bunday xulosaga kelishning

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.571-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.53-54.

³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 529-бет.

sababi ushbu joy nomining etimonini *yana* (*jana*) *qish+-la+-q* tarzida olib bo‘lmaydi. Apellyativ leksikadagi so‘z yasalish jarayoni birlamchi hodisa sifatida birikma tarkibida oldin ro‘y bergan va toponimga ko‘chgan: *yana+qishloq* >*yana qishloq* > *yanaqishloq* > **Yanaqishloq**. Uning etimoni *yana(jana)* *qishloq* shaklidagi relyativ birikma.

2.Toponimning birinchi ma’noli bo‘lagi ravish so‘z turkumiga oid emas, balki *yona* (*jona*), *yonalik* (*jonalik*) ko‘rinishidagi so‘z ot so‘z turkumiga oid. *Yana* (*yana*) so‘zining birinchi bo‘g‘inida oldin o unlisi bo‘lgan, so‘ngra bu unli a unli tovushiga aylangan: *o* > *a*. Bu holda *yana* va *qishloq* so‘zлari o‘zaro birikib, *yana* (*yana*) *qishloq* atributiv birikmayai yuzaga keltirgan. Undan so‘ng toponimik derivatsiya jarayoni bilan bu birikma toponimga ko‘chgan: *yona+qishloq* > *yana qishloq* > *yana qishloq* > *yanaqishloq* > **Yanaqishloq**. Bu yerda yana topoleksemasing *ya* ko‘rinishidagi birinchi bo‘g‘ini *ya* shakliga aylangan: *yo* > *ya* > *ya*. Yoki aksincha.

Bu toponimning etimoni yana qishloq ko‘rinishidagi relyativ birikma emas, balki yana (*yana*) qishloq shaklidagi atributiv birikmadir. *Yana* so‘zi *yona*// *yana* holatida bo‘lgan, grafik o‘zgarish bilan shu holda yozilgan. U holda mazkur toponim *yonalikdagi qishloq yoki jarlik bo‘yidagi qishloq* ma’nosini anglatadi. Bizningcha, birinchi fikrda qayd etilgan aholi ko‘p va tig‘iz yashaydigan joy nomi ma’nosidagi **Yanaqishloq** toponimining tahlili ishonchliroq. Sababi, mazkur toponim tekislikda joylashgan, ya’ni tabiiy geografik omil ushbu toponimning shakllanishiga asosiy vosita bo‘lgan.

Ikkinci taxmin mazkur toponimga mos emas. Sababi, shaklan bir xil ammo mazmunan boshqa-boshqa bo‘lgan joy nomlari haqida fikr yuritildi. Biroq ikkinchi farazga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos tushadigan topoobektni Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi tog‘li hududda mavjud: *yonalikdagi qishloq* > *yonadagi qishloq* > *yana qishloq* > *yanaqishloq* > *yanaqishloq* > **Yanaqishloq**. Demak, mazkur ikki toponim shaklan bir xil bo‘lsa ham, mazmunan o‘zga ma’nolarni ifodalagan. Ikkala toponim ham toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayoni oqibatida shakllangan. **Yanaqishloq** toponimi *yonalik yoki jarlikdagi qishloq* ma’nosini anglatadi. Bu toponimda *yana* (*yona*) so‘zi harakat-holatning sifati, miqdor-darajasi kabi manolarni anglatadi. Joy nomining **Yanaqishloq** // **Janaqishloq** tarzida

aytilishiga sabab, toponim yaqinida qarluq lahjasi vakillari va qipchoq lahjasi vakillari yashashadi va toponimni u yoki bu darajada qo'llashadi.

YANGIER // Yangier (Sir. v. t.) joy nomi dalillar bilan tahlil qilinsa, quyidagi holat ko'rindi: u joy nomi bo'lishidan oldin, ikkita so'zdan iborat bo'lgan: *yangi va yer*¹ (yoki *yangi va yer*). Ushbu ikki so'z apellyativ leksikaga xos ma'noviy xususiyatlarni namoyon qiladi. Nutqimizda ko'p ishlatiladigan *yangi+yer* > **Yangier** so'zi ham bor. Bu ikki so'zdan apellyativ leksikaga oid qo'shma so'z sifatida shakllangan: *yangier*.

Yangi va bo'z yarlarni o'zlashtirish boshlangan XX asrning elliginchi va oltmishinchi yillarida "*yangi ochilgan, ilk marta ishlov bershayotgan yer*" ma'nosidagi yangi yer birikmasi onomastik konversiya tufayli toponimga ko'chdi² hamda toponim vazifasini bajara boshladi: *yangi+yer* > *yangi yer* > **Yangier**. Bu yerda analogiya hodisasi ro'y bergan. So'z yasalish hodisasi hisoblangan *yangi+yer* > *yangi yer* so'zi onomastik konversiya tufayli yangi o'zlashtirilgap joy ma'nosida shakllangan toponim **Yangierga** o'xshash bo'lib qolgan. Chunki yangi yer apellyativ leksika tarkibida so'z yasashning kompozitsiya usuli bilan shakllangan yangi so'z sifatida o'rganilsa hamki, toponimga o'tmagan.

Yangier toponimi esa yangi yer so'z birikmasining birdan ko'chirib olinishi emas, boshqa so'z, ya'ni toponimlashuv tufayli toponim hisoblanadigan onomastik leksikaning birligi bo'lib qolgan. Bunda onomastik derivatsiya jarayonining maxsulini ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixiy nomlar diaxron usulda ham o'rganilgani kabi hozirgi nomlarning sinxron usulda tadqiq etilishi ham o'rinli. 3. Do'simovning qayd etilishcha, sinxron usulda toponimlarni tadqiq qilishda nomlanish tamoyiliniig pozitivlik talabi bilan yasalgan toponimlar Xorazmda ko'p uchraydi³.

YALANG'OCH // Yalang'och (Farg'ona v. Buvayda t. q., Toshkent shahrida shu nom bilan atalgan mahalla va daha, Qo'qon

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 482-483-бетлар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.248-249-бетлар.

² Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. 132-бет.

³ Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари // ЎТА. -Т., Фан, 1985. 2-сон. –Б. 33-37.

shahrida esa shu nomdagi joy bor) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar mavjud:

1. Oldinlari kishilar kambag‘allikdan kam kiyinishgan yoki kiyimsiz holda yurishgan ekan. Shu holdan kelib chiqilgan holda topoobekt **Yalang‘och** deb nomlangan. Bu mulohaza unchalik ishonchli emas. Sababi, odamlar doimo kishilik jamiyatida kiyim kiyishni odat qilishgan. Bu taxmin xalqona taxmindir.

2. Bu toponimni N.Oxunov Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibini XX asrning birinchi yarmida o‘rgangan tarixchi olim S.Gubaevning ma’lumotlariga asoslanib, *yalang‘och* etnonimidan shakllangan, deydi¹: *yalang‘och* (etnonim) > **Yalang‘och**. Bu ikki olim tomonidan maxsus qayd etilgan *yalang‘och* etnonimi kattaroq biror bir urug‘ning qismlaridan biri bo‘lsa kerakki, X.Doniyorovning “*O‘zbek xalqining shajara va shevalari*” nomli kitobida turkiy va o‘zbek urug‘lari sifatida berilmagan². Ammo taniqli toponomist olim N.Oxunovning ma’lumotlariga asoslanib, mazkur toponimni etnotoponimlar sirasiga va yana tarixiy toponimlar jumlasiga kiritish mumkin. Uning etimoni *yalang‘och* shaklidagi yasama so‘zdir. Bizningcha, **Yalang‘och** toponimining kelib chiqishi to‘g‘risidagi bu ikki taxminiy fikrdan ikkinchisida haqiqatga yaqinlik ko‘proq dalillangan.

YAPALOQTEPA // Yapaloqtepa (Qash. v. G‘uzor t. tepe) toponimi haqida ikkita taxmin bor:

1. Sinxron nuqtai nazaridan esa u ikki ma’noli bo‘lakdan tashkil topgan: yapaloq va tepe. Daxxon nuqtai nazaridan qaralganda *yapaloq* (*yapaloq*) so‘zi beshta ma’noli qismdan iborat: *yap*, -*a*, -*la*, -*q*, *tepa*. Demak, Yapaloktepa toponimining birinchi qismi *yap* o‘zagiga emas, balki *yay* (*yaz*) o‘zagiga ega, ya’ni bu so‘z aslida *yay+-ib* > *yayip* > *yata+-la-q* > *yapaloq* > *yapaloq* shaklidan hosil bo‘lgan. Bu holda y undoshi quyidagi fonetik o‘zgarishlarga duch kelganini inkor qilmaymiz: *p* > *j* > *ch* > *sh* > *s* > *z* *hamda z* > *y*³.

Ushbu toponimda yapapoq so‘zi topoasos vazifasini bajargan. *Yassi, yapaloq* so‘zi tepalikning yoyiqroq, kengroq ekanligini anglatadi. Ana shu atributiv birikmadan joy nomi shakllangan: *yay+-ib* > *yayip* >

¹ Охунов Н. Жой номлари таъбири.-Т., Ўзбекистон, 1994. 67-бет.

² Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.-Т., 1968. 5-37-бетлар.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.53-56-,61.

yap+-a+-la+-q > *yapaloq* > *yapaloq+ tepa* > *yapaloq tepa* > *yapaloqtepa*. Bu toponim uchun “yayilib ketgan”, “yapaloq holatidagi tepa” ma’nosidagi *yapaloq tepa* birikmasi etimon.

2. Bu joy nomi yali¹, -q, tepa ma’noli qismlaridan iborat. Toponim tarkibida tovushlar(l va p)ning o‘rin almashishi - metateza ro‘y bergen², -q qo‘shimchasining ta’sirida *i* tovushi *o* tovushiga o‘tgan, ya’ni singarmonzm hodisasi amal qilgan va birinchi bo‘g‘indan so‘ng a tovushi orttirilgan: *yalpi+~k*, > *yalpiq* > *yalpoq* > *yappoq+tepa* > *yapaloq tepa* > *yapaloqtepa*. Demak, toponimning etimoni *yalpiq* > *yapaloq* shaklidagi yasama so‘zdir. Bizningcha, bu farazda haqiqatga yaqinlik ko‘proq.

YASTEPA // Yastepa (Sam. v. Tayloq t. tepa) - toponimi ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan: *yas*, *tepa*. Birinchi ma’noli qism *yas* so‘zi fonetik o‘zgarishlarga uchrab, shu holga kelgan. Aslida *yassi* shaklida bo‘lgan³.

Bu toponim quyidagicha holda shakllangan: *yassi+tepa* > *yassi tepa* > *yassitepa* > *yastepa* > **Yastepa**. Uning etimoni tekis tepa ma’nosidagi *yassi tepa* birikmasi. Demak, bu toponim fonetik o‘zgarishlardan biri bo‘lgan tovush tushishi hodisasi ro‘y bergen birikma asosida yuzaga kelgan. Uning etimoni *yassi tepa* birikmasi.

J

JALOLQUDUQ // Jalolquduq (Andijon v. sh., t.,q.) - toponimining kelib chiqishi haqida bir necha taxmin bor:

1. Bu toponimni *jarlikdagi quduq*, *jarlik quduq* (*jarlikdagi quduq* > *jarlik quduq* > *jarquduq* > *jalolquduq* > **Jalolquduq**) birikmalaridan keltirib chiqarayotgan kishilar ham bor, ammo bu farazga qo‘shilib bo‘lmaydi, Chunki *jarlik* so‘zining *jala* yoki *jalol* ko‘rinishiga kelib kolishi mumkin bo‘lmagan hol.

2. Toponim tarkibidagi *jalol* so‘zini kishi ismiga bog‘lashadi: *jalol* > *Jalol*. Bu gidronim kishi nomi bilan atalgan va Jalol qazigan quduq ma’nosini ifodalaydi. Ushbu taxmin ham, bizningcha, xato. Agar obektlarga nomni kishi ismlaridan olinsa, unda hamma joyni kishi nomlari bosib ketardi. Demak, bu ikki taxmin xalq etimologiyasi.

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963.37-бет.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.78-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 488-бет.

3. Toponim geografik joylashuv nuktai nazaridan qaralganda, boshqa toponimik obektlarga nisbatan pastlikda joylashgan. Albatta, atrofi baland-baland tepaliklardan iborat turli xil obektlarga nisbatan Jalolquduq obektining quyilikdagini sezish mumkin. Mazkur joy nomi ikkita ma'noli bo'lakdan tashkil topgan: *jalol*, *quduq*. Bu ma'noli bo'laklardan jalol so'zi turli fonetik o'zgarishlarga uchrab shu holga kelib, apellyativ so'z sifatida shakllangan va toponimga asos bo'lgan.

Toponim tarkibidagi birinchi morfemani kishi ismiga bog'lab qo'yish bu toponimda o'rinli emas. Ushbu apellyativ quyidagicha shakllangan: *jala* > *jalal* > *jalol*. So'z tarkibida 1 undoshi orttirilgan va undagi ikkinchi *a* unlisi *o* unlisiga almashgan: *a* > *o*¹. Joy nomining ikkinchi ma'noli bo'lagi bo'lgan quduq apellyativining shakllanishi uch xil ko'rinishga ega:

1) Bu so'z *suv sol* va *suvni to'k* ma'nolaridagi *quy fe'lining qadimgi turkiy tildagi qud²* shakliga -ug qo'shimchasini qo'shishdan hosil bo'lgan: *qud+ug* > *qudug'* > *quduq*. Hosil bo'lgan so'z tarkibidagi *g* undoshi *q* undoshiga assimilyasiya hodisasi³ tufayli aylangan: *g'* > *q*;

2) ushbu so'z past ma'nosidagi quyi sifatining quduq shaklidan⁴ -q qo'shimcha sini qo'shish bilan yasalgan: *quduy+-q* > *quduyq* > *quduq*. Bu yerda esa *m* unlisi so'zga -q qo'shimchasi qo'shilishi ta'sirida singarmonizm hodisasi ro'y berib, *u* unlisiga o'zgargan: *i* > *u*;

3) mazkur so'zning yuzaga kelishiga U11-X asrlarda ishlatilgan *quzug'* so'zi⁵ asos bo'lgan: *quzug'* > *quzuq* > *quduq*. Bunda z undoshi d undoshiga⁶ vakg o'tishi bilan o'zgargan: *z* > *d*.

Bu holatlar quduq so'zining shakllanishini isbotlaydi. Quduq so'zi toponimning ikkinchi morfemasi bo'lib, turkiy so'zlar jumlasiga kiradi. Odatda kuduq so'zi ikki holatda qayd qilinadi:

Cho'llarda suv uchun qazilgan gidronimik inshoot - *quduq*. yer osti suvlari mo'l bo'lgani uchun chuqurlik qazilganda tezda suv chiqib ketadigan yerlarni ham ramziy ma'noda quduq deb atash aholi nutqiga xos xususiyat. Ushbu ikki holdan so'ngisi etimologik tahlilga kerak

¹ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.72-бет.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 571-бет.

³ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004. 80-бет.

⁴ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 180-бет.

⁵ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. 464-бет.

⁶ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. 61-62-бетлар.

bo‘ladigan dalil. Sababi, toponim quyilikda, nisbatan pastlikda joylashgan. Demak, yer osti suvlari balandliklarga nisbatan bu yerda ko‘proq bo‘ladi, zarur hollarda quduk qazib, suv olish ham mumkin.

yer osti suvlarining bunday tez chiqishi uchun ma’lum bir sabablar ham bo‘lishi kerak. Tub aholi vakillarining qayd etishicha, ushbu joyda tez-tez jala yog‘ib, keragidan ortiq, suv yig‘ilib turgan. Ma’lum vaktdan so‘ng bu suvlarning bir kismi oqib ketgan va bir kismi esa yerga singib ketgan. Bu hol jalol so‘zining oldin bu shaklda bo‘lmaganligini asoslaydi. **Jalol** so‘zi kishilar nutqida oldin jala tarzida ko‘llangan.

Jala so‘zi turkiy so‘zlardan biri. Vaqt o‘tishi bilan *jala* va *quduq* so‘zleri seryog‘inli joydagi *quduq* ma’nosini o‘zida jamlagan holda birlashib ketgan: *jala+quduq* > *jalaquduq*. Talaffuz jarayonida birinchi so‘zdagi *l* undoshiga mos holda shu so‘zdan keyin *l* undoshi orttirilgan, ya’ni ikkilantirilgan¹ va *jala* so‘zidagi *a* tovushlari *o* tovushiga aylangan: *jalaquduq*, > *jalalquduq* > *jalolquduq*. Hosil bo‘lgan birikma toponimlashuv hodisasi tufayli joy nomiga ko‘chgan: *jalolquduq* > **Jalolquduq**. Birinchi bo‘g‘indagi *l* undoshi talaffuzda ikkini bo‘g‘in oxirida ham qo‘llanilgan.

*Jala*² topoleksemasi bu toponimning toponimik asosi vazifasini bajargan. Toponimik indikator sifatida quduq so‘zi ishlatilgan, ammo obektlarning vazifasi o‘zgarishi bilan quduq so‘zi toponimik aniqlagich vazifasini bajarmay, jala toponimik asosiga birlashib ketgan. Natijada, *shahar*, *tuman*, *qishloq* kabi so‘zlar bu joy nomi uchun indikator, ya’ni toponimik aniqlagich vazifasida qo‘llana boshlangan: **Jalolquduq**, **Jalolquduq tumani**, **Jalolquduq shahri**, **Jalolquduq qishlog‘i**. Biroq bu indikatorlar kamdan-kam hollarda ishlatilishi tufayli toponim Jalolquduq holatida qo‘llanishi ko‘p uchraydi. Ushbu toponim uchun etimon jala va quduq so‘zlarining birlashtiruvchi ma’nolarini, ya’ni jala ko‘p yoqqani uchun yer qazilganda yer osti suvlari tez chiqadigan joy ma’nosini anglatuvchi jalaquduq birikmasi hisoblanadi. Toponimning Jalolquduq bo‘lib ketishi tilimiz tarixiy taraqqiyotining o‘ziga xos mahsuli.

Jalolquduq joy nomining etimoni *jala* va *quduq* so‘zlarining birlashtiruvchi ma’nolarini, ya’ni *jala* ko‘p yoqqani uchun yer osti suvlari yer qazilganda tezda chiqadigan joy ma’nosini anglatuvchi

¹ Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 394-396-

² Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 271-бет.

jalaquduq birikmasi ekanligini asoslovchi manba bu geografik omil sanaladi. Uning shakllanishida quyidagi geografik omillar yetakchi vosita bo‘lgan:

a) obektning boshqa obektlarga nisbatan olganda pastliqda joylashganligi; b) ko‘p vaktlarda yomg‘ir bilan birga jala yog‘ib turishi; v) yeri kazilganda tezda suv chiqib kelishi quduqlarning ko‘pligiga asos bo‘ladi. Bu omillar toponimning nomlanishida ham vosita bo‘lgan.

Leksik va fonetik tamoyillar toponimlarning tarkibini o‘rganish usuli bilan bu toponimning etimologik tahlili jarayonida ishlatilgan. Demak, **Jalolquduq** toponimi kishi ismi bilan bog‘liq emas, balki tabiiy geografik holatlarni ifodalaydigan jala, quduq so‘zlarning ma’nolarini jamlovchi geografik omillarga bog‘liq.

JONDOR // Jondor (Buxoro v.t.) – toponimii to‘g‘risida bir necha taxminiy fikr-mulohazalar bor:

1. “**Jondor** - Buxoro xonligida «jallod», «yasovul (politsiya) boshlig‘i». Bu so‘zning asosiy ma’nosи «tirik mavjudot», «jonu jonivor». Buxoro viloyatidagi **Jondor** shaharchasi Jondor tumani markazi, Jizzax viloyatida Baxmal tumanida **Jondor** (Jondorning qiri) degan joy bor.

Buxoro yaqinidagi Jondor qishlog‘ida tug‘ilib, Buxoro amirining shaxsiy kotibi bo‘lib ishlagan Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriy Jondor qishlog‘iga suv kelmay qolganda Buxoro amiri Haydar nomiga (XIX asr boshlari) «*Najotpanoh! Hamma narsa, xususan Jondor suv bilan tirik*» deb bir jumlagina ariza yozgan ekan.

Adabiyot va zakovotni hurmat qiladigan Haydarga bu so‘z o‘yini juda yoqib tushgan va Jondor qishlog‘iga suv ochishga farmon bergen ekan. Romitan tumanida **Bozorboyjondor**, **Kattajondor** degan qishloqlar qayd qilingan”¹.

2. Bu toponim suvsiz, cho‘l bo‘lgan hududda joylashgan. Bu yerda odam tugul jonivorlar ham issiq va suvsizlikdan qiynalishgani uchun hayvonlarga achinish ma’nosida jonivorlar yashaydigan joy **Jondor** deb atalgan: *jonivor > jonvor >jondor > Jondor*. Bunda uning etimoni jonivor so‘zi ekanligi ayon bo‘ladi. XX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Qizilqum cho‘li, Qarshi cho‘li, Jizzax cho‘li hududlarida o‘sha yerlarda yashovchilar, shu jumladan, hayvonlar ham suvsizlik va issiqliqdan qiynalishgan.

¹ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. -Т., 2009. 44-бет.

3. Mazkur joy nomi qipchoq shevalarida ko‘p qo‘llanadigan va bo‘ri¹ ma’nosini anglatuvchi jondor zoonimik so‘zidan shakllangan: *jondor* > **Jondor**. U fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, tirik, tirik mavdudot degan ma’nolarni bildiradi². Toponim joylashgan hudud cho‘l hududlaridan biri bo‘lgani uchun turli hayvonlar tartibsiz harakat qilishga majbur bo‘lishgan. Ular yashab qolish ilinjida kunduzi ham, kechqurun ham kishilarga ko‘rinib turishgan. Shuning uchun ham bu hududni chiya bo‘ri va bo‘rilar ko‘p bo‘lgan hudud ma’nosida Jondor deb atashgan. Aslida, bo‘rilar tepalik, tog‘ va toshlar orasida yashashadi.

Demak, toponim joylashgan hududda *chiya bo‘ri*, ya’ni odatdagи bo‘rilardan³ kichikroq jussali hayvonlar ko‘p bo‘lgani uchun aholi shunday nomlagan. Bu holatlar bilan birga yana xalqimiz tilida qo‘pol va yomon narsalarining o‘rniga boshqa so‘zlarni ishlatish, ya’ni yomon hayvonning nomini boshqa so‘zlar bilan yumshatib aytish jarayoni ham bor. Ushbu holat tilshunoslik fanida efemizm termini bilan atalgan. Demak, bo‘ri hamda chiya bo‘rilar borligini boshqalarga yetkazish uchun odamlar efemizm maqomidagi va jonivorlar ma’nosidagi jondor so‘zi bilan atashgan. *Bo‘ri va chiya bo‘rilar* > *ularga efemizmistik munosabat (jondor)* > *jondor* > **Jondor**. Bundan ko‘rinadiki, xalqimiz vakillari qo‘pol, vaxshiy va yomon narsalarning nomi o‘rniga boshqa narsalarning nomlarini almashtirib aytish yo‘lidan borishgan. Bu bilan jondor(bo‘ri)lar kelganini bildirishgan bo‘lishsa, ikkinchi tomondan xotin-qizlar va yoshlarni qo‘rqtib yubormaslik uchun *jondor (jonivor)* > *jondor* > **Jondor** so‘zi qo‘llangan. Bizningcha, bu toponim haqidagi birinchi taxmin ma’lum bir ma’noda ikkinchi taxminni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Bu mulohazalardan ko‘rinadiki, ushbu toponim zoonim nomi asosida shakllangan bo‘lib, *bo‘ri (efemistik qarash asosida boshqa so‘z bilan atalgan)* > *jondor* > **Jondor**, ya’ni u zoootponimlardan biri. Uning etimoni *vaxshiy*, *qo‘pol* va *yomon narsa* ma’nosidagi efemistik so‘z bo‘lgan *jondor* so‘zidir.

¹ Dadaboev H., Xolmurodova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati.--T., Navro‘z, 2018. 80-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -Т., “Ўзбекистон миллый энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 106-бет.

³ Dadaboev H., Xolmurodova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati.--T., Navro‘z, 2018. 80-бет.

I

IZBOSKAN // Izboskan (And. v. t.) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminlar bor:

1. Emishkim, oldinlari xalq vakillari tomonidan yaxshi tozalanmagan joy ma’nosida ba’zi bir toponimlar *Isbosgan* deb atalar ekan. Bunday deb tushuntirilishiga sabab Izbosgan va Isbosgan toponimlaridagi *z* // *s* yoki *s* // *z* holatlarining talaffuz jarayonida ro‘y berishidir. Lekin joyni *Isbosgan* deyish noo‘rin, chunki xalqimiz tozalikka o‘rgangan.

2. Toponim hududida mard, lafzi halol kishilar yashashgan ekan. Ularning avlodlari ham shunday kishilar bo‘lishgani uchun avlodajdodlar qadriyatlarini ulug‘lovchilar, bobolar an‘analariga amal qiladiganlar, avlodlari izidan yurganlar ma’nosida **Izbosgan** toponimi qo‘llangan.

Bizningcha, ikkinchi taxminiy fikr asosliroq. Chunki bu toponim to‘rtta ma’noli qismdan iborat: *iz*, *-ni* (belgisiz ishlatalgan), *bos*¹, *-kan* (-*gan*). Toponimda *bos* so‘zining o‘n oltita ma’nosidan birinchi ma’nosini *iz* so‘zining to‘rtta ma’nosidan birinchi ma’nosini bilan birikib kelgan². Ularning birikishi natijasida tushum kelishi qo‘srimcha sini tushib qolgan va g undoshi k undoshi o‘tgan³: *g > k*.

Joy nomi quyidagi taraqkiyot bosqichini bosib o‘tgan: *iz+ni+bos+-gan* > *izni boskan* > *iz boskan* > *izboskan* > **Izboskan**. Bu toponim *avlodlar an‘analarini davom ettirish* ma’nosida bobolar izini bosganlikni anglatadi. Uning etimoni *izni boskan* shaklidagi obektli birikma sanaladi.

ITBULOQ // Itbuloq (Qash. v. Qamashi va Yakkabog‘ t. bulok) – topogidronimi *it* va *buloq*⁴ ma’noli qismlardan tashkil topgan. Ushbu toponimning yuzaga kelishi to‘g‘risida bir necha xil faraz bor:

1. It yashagan bulok yoki it o‘lgan buloq. Bu fikr ishonarsiz.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 133-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 316-бет.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. 35-36-бетлар.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 148-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 68-бет. Севортян Э. В., Левитская Л. С. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "Ж", "И". -М., Наука, 1989. 258-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. 121-бет.

2. *Itli buloq* yoxud *iti bor buloq*. Mazkur ikki taxmin xalq etimologiyasi hisoblanadi.

3. Joy nomi *it ichgan buloq* birikmasidan shakllangan: *it ichgan buloq* > *it buloq* > *itbulog* > **Itbulog**. Mazkur fikrga ham ishonish qiyinroq. Sababi, bu topoob'ekg bor hududda itlar kam bo'ladi,

4. Bizningcha, toponim tarkibidagi *it* so'zi hayvon ma'nosidagi it so'zi emas, balki biror so'zning fonetik o'zgarishlarga uchragan shakli deyilishi to'g'ri. T. Nafasovning qayd etishicha¹, *o'tkir*, *tig'li* ma'nosidagi *yitik* > *yitig* > *itik* > *itig* > *iti* > *it* so'zi ushbu so'zning shakllanishiga asos bo'lgan. Lekin «...toponimiyada bu so'z suv manbaining en ko'lami, kichik, tor, ingichka demakdir»², deyilishini o'ylab ko'rish kerak. Sababi, mazkur ma'no faqat suv manbaiga oid bo'lib kolmay, balki buloq joylashgan yerdagi mayda toshlarga ham tegishli deyish har jihatdan haqiqatga yaqin.

Geografik omilga amal qilib, mazkur toponim joylashgan hudud kuzatilganda, u tor hamda kichik buloq bo'lishi bilan birlgilikda o'sha atrofda o'tkir va tig'li toshlarning ko'pligi sezildi. Buloklarning, asosan, vodiylar, soylar, jarlar, tog' yon bag'irlari, tog' etaklaridan oqib chiqishi ular joylashgan hududda tig'li, o'tkir toshlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bu ham gidronimning nomlanish jarayonini asoslaydigan ekstralingvistik omillar jumlasiga kiradi. *Buloq* ikki ma'noli so'z bo'lib, uning birinchi ma'nosи (“yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma. *Issiq buloq. Buloq suvi*”) biz istagan ma'no³. Uning manbai hajman eni kichik, tor yoki katta bo'lishi mumkin.

It so'zi buloq joylashgan hududga oid xususiyatni, ya'ni u yerdagi toshlarning o'tkir va tig'li bo'lishini anglatadigan *yitik* // *yitig* so'zining fonetik o'zgarishlardan biri bo'lgan tovush tushishiga uchragan shakli. Bunday gidronimlar tog'li va soyli joylarda ko'p uchraydi. Ushbu toponimning Qamashi hamda Yakkabog' tumanlarida uchrashi yuqorida aytilgan fikmi dalillashga xizmat qiladi. Uning tahlilida fonetik tamoyil va rekonstruksiya usuli faol qo'llangan. Mazkur toponim

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.86-87-бетлар.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 86-87-бетлар.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 371-бет.

onomastik konversiya natijasida apellyativ leksika sathidan onomastik leksika sathiga ko‘chgan: *yitik+buloq* > *yitik buloq* > *it buloq* > *itig buloq* > *iti buloq* > *itbuloq* > **Itbuloq**. Bu yerda *y*, *k*, *i* tovushlar talaffuz jarayonida tushib kolishi ro‘y bergan. Demak, *tigli*, *o’tkir toshlardan iborat joydagi buloq* ma’nosida qo‘llanuvchi *itik* (*itig*) *buloq* birikmasi ushbu toponimning etimoni hisoblanadi.

K

KASBI // Kasbi (Qash. v. t.) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxmin bor:

1. Aholining aytishicha, bu toponim «*yaxshi hunarmandlar, sifatli ishlaydigan ustalar makoni*» ma’nosida **Kasbi** deb atalgan. Shu ma’no asosida topoobekt nomlangan: *kasbi* > **Kasbi**. Undagi *i* unlisi tovush ortirilishidan shakllangan.

2. Toponim XY asrning ikkinchi yarmida ham **Kasbi** deb qo‘llangan¹.

3. **Kasbi** XYII – XIX asrlarda **Kazbion** deyilgan². 4. Joy nomiga asos bo‘lgan *kasb* - arab tilidan o‘zlashgan so‘z³. Bu holda uning etimoni - arab tilidan o‘zlashgan *kasb* so‘ziga -*i* qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan *kasbi* yasama so‘zi.

5. T. Nafasov uni arabcha *qasaba* so‘zi bilan bog‘lagan: «*Shahar, qishloq, qo‘rg‘on deb izohlash ma‘qul*»⁴. Bunga ham qo‘shilib bo‘lmaydi.

6. Toponimnda ikkita ma’noli qism bor: *kas*, *bi*. Uning tarkibidagi *kas* topoleksemasi fonetik o‘zgarishlarga uchragan hamda *kes* holida ham qo‘llangan: *kas* > *kes*. Bunda *kas* so‘zidagi *a* unlisi *ye(e)* unlisiga almashgan: *a* > *ye*⁵. *Kas* so‘zining bir fonetik shakli bo‘lgan *kes* so‘zi «*qism, kesmoq, bo‘lmoq*» ma’nolarini anglatgan. *Kes* so‘zi - *kas* so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli. Demak, *kes* so‘zining yuqoridagi ko‘rsatilgan ma’nolari ham *kas* so‘ziga xos ma’noda deyishga asos bor.

¹ Ҳоғиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланома. II жилд.Т.,Фан,1969. 330-, 385-бетлар.

² Қадимги Кеш – Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. -Т., Шарқ, 1998. 15-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 371-бет.

⁴ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 92-бет.

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 68-бет.

Joy nomining ikkinchi topoleksemasi - *bi(bu)* so‘zi. O. T. Molchanova bu so‘zda «*daryo*» ma’nosi bor deydi¹. Ushbu fikr bizni qoniqtirmaydi. Aslida, bu so‘z «*xalq, aholi, omma*» ma’nolarida qo‘llangan *bodun // budun* shakllarida bo‘lgan². Mazkur so‘zning ikkinchi bo‘g‘ini fonetik o‘zgarish ta’sirida tushib, *bi (bu)* holatida *kas* so‘zi bilan birgalikda so‘z birikmasini, keyin qo‘shma so‘zni hosil qilgan. So‘ngra toponimik konversiya natijasida toponimga ko‘chgan: *kas + bodun // budun > kas budun > kas bu > kas bi > kasbi > Kasbi*. Ikki so‘zning qo‘shilishi bilan ro‘y bergen fonetik o‘zgarishlar natijasida *o* unlisi *u* unlisiga (*o > u*), keyin esa *u* unlisi *i* unlisiga almashgan (*u > i*)³. «*Kesish asbobi*» ma’nosidagi *bi*⁴ so‘zi bilan «*xalq*» ma’nosidagi *budun* so‘zining qisqargan shakli bo‘lgan *bu(bu)* so‘zini farqlash zarur. U «*ajralgan, bo‘lingan xalq yashaydigan yer, xalqning alohida qismi yashaydigan joy*» ma’nolarini ifodalaydi va *kas budun* shaklidagi atributiv birikma uning etimonidir.

7. Toponim *qazmoq* ma’nosidagi *kas*⁵ va *suv* ma’nosidagi *sub (sub)*⁶ so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan: *kas+sub > kassub > kasub > kasbu > kasbi > Kasbi*. Bunda avval ikki so‘z qo‘shilgan va bir *s* undoshi tushib qolgan. So‘ngra hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zning ikkinchi qismida metateza hodisasi ro‘y berib, *u* va *b* tovushlari o‘zaro o‘rin almashgan. «*Turkiy tillarda so‘z oxirida u undoshi kam uchraydi*»⁷. Natijada, *u* unlisi *i* unlisiga o‘zgargan⁸.

Demak, toponimning etimoni (*kas+sub > kassub > kasub* qo‘shma so‘zi bo‘lib, «*qazilgan suv, buloq bor joy*» degan ma’nolarni anglatadi. Bu fikrni tabiiy-geografik muhit ham tasdiqlaydi: oldin oqar suv bo‘lmagan. Birinchi fikrdagi *kasbi* so‘zi bilan uchinchi fikrdagi so‘z shaklan o‘xhash bo‘lib qolgan. Ikkinci fikrda tarixiy dalil o‘z ifodasini

¹ Молчанова О. Т. Топонимический словарь горного Алтая. Горно–Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979. –С.214;

² Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969.-С.108.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.–С.20; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 30-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 237-бет.

⁵ Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Лгр., Наука, 1970. –С.194.

⁶ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969.-С.512.

⁷ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.–С.19.

⁸ Юқорида кўрсатилган асарнинг 18-20-бетлари.

topgan. To‘rtinchi va beshinchi fikrlarda arabcha *qasaba* so‘zi **Kasbi** toponimiga asos deyilgan. Oltinchi fikrda shakliy o‘xshashlikka asoslanilgan. yettinchi fikrda lingvistik omil, tarixiy tamoyil va tilning tarixiy taraqqiyoti hisobga olingan holda uning kelib chiqishi bayon etilgan.

KATTAQAYNAR // Kattaqaynar (Sam. v. Urgut t. q.) toponimi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1. U uchta ma’noli qismdan iborat joy nomi : *katta*, *qayna*¹, -*ar*. U toponimik derivatsiya jarayonigacha quyidagi tarzda shakllangan: *katta+qayna+-r* > *katta qaynar*. *Qaynar* so‘zi *qayin+-a* > *qayna+-r* > *qaynar* ko‘rinishida yuza kelgan. Suvi pastdan yuqoriga ko‘tarilib chiqadigan buloq qaynar buloq deyiladi. Unga katta so‘zi qo‘shilgach, fe’lli birikma paydo bo‘lgan: *katta+qaynar* > *katta qaynar*. Yuzaga kelgan fe’lli birikmadagi so‘zlar apellyativ leksikada faol qo‘llanadi. Toponimik derivatsiya tufayli mazkur birikma joy nomiga aylangan: *katta qaynar* > **Kattaqaynar**. Ushbu toponimning etimoni **katta qaynar** so‘z birikmasi. *Suvi pastdan yuqoriga qaynab chiqadigan buloq* ma’nosi eskirib, ko‘pchilik yashaydigan joy ma’nosidagi topoobektning nomi bo‘lib qolgan.

2. Bizningcha, toponim yuzaga kelgan vaktda uning tarkibida *bulog* TA bo‘lgan: **Kattaqaynar bulog‘i**. Vakt o‘tishi bilan bu so‘z ellipsis hodisasiga uchragan: **Kattaqaynar**. *Katta*, *qayna*, -*ar* ko‘rinishidagi lingvistik omillar kishilarning yashashiga xos jamlikni anglatgan ekstralingvistik omillar ta’sirida oldin so‘z birikmasini, so‘ngra toponimni hosil qilgan: *katta+qayna~-ar* > *katta qaynar* > **Kattaqaynar** (apellyatpv so‘z+ apellyativ so‘z + qo‘shimcha > sifat+sifatdosh > yangi so‘z (so‘z birikmasi) > topoasos-topoasos-topoformant > toponim).

Mazkur toponimga mos ravishda yonma-yon tarzda joylashgan **Kichikqaynar** (Sam. v. Urgut t. q.) toponimi ham bor. Bu toponim ham uchta ma’noli qismlardan tashkil topgan: *kichik*, *qayna*, -*ar*. Qayd etilgan ma’noli kismlar avval apellyativ leksikada, so‘ngra onomastik leksikada obektlarning nomlanish talablari asosida onomastik yasalish jarayonlari ro‘y bergan: *kichik+qaynar* > *kichik qaynar* >

¹ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969.-С.407; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 508-бет.

Kichikqaynar Unda toponimik derivatsiya jarayoni ro'y bergan bo'lib, etimoni *kichik qaynar* birikmasi.

KATTAKO'RG'ON // Kattako'rg'on (Sam. v. t. va sh.) toponimining shakllanishi va kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Katta hududning o'rab olingen joyi xalq vakillari tomonidan Kattaqo'rg'on deyilgan. Bu holda uning etimoni (ilk shakli va ilk ma'nosi) sifatlovchi+sifatlanmish holatidagi katta qo'rg'on birikmasidir.

2. Mazkur toponimda uchta ma'noli bo'lak bor: katta, ko'rg', -on. Katta so'zi umuman kattalikni anglatadigan joy ma'nosini anglatadi. -on topoformanti esa ko'plikni ifodalaydigan vosita.

3. Bizningcha, toponim tarkikibidagi katta so'zi hajmni bildirmaydi. Toponimdagи katta so'zi kanta lug'aviy asos (apellyativ)ining fonetik o'zgarishga uchragan ($k > t$) shakli. V. Nikonorning qayd etishicha, *kanta* lug'aviy asosi saklarning so'zi bo'lib, devor bilan o'ralgan joy ma'nosini ifodalaydi¹. Uning fikrini qo'llab-quvvatlaydigan *kanda* topoasosli misollar mamlakatimiz hududidagi toponimlar tizimida bor: **Kandasoy** (Nam. v. Chorkesar q. adir va soy) - bu toponimda t tovushi d tovushiga o'tgan ($t > d$), ma'nosi *qo'rg'onli soy* demakdir. **Kandabuloq** (Far. v. Quva tumanidagi k. va b.) - *qo'rg'onli qishloq*, *qo'rg'onli buloq* ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, B. G'. G'afurovning tadqikotida² ham $t > d^3$ shaklidagi fonetik o'zgarishga uchragan *kanta* // *kanda* lug'aviy assosining shakli bilan hosil bo'lgan toponim qayd etilgan: **Kanda**. **Obikanda** (Qash. v. Kitob t. k.) toponimida *ob* topoleksemasi *suv*, *kanda* topoleksemasi esa *qo'rg'on* ma'nolarini ifodalaydi. Toponim *suvli qo'rg'on* degan ma'noni ifodalaydi. Xullas, shahar va qishloq ma'nolarida qo'llanuvchi kent lug'aviy assosining tarixiy taraqqiyot natijasida turli fonetik o'zgarishlarga uchrab, *kan*, *kat* ko'rinishlarida kelishi⁴ ham *kanta* va *kand* lug'aviy asoslarining o'zaro bog'likligini ko'rsatgan.

Ushbu ma'noli qism *qo'rg'on* so'zi bilan birikib, fonetik o'zgarishlarga uchragan: *kanda* > *kanta+ko'rg'on* > *kanta qo'rg'on* >

¹ Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. -М., Мысль, 1966. с.184.

² Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. -Душанбе, Ирфон, 1989. 2 том. 19-,466-б.

³ Севорян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. с.37.

⁴ Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг Ўрганилиши. Т., Фан, 1982 .26-бет.

kattaqo 'rg'on > **Kattaqo'rg'on**. Demak, katta lug'aviy asosi bilan shakllangan ba'zi toponimlardagi bu so'z ma'lum o'zgarishga uchrab, shu holga kelgan. Nisbatan yaqin davrlarda yaratilgan toponimlarda *katta* so'zi ko'p qo'llanadi. *Kanta* so'zining toponimlar tarkibida ma'lum bir miqdorda qo'llanib, katta shakliga kelib qolishi va shu holatida ishlatalishi esa juda kam uchraydi. Xullas, toponim katta hududdagi qo'riqlanadigan joyni emas, balki maxsus qo'rg'on shaklida qurilgan joy nomini anglatadi. Agar ushbu toponimning oldingi davrdagi poytaxt Samarqandga yaqinligini hisobga olsak, uning strategik jihatdan alohida katta qilib qurilgan *qo'rg'on* – himoya obekti ekanligini tushunish mumkin. Alohida holda maxsus qurilgan himoya qo'rg'oni ma'nosini anglatadigan (*kanda* > *kanta+ko'rg'on* > *kanta qo'rg'on* >) *kattaqo 'rg'on* so'z birikmasi uning etimonidir.

KESKANTERAK // Keskanterak (Nav. v. Qiziltepa t. va Vux. v. Jondor t. dala va tepa) - toponimi uchta ma'noli qismdan iborat: *kes*, -*gan*, *terak*¹. Uyada ikkita o'zak va bitta ergash morfema mavjud. Ko'rsatilgan ma'noli qismlarning birlashishidan apellyativ leksikaga oid bo'lgan atributiv birikmaning *sifatdosh+ot* ko'rinishli turi hosil bo'lgan: *kes+-gan+terak* > *kesgan terak*. Birinchi so'zdagi *g* tovushining *k* tarzida talaffuz qilinishi turkiy tillarga xos bo'lgan fonetik o'zgarish: *g* > *k*.

Kesmoq so'zining birinchi ma'nosи bo'lган *tig' bilan bo'laklarga ajratmoq*, *qirqmoq* ma'nosи bilan terak so'zining tollar oilasiga mansub, po'stlog'i ko'kish, yoki oqish, baland daraxt deb izohlanuvchi ma'nosи bilan birlashib, *kesgan+terak* > *kesgan terak* predikativ birikmasini yuzaga keltirgan. Nomlanish zaruriyatи bilan mazkur birikma onomastik leksikadagi birinchi almashinuv qonunning ta'sirida joy nomiga o'tgan: *kesgan terak* > **Kesganterak**. Birikmadan toponimning yozilishidagi asosiy fonetik va grammatik farqi uning bir butun so'z sifatida aytilishi va barcha ma'noli qismlarining qo'shib yozilishi hisoblanadi. Binobarin, unda birikmaning keyingi ko'rinishi bo'lgan toponimning hosil bo'lishi quyidagicha: *kesgan terak* > *kesganterak* > **Kesganterak**. Bu toponimning etimoni sifatdosh+ot ko'rinishidagi kesilgan terak birikmasi. Uning tarkibidagi *-il* topoformanti tushirib qoldirilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas: *kesilgan terak* > *kesgan terak* > *keskan terak*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 381-б. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 164-б.

kabi. Chunki *terak* so‘zi bilan kesilgan so‘z shaklining birikuvi mantiqan o‘zini oqlaydi. Agar bu so‘z kesilgan so‘zining qisqargan shakli deb tan olinmasa, unda so‘zning o‘zagi kes fe’li. Joy nomi oldin professionalizm ta’sirida birikma holatida shakllangan, so‘ngra bu birikma toponimga aylangan.

KECHKELDIK // Kechkeldik (Sam. v. Jomboy t. q.) - to‘rtta ma’noli qismidan iborat relyativ birikma qolipli toponim: *kech*, *kel*, *-di*, *-k*¹. Uning kelib chiqishi haqida ikkita taxmin bor:

1. Toponimdagи birinchi ma’noli bo‘lak *kech* so‘zi bo‘lib, ravish so‘z turumiga oid. Ikkinchi ma’noli bo‘lak bo‘lgan *kel* fe’l so‘z turkumiga oid so‘z, *-di* ma’noli kismi esa o‘tgan zamon fe’lini yasovchi qo‘s Shimcha, *-k* ma’noli qismi apellyativ leksikada ko‘plik ma’nosini anglatuvchi shaxs-son qo‘s Shimchasi.

Mazkur toponim kech keldik ko‘rinishidagi relyativ birikma holatida bo‘lgan, vaqt o‘tishi bilan va nomlanish jarayonining talabi natijasida bu birikma bir butun so‘z tarzida birlashib, toponimik derivatsiya hodisasi tufayli joy nomiga ko‘chgan: *kech +keldik > kech keldik > kechkeldik > Kechkeldik*. Toponimning etimoni kech keldik ko‘rinishidagi relyativ birikma. *Kechikib keldik, ulgurmadiк* ma’nosi nomlanish jarayonida joy nomiga singdirilgan.

2. Toponim kechib keldik // suv kechib keldik birikmasidan shakllangan: *suv kechib keldik > kechib keldik > kechkeldik > Kechkeldik*. Uni ikkinchi taxmin asosida talkin qilish o‘rinli. Uning etimoni *kechib keldik // suv kechib keldik* shakllaridagi relyativ birikma sanaladi. Bizningcha, joy nomining kelib chiqishi haqidagi ikkala taxmin ham ma’lum bir ma’noda bir-birini to‘ldiradi. Bu holatlar onomastik so‘z yasalishining sinxron plandagi ko‘rinishi hisoblanadi.

KISHIBOSDI // Kishibosdi (Qash. v. Shah. t. jar) – toponimining kelib chiqishi xususida quyidagi taxminlar bor:

1. Aytishlaricha, birinchi bo‘lib bu yerlarga kishi, ya’ni *erkak kishi qadam qo‘ydi* ma’nosida **Kishibosdi** joy nomi shakllangan. Ya’ni obekt tasodifiy sharoitdan kelib chiqib nomlangan.

2. Bu toponim to‘rtta ma’noli qismidan tashkil topgan: *Kishi, -ni, bos, -di*. Topoobektning bu tarzda nomlanishi asosida ekstraliningvistik

¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 386-387-бет. Гуломов А., Тихонов А. -Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 411-,422-бет.

omillar turadi. Lingvistik omillar ham toponimda asosiy omillardan biri bo'lib kelgan. Nomlanish jarayonida o'sha yerga xos bo'lган xususiyat, belgi va holatlar e'tiborda bo'lsa, alohida bir voqyeaning joyni nomlashda turtki, vosita rolini bajarishi mumkin. Mana shunday voqyealar ta'sirida ushbu toponimning nomlanganligi tabiiy.

Jarlikning yonidagi qishloq ahlining aytishicha, u juda bahaybat jarliklardan biri bo'lган. O'sha qishloqlik (Suvtushar kishlog'i) mashxur va epchil ovchi kaklik ovlash bahonasida bu jarda bir necha kun ov qiladi. Oxirgi kuii uni tushdan so'ng topisha olishmaydi. Ertasiga ertalabdan qidirishsa ham, ovchidan nomnishon yo'q. Kishilar uning tagiga bir amallab tushib borishsa, jarlikning tubida kattagina o'pirilish bo'lганни sezishadi. U yerni qazib, ovchini topish, olib chiqish imkoniyati umuman bo'lмаган. Natijada, ovchining qarindosh-urug'lari ilojsiz holatda unga aza tutishga majbur bo'lishgan. O'sha voqyeaning ro'y bergeniga ancha yillar o'tgan bo'lsa ham, keksalar aytgan mazkur voqyea avloddak-avlodga o'tib kelmokda.

Mana shu voqyea joyning nomlanishiga sabab bo'lган va joy **Kishibosdi** deb atalgan. Joylarni nomlashning negativlik tamoyili yuqoridagi voqyea toponimning yuzaga kelishiga asos bo'lганligini ko'rsatib turibdi. Unda kishi so'zi topoasos, -ni topoformant hamda bosdi - topoleksema vazifalarini bajarib kelgan.

Oldin *kishi+ni+bos+-di* shaklidagi yasalish tufayli yuzaga kelgan kishibosdi birikmasi apellyativ leksikada ishlatilgan. Joyga nom berish zaruriyati tufayli apellyativ leksikada yaratilgan va o'ziga xos apellyativ ma'noni ifodalab turgan kishini bosdi hamda odamni bosdi ko'rinishlari fonetik o'zgarishlarga uchrab toponimik derivatsiya hodisasi tufayli joy nomiga ko'chgan: *kishi+ni bos+-di* > *kishini bosdi* > *kishi bosdi* > **Kishibosdi**. -ni topoformanti ellipsis hodisasi natijasida nol ko'rinishga kelib qolgan. Uning etimoni *kishini bosdi* ko'rinishidagi birikmasi. Unda to'liq holatda o'sha ovchi fojeasi muhrlangan.

KUMUSHKON // Kumushkon (Tosh. v. Parkent t. q.) - toponimning kelib chiqishi va shakllanishi haqida bir necha faraz mavjud:

1.Bu toponim *Kumush* degan ayolning nomiga qo'yilgan obektning nomi: *kumush+kon* > *kumushkon* > *Kumushkon* > **Kumushkon**. Toponimni bu tarzda talqin qilinishi xalq etimologiyasi.

2. **Kumushkon** toponimida Toshkent toponimik hududiga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. Sababi, mazkur toponimik hududida *kent*, *kend*, *kand*, *kan*, *kon* shaklidagi izotoponimlar ko‘p qo‘llanadi.

Kumush qazib olinadigan joy shunday atalgan: *kumush + kon* > *kumush+kon* > *kumushkon* > **Kumushkon**. Bu yerda birinchi topoleksemaning ma’nosи to‘g‘ri berilgan. Ammo ikkinchi topoleksemaning ma’nosи faqat so‘zning shakliga qarab qayd etilgan: *kon*. Bizningcha, bu yerda yangilishilgan. Sababi, joy nomi tarkibidagi kon topoleksemasi bugungi kundagi kon so‘ziga (mazmun) ma’no jihatdan mos kelmaydi. Demak, bu faraz ham xalq etimologiyasining namunasi sanaladi.

Ushbu toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *kumush*, *kon*. Birinchi topoleksema ikki ma’noda ishlatalidi: “1) *Ximiyaviy element. Oq, ko‘kish rangli yaltiroq asl metall // Kumush tanga. Kumush qoshiq;* 2) *Kumush - xotin qizlar ismi*”¹.

Joy nomining ikkinchi topoleksemasi tarkibida fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergen: *kent* > *kend* > *kand* > *kan* > *kon*. Joy nomi tarkibidagi kon topoleksemasida shu holga kelguncha uchta fonetik o‘zgarish ro‘y bergen: 1) *ye* > *a*²; 2) *d* undoshining tushib qolishi³; 3) *a* > *o*⁴.

Ushbu fonetik o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lgan apellyativ yer ostidagi boyliklar qazib olinadigan joyni anglatuvchi *kon* so‘ziga omonim bo‘lib qolgan. Biroq toponim tarkibidagi ushbu apellyativ (*kent* > *kend* > *kand* > *kan* > *kon*) *shahar*, *qishloq* va *qo‘rg‘on* ma’nolarini ifodalagan⁵.

Geolog olimlarning aytishicha, yurtimizning hamma yerida metallar bor. Lekin ularni qazib chiqarish qay darajada foydali?! Mana shu hol muammoli. Bu nom bilan atalgan obekt mana shunday metal

¹ Маҳмуд Кошгариј. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 371-,413-бетлар; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.328; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.405-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.11.

³ Фуломов А., Тихонов А. Н., Кўнгурров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 392-394-бетлар.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.13; Маҳмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 72-бет.

⁵ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с. 290, 98; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг Ўрганилиши. -Т., Фан, 1982 . 34-,67-68-бетлар; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.78-79-бетлар.

qazib chiqarish mumkin bo‘lgan joy hisoblangan. Kishilar obektning xususiyatlarini bilishib, o‘sha yerga yaqinroq joyga ko‘chib borishgan. Natijada, obekt kumush qazib olinadigan joy va aholi yashaydigan yer ma’nosida avval **Kumushkend** deb atalgan. Vaqt o‘tishi bilan bu nom turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab, **Kumushkon** holiga kelib qolgan. Agar kon topoindikatorining ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, u holda toponim *kumush qo‘rg‘on* ma’nosini anglatadi. Haqiqatan ham, ushbu joy nomi tabiiy ravishda tog‘ tizmalari shaklidagi qo‘rg‘ondan tashkil topgan: **Kumushkon**.

KUNCHIQAR // Kunchiqar // Kunchiqar (Qash. v. Shah. t. q., qishloq kengashi) - toponimi haqida bir necha taxmin bor:

1. Yazshi kunlar kelar degan ma’noda qollanuvchi joy nomidir: *kun chiqar* > *kunchiqar* > **Kunchiqar**.

2. Toponim uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *kun*, *chiq*, *-ar*¹. *Kun* topoleksemasi toponimda *quyosh* ma’nosida qo‘llangan.

Quyosh chiqish tarafini anglatadigan bu toponim geografik joylashishiga qarab nomlangan. Sababi, Shahrисабз shahrining sharq tomoni **Kunchiqar** deb nomlanadi. Sharq tomonning bunday nomlanishida tog‘lar osha chiqayotgan quyoshning harakati o‘z ifodasini topgan. Demak, geografik omil obektning nomlanishiga zamin yaratgan va nomlanish tamoyili talabi bilan bu obekt shunday predikativ birikma vositasida nomlangan.

Bu toponim quyosh nuri ilk marta tushadigan joy, quyosh chiqadigan taraf ma’nolarini ifodalaydi. Uning etimoni *kun chiqar* predikativ birikmasi. U nomlanish talabi bilan onomastik konversiya hodisasi ta’sirida ega va kesim ko‘rinishidagi predikativ birikma onomastik leksikaning mahsuliga aylangan.

KUNCHIKARQO‘RG‘ON // Kunchikarqo‘rg‘on (And. v. Marhamat t. tepa) - toponimi to‘rtta ma’noli qismdan iborat: *kun*, *chiq*, *-ar*, *qo‘rg‘on*². Qo‘rg‘on so‘zi diaxron planda yasama so‘z, sinxron planda esa tub so‘z. Apellyativ leksikada bu morfemalar birlashib, atributiv birikmani tashkil qilgan: *kun+chiqar* > *kun chiqar* + *qo‘rg‘on*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 405-б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 374-375-б.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 68-б., 405-б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. -375-, 641-б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 262-бет.

> *kunchiqar qo'rg'on*. Hosil bo'lган birikma ikki bosqichda toponimlashuv jarayonida alohida ikkita toponimni shakllantirgan:

1. Kun chiqar atributiv birikmasi ot+sifatdosh ko'rinishida bo'lib, quyoshning chiqishini, ya'ni topoobektni nomlashda geografik omilning ustunligini ko'rsatgan. Mana shu ko'rinishdagi atributiv birikmadan toponim hosil bo'lганligini ham bundan sal oldinrokda *ot+sifatdosh* ko'rinishli ushbu birikma kolipli joy nomlarining etimologik tahlilida ko'rilgan edi. Toponimik derivatsiya hodisasi tufayli predikativ birikma toponimga aylangan: *kun+chiq+-ar* > *kun chiqar* > *kunchiqar* >**Kunchiqar**. Albatta, bu yerda birinchi almashjuv qonuni ham asosiy vazifani bajargan. Bu toponim boshqa obektlarga nisbatan sharq tomonni anglatadi.

2. Ot+sifatdosh ko'rinishli atributiv birikmaga qo'rg'on so'zi qo'shilib, murakkab tuzilishli atributiv birikmaning sifatdosh+ot ko'rinishi hosil bo'lган: *kun chiqar* > *qo'rg'on* > *kunchiqar qo'rg'on* >**Kunchiqarko'rg'on**.

Birinchi bosqichda bu birikma ikki so'zdan tashkil topgan: *kun+chiq+-ar* > *kun chiqar*. Ikkinci bosqichda ushbu birikma beshta ma'noli bo'lakdan tashkil topgan. Birinchi bosqichdagi birikma qo'shma so'zga aylanib, ikkinchi atributiv birikmada u alohida bir so'z sifatida qo'llangan: *kun + chiq+-ar* > *kun chiqar+qo'rgon* (*qo'r+-g'on*) > *kunchiqar qo'rg'on*. Kun so'zining kuyosh ma'nosi unda mavjud. Chiqmoq fe'lining beshinchi ma'nosi bo'lган *ufqdan ko'tarilmoq*, *ko'rinoq* mazkur birikma tarkibida kelgan.

Qo'rg'on so'zining ikkinchi ma'nosi bo'lган qal'a, qo'rg'on, shahar va shu kabilarni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor ma'nosi toponim tarkibida mavjud. So'zlar qancha ma'noga ega bo'lishidan qatiy nazar, joy nomi shu ma'nolardan biri bilan reallashadi. Mazkur kun chiqar qo'rg'on atributiv birikmasi **Kunchiqarqo'rg'on** toponimi uchun etimon. Birinchi nomlanish qonuni bu toponimda ikki ko'rinishda zohir bo'lган:

1. Sifatdosh+ot ko'rinishli atributiv birikmaga asos bo'lган sifatdosh ham alohida predikativ birikma: *kun chiqar*. Shu birikma toponimik derivatsiya hodisasi natijasida toponimga ko'chgan: *kun chiqar* >**Kunchiqar**.

2. Bu birikmaga qo'rg'on so'zining qo'shilishi bilan toponim hosil bo'lган va birinchi almashinuv qonuni ikkinchi ifodalangan:

kun chiqar+qo ‘rg‘on > kunchiqar qo ‘rg‘on > kun chiqar qo ‘rg‘on > Kunchiqarko‘rg‘on.

KO‘KSUV // Ko‘ksuv (Far. v. Shohimardon q. soy) gidronimining kelib chiqishi haqida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1. Toponimdagи ko‘k so‘zi so‘zlashuv jarayonida *baland, osmon* ma’nolarini anglatadi: *ko ‘k > ko ‘k+suv > ko ‘k suv > ko ‘ksuv > Ko‘ksuv*. Bunda *ko ‘k so‘zi rang* ma’nosini emas, balki shevalarga xos dialektal (*baland, osmon*) ma’nolarini anglatib turibdi. Ushbu joy nomining ma’nosи osmon suvi demakdir. Bu holda osmon suvi ma’nosidagi *ko ‘k suv* birikmasi topominning etimoni hisoblanadi.

2. Ushbu toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *ko ‘k, suv*. Bu atributiv birikma qolipli joy nomi onomastik konversiya jarayoni asosida shakllanib, *toza, tiniq suv oqadigan gidronim* ma’nosini anglatadi: *ko ‘k+suv > ko ‘k suv > ko ‘ksuv > Ko‘ksuv*. Qattiq tog‘ jinslaridan oqib o‘tadigan, ko‘llardan, tog‘dagi muzliklardan oqib tushadigan soy suvlari ana shunday *tiniq, ko ‘kmtir* rangda bo‘ladi. Bunday nomlanish soy va daryolarga xos: *Ko ‘ksuv soyi, Ko ‘ksuv daryosi. Tiniq suv* ma’nosidagi *ko ‘k suv* birikmasi esa *Ko ‘ksuv* gidronimi uchun etimon. Xullas, bu joy nomi gidrotoponimlardan biri hisoblanadi.

Ko ‘k so‘zi quyidagi toponimlarning yasalishida qatnashgan: **Ko‘kbulok, Ko‘kquduq, Ko‘ksuv, Ko‘ktube**. Bu toponimlarda *ko ‘k so‘zi rang, chuqurlik* va *balandlik* ma’nolarida ishlatalilgan¹.

Qosimjon Sodiqov bitiktoshlar tarkibida kelgan *ko ‘k so‘ziga to‘xtalib, quyidagilarni yozgan: “...”ko ‘k” sifati rang (ko ‘k, zangori rang) emas, balki “ildiz, asl, tub” anglamidir*². Demak, *ko ‘k* qo‘llanish *ko ‘lamiga* qarab, turli ma’nolarda qo‘llanishi mumkin.

Ko‘kbulok, Ko‘kquduq, Ko‘ksuv joy nomlaridagi *ko ‘k so‘zi* obektlarning xususiyatlariga qarab, mana shu ma’no nozikliklarida qo‘llangan. Katta buloq ma’nosidagi *ko ‘k buloq* birikmasi *Ko‘kbuloq* toponimi uchun, chuqur va tiniq suvli quduq ma’nosidagi *ko ‘k quduq* birikmasi *Ko‘kquduq* joy nomi uchun etimon bo‘lib kelgan. *Ko ‘k so‘zi Ko‘ktube* oronimida *katta, baland* ma’nosini anglatgan. Bu toponimining etimoni *baland tepa* ma’nosidagi *ko ‘k tube* birikmasi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.412-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.312-313; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.87-88-бетлар.

² Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар. Кўк турк битиглари ва уларнинг иалқини. Т., Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. 39-бет.

sanaladi. Xullas, joy nomining kelib chiqishi to‘g‘risidagi ikkala taxmin ham ma’lum bir ma’noda bir-birini to‘ldirib, bir butun holda toponim haqidagi toponimik tahlilni shakllantirishga turtki bo‘lgan.

KUNKO‘RMAS // Kunko‘rmas (Sur. v. Denov t. tepa) - toponimi to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan: *kun*, *-ni*, *ko‘r*, *-mas*¹. Vaqt o‘tishi bilan ikki o‘zak morfema orasidagi *-ni* morfemasi tushib qolgan: *kunni ko‘rmas* > *kunni ko‘rmas* > *kunko‘rmas* > **Kunko‘rmas**. Ushbu joy nomi tog‘ oldi hududga tegishli, chunki tog‘ oldi hududlarda quyoshning nuri tushadigan joylar bilan birga quyosh nuri tushmaydigan obektlar ham bor. Bu esa toponimni tashkil qilgan birikma tarkibida tushum kelishigi qo‘sishimchasi *-ni* mavjudligini tasdiqlaydi. Agar toponim *kun* *ko‘rinmas* shaklidagi birikmadan yuzaga kelganda ham, *-in* qo‘sishimchasi fonetik o‘zgarishga uchrab, tushib qolgan bo‘lardi: *kun ko‘rin+-mas* > *kun ko‘rmas* > *kunko‘rmas* > **Kunko‘rmas**. Aholi bu joylarni geografik sharoitning namoyon bo‘lishiga qarab nomlashgan, ya’ni geografik omil bu joyning nomlanishiga asos bo‘lgan. Binobarin, bu birikma toponimik derivatsiya jarayoni asosida toponimga ko‘chgan.

Apellyativ leksikadagi *kun ko‘rmas* so‘z birikmasi bilan onomastik leksikadagi ***kun ko‘rmas*** obektlili birikmasi o‘rtasida farq quyidagicha: so‘z birikmasi apellyativ leksika mahsuli bo‘lib, tobe va hokim ko‘rinishidagi ma’noli qismlardan iborat. Onomastik leksika birligi bo‘lgan joy nomi (**Kunko‘rmas**) esa necha ma’noli qismdan iborat bo‘lishidan qatiy nazar bir so‘z, ya’ni atoqli ot sifatida qaraladi. Shundagina bu toponim bilan unga asos bo‘lgan so‘z birikmasidagi farqni tushunib olish mumkin.

*Quyosh nuri tushmas, quyosh nurlari juda kam tushadigan yer ma’nosidagi Kunko‘rmas toponimining etimoni apellyativ leksikada qo‘llanuvchi *kunni ko‘rmas* (*kun ko‘rinmas*) qo‘rinishidagi birikma, Uning *quyosh nuri tushmas yoki quyoshning nuri kam tushadigan yer ma’nos* ekstralengvistik omil ta’sirida shakllangan. Mazkur tarzdagi nomlanishning mikrotoponimlarga xosligi Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida hamda Farg‘ona viloyatining **Shohimardon** qishlog‘idagi obektlarda uchradi.*

M

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 327-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 405-,420-,223-,229-бетлар

MANG‘IT // Mang‘it (Sam. v. Jomboy, Bulung‘ur, Ishtixon t; Xor. v. Yangibozor, Qo‘shko‘pir t.; Qash. v. G‘uzor t.; QkR Amudaryo t. q.) – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminlar bor:

1. Ba’zi kishilar bu nomning kelib chiqishini tabiiy hodisalardan biri bo‘lgan mangit hodisasiga bog‘lashadi. Emishkim, *mangit* so‘zidan *mang‘it* so‘zi paydo bo‘lgan. Bu xalqona talqinning bir ko‘rinishidir.

2. Turkiy qabilalardan birining nomi bo‘lib, onomastik konversiya hodisasi tufayli shakllangan. A. Ishaev bu etnonimning kelib chikishini mingta ot ma’nosida qo‘llanuvchi *mang+-at* birikmasiga bog‘lab¹, turkiy etnonimlardan biri ekanligini qayd etgan.

3. “Mang‘it - qabila. Mang‘itlar Zarafshon vohasi, Qarshi atroflari, Xorazm vohasida, Jizzax atroflarida yashaganlar va *oq mang‘it, qora manqit, och mang‘it, chala mang‘it, boyg‘undi mang‘it, temirxo‘ja, isoboy, gaulak, ko‘sса, toz, qorabayir, baqirchi, kula tamg‘али, mang‘it qozoq, o‘n ikki, cho‘qay, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay* kabi urug‘larga bo‘lingan.

Xatirchi, Jondor, Ishtixon, Xo‘jaobod, Jomboy, Bulung‘ur, Qamashi, Qarshi, Chiroqchi, Xiva tumanlarida **Mang‘it**, Buxoro, G‘ijduvon, Kattaqurg‘on, Peshku, Xatirchi tumanlarida **Mang‘iton**, Urgug‘ tumanida **Mang‘itobod** toponimlari qayd qilingan va hokazo”².

4.T. Nafasov va 3. Do‘simovlarning ta’kidlashlaricha³, **Mang‘it - ming, ming ot, mang ot** ma’nolarini ifodalaydigan so‘z. Vaqt o’tishi bilan *ming ot* yohud *mang+at(ot)* birikmalari bir so‘zga aylanib ketib, mang‘it atamasi yuzaga kelgan. U turkiy, shuningdek, o‘zbek urug‘laridan birining nomi sifatida bugungi kunda ham qo‘llanilmokda. Bunda *a* > *i*⁴ ko‘rinishidagi fonetik o‘zgarish ro‘y bergen.

Toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida berilgan taxminlardan faqat birinchisi xalqona etimologiya, ikkinchi va uchinchisi va to‘rtinchisi esa bir-birini to‘ldiradi.

Mang‘it atamasi etnotoponim bo‘lib, hozirgi kunda ham joylarga nom sifatida ishlatilmokda: *mang‘it* > **Mang‘it**. Ming +-ot yasalishi tufayli yasalgan mang‘it so‘zi etnonimlashuv jarayonini boshidan

¹ Ишаев А. Манғит сўзининг этикологияси ҳақида // ЎТА. -Т., Фан, 1958. 2-сон. –Б. 63-65.

² Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 59-бет.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. -113-114-бетлар; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.92-бет.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.10.

kechirib, etnonimga aylangan: *ming-ot* >*mingat* > *mangat* > *mangit* > **Mang‘it**. Ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng mang‘it urug‘i vakillari yashagan joy ma’nosini ifodalab turish uchun bu etnonim onomastik konversiya tufayli toponimga ham ko‘chgan: *mang‘ + at* > *mang‘it* > **Mang‘it**. Bu yerda *ы* > *a*, *ng* > *ng‘*, *a* > *i* fonetik o‘zgarishlari ro‘y bergen, ya’ni fonetik tamoyil amal qilgan. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, **Mang‘it** toponimi uchun mang‘it etnonimi etimon bo‘lsa, Mangit etnonimi uchun esa *ming+ot* yasalishidan paydo bo‘lgan *mangit* > *mangit* so‘zi etimon vazifasini bajargan.

Bundan anglashidib turibdiki, joy nomining etimoni quyidagi tarzda taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib, toponimga aylangan: *etimon* > *apellyativ leksika* > *onomastik leksika (toponim)*. Bu toponim bir necha aholi punkti va shaharning nomi. Ushbu toponim quyidagi taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan: *ming+ot* > *mingat* > *mingat* > *mang‘it* > **Mang‘it**. Bulardan ko‘rinib turibdiki, mazkur joy nomi quyidagi tarzda koliplangan: *apellyativ leksika* > *onomastik leksika* > *etnonim* > *toponim*.

MOLGUZAR TOG‘I // Molguzar tog‘i (Jiz. v. G‘allaorol t. tog‘) toponimining kelib chiqishi haqida ikkita taxmin bor:

1. Toponim to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan: *mol*, *guzar*, *tog‘*, - *i*. Ular obektni nomlash ehtiyoji tufayli oldin birikmasiga aylangan, so‘zogra shu birikma toponimga ko‘chgan: *molguzar* > *molguzar+tog‘-i* > *molguzar tog‘i* > **Molguzar tog‘i**. Bu birikma toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida toponimga aylangan.

2. Joy nomi to‘rta ma’noli qismdan, ya’ni uchta topoasos va bitta topoformantdan iborat: *mol*, *guzar*, *tog‘*, -*i*.

Uning tarkibidagi *mol* so‘zi fonetik o‘zgarishga uchrab shu holga kelib qolgan. Aslida bu so‘z *mor* so‘zi hisoblanadi. Unda, ya’ni fors-tojikcha ilon ma’nosidagi *mor* so‘zida *r* > *l* o‘zgarishi¹ ro‘y bergen: *mor* > *mol*.

Obektga nom qo‘yish zaruriyati tufayli to‘rtala ma’noli qism birikib, birikmani hosil kilgan: *mor+guzar* > *mol guzar* > *molguzar+tog‘+-i* > *molguzar tog‘i* > **Molguzar tog‘i**. Bu birikma toponimlashuv hodisasi tufayli toponimga ko‘chgan va *iloni ko‘p tog‘*

¹ Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 389-бет.

ma’nosini anglatgan. Uning etimoni *morguzar tog*‘i shaklidagi birikma sanaladi.

Keltirilgan birinchi taxmin xalq etimologiyasi bo‘lsa, ikkinchi taxminda ilmiy qimmatga ega bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar tufayli toionimning shakllanishi ko‘rsatib berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, toponimning yuzaga kelishi va etimologik taxdilini amalga oshirish uchun fonetik tamoyil bilan rekonstrukqiya usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

N

NARPAY // Narpay (Sam.v.t.) – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxmin ko‘rinishidagi mulohazalar bor:

1. Dehqonchilik rivojlangan hududda ekin maydonlaridagi ekin qatori va kichik maydonlarini *paykal*¹ deb atash hollari bor. Toponim *naridagi paykal* birikmasidan shakllangan: *naridagi paykal* > *naripaykal* > *narpaykal* >*narpay* > **Narpay**. Bu nomga bunday munosabatda bo‘lish sinxron munosabatning natijasida shakllangandir.

2. Toponim *nar* hamda *pay* so‘zlaridan shakllangan. Xalq vakillari tomonidan tuyani *nortuya*, *nor* (zoonimlarning alohida bir turi, nor so‘zi to‘rtta ma’nosidan birinchi ma’nosи “Bir o‘rkachli erkak tuya.”) deb atash hollari uchraydi². Nor so‘zidagi *o* unlisi talaffuzda *a* unlisiga almashgan: *o* > *a*. *Pay* so‘zi fors-tojikcha bo‘lib³, *oyoq*, *qadam*, *narsaning quyi qismi* degan ma’nolarni anglatadi. *Nar* va *pay* so‘zları birikishidan mazkur toponim shakllangan: *nar+i* > *nari* + *pay* > *naripay* > **Narpay**.

Bulardan anglashilib turibdiki, oldingi davrlarda tuyalar karvoni, ehtimol, *Buyuk ipak yo‘liga* tutashgan karvon yo‘llarida o‘tib qaytadigan joy, tuyalarning oyog‘i yetadigan hudud shunday tarzda nomlangani uchun hudud ham **Narpay** deb atalgan, ya’ni ushbu toponim qadimgi davrlarda ham savdo yo‘li ustida joylashgani uchun shunday nomlanishi odat tusiga kirgan. Bugungi kunda texnika rivojlanib ketgan bo‘lsa-da, ushbu nom tarixiylikni o‘zida ifodalagani uchun xalq vakillari uni

¹ Эҳтимол, пайкал сўзи ўзлашган сўз бўлса ҳамки, шева вакиллари нутқида экин қатори ва кичик майдонлари сифатида қўлланиши амалда кузатилган.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. 3-том. 60-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. 3-том. 200-бет.

toponimlar tizimida saqlanib qolishgan. Ushbu toponimni ham tarixiy, ham zootoponimlar deb belgilash o‘rinlidir.

O

OVAZQAZG‘AN // Ovazqazg‘an // Avazqazg‘an (Jizzax v. Mirzacho‘l t.) - toponimi uchta ma’noli qismdan iborat: *Ovaz* (*Avaz*), *qaz*, *-gan*¹. Uning birinchi ma’noli qismi kishi ismi bo‘lib, undagi tovushlarda fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergan: *a* tovushi o‘rnida *o* tovushi qo‘llangan: *a > o*². Bu ism oldin Avaz shaklida bo‘lgan, *a* unlisining *o* unlisiga o‘zgarishi tufayli Ovaz holatiga kelib qolgan. Hozirgi kunda ham kishi nomi *Avaz* va *Ovaz* variantlarida uchraydi. *Qaz* so‘zi qazi shaklida uchraydi va *yerni chuqur qilib kovla* ma’nosini ifodalaydi³.

Uchinchi ma’noli bo‘lak bo‘lgan *-gan* topoformanti turkiy tillarda , shu jumladan, o‘zbek tilida qadimdan qo‘llanib kelingan qo‘shimchalardan biri. U *-qan* sifatdosh formasining tarixiy ko‘rinishini ifodalaydi: *-qan* tarixiy taraqqiyot natijasida *-gan* holatiga kelgan. Shevalarda *-gan* shaklida qo‘llanadi, tuslanishning tarixiy o‘tgan zamon fe‘li formasini qo‘rsatganda *-gan* formasidan foydalaniadi.

Ot+sifatdosh shaklidagi mazkur predikativ birikmadan shakllangan toponimning etimoni *Ovaz qazgan* tarzidagi birikma. Avaz ismli kishi tomonidan qazilgan bu quduq shu tarzda nomlangan. Albatta, Avaz degan kishining quduq qazishi ekstralivingistik omil. Ekstralivingistik hamda lingvistik omillarning birligi va toponimik derivatsiya natijasida bu toponim yuzaga kelgan.

OYQOR // Oyqor (Jiz. v. Baxmal t. tog‘) toponimining etimologik tahlilida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Joy nomi ikkita ma’noli qismdan iborat: *oy*, *qor*. Ushbu ikki so‘z birikib, so‘z birikmasini, so‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan: *oy+qor > oy qor > oyqor*. Yuzaga kelgan qo‘shma so‘z onomastik konversiya jarayoni tufayli toponimga aylangan: *oyqor > Oyqor*. Hosil bo‘lgan toponim «*kattaligi oyday qor*» degan ma’noni ifodalaydi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 535-536-бетлар; Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961.292-бет.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.72-бет; Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.383-бет.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.503-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.439-бет.

2. S. Qoraev bu «*toponimning ikkinchi komponenti sug‘dcha g‘ar tog‘ degan ma’noni anglatadi*» degan holda, biror manbani ko‘rsatmagan¹.

3. M. Almatov esa toponim tarkibidagi *qor* (*g‘ar*) topoleksemasiga qarab, sug‘d tilining yodgorliklaridan biri, deydi². Bunga qo‘shilish qiyin. Sababi, xalq bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot talabi natijasida obektlarni qayta nomlagan.

4. “**Oyqor** – “yoz boshida ham yangi oy shaklida qor yotadigan tog” deb izohlashadi. Aslida Oyqor, Chimqor, Shovqor toponimlari tarkibidagi *qor* (*qar*) formanti sug‘dcha “*g‘ar*” so‘zidan”³. “**G‘ar** (sug‘dcha) – “tog”. Tojikistondagi Murg‘ob daryosining bosh tomoni o‘rta asrlarda **G‘archiston** “tog‘li o‘lka” deb atalgan. Samarqand *G‘archiston* deganda Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi tog‘lar tushunilgan.

O‘zbeksitonda **G‘alcha** degan qishloqlar asli **G‘archa** “tog‘lik” ma’nosini anglatgan: Tojikistonning tog‘li qismlarida, xususan Pomir va Yagnobdan kelgan tog‘liklarning tojikchadan ham farq qiladigan tillari tekislikdagi xalqlarga tushuniksiz bo‘lganidan ularni *g‘alcha* (churchut) deb atashgan. Baxmal tumanidagi **G‘alchabuloq** toponimi ham shu so‘zdan”⁴.

5. Toponimdagи *oy* aslida *al* shaklida bo‘lgan: *o* unlisi *a* unlisidan yuzaga kelgan. Shu o‘zgarish ta’sirida so‘zdagi *l* > *y* holati ro‘y bergen: *al* > *oy+qor* > *oyqor* > **Oyqor**. Xalq nutqida *al* so‘zining «*baland*» degan ma’nosi bor. Bunda joy nomi «*baland qorlik*» degan ma’noni bildiradi.

6. Toponimdagи *qor* hozirgi kunda qo‘llanadigan *qor* so‘zi bilan bog‘liq emas. Uning birinchi ma’noli qismi bo‘lgan *oy* so‘zi *o‘y* so‘zining o‘zgargan shakli (*o‘* > *o:* *o‘y* > *oy*) bo‘lib, *oronimiyada notejis*, *o‘y-qirli ma’nosiga ega*⁵. Qadimgi turkiy tilda va Mahmud Koshg‘ariy davrida *oy* // *o‘y* so‘zi «*chuqur*, *chuqurlik*, *yerning o‘nqir-*

¹ Қораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978. 90-бет.

² Алматов М. Тил тарихи дарсларида топонимик материаллардан фойдаланиш // Ўзбек тили ва адабиёти таълими. 2002 йил. 6-сон.-Б. 12-15.

³ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 69-бет.

⁴ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 123-бет.

⁵ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 137-бет; Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. -С.17.

cho ‘nqiri», ma’nosiga ega bo‘lgan¹ «*Oy – turkiy so‘z, o‘y chuqurlik, chuqur joy leksemasining o‘zgargani. Oy < o‘y – chuqur, teran, qazilgan joy»². Uning «*teran»* ma’nosи топоним учун хос эмас. *Oy* со‘зининг бу ма’нода ишлатилишини H. Hasanov ham ta’kidлаган³.*

Униг иккинчи ма’ноли qismi bo‘lgan *qor* со‘зи esa шу шаклга келгuncha fonetik o‘zgarishlarga uchragan. Bu со‘з asli *tog*‘ shaklida bo‘lgan: *tog*‘ > *tog*‘ > *rog*‘ > *roq* > *qor*. Unda t > r, g‘ > q o‘zgarishlari ro‘y bergen. Obektga nom berish ehtiyoji natijasida *oy* со‘ziga qo‘shilgan *tog*‘ со‘zida metateza hodisasi ro‘y bergen: *oy+ tog*‘ > *oytug*‘ > *oyrog*‘ > *oyroq* > *oyqor* > **Oyqor**. Bu holda *t* > *d* > *r* shaklidagi fonetik o‘zgarishlar ta’sirida *g*‘ > *q* holatidagi fonetik o‘zgarish amalga oshgan⁴. Demak, топоним *notekis*, *o‘y-qirli joydagi tog*‘ degan ма’noni beradi. Униг etimoni esa turli fonetik o‘zgarishlarga uchragan *o‘yqir* (*oy tog*) birikmasi.

7. Agar *oy* // *o‘y* со‘зи «*chuqur, chuqurlik, yerning o‘nqir-cho ‘nqiri»*, deb⁵, shuningdek, «*Oy – turkiy so‘z, o‘y (chuqurlik, chuqur joy leksemasining o‘zgargani. Oy < o‘y – chuqur, qazilgan joy»*, deb qayd etilganligi⁶ e’tiborga olinsa, mazkur топоним asli tabiiy-geografik holatdan, ya’ni *o‘nqir-cho ‘nqirli joy* ма’nosidagi *o‘y-qir(li)* shaklidagi juft со‘zdan shakllangan bo‘ladi. Unda quyidagi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergen: *o‘y-qir* > *oy-qir* > *oy-qor* > *oyqor* > **Oyqor**. Со‘зининг иккинчи ма’ноли qismidagi *i* unlisi singarmonizmga ko‘ra birinchi ма’ноли qismidagi *o‘* > *o* fonetik o‘zgarishiga moslashib, о tovushiga о‘tgan. Топонимнинг etimoni – «*o‘nqir-cho ‘nqirli joy»* ма’nosidagi *o‘y-qir(li)* juft со‘зи.

Униг kelib chiqishi haqidagi birinchi, иккинчи va uchinchi farazlar ishonchsiz, to‘rtinchi hamda beshinchi farazlarda esa топоним va lug‘aviy asosdagi fonetik hodisalar fonosemantik tamoyil vositasida asoslangan.

¹ Древнетюркский словарь. Лгр., Наука, 1969. –С.365; Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 84-бет.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 138-бет.

³ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 19-20-бетлар.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 112-,118-,143-,61-,138-139-,153-бетлар.

⁵ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. –С.365; Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 84-бет.

⁶ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 138-бет.

OLTINQUDUQ // Oltinquduq gidronimi (Bux. v. Jondor t. quduq)ning yuzaga kelishi haqida uch xil faraz bor:

1. Aholining aytishicha, joy nomi ikkita ma'noli bo'lakdan shakllangan: oltin va quduq. Oltin so'zi qadimgi turkiy tilda omonim so'z sifatida ishlatilgan. Birinchi omonim so'zning oltun tarzida qo'llanib, oltin, oltin tanga ma'nolarida ishlatilishi, ikkinchi omonim so'z esa geografik nom, kishi ismi, unvon ma'nolarida qo'llanishi kayd etilgan¹ (Qarang: Ko'rsatilgan sahifadagi o'ninchisi va o'n birinchi so'zliklar). Keyinchalik bu so'zdagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan²: *u > i* (*oltun > oltin*). Obektning nomlanish talabi va toponimlashuv hodisasining bir ko'rinishi bo'lgan onomastik konversiya tufayli bu birikma toponimga aylangan: *oltin+quduk*, *> oltin quduq > Oltinquduq*. Uning etimoni *oltin quduq* atributiv birikmasi. Ushbu birikma ko'rsatilgan ikki ma'nosi bilan toponim yasashga o'tgan: 1) *oltin topilgan yohud oltin chiqgan quduq*; 2) *suvi ichishli, noyob, doim suvi bor quduq*.

Demak, toponim cho'lida, cho'lga yaqin yerda joypashgan quduq ma'nosini anglatadi, chunki quduq hamma yerda qazilmaydi, balki suvsiz yerlarda qaziladi. *Quduq* va *oltin* so'zlari toponim yasashda qo'llanadigan topoleksemalar jumlasiga kiradi. Uning etimoni oltin quduq birikmasi.

2. Toponim ikkita topoleksemadan iborat: *oltin, quduq*. Ikkinchi topoleksema sinxron planda bir so'z, diaxron planda esa u yasama so'z. Birinchi topoleksema qadimgi turkiy tilda ikki xil yozilgan³: oltun va oltin so'zlari haqida yuqorida gapirildi. Oltin (oltin) so'zi oltin so'zi bilan shaklan bir xil bo'lib qolgan⁴ (ko'rsatilgan sahifaning birinchi so'zligi)). Ushbu so'z *oltin, tilli* ma'nosini anglatmaydi, balki *osti* va *quyi* ma'nolarini ifodalaydi. L. Karimova so'zda mazkur ma'noning borligini shimoliy o'zbek shevalari materiallari asosida qayd etgan⁵. Vaqt o'tishi bilan *u* unlisi *i* unlisiga almashgan⁶: *u > i, oltun > oltin*. Bu

¹ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.40.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.94.

³ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.40.

⁴ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.40.

⁵ Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг Ўрганилиши. Т., Фан, 1982 .81-бет.

⁶ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.95-96-бетлар.

so‘zning yuzaga kelishi haqida B. To‘ychiboev ham maxsus to‘xtalgan¹. Mazkur so‘zga quduq so‘zi qo‘shilgach, toponim shakllangan: *oltin* > *oltin+quduq* > **Oltinquduq**.

3. Taxminimizcha, joy nomi uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: ola, to‘n, quduq. Bu fikrni kishilar kiyadigan to‘nning *ola to ‘n* degan turi ham borligi tasdiqlaydi. *Ola to ‘n* // *olato ‘n* birikmasidagi *to ‘n* so‘zi turkiy tillardan yoqt, qirg‘iz, tatar tillarida ham to‘n ma’nosida ishlatilishini F. R. Zeynalov va M. D. Novruzov qayd etishgan². *Ola* so‘zi asli *ala* shaklida bo‘lib, talaffuz jarayonida *a* unlisi *o* unlisiga o‘zgargan: *a* > *o*³ va *oq-qora, oqish; turli xil rangli, yo ‘lli yoki gulli; chipor* kabi bir necha rangni ifodalaydi⁴. *Olato ‘n* so‘zining *quduq* so‘ziga birikishi natijasida *a* unlisi tushib qolgan, *o*’ unlisi esa *i* unlisiga almashgan (*o*’ > *i*) *olato ‘n+quduq* > *olato ‘n quduq* > *olto ‘n quduq* > *oltin quduq* > **Oltinquduq**. Mazkur toponim quduq suvining loyqaligini anglatadi. Demak, uning etimoni *olato ‘n quduq* birikmasi sanaladi.

Binobarin, birinchi farazda qayd etilgan Oltinquduq toponimining oltin topilgan quduq va suvi ichimli, noyob, dog‘li suvi bor quduq ma’nolari ikkinchi farazdagagi **Oltinquduq (Oltinquduq)** joy nomining *quyi, ost quduq* ma’nosiga ziddir. Bizningcha, ikkinchi va uchinchi farazda jon bor. Ushbu toponim *quyidagi quduq* degan ma’noni bildiradi: *oltin +quduq* > *oltin quduq*, > *oltinquduq*, > **Oltinquduq (Oltinquduq)** > **Oltinquduq** (etimoni *oltin quduq* birikmasi). Shu o‘rinda oltin apellyativi bilan shakllangan **Oltintepa** (Tosh. v. Tosh. t. tepa va aholi punkti) toponimi boshqa obektlarga nisbatan olganda quyilikdagi tepa ma’nosini anglatishini hamda *oltin tepa* birikmasi uning etimoni ekanligini qayd etish ham o‘rinli.

Quduq so‘zining shakllanishi ham *quyi* so‘zi⁵ bilan bog‘liq: *quyi* > *qudi+q* > *qudiq* > *quduq*. Toponim onomastik konversiya jarayoni asosida shakllangan va uning etimoni *oltin quduq* birikmasi sanaladi. Shu bilan birga, suvi *loyqa quduq* ma’nosidagi *olato ‘n kuduq* birikmasi ham toponimning shakllanishiga asos, ya’ni etimon bo‘lgan. *Oltin,*

¹ Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. -Т., Ўқитувчи, 1996.66-69-бет.

² Зейналов Ф. Р., Новрузов М. Д. Об этимологии слова altun // СТ. № 5. -Баку, 1984. –С.45-50.

³ Гуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнгурор П. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977.383-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.528-бет.

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.571-бет.

olato'n // olto'n (oltin) so'zлari bilan shakllangan toponimlar mamlakatimizning Samarqand¹, Andijon² viloyatlarida, shuningdek, Qozog'iston (Chimkent)da³ mavjud.

ONAO'LGAN // Onao'lgan (Tosh. v. Bo'stonliq t. soy va joy) toponimini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Mazkur toponimning kelib chiqishi haqida ikkita taxmin bor:

1. Ona so'zi bu birikmada ega, o'lgan so'zi esa kesim: onao'lgan. Mana shu holat bilan predikativ birikma shakllangan. Togyunimik derivatsiya natjisida bu birikma onomastik leksika tarkibiga ko'chgan: *ona+o'l+-gan > ona o'lgan > Onao'lgan*. O'lmoq so'zining vafot etmoq ma'nosini bilan *ona* so'zining birinchi ma'nosini birgalikda predikativ birikma shakllantirgan: *ona+o'lgan > onao'lgan*. Toponimning etimoni predikativ birikma bo'lgan *ona o'lgan* birikmasi. Mazkur toponim ona o'lgan, qazo qilgan joy degan ma'noni ifodalaydi. Bu aholining o'zi bilgan obekt haqidagi xalq etimologiyasi ko'rinishidagi farazi hisoblanadi. Ushbu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki unga sinxron plandagina qaralgan.

2. Ona o'lgan birikmasi tovush o'zgarishlariga uchrab, shu holga kelib qolgan. Toponim tarkibidagi o'lган lug'aviy asosi qadimgi turkiy tilda o'lang shaklida aytilgan bo'lib⁴, o'l+-an tuzilishiga ega. *O'l* — ho'l, nam, suvi bor; ko'kat va o'tning yashnab turgan davri ma'nosini ifodalaydi. -ang qo'shimchasi so'z o'zagidan anglashilgan belgi, ma'lum narsa va predmetning xosligi, shuningdek, mavjudligini bildiradi. Bu so'z qadimgi turkiy tilda kichik o'tloq ma'nosini ifodalaydi⁵. Ushbu so'z bilan yuzaga kelgan toponimlarga T. Nafasov **O'lanbulok**, **O'lang** joy nomlarini misol kilib keltirgan⁶. Ikki topoleksema qo'shilib, so'z birikmasi va qo'shma so'zni hosil qilgan: *ona+o'lang > ona o'lang > onao'lang > onao'lgan*. Talaffuzda o'lang so'zida metateza hodisasi ro'y bergan: *o'lang > o'lgan*. Qayd

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. 101-бет.

² Ономастика Узбекистана. -Т., Ўқитувчи, 1987.13-, 23-бетлар.

³ Караев С. К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. -Т., 1998. с 81.

⁴ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. с.383.

⁵ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. с.383.

⁶ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. -Т., Ўқитувчи, 1988.28-29-бетлар.

etilayotgan hodisa tufayli hosil bo‘lgan so‘zga sinxron nuqtai nazardan qaralgani uchun yukoridagi birinchi taxmin yuzaga kelgan.

Binobarin, hosil bo‘lgan so‘z birikmasi qo‘shma so‘zga aylanib toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayoni okibatida onomastik leksika sathiga ko‘chib, toponimga aylangai: *ona+o ‘lang* > *ona o ‘lang* > *onao ‘lang* > *onao ‘lgan* > **Onao ‘lgan**. Toponimning etimoni *onao ‘lang* birikmasi. Undagi ona so‘zini ona-Vatan birikmasidagi ona so‘ziga qiyoslasak, makon, yurt, joy degan ma’nolarni ifodalashi ayon bo‘ladi. Demak, toponim *o ‘t-o ‘langga makon*, *o ‘t ko ‘p o ‘sadigan joy* degan ma’noni ifodalaydi. Mazkur toponim haqidagi birinchi faraz sinxron planda qaralgan. Ikkinci faraz esa diaxron planda ko‘rilgan.

Bizningcha, toponim haqidagi ikkinchi taxminda asos bor. Bu toponim tarixiy-taraqqiyot natijasida fonetik o‘zgarishga uchrab, salbiy ma’noni ifodalaydigan holatga kelib qolgan: *ona + o ‘lang* > *onao ‘lang* > *onao ‘lang* > *onao ‘lgan* > **Onao ‘lgan**. Toponimning etimoni ona o‘lang birikmasi. Demak, toponim *o ‘t-o ‘langga makon*, *o ‘t ko ‘p o ‘sadigan joy* degan ma’noni ifodalaydi. Uning etimologik tahlilidan ko‘rinib turibdiki, toponimning lug‘aviy asosi va unga ta’sir qiladigan turli fanlarning dalillari majmui bu tahlilning haqiqatga yaqinligi muammosiga oydinlik kiritgan.

ORARIQ // Orariq (Nam. v. Chortoq t. ariq) – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi fikr-mulohazalar bor:

1.Ushbu toponim “*or-nomuslilar qazigan ariq*”, degan ma’noni bildiradi, deydi aholi vakillari: *or-nomuslilar qazigan ariq* > *orlilar qazigan ariq* > *or ariq* > *orariq* > **Orariq**. Bu joy nomi haqidagi xalqona etimologiyaning bir ko‘rinishidir.

2. Mazkur toponim ikkita ma’noli qismdan iborat, ya’ni ikkita topoassosdan shakllangan: *or*, *ariq*¹

3. Joy nomini diaxron usulda kuzatilsa, uning birinchi topoleksemasida a unlisi o unlisiga almashgan: *araliqdagi* > *oraliqdagi* > *oraliq* > *ora*. Birinchi topoleksemadagi oxirgi tovush bo‘lgan *a* unlisi ikkinchi topoleksemadagi birinchi tovush bo‘lgan *a* unlisi bilan yonmayon kelib qolgani uchun ellipsis hodisasiga uchragan: *ora+ariq* > *oraariq* > **Orariq**. Onomastik konversiya jarayoni bilan toponimga

¹Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. с.50.; Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990. с.186-189.

ko‘chgan. Ushbu toponim *oraliqdagi ariq* birikmasi fonetik o‘zgarishlarga uchrashi natijasida shakllangan deyish o‘rinli. Demak, toponimning etimoni *oraliqdagi ariq* birikmasi. *Ora joydagi ariq* degan ma’no ushbu toponimning ma’nosи. Ko‘rinadiki, toponim haqidagi yuqorida bayon qilingan taxminlar bir-birini to‘ldirib kelgan.

OTCHOPAR // Otchopar (Tosh. sh.: Qash. v. Qarshi t.; QkR Nukus sh. maydon) – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy fikrlar bor:

1. Ushbu toponim otlarni choptiradigan joy ma’nosini bildiradi. Bu ma’no XX asrning 60-yillarigacha faol qo‘llangan, keyinchalik bo‘sh maydonlar qisqarib borgach, bu ma’no arxaiklashgan: otni choptiradigan joy > ot choptiradigan joy > ot chopar joy > ot chopar > *Otchopar*. Bu xalq etimologiyasi emas, ma’lum bir tarixiy davrga xos xususiyatlardan biridir.

2. Mazkur toponim uchta ma’noli qismidan iborat: *ot, chop, -ar*. U ikkita tabiiy-lisoniy jarayon asosida shakllangan: 1) Chop o‘zagiga *-ar* qo‘shimchasi qo‘shilib, fe’lning sifatdosh shaklini yasagan: *chop+ -ar* > *chopar*; 2) shakllangan sifatdosh ishchi hayvon nomi bo‘lgan ot so‘zi bilan qo‘shilib, tobe aloqaning fe’lli holati yuzaga kelgan: *ot+chopar* > *ot chopar*.

Toponimik derivatsiya jarayonida bu fe’lli birikma predikativ birikma qolipli toponimga aylangan: *ot chopar* > ***Otchopar***. Kishilar toponimni *ortga chopar* ma’nosida *ortchopar* > *otchopar* > ***Otchopar*** tarzida ham izohlashadi. Bu holda so‘z tarkibidagi *r* undoshi tushib qolgan. Ammo ushbu farazga qo‘shilib bo‘lmaydi. Toponimning etimoni *ot chopar* ko‘rinishidagi fe’lli birikma.

Otchopar toponimi ko‘p obektli toponimpar jumlasiga kiradi. Masalan, QQR, Toshkent shaxrining katta bir maydoni ot bilan bo‘ladigan musobaqaga moslashtirilgani uchun ***Otchopar*** deyiladi. Bu toponim viloyatlarda oykonim va sport musobaqasi bo‘ladigan maydonlarga, jumladan, ko‘pkari chopiladigan joy bo‘lgan ob’ekgga nom sifatida qo‘llanilgan. Demak, predikativ birikmadan shakllangan bunday toponimlar bir necha obektga nom bo‘lish vazifasini ham bajargan. Obektlarning nomlanishiga maydonga xos xususiyatlar sabab bo‘lgan: ***Otchopar*** (maydon), ***Otchopar*** (ham qishloq, ham maydon) kabi obektlarning nomlarini anglatadi.

OQBO‘YRA // Oqbo‘yra (QqR., Sam., Sur., Far. v. ovul va q.) joy nomi to‘g‘risida bir necha taxminiy fikrlar bor:

1. S.Qoraev toponim to‘g‘risida bunday fikr bildirgan: “**Oqbo‘yra**, **oqbuya** – o‘zbek qipchoqlarning urug‘i. Qozoqlarning arg‘in, nayman, suan qabilalarida oqbo‘ra (aqbura), qirg‘izlarning adigine qabilasida *oqbuura* (*akbuura*) urug‘lar bo‘lgan. Oqdaryo tumanida *Oqbuyra*, Tomdi tumanida *Oqbura* oykonimlari qayd qilingan”¹.

2. Bu toponimi ikkita ma’noli bo‘lakdan tashkil topgan: oq, bo‘yra. Bu toponim tarkibida oq so‘zi rang ma’nosini anglatadi. Kishilar qamishdan yashash joylariga to‘shash maqsadida bo‘yra to‘qishgan. Bo‘yraning qamishi oq, oqishroq rangda bo‘lgan. Shuning uchun oq so‘zi rang degan ma’nosi bilan mazkur toponim tarkibida qo‘llangan. Onomastik konversiya jarayonida bu birikma bir butun so‘zga aylanib, atributiv birikma qolipli joy nomiga ko‘chgan: *oq+bo‘yra* > *oq bo‘yra* > **Oqbo‘yra**. Bu toponim Qorakalpog‘iston Respublikasining Orol dengizi bo‘yidagi hududida joylashgan. Oq, oqish rangli bo‘yra ma’nosidagi oq bo‘yra birikmasi bu toponim uchun etimon vazifasini bajargan.

Toponim to‘g‘risidagi berilgan ikki taxmin bir-birini to‘ldiradi: *oqbo‘yrani* to‘qiydiganlar xalq tomonidan alohida urug‘ va qabila deb atalgan bo‘lishi mumkin. Ammo toponimning nomlanishiga *oqbo‘yrani* tayyorlash jarayoni asosiy manba bo‘lgan, uning etnonim bo‘lishi keyingi jarayon sanaladi. Shuning uchun ikkala holatda ham *oq bo‘yra* birikmasi etimon.

OQBO‘YRA // Oqbo‘yra (Sur. v. Denov t.; Sam. v. Okdaryo t. q.) deb atalgan ikkinchi toponimni qamishdan o‘tirish uchun va kishilarning yashash joylariga to‘shash maqsadida to‘qiladigan bo‘yraga bog‘lab bo‘lmaydi. Shu bilan birga, Qirg‘izistonning Osh viloyatida **Oqbara**, **Oqbo‘ri** shaklidagi toponimlar borligini dialektologik amaliyot vaktida bir necha marta kuzatganmiz. Agar shu uchala toponim bir vaqtida tahlil qilinsa, u holda **Oqbo‘yra** toponimi bilan **Oqbo‘ri** yoki **Oqbara** toponimlarining fonetik jihatdan o‘zaro aloqadorligi seziladi: toponim tarkibidagi y undoshi orttirilib, k unlisi a unlisiga talaffuz jarayonida o‘tgan (*i* > *a*, **Oqbo‘ri** > **Oqbo‘yri** > **Oqbo‘yra**). Bulardan ko‘rinib turibdiki, toponimning etimoni yo *oq bo‘ri* (oq rangni bildiradi), yoki *oq bo‘ri* (oq so‘zi bu yerda katta ma’nosini ifodalaydi), ya’ni *katta bo‘ri* ma’nosidagi *oq bo‘ri* birikmasi.

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 71-бет.

Ushbu toponim Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida, Andijon viloyati Asaka tumanida ham uchraydi. N, Oxunovning ko‘rsatishicha¹, ular etnotoponimlar bo‘lib, qipchoqlarning bir urug‘ining nomi(oq bo‘yra)dan shakllangan: *oq+bo‘yra > oq bo‘yra > oqbo‘yra > Oqbo‘yra*. Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Farg‘ona viloyatida uchragan **Oqbo‘yra** toponimi oldin *qamishdan to‘qilgan bo‘yra* ma’nosini bildirgan, keyinchalik u etnonimga, so‘ngra toponimlashuv jarayoni tufayli etnotoponimga aylangan. Surxondaryo viloyati va Qирг‘изистонда tog‘lik joylarida bo‘rilar ko‘p uchragani uchun *Oqbo‘yra* toponimi *katta bo‘ri* ma’nosida *oq bo‘ri* birikmasidan fonetik o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan deyish o‘rinli: *oq + bo‘ri > oq bo‘ri > oqbo‘yra > Oqbo‘yra*. Bu yerda y undoigi orttirilgan, *i // e, a // e* tovushlarining moslashuvi natijasida *i > e > a* (yoki *i // e // a*) fonetik o‘zgarishlari ro‘y bergen. Bunday fonetik o‘zgarishlar haqida B. A. Serebrennikov, N. Z. Gadjieva va Q. Mahmudovlar o‘z tadqiqotlarida qayd etishgan². Binobarin, toponimlar to ma’lum bir shaklga kelishi uchun ularda bir necha fonetik o‘zgarish shaklidagi jarayonlar ro‘y bergen.

OQSOQOTA // Oqsoqota (Tosh. v. Parkent t. t. va q.) toponimining etimologik tahlilida xarita bilan ishslash usuli alohida ahamiyatga ega. Mazkur toponimning kelib chiqishi haqida ikkita taxmin bor:

1. Xalq vakillari bu toponimni *cho‘loq, oqsoq kishi yashagan* joyning nomi deb izohlashadi: *oqsoq+ota > oqsoqota > Oksoqota*. Bu taxminda qandaydir ma’noda *kishini kamsitish* ma’nosи sezilib turibdi.

2. Toponim aslida uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *oq, soqol, ota*. Ulardan *oq* va *ota* so‘zlari oldin *aq, ata* shaklida bo‘lgan kabi *soqol* so‘zi *saqal* shaklida aytilgan³. Keyinchalik *a* unlisi *o* unlisiga⁴ o‘zgargan. Ushbu uchta apellyativ birikib, joy nomini tashkil qilgan vaqtida *soqol(saqal)* so‘zidagi *ol* bo‘g‘ini tushib qolgan va onomastik konversiya natijasida apellyativ leksikadan onomastik leksikaga

¹ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. -Т., Фан, 1989.40-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.13, 23; Махмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 115-бет.

³ Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.109-, 215-, 114-бетлар.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.9.

ko‘chgan: *oq+soqol+ota* > *oqsoqol ota* > *oqsoqolota* > *oqsoqota* > **Oqsoqota**. Bu tarzda shakllangan toponim *keksa kishi*, *oqsoqol ota yashagan joy* degan ma’noni anglatadi.

Toponimning uchinchi komponenti ota so‘zi haqida S.Qoraev quyidagilar yozgan: “Ota – 1) farzandli er kishi, muqaddas joy, aziz avliyolarning qadam joylari nomlari tarkibida keladigan so‘z; 2) urug‘-aymoq tarmog‘i (masalan, olti ota); 3) orol (turklarda ada)”¹.

Mazkur obektning tabiiy geografik holati, ya’ni ekstralivingistik omil ham bu holatni tasdiqlaydi. Sababi, tog‘ning balandligi katta gavdali kishini eslatsa, undagi qorlar esa o‘sha odamning *soqoliga* o‘xshaydi. Nom oldin *Oqsoqolota* shaklida bo‘lgan, keyin xaritada **Oqsoqota** tarzida qayd etilib ketgan. Demak, nom oldin tokqa berilgan. So‘ngra u qishloqqa nisbatan nom sifatida ishlatilgan. Uning etimoni *oqsoqol ota* shaklidagi atributiv birikma. Ammo toponimni chiziqcha bilan (*Oqsoq-ota*) yoki qismlarini ajratib yozish (*Oqsoq ota*) ham noto‘g‘ri.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, birinchi taxmin xalq etimologiyasi sanaladi. Ikkinci taxminda esa ham fonetik o‘zgarish, ya’ni bo‘g‘inning tushib qolishi e’tiborga olingan, ham geografik joylashish nazarda tutilgan. Shuning uchun ikkinchi taxmin, bizningcha, haqiqatga yaqinroq.

OQQISHLOQ // Oqqishloq - toponimi ikkita ma’noli bo‘lakdan tashkil topgan. Birinchi ma’noli morfema *oq* so‘zi bo‘lib, rang ma’nosini ifodalaydi. Ikkinci ma’noli qism *qishloq* so‘zi, u to shu holatga kelguncha tarixiy so‘z yasalish jarayonini boshidan kechirgan: *qish+-la>qishla+-q>qishloq*.

Uning *oq* so‘zi bilan shakllanishiga sabab ikkita:

1. Aholi punkti binolari oq rangli qurilish materiallaridan, ya’ni oq tosh, oq g‘isht, oq tuproqdan yasalgan.

2. Badani oqargan kishilar yashaydigan qishloq ham *Oqqishloq* deb ataladi. Bunday nomli topoobektlar xalq vakillari nutqida uchraydi.

Ikkala holatda ham *oq* so‘zi *belgi*, *rang* ma’nolarini anglatgan. Bizningcha, *oq rangli qurilish materiallaridan tiklangan qishloq* ma’nosidagi *Oqqishloq* toponimining etimoni *oq qishloq* birikmasi. Demak, toponimning mazmunida semantik o‘zgarish yuz bergen. Uning shakllanishida geografik omilning ta’siri sezilib turibdi.

¹ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 70-бет.

OQQO'RG'ON // Oqqo'rg'on (Tosh. v. t.) – topominining shakllanishi to‘g‘risida ikkita taxminiy fikr mavjud:

1.Uning shakllanishiga ma’lum bir aholi punktidagi oq rangli uy – *qo‘rg‘on* asos bo‘lgan: *oq > oq+qo‘rg‘on > oq qo‘rg‘on > Oqqo‘rg‘on*. Bu fikrda ham joy nomining yuzaga kelishi uchun qandaydir ma’noviy vosita borki, uni xalq etimologiyasi deyish noto‘g‘ri.

2. Mazkur toponim ikkita ma’noli qismidan tashkil topgan: *oq* va *qo‘rg‘on*. Albatta, *qo‘rg‘on* so‘zi diaxron planda yasama so‘zligini, uning o‘zagi *qo‘r* so‘zi ekanligini e’tiborga olish lozim. Biroq *qo‘rg‘on* so‘zi bir butun holatga kelishi uchun *qo‘r+i+-g‘+-on* shaklidagi so‘z yasalishi ro‘y bergen. Hosil bo‘lgan *qo‘rg‘on* so‘zi *himoya to‘sig‘iga ega bo‘lgan shahar*, *qo‘rg‘on* ma’nolarini anglatgan¹. *Qo‘r* va -*g‘on* morfemalari o‘zaro birikib, *qo‘rg‘on* so‘zini hosil qilgan. Ushbu yasalish diaxron plandagi so‘z yasalishi. Shakllangan so‘z toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida toponimga aylangan: *quri // qo‘ri+gan > qo‘rgan > qo‘rg‘on > Qo‘rg‘on*.

Qo‘rg‘on so‘zi toponimik leksikada joy nomi, apellyativ leksikada esa oddiy so‘zlardan biri. *Qo‘rg‘on* so‘ziga *oq* so‘zining qo‘shilishi bilan so‘z birikmasi va *qo‘shma* so‘z, so‘ngra toponim hosil bo‘lgan: *oq+qo‘rg‘on > oq qo‘rg‘on > oq qo‘rg‘on > Oqqo‘rg‘on*.

Uning etimoni odatdagи nutqiy jarayon mahsuli bo‘lgan apellyativ leksikada faol ishlatiluvchi *oq qo‘rg‘on* birikmasi bo‘lib, u toponimlashuv natijasida joy nomiga ko‘chgan: *oq+qo‘rg‘on > oq qo‘rg‘on > oq qo‘rg‘on > Oqqo‘rg‘on*. Bu toponim *ham oq rangli, ham nisbatan balandroq bo‘lgan qo‘rg‘on* degan ma’noni anglatadi. Bizningcha, *oq* so‘zi bu toponim tarkibida *balandlik* ma’nosini ifodalagan. Bu holni **Oqsaroy**, **Ko‘ksaroy**, **Qorasaroy** toponimlari bilan qiyoslansa, bilinadi: **Qorasaroy** - kichik saroy, **Ko‘ksaroy** - katta va keng saroy.

Oq so‘zi toponimlar tarkibida *rang, hashamatli, dabdabali, baland, ulug‘lik* ma’nolari bilan qo‘llanadi². Qayd etilishicha, **Oqsaroyning** bugungi kungacha saqlangan qismi qurilgan holatidagi balandligining yarmi ekan³. Mazkur toponim *oq rangli, hashamatli* va *baland hamda ulug‘ saroy* ma’nolarini anglatadi. **Oqqo‘rg‘on** toponimi *oq belgili,*

¹ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. с.458.

² Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. с. 159-179.

³ Қадимги Кеш – Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. -Т., Шарқ, 1998.89-бет.

hashamatli, dabdabali qo'rg'on ma'nolarini ifodalaydi. Bunday joy nomlari Toshkent viloyatida va qo'shni Qozog'iston Respublikasining janubiy hududida ko'p uchraydi¹. Binobarin, mazkur toponim ko'p obektli toponimlar tarkibiga kiradi.

OLTIARIQ // Oltiariq (Far. v. t.) toponimining yuzaga kelishi haqida to'rt xil taxminiy fikr-mulohaza bor:

1. Aytishlaricha, mazkur joy nomining paydo bo'lishida obekt oldidagi oltita ariq nomlanish jarayonida yetakchi vosita bo'lgan. Mazkur fikrni N. Oxunov ham «*O'tmishda Shohimardon soyidan oqib kelgan suv hamda Chimyon qishlog'idan chiqayotgan buloq suvlari hozirgi Oltiariq qishlog'iga yetib kelganda oltita ariqqa, oltita tarmokqa bo'linib ketgan. Shu sababli bu joy ariqning soniga, miqdoriga nisbat berilgani holda Oltiariq deb atala boshlangan» deb tasdiqlagan². Bu ikki fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki jiddiy e'tibor berilsa, ko'pchilik topoobektlar yonida bir necha gidronim(arik)larning bo'lishi tabiy hol.*

2. Shevalarda *ariq // arylig'* so'zi *toza, pok, to'g'ri, haq* ma'nolarida ishlatalishini e'tiborga olinsa³, u holda Oltiariq toponimi oltita, ya'ni *juda ham ko'p toza, pok, haqgo'y insonlar yashagan joy degan ma'noni anglatadi*. Ammo *arik // arylig'* so'zi Urganch, Xiva, Xonqa shevalarida yuqorida ko'rsatilgan ma'nolarda uchrasa ham, Farg'ona shevasida esa aytilgan ma'nolarda uchramaydi.

3. Toponim *ort* va *ariq* ko'rinishidagi ma'noli bo'laklardan tashkil topgan. Toponimik derivatsiya jarayoni ta'sirida birinchi ma'noli kismda *r > l* tarzidagi fonetik o'zgarish ro'y bergan. Ikkinci ma'noli qism o'rtasida *i* unlisi orttirilgai: *ort + ariq > ort ariq > ortariq > oltariq > oltiarik > Oltiarik*. Istalgan bir obekt ariqqa nisbatan *ariq orti* ma'nosida joylashishi aniq, Shuning uchun *ort ariq* birikmasi toponim uchun etimon bo'lib kelishi mumkin.

4. Bu toponimning shakllanishiga ariq oldi ma'nosidagi oldi ariq iborasi asos bo'lgan. Bizningcha, bu fikrda ham lingvistik, ham ekstralolingvistik asoslar bor. Toponimning *old, -i, ariq* ko'rinishidagi ma'noli bo'laklari bor. Ular birlashib so'z, so'z birikmasi, qo'shma so'z va nihoyat, joy nomini hosil qilgan: *old+-i+ariq > oldi + ariq > olti*

¹ Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. Т., Фан, 1982 .20-23-бетлар.

² Охунов Н. Жой номлари таъбири. -Т., Ўзбекистон, 1994.38-бет.

³ Ўзбек шевалари лексикаси. -Т., Фан, 1966.20-бет.

ariq > *optiariq* > **Oltiariq**. Bunda *d* > *t*¹ shaklidagi fonetik o‘zgarish ro‘y bergan. Beshariq toponimi esa old ariq ma’nosidagi Peshariq toponimining fonetik o‘zgargan shakli: *p* > *b*². N. Oxunovning bu obekt ariklarning miqdoriga qarab nomlangan, degan fikrini o‘ylash kerak³. *Olti* so‘zining *old* yoxud *ort* so‘zidan shakllanganligini geografik omil ham tasdiqlaydi.

Tabiiy geografik muhit e’tiborga olingen holda oltita ariq boshlangan joy **Oltiariq** deb atalgan. Bunday joy nomlari mikrotoponimlar jumlasiga kiradigan gidronimlar tizimida uchraydi. Ko‘p suv oqadigan gidronimning kichik ariqlarga bo‘lingan joyi Oltiariq deyiladi, ammo u yerda aholi yashamaydi. Oldida ariq, daryo yoki buloq mavjud bo‘lgan joy xalqning ta'biri bilan aytganda, eng yaxshi joy, bahavo yer sanaladi. Bu hol esa *old+ -i* > *oldi+oriq* > *oldiariq* > *oltiariq* > **Oltiariq** tarzida toponimik derivatsiya jarayoni yuz bergenini asoslashga yordam beradi. Ushbu toponim yonida joylashgan *old ariq* ma’nosidagi **Beshariq** va **Toshariq** toponimlari e’tiborga olinsa, ushbu hududda ham qator qonuni⁴ning alohida shaklda amal qilishini qayd etish lozim. Demak, uning etimoni *oldi ariq* yoki *ort ariq* shaklidagi birikma.

OQSAROY // Oqsaroy (Qash. v. Shah. t. XU asrda qurilgan, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obekt; Tosh. sh. tarixiy, ma’muriy bino) toponimi to‘g‘risida bir necha taxminiy mulohazalar bor:

1. “**Oqsaroy** – 1) oq koshona; 2) saroy qabilasining bir tarmog‘i. (ko‘ksaroy urug‘i ham bor)”, deb o‘z munosabatini bildirgan S.Qoraev⁵.71-b.

2. Bu toponimi ikkita ma’noli qismdan iborat: *oq*, *saroy*. Ularning birinchisi turkiy, ikkinchisi esa fors - tojikcha⁶. Demak, mazkur toponim substrat joy nomi hisoblanadi. Bu ikki so‘z birikib, birikmani hosil qilgan. So‘ngra toponimlashuv hodisasi tufayli joy nomiga ko‘chgan: *oq+saroy* > *oq saroy* > *oqsaroy* > **Oqsaroy**. Bugungi kunda oq so‘zi

¹ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990.149-бет.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.73-бет.

³ Охунов Н. Жой номлари таъбири. -Т., Ўзбекистон, 1994.38-бет.

⁴ Никонов В. А. Введение в топонимику. -М., Наука, 1965.с.33-38.

⁵ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 71-бет.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 557-б.; Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 24-б.

rang ma'nosini bildiradi. Biroq ushbu so'z oldin *toza*, *hashamatli*, *dabdabali*, *oq rang* ma'nolarida ham qo'llangan¹.

3. Bizningcha, rang ma'nosini bildiruvchi oq so'ziga obektni nomlash uchun *tanlab*, *hashamatli* va *dabdabali* ma'nolari yuklangan, ammo *oqsaroy* birikmasini etnonim deyish to'g'ri kelmaydi. U holda hozirgi kunda bu obektning yarim qismi saqlanib qolgan bo'lsa ham **Oqsaroy** toponimi *oq saroy* degan ma'noda emas, balki davlat ahamiyatiga molik bo'lgan hashamatli va dabdabali saroy degan ma'noni beradi. Shu bilan birga Toshkent shahridagi **Oqsaroy** XU asrda barpo etilgan **Oqsaroyga** o'xshashlik asosida nomlangan, *dabdabali* va *hashamatli saroy* ma'nosini ifodalaydi.

Birinchi toponimning etimoni ham *oq saroy* birikmasi. Ikkinchisi toponim birinchi obektning nomini ko'chirish orqali shakllangan. Demak, uning etimoni **Oqsaroy** toponimi. Shu bilan birga Oqqishloq toponimidagi *oq* so'zi bu ma'noda emas, balki kasallikdan keyin bo'ladigan *dog'* ma'nosida qo'llanadi. Mazkur toponim badanida oq dog'lari bor kishilar yashaydigan joy degan ma'nosini ifodalaydi: *oq+qishloq* > *oq qishloq* > *oqqishloq* > **Oqqishloq**. Oqqishloq (Qash. v. Qamashi t. q.) toponimidagi oq so'zi esa oq rangyai qurilish materiallaridan tiklangan qishloq ma'nosini anglatadi, uning etimoni oq qishloq birikmasi.

S

SAKSONKAPA // Saksonkapa (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani qishloq kengashidagi q.) –toponimining kelib chiqishi xususida quyidagi taxminlar ham uning obrazli nomlanishi orqali nomlarga xos betakror oltin bitikligini ifodalaydi:

1. Ushbu toponim o'sha yerlik aholi vakillarining aytishlaricha, *kapalik* joyning shakllangan nomi: **Saksonkapa**. *Kapalar* ko'p bo'lgani uchun nomning shakllanishiga sakson miqdor soni ishlataligan: *sakson+kapa* > *saksonkapa* > *Saksonkapa* > **Saksonkapa**. Agar uning daryo bo'yida joylashganligi va dehqonchilik, chorvachilik yaxshi rivojlanganligini, shuningdek, Shahrisabz shahri yaqinida joylashgan **topoobektligi** hisobga olinsa, *kapalar* ko'p degan fikr noo'rin bo'lib qoladi.

¹ Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. с. 159-179.

Toponim tarkibidagi *sakson* miqdor soni tarixi qadim tarixga bog‘liq bo‘lgan xalqimizning qadriyatlari va sehrli sonlari bilan *bog‘liq uch* (3), *yetti* (7), *yigirma* (20), *qirq* (40) va *yil* (*bir yil to‘ldi*) shakllaridagi sonlarga yaqinlashmaydi ham. Xullas, ushbu toponimdagи *sakson* so‘zini miqdor sonlar jumlasiga kiritish noo‘rindir.

2. “**Kapa** – chayla hamda urug‘ nomi (masalan, kapasaroy). *Kapa* komponentli toponimlar Farg‘ona vodiysida ko‘p uchraydi. Xatirchi, Payariq, Jalaquduq, Beshariq tumanlarida **Kapa**, Yangiqo‘rg‘on, Urgut, Beshariq, Uchqo‘rg‘on, Asaka tumanlarida **Beshkapa** qishloqlari bor”¹.

3.Bu oykonimning shakllanishiga qadimiyl turkiy qabilalar nomi bo‘lgan *shak* // *sak* // *saks* // *masagetlarning* nom(lar)i asos bo‘lgan.Undagi -on topoformanti oldingi davrlarda, til tarixida ko‘plik ma’nosini anglatgan.

Undagi kapa topoleksemasinga kelsak, *sak* // *saks* // *shaklar* eramizdan oldingi va eramizning boshllarida harbiy yurishlarda ham, kunlik faoliyatda ham doimo aravalarda yurishgan. *Kishilar usti yopiq aravalari* ko‘p bo‘lgan joylarni kapa so‘zi vositasida nomlashgan: **Saksonkapa**. Toponimdagи *sak*// *saks* // *shak* // *masaget* so‘zlarining *sakson* holatiga kelishi va shu tarzda tushunilishi sinxron nuqtai nazardan hisoblanadi. Qadimda *shak* // *sak* // *saks* // *masaget* deb atalgan jangovar va kurashchan qabilalar bo‘lganligi tarixiy manbalarda o‘z ifodasini topgan: *Saka* – kirgizby Abramov,1960,127); *Saksan* 1) kazaki (aliqli) – Aristov, 1896, 380; 2) uzbeki (durmen) – Karimova, 1976, 108². Shu sababli ham aslida mazkur toponimga diaxron nuqtai nazardan to‘g‘ri va ishonchli munosabat (baho) bildirish o‘rinli, deb bilamiz³. Shu yerda ta’kidlash kerakki, toponimik aniqlagich bo‘lgan bu *kapa* topoleksemasingin mazmun-mohiyatida *usti yopiq arava* ma’no nozikligi mavjuddir.

Shu bilan birga *kapa* so‘zi turkiy qabila va urug‘larning bir tarmog‘i nomi ekanligiga S.Qoraev maxsus to‘xtalgan⁴. U holda mazkur toponim ikkita etnonimni birlashtirgan holda nomlilik vazifasini bajarayotganligini sezish qiyin emas: *saks* (etnonim) + *kapa* (etnonim) > *saks+-on* > *sakson+kapa* > **Saksonkapa**.

¹ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 49-бет.

² Лезина И.Н., Суперанская А. В. Ономастика. Словарь-справочник тюркских родоплеменных названия. Част II. Москва, 1994. с.332-333.

³ Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т., Ижод, 2006. 7-, 15-бетлар.

⁴ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 49-бет.

Ushbu toponim to‘g‘risidagi yuqorida keltirilgan taxminiy fikrlar to‘g‘ri xulosaga kelishga imkoniyat yaratdi. Uning etimoni *sak* // *saks* // *shaklar* o‘zlarining usti yopiq aravalari bilan yashagan joy va yana *etnonim+etnonim* holatida shakllangan so‘z degan ma’no nozikligini ifodalaydigan *saks* (*shak*) + -on + *kapa* > *saksonkapa* yasama so‘zidir. Demak, bu toponim ikkita etnonim nomining birikishi asosida shakllangan etnotoponimlardan va yana tarixiy ahamiyatga molik tarixiy toponimlardan biri bo‘lib, mamlakatimiz hududida kam qo‘llanishi bilan e’tiborga loyiqdir.

SAVAT // Savat (Jizzax v. Zomin t., Qash. v. Shah. t. q.) toponimining kelib chiqishi haqida bir necha taxmin mavjud:

1.Xalq vakillaridan bu toponimning shakllanish jarayoni haqida so‘ralganda, uni savat so‘ziga bog‘lashadi: *savat* > **Savat**. “Surx novda, chiviq, sim va shu kabi narsalardan to‘qshgan idish savat deyiladi”¹. Kishilar yashaydigan obektlarni bu tarzda nomlash juda kam uchraydi. Shu bilan birga bu yerda yashovchilarning tirikchiligi savat to‘quvchilik kasbiga bog‘liq ham emas. Demak, bu taxmin xalq etimologiyasi sanaladi.

2.Ushbu toponim ikkita ma’noli qismdan shakllangan: sa, vat. Mazkur apellyativlar fors-tojikcha so‘zlar jumlasiga kiradi: *se*² > *sa*, *savad* > *vad* > *vat*. Ikkinci ma’noli qismning *vat* holiga kelishi so‘z boshida tovush tushishi hodisasi bilan bog‘liq. Sababi, bu so‘z aslida savad ko‘rinishidagi omonim so‘z sanaladi. Uning ikkinchi ma’nosи *o‘ralgan joy, odamlar dam olib o‘tadigan qo‘noq ma’nosini anglatadi*. Bu so‘zlar birikib, so‘z birikmasini, so‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan: *se+savad* > *se savat*. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z toponimlashuv hodisasi tufayli joy nomiga ko‘chgan: *sesavad* > *sevad sevat* > *savat* > **Savat**. Yuzaga kelgan toponim uchta qishloq, *uchta qo‘noq* joy degan ma’noni anglatadi. Uning etimoni *se savad* birikmasi hisoblanadi. Bu toponimlarning e’tiborli tomoni shundaki, ular katta yo‘llar yonida joylashgan qishloqlar jumlasiga kiradi. Yo‘ldan o‘tib qatnaydiganlar uchun zarur narsaning hammasi kechqurun (oldingi davrda) uchala qo‘nokda joylashgan. Mana shu ekstralengvistik omil natijasida obekt nomlangan. Ammo vaqt o‘tishi bilan *sesavad* qo‘shma so‘zi fonetik o‘zgarishlar natijasida *savat* holatiga kelib qolgan.

¹ Ўзбек шевалари лексикаси. -Т., Фан, 1966.7-бет.

² Персидско-русский словарь. М., 1960. с.634.

SARIKO‘L // Sariko‘l (Sam. v. Nurobod va Pastdarg‘om t. ko‘l)
– toponimi haqida ikkita taxmin bor:

1. Ushbu gidronim ikkita ma’noli qismdan iborat: sari, ko‘l¹. Uning birinchi ma’noli qismi bo‘lgan *sariq* so‘zi talaffuzda fonetik o‘zgarishga uchrab, q undoshi tushib qolgan: *sariq* > *sari*. Unga ikkinchi ma’noli qism qo‘silib, oldin so‘z birikmasini, so‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z esa toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayonida joy nomiga aylangan: *sariq+ko‘l* > *sariq ko‘l* > *sariko‘l* > **Sariko‘l**. Mazkur toponimning etimoni *sariq ko‘l* birikmasi sanaladi. Toponim sariq rangli ko‘lning nomini ifodalaydi. Bu toponimlarning tarkibidagi *qo‘rg‘on*, *tепа*, *ko‘l*, *tau (tog‘)*, *qiya* so‘zlar topoasos vazifasida qo‘llangan.

2. Sari so‘zi shevada 4 (to‘rt)ta omonim ko‘rinishdagi dialektal so‘zning ikkinchisi sifatida qo‘llanib, quyidagi *dialektal ma’noni* ham anglatadi: *Eng yaxshi, sara*². Ushbu so‘zga ko‘l so‘zi qo‘shilgan: *sari* > *sari + ko‘l* > *sari ko‘l* > *sariko‘l* > **Sariko‘l**. Ushbu toponim *eng yaxshi*, *eng sara* ko‘l degan ma’noni beradi. Chunki ko‘pchilik ko‘llarning suvini ichib bo‘lmasligi tabiiy bo‘lgani kabi ba’zi bir ko‘llarning holati, suvi ancha yaxshi bo‘ladi. Mana shunday ko‘llarga nisbatan **Sariko‘l** nomi qo‘llanadi. Demak, *eng yaxshi*, *eng sara suvli* ko‘l ma’nosidagi *sari ko‘l* birikmasi gidronimning etimoni bo‘ladi. Bu holatlar atributiv birikma va shunday birikma qolipli toponimlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsatgan.

SAMARQAND // Samarqand toponimining kelib chiqishi haqida quyidagi farazlar bor:

1. Abu Tohirxoja toponimning atalishiga beshta sabab ko‘rsatgan³. Muallif ularda kishi ismi bo‘lgan *Samar* so‘ziga *kent*, *qand* so‘zlar qo‘shilishi bilan **Samarqand** hosil bo‘lganini qayd etib, uning nomlanishini arablarning kelishiga bog‘laydi.

2. Tarixiy manba sifatida 982-983-yillarda fors-tojik tilida yozilgan, muallifi noma'lum, biroq ma'lum va mashhur bo‘lib ketgan “Hudud ul olam” (Dunyoning hadlari) nomli kitobda bu joy nomi to‘g‘risida quyidagilar yozilgan: “Buyuk, obod va ne’mati besyor shahar.

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.23-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 414-бет.

²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи том.Т., Миллий энциклопедия, 2006. 450-бет.

³ Абу Тохирхожа. Самария // Мерос. -Т.,Камалак, 1991. 16-бет.

*Bu yerda dunyoning hamma mamlakatlaridan savdogarlar keladi*¹. Demak, toponim X asrdayoq ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan.

3.H. Hasanov quyidagilarni yozgan²: “**Samarqand** – eng qadimi shaharlardan biri. Bir nomi *Afrosiyob*. Iskandar zamonida *Maroqand* deb atalgan, yana uning *Samariana*, *Samaranka*, *Sakanna*, *Sammangen* va *Samakiyan* singari shakllari bor. Uning nomlaridan ko‘ra bir-biriga zid bo‘lgan izohlari ko‘p: 2.1) *Maroqand* – qadimi fors tilidagi xamara – «*yig‘in, to ‘planish»* ma’nosidagi so‘zdan olingan. Kishilar shu joyda to‘planishib, maslahat qilganlar; 2.2) *Samar* – quduq nomi. Uning tevaragida yig‘inlar bo‘lgan, o‘yin-tomoshalar o‘tkazilgan; 2.3) *Samara* – kishi ismi, sarkarda, *Samarqand* u egallagan shahar; 2.4) *Shamar* va *Qamar* – yamanlik shahzodalar shaharni bino qilishgan; 2.5) *Samara* – meva, hosil; *qanda* – shirinlik, ya’ni «*shirin-shakar*» shahri.

4. Abu Rayhon Beruniy **Samarqandni** turkiy tilda **Samizqand** (ma’rifat shahri) degan³.

5. M. Qoshg‘ariy: «**Samarqandni**, kattaligi uchun, *semiz kand* – «*semiz shahar*» deydilar. Buni forslar **Samarqand** tarzida qo‘llaydilar»⁴, degan.

6. Bobur quyidagilarni yozgan: «**Samarqandni** Iskandar bino qilgandir. Mo‘g‘ul va turk ulusi uni **Semizkend** derlar»⁵. Bu fikrda obektning hajmi e’tiborga olingan holda uning nomi asoslangan.

7. B. O‘rinboev toponimdagи *samar* so‘zining ma’lum bo‘lgan to‘rtta ma’nosи (*kishi nomi*; *meva, hosil, shirinlik*; *katta*; *yig‘in, to ‘planish, maslahat joyi*) bilan birgalikda hozirgacha noma’lum bo‘lgan *ariq* va *kanal* ma’nolarini ko‘rsatib, **Samarqand** toponimining suv obekti bilan aloqador nomi haqiqatga yaqin, **Samarqand - ariq yonidagi qishloq, shahar** demakdir, degan fikrni ilgari surgan⁶.

8. A.Muhammadjonov bu oronimning nomini “Tarixiy Tabariy”, “Samariya”, “G‘iyos ul-lug‘otit”, Abul Hasan Samarqandiyning “Qandiya” nomli asarlarda tilga olinganini, Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlarda u Smarakant, Yunon va Rim mualliflari asarlarida

¹ Qorayev S. Toponimika. --T., O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 292-bet.

² Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 61-бет.

³ Ҳасанов Ҳ.Беруний асарларида топонимика //Беруний ва ижтимоий фанлар.-Т.,Фан,1972.125-128-бетлар.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 330-бет.

⁵ Бобур Захриддин Мухаммад. Бобурнома. -Т., Юлдузча, 1989. 43-бет.

⁶ Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. -С., Зарафшон, 2003. 153-бет.

Marakanda deb qayd etilganini, Samar nomli podshoning nomiga, mevazor va afsonaviy shahar nomiga bog‘laydi hamda *Mashhad*, *Maskat* (Katta qishloq), *Sarma(s)+kann*, *Sarmikan*, *Samarkan* > *Samarkand* > *Samarqand* tarzida *ko‘kalamzor* va *buloq bo‘yidagi shahar* ma’nosи tadrijiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini birma bir bayon etgan¹.

9.Bizningcha, toponimning tarkibini aniqlashda ozarbayjon tilining elementlari yordam beradi. **Samarqand** toponimini kuzatganda, tarkibidagi *sham* ma’noli qismning borligi aniqlandi: *sham* > *sam*. Bunda *sh* undoshining *s* undoshiga o‘tish hodisasi ro‘y bergen. Toponimdagи *sham* komponentining ozarbayjon tilida quyidagi ma’nolari bor: 1) *tепа va balandlik*; 2) *shu tilining Mugan shevasida sham* «*ko‘m-ko‘k yer*» degani; 3) *daryo bo‘yi*; 4) *bo‘ri, quyon kabi hayvonlar yashaydigan joy*².

Qadimgi turklarning sharqdan g‘arba qarab borishganini va ozarbayjoni larning esa turkiy xalqlardan biri ekanligi e’tiborga olinsa, **Samarqand** toponimini ayni shu tilidagi yuqorida ko‘rsatilgan dalillar bilan sharhlash o‘rinli bo‘ladi. Uning tarkibidagi *qand* (unda *xor* > *xan* > *xand* > *kand* > *qand* shaklidagi fonetik o‘zgarishlari ro‘y bergen) topoleksemasi esa «*shahar, qo‘rg‘on*» degan ma’nolarni ifodalaydi. Toponimdagи ikkinchi ma’noli qism *ar* bo‘lib, u oldingi davrda *jar, yar, ar* ko‘rinishlari(*jar* ma’nosи)da qo‘llangan³. So‘z boshida j undoshi y undoshiga o‘tgan⁴ va bu y undoshi talaffuzda tushib qolgan: *jar* > *yar* > *ar*.

Yar // yar qismli toponimlarning uchrashini ye. S. Pospelov qayd etgan⁵. Shu o‘rinda S. Qoraevning *ar* ma’noli qismni toponim yasovchi qo‘sishimcha, degan fikrini o‘ylab ko‘rish kerak⁶. Demak, «*tepa hamda balandlik bilan o‘ralgan, (yonida turli hayvonlar yashaydigan) daryo bo‘yidagi shahar*» degan ma’no **Samarqand** toponimi uchun mos ma’no. Uning etimoni – (*sham+jar*) *shamjar+xor* > *shamyar xor* >

¹ Муҳаммаджонов А. Самарқанд – жаҳон жамоли // Мозийдан садо.2007. 2-сони. 2-4-бетлар.

² Ч. Х. Мирзазаде. О топониме Шамхор // Материалы конференци о проблемах Азербайджанской оно-мастики. -Баку, 1987. -С.140-142.

³ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. -С.238; Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 156- ва 366-бетлар.

⁴ Маҳмудов К. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т.,Ижод дунёси, 2004. 75-бет.

⁵ Пospelов Е.М.Топонимика в школьной географии. М.,Просвещение, 1981. с.48.

⁶ Караев С. К. Топонимия Узбекистана. -Т.,Фан, 1991. С.114.

samyar xor > samyarxan > samarxand > samarkand > samarqand > Samarqand) shamyar xor > samyar xor > samyarxan yasama so‘zidir.

Yuqorida berilgan beshta fikrda ham joy nomi **Samarqand**, **Samizkand**, **Semizkand** tarzida qayd etilgan. *Samiz*, *semiz* so‘zining «boy» degan ma’nosi bor¹. Masalan, dehqonlar *semiz tuproq* deb *boy va unum dor* yerni aytishadi. Bizningcha, **Samarqandning** ilk ko‘rinishi **Samizkend** // **Semizkent** bo‘lib, «boy, ulug‘ shahar» ma’nosini ifodalaydi, deyishni o‘ylab ko‘rish lozim. Birinchi va uchinchi fikrda esa *kishi ismi* (*Samar+qand*) va boshqa ma’nolari berilgan. Toponimning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi taxminda shaharning katta hamda mashhurligi ta’kidlangan. Uni etimologik tahlil qilishda to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi taxminlarda ilgari surilganidek, *semiz* so‘zining *samar* so‘ziga aylanib ketishi (*semiz > samar*) singarmonizm hodisasi bilan bog‘liq, kend so‘zining *qand* (*kend > qand*) shakliga o‘tib, ya’ni *ye, i* tovushlarining *a* tovushiga (*ye > a; i > a*) o‘tishi, *z* tovushining *r* tovushiga (*z > r*), *k* tovushining *q* tovushiga aylanib, ma’lum bir ma’nolarni ifodalashi, so‘zsiz, e’tiborga olinadi. Oldin *semiz* va *kend* so‘zlari birikib, qo‘shma so‘zni hosil qilgan: *semiz□+kend □ > semizkend*. Qo‘shma so‘zdagi ikkinchi unli birinchi va uchinchi unlilarga moslashish uchun *a* unlisiga o‘tgan: *semizkend □ > Semazkend*.

Keyinchalik talaffuzda undagi birinchi va uchinchi unlilar ikkinchi unli bo‘lgan *a* unlisiga moslashgan: *semazkend □ > samazkand*. Unlilar ta’sirida jarangli *z* tovushi sonor tovushi bo‘lgan *r* undoshiga aylangan va toponim hosil bo‘lgan: *samazqand □ > Samarqand*. Sonor tovush bo‘lgan *r* undoshi bilan birgalikda sayoz til orqa *k* undoshi o‘rnida chuqur til orqa *q* undoshi kelgan va toponim tarkibida *k □ > q* o‘zgarishi yuz bergen. Qo‘shma so‘zning toponimga aylanib, to **Samarqand** holatiga kelishi lingvistik usulning diaxron va sinxron ko‘rinishlarining mahsuli. Oltinchi (*ariq bo‘yidagi qishloq*) va yettinchi fikrlarda (*tепа hamda balandlik bilan о‘ralgan, yonida turli hayvonlar yashaydigan*) daryo bo‘yidagi shahar degan ma’no toponimga oid ma’no. Uning etimoni – (*sham+jar> shamjar+xor > shamyar xor > samyar xor > samyarxan > samarxand > samarkand > samarqand > Samarqand*) *shamyar xor > samyar xor > samyarxan* yasama so‘zida esa tabiiy-geografik sharoitdan kelib chiqib, nomlanishi bayon etilgan. Oldingi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 36-бет.

beshta fikrda «*kishi ismi, katta shahar*» ma’nolari uning keyingi ma’nosи, so‘nggi ikki taxminda esa «*daryo bo‘yidagi tepe va balandlikdagi shahar*» ma’nosи toponim uchun ilk ma’no hisoblanadi.

SINABOG‘ // Sinabog‘ (Qashqadaryo v. Shahrисабз t. q.) – toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha fikrlar bor:

1. “Oldinlari bog‘ joylashgan yer biz turgan yerdan sal tepada joylashgan, suv tez oqib o‘tadigan joydagi bog‘, ya’ni qiyalikdagi bog‘ degan ma’noni beradi”, deydi xalq vakillari.

2. S.Qoraev bu toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagilarni qayd etgan: “**Siyna** – ko‘krak, ko‘ks. Toponimiyada - ayolning ko‘kragiga o‘xshagan. Denov tumanidagi **Sina** tog‘ini shoira Muzayyyana Alaviya «*aynan qiz bolaning ko‘kragiga o‘xshaydi*» deb edilar.

Demak sina – siyna fonetik tafovut xalos. Shahrисабз tumanidagi **Sinabog‘** qishlog‘ining nomi ham shu so‘z bilan bog‘lik bo‘lishi mumkin”¹.

3.Bizningcha, mazkur topoobekt sal qiyalikdagi tepalikda joylashgan. Shuning uchun xalq vakillari bu joyni o‘z shevalarida sal balandroq joydagi bog‘ ma’nosida **Sinabog‘** deb atashgan.

Uning etimoni *sina bog‘* birikmasi hisoblanadi. Ammo *sina* so‘zi bilan *siyna* so‘zini fonetik farqli deyish asosli emas, chunki *sina* so‘zi dialektal so‘zlardan biri². Mazkur toponim tarkibida bog‘ toponimik aniqlagich bo‘lgani uchun uni fitotoponimlardan biri deyish o‘rinli.

SOYBO‘YI // Soybo‘yi (Nam. v. Norin t.; Far. v. Oxunboboev, Toshloq, Far., Yozyovon t.; Qash. v. Shah. t. q.) - tog‘ va dara orasidagi suv yo‘li bo‘yiga qo‘yilgan nom bo‘lib, so‘ngra aholi punktiga, ya’ni oykonimga ko‘chgan nom. Bu toponim to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan: *soy(say)*³, -*ning* (talaffuzda tushib qolgan), *bo‘y*⁴, -*i*. Ushbu nom gidronimga qo‘yilgan, vaqt o‘tishi bilan esa gidronim oykonimga ko‘chgan: *soy+-ning bo‘y+-i* > *soybo‘ii* > **Soybo‘yi** >

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 81-бет.

² Шеваларимиздаги барча сўзлар ҳалигача тўлиқ йиғиб олинмаганлигини эътиборга олсак, сина сўзининг диалектизмлиги аниқдир.

³ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.481. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.293-294-бетлар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.65-бет.

⁴ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтуркские основы на букву "Б". -М., Наука, 1978.с.177. 263. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.73-74-бетлар.

Soybo‘yi. Bu tarzdagi ko‘chish O‘zbekiston toponimiyasida uchraydi: Qorasuv daryosining nomi Qorasuv aholi punktiga (*qora+suv* > *qorasuv* > **Qorasuv** > **Qorasuv**). Toponimlashuv tufayli Oqsuv daryosining nomi Oqsuv qishlog‘iga nom bo‘lib o‘tgan: *oq+suv* > *oqsuv* > *Oqsuv* > **Oqsuv**.

Bu toponimning etimoni apellyativ leksikadagi *soy+bo ‘y+-i* ko‘rinishidagi yasalishdan yuzaga kelgan *soy bo ‘yi* so‘z birikmasi. Suv oqadigan joy ma’nosidagi soy bo‘yi so‘z birikmasidan gidronimlashuv hodisasi tufayli bu gidronimi paydo bo‘lgan: *soy+bo ‘y+-i* > *soy bo ‘yi* > **Soybo‘yi.** So‘ngra u toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayoni tufayli oykonimga aylangan: *Soybo ‘yi* > **Soybo‘yi**.

Shu o‘rinda Andijon toponimi diaxron planda etimologik tahlil qilinganda Soybo‘yi ma’nosini berishini ham e’tiborga olish kerak. Bu haqida A. Muhammadjonovning «*Andijon - Soybo ‘yi demakdir*» nomli maqolasida batafsil tahlil qilingan¹. Ushbu gidronimning etimoni esa *soy bo ‘yi* ko‘rinishiga ega bo‘lgan so‘z birikmasi.

SO‘QOQ // So‘qoq (Tosh. v. Parkent t. q. va tog‘) toponimining kelib chiqishi haqida ikkita taxmin bor:

1. Topoobektning tog‘da joylashganini e’tiborga olsak, uning shakllanishiga *so ‘qmoq* so‘zi asos bo‘lganini kuzatish mumkin. Sababi, fonetik tamoyilga muvofiq so‘z tarkibidagi m undoshi tushib qoladi: *so ‘qmoq* > *so ‘qoh* > *So ‘qoq*. Odatda, so‘z tarkibida tovush tushishi hodisasining tilda uchrashi bu taxminning haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi. Tog‘larda *so ‘qmoq* bo‘lishi e’tiborga olinsa, toponimning shakllanishiga geografik omilning ta’sirini kayd etish mumkin.

2. Mahmud Koshg‘ariyning qayd etishicha, oldin oq rangdagi kiyik, umuman kiyiklar so‘qoq deyilgan². Keyinchalik kiyiklar yashagan joy *So ‘qoq* deb atalgan: *so ‘qoq* > **So‘qoq**. *Kiyik, oq rangdagi kiyik*, umuman *kiyiklar* ma’nosidagi so‘qoq so‘zi ushbu toponimning etimoni hisoblanadi. *Kiyik* nomi shu toponimning nomlanishini asoslovchi bir vosita, ya’ni tamoyil vazifasini bajargan. Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan ma’noda kam ishlatilgani uchun toponimning ma’nosini arxaiklashgan. Bizningcha, ikkinchi taxmin birinchi taxminga qaraganda ishonchli.

¹ Мухаммаджонов А. -Андижон – Сойбўйи демакдир // Мозийдан садо. 2 (14). –Т., 2002. – Б. 44-45.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 221-,457-бетлар.

SURXONDARYO // **Surxondaryo** (O‘zbekiston Respublikasidagi alohida viloyat nomi) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminiy mulohazalar bor:

1. Tuprog‘i asosan qizil bo‘lgan hudud yonidagi daryo bilan birga **Surxondaryo** deyilgan. *Qizil* so‘zi o‘rnida tojikcha *surx* so‘zi bilan faol ishlatilgan, degan fikrni aytishadi yoshi ulug‘ keksalar.

2. Topoobektning joylashish hududi tog‘li, qisman tepalik hamda tekislik va tuprog‘ining ma’lum qismi qizil, qizg‘ish ranglarda bo‘lgani uchun u **Surxondaryo** deb nomlangan. Shuningdek, erta yoshda birinchi pishadigan uzum navi ham xalq tilida *surxon*¹ (faol ishlatiladigan so‘z), *surxash* (shevada ishlatiladi) va *surxa* (dialektizm) deb nomlangan.

3. S.Qoraev topomin tarkibidagi *surx* topoasosini “*qizil; yosh, yangi; urug‘ nomi (surxi)*”, deb izohlaydi². Muallif *surx* etnonimi turkiymi yoki forsmi, degan savolga aniqlik kiritmagan.

Bizningcha, mazkur topominning shakllanishiga tuproqning ma’lum qismi qizil, qizg‘ish bo‘lishi hamda surx degan urug‘ning (yo turkiy, yoki forsiy urug‘) bo‘lishi yetakchi motivatsion rolni o‘ynagan: *surx* (hudud tuprog‘ining ma’lum qismi qizil, qizg‘ish rangda bo‘lishi va turli-tuman etnonimlar ichida *surx* etnonimining bo‘lishi) > *surx+ -on* (-an// -on – *qadimgi davrda turkiy tildagi ko‘plik qo‘sishchasi*) > *surxon* (*qizil, qizg‘ish rangli tuprog‘i ko‘p yohud surx urug‘i vakillari ko‘p*) > *surzon + daryo* > *surxon daryo* > **Surxondaryo** tarzida nomlanish uchun zarur bo‘lgan taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Toponimik aniqlagich bo‘lgan *daryo* topoleksemasi ham fors-tojikcha bo‘lib, “*Manbaidan quyilish joyi tomon tabiiy o‘zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv*” degan ma’noni ifodalaydi³. Aholisining ma’lum qismigina tojik va tojik tilini yaxshi biladiganlar ekanligini hisobga olsak, uning topoasosi fors-tojikcha so‘z ekanligiga shubha yo‘q. Bu jarayonlar topoobekt nomlanishining pozitivlik va negativlik xususiyatlarini o‘zida qamrab olishi mumkin⁴.

Ushbu topomin nomlanishidagi pozitivlik esa bu tuproqning ma’lum qismi qizil va qizg‘ish holda bo‘lishi bo‘lsa, negativlik jarayoni

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи том.Т., Ўзбекистон миллый энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. 597-бет.

² Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 83-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том.Т., Ўзбекистон миллый энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. 566-бет.

⁴ Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари // ЎТА. - Т., Фан, 1985. 2-сон. –Б. 33-37.

esa shunchalik ko‘p turkiy urug‘lar ichida kam uchraydigan surx etnonimining nomi bilan atalishidir. Demak, toponim tuprog‘ining ma’lum qismi *surx*, ya’ni *qizil* va *qizg‘ish*, shu bilan birga ushbu hudda kam uchraydigan *surx* etnonimi bilan nomlanishining o‘zaro muvofiq kelib qolishidan shakllangandir. Uning etimoni (*surx+on* > *surxon+daryo* > *surxon daryo* > **Surxondaryo**) *surxon daryo* shaklidagi so‘z birikmasi hisoblanadi. Mazkur toponimning shakllanishi to‘g‘risidagi taxminiy fikrlar ma’lum darajada bir-birini to‘ldiradi va joy nomining shakllanishi to‘g‘risida ishonchli xulosaga kelishga imkoniyat yaratgan.

Sh

SHAHRIXON // Shahrixon (Andijon v.t. va sh.) – toponimi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1. O‘sha yerda yashovchilarining tushuntirishlaricha, bu toponim xonga atalgan shahar nomi: *shahri+xon* > *shahrixon* > **Shahrixon**. Bunda joy nomini tashkil qilgan ikki topoleksemani –i shaklidagi turkiy izofa bog‘lab turibdi. Uning ma’nosи *xonga atalgan shahar*, etimoni, ya’ni uning ilk shakli va ma’nosи esa *shahri+xon* > *shahrixon birikmasidir*.

2. Amir Umarxon o‘z hukumdorligi davrida mahbuslar ko‘payganligi uchun noqulay sharoitdan chiqish maqsadida Qo‘qon bilan Andijon o‘rtasida 1814-1815 yillarda bir *qishloqni* vujudga keltirib, **Dorul Omon** – *ozodlik eshigi* deb atalgan. Bu qishloq tez o‘zgarib ketgani va shahar holatiga kirib borayotgani uchun keyinchalik **Shahrixon** deyishgan¹. Ushbu nom mazkur topoobektda bugungacha saqlanib kelinmoqda: *qishloq* > *Dorul Omon* – *ozodlik eshigi* > *shahrixon* > **Shahrixon**. Xullas, toponimning etimoni forscha shahar, -i turkiy izofa va turkiy xon so‘zidan iborat bo‘lgan *shahrixon* birikmasi, *qishloq* va *Dorul Omon* nomlari esa joy nomining arxaik nomlaridir. Uning ma’nosи esa *xon qudirgan shahar*, *xonning shahri* demakdir.

Bizningcha, mazkur toponim to‘g‘risidagi birinchi taxmin xalqona etimologiyaning bir ko‘rinishi bo‘lsa, ikkinchi taxmin ancha asosli va ishonarli dalillarga ega. U tarixiy xronologik jihatdan shakllanishi to‘g‘ri belgilangan tarixiy toponim, aniqrog‘i, toponimning tarkibida kishiga

¹ Насриддинов Қ. Шахрихоннинг бунёд этилиш тарихидан // Мозийдан садо.2005. 4-сони. 36-37-бетлар.

xoslikni bildiruvchi *xon* so‘zi borligi uchun uni antropotoponimlardan biri deyish o‘rinli sanaladi.

SHOHIMARDON // Shohimardon (Far. v., O‘zbekistonning Qирг‘изистонда joylashgan hududi) toponimining kelib chiqishi va shakllanishi haqida bir necha faraz bor:

1.Toponimi haqida o‘sha yerda yashovchilardan so‘rab-so‘rishtirilganda quyidagi fikrlarni aytishadi:

Joy nomi *shohlar mardi yashagan joy* degan ma’noni anglatadi. Bu fikrda ma’lum asos bor, chunki qadimda yomon, qonxo‘r shohlar ham bo‘lgan. Lekin bu fikr joy nomini to‘liq yoritib bera olmaydi. Ushbu fikr xalqona etimologiya hisoblanadi.

Mazkur toponimni kishilar *mardlar shohi istiqomat qilgan yer* deb, izohlashadi. Chunki toponim forsiy izofa bilan shakllangan: *shoh+i+mard+on* > *shohi mardon* > *shohimardon* > **Shohimardon**. Bu faraz ham xalq etimologiyaning bir ko‘rinishi. Kishilar ongiga xalq etimologiyasi shunchalik singganki, ular toponim haqidagi boshqa fikrni qabul qilishmaydi. Bu haqida V. N. Toporov ham maxsus to‘xtalgan¹.

2.Folklor asarlarida, masalan, «Alpomish» dostonida va ba’zi bir ertaklarda Shohimardon va Shohimardon pirlari haqida gap boradi, ya’ni ular ta’riflanib, ijobiy tavsiflanib, ulug‘lanadi. Bunda ham toponim joylashgan hududni hamda Shohimardon pirlarini ilohiylashtirish ruhi seziladi.

3.Ushbu toponim to‘rtta manoli qismdan iborat: *shox,-i, mard, -on*. Shoh so‘zi forscha bo‘lib, podshoh ma’nosini anglatadi². -i forsiy izofa. Mard so‘zi ham forscha bo‘lib, “*qo‘rqishni bilmaydigan, qo‘rmas, botir; katta ishlarga qodir, azamat; aytganini ustidan chiqadigan tanti, hotam; kurash qahramoni*” kabi ma’nolarni ifodalaydi³. -on (asli -an tarzida bo‘lgan, a unlisi o unlisiga almashgan) ko‘plik qo‘shimchasi⁴.

Bizningcha, toponimga asos bo‘lgan so‘z aslida *erta tong* ma’nosidagi *sahari mardon* birikmasi bo‘lgan. Talaffuz jarayonida bu birikmada tovush tushishi, ikki so‘zning bir so‘z holatiga kelishi va

¹ Топоров В. Н. Из наблюдений над этимологией слов мифологического характера // Этимология. 1967.-М., Наука,1969.—С.11-21.

² Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 427-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.447-бет.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961. 99-бет. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Индекс лугат. -Т., Фан, 1967. 407-бет.

tovush o‘zgarishlari ro‘y bergan. Natijada, sahari mardon birikmasidagi -ar morfemasi talaffuzda tushib qolgan, s undoshi sh undoshiga o‘tgan¹, aunlisi o unilisiga aylangan²: *sahari mardon* > *sahi mardon* > *shaxi mardon* > *shoximardon* > **Shohimardon**.

Toponimdagи sahar so‘zi faol qo‘llanadigan so‘zlar jumlasiga kiradi. Bu so‘z saxar tarzida E. Fozilovning lug‘atida³, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da *sahari mardon* tarzida qo‘llangan⁴. Shuningdek, *sax* topoasosli *Saxsin* shahrining Mahmud Koshg‘ariy⁵ tomonidan berilishi ham o‘rganilayotgan toponomning *sahari mardon* shaklidagi atributiv birikmadan hosil bo‘lganini tasdiqlaydi. Mazkur toponomning kelib chiqishi to‘g‘risidagi birinchi va ikkinchi fikrlarning mazmuni bir xil, shuning uchun ham ular xalq etimologiyasi jumlasiga kiradi.

Ertatong ma’nosidagi *sahari mardon* birikmasi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, uning toponomiga asos bo‘lishiga ekstralivingistik omillardan biri bo‘lgan geografik omilning o‘rni katta. Sababi, **Shohimardonga** borgungacha bo‘lgan yo‘l qisman balandga ko‘tarilib boradi. Ushbu topomin tog‘ orasida joylashgan bo‘lsa-da, boshqa toponomik obektlarga nisbatan balandlikda o‘rgashgan. *Ertatong*da chiqqan quyoshning ilk nurlari tog‘ bag‘ridan ko‘tarilishi bilan avval mana shu qishloqqa tushadi. Bunday holat u yerga borgan kishilarga tez bilinadi. Bu hol ko‘p marta kuzatilgan. Demak, topomin geografik shart-sharoit tufayli *erta tongdanoq quyosh nuri tushadigan joy* ma’nosini ifodalaydi. Uning etimoni *saxari mardon* birikmasi sanaladi.

Ch

CHILONZOR // Chilonzor (Toshkent shahridagi tuman nomi) toponomining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy fikrmulohazalar bor:

¹ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.74-бет. Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 152-,161-162-,170-171-бетлар.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.72-бет. Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.9-11.

³ Фазилов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники. XIV века. Том II. -Т., Фан, 1971. 269-270-бетлар.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 447-бетлар.

⁵ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.410-бет. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Индекс луғат. -Т., Фан, 1967.399-бет.

1.Bu toponim hududida yashayotgan aholining yoshlari ulug‘ insonlardan so‘rasangiz, uni *chilon jiyda daraxti* ko‘p bo‘lgan joy bo‘lgani uchun **Chilonzor** deb tushuntirishadi: *chilon* >*chilon*+*-zor* > *chilonzor* > **Chilonzor**. Ayni vaqtgacha toponimning kelib chiqishini *chilon jiyda daraxtiga bog‘lab*, *Chilonzor* deb aytish va tushuntirish urfga kirgandi.Bu taxmin xalqona etimologiyaning bir ko‘rinishidir.

2.Oldinlari, ya’ni XX asrning 60-yillarigacha Toshkent shahri hududi hozirgi holatiga qaraganda ancha kichik bo‘lgan. Aniqrog‘i, 1963 yilgi zilzilagacha ushbu toponim hududida aholi kam yashagan. Sababi, bu toponimning joylashgan hududida ilonlar ko‘p bo‘lgan. *Ilon* so‘zi sudralib yuruvchi hayvonga nisbatan qo‘llanadi. Mazkur so‘z o‘zbek sheva va lahjalarida uch xil aytiladi: *ilon* – qarluq lahjasи shevalarida, *yilon* – o‘g‘uz lahjasи shevalarida, *jilon* – qipchoq lahjasи shevalarida aytiladi¹. Demak, *ilonnii jilon* deyish qipchoq lahajasи shevalariga xos leksik-fonetik xususiyatdir.

Bizningcha, ushbu joy nomining hududida *ilon*larning ko‘p bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy holat, ularni *ilon* yoki *jilon* deyishdan ko‘ra *chilon* deyish tilshunoslik fanida efemizm holati deyiladi. Ya’ni yoshlarning va ayollarning bu sudraluvchi hayvondan qo‘rqishini hisobga olgan holda *ilonnii jilon* deyishdan ko‘ra *chilon* deb aytish efemizmning asl ko‘rinishidir: *ilon* >*jilon* >*chilon* >*chilon*+*-zor* > *chilonzor* > **Chilonzor**. Shunga ko‘ra, toponimni **Chilonzor** deyish ancha o‘rinli holat deyish mumkin.

Ammo uning kelib chiqishini *ilon* // *jilon* so‘ziga bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiq. Sababi, 1) bu hududda j-lovchi qipchoqlar nisbatan olganda kam miqdorda yashashgan (nomlashda kam narsa-hodisalarning nomlarining berilishi qonuniyatdir); 2) tilimizdagi taraqqiyot va o‘zgarishlar tufayli *jilon* so‘zidagi j undoshining ch undoshiga talaffuz jarayonida o‘tishi tabiiy fonetik o‘zgarishdir. Bunday fonetik o‘zgarish qadimdan turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tili tarixiga oid materiallarda uchraydi²; 3) ushbu hudud avvalgi Toshkent shahridan ancha uzoqroq bo‘lgani uchun odamlarning dehqonchilik qilishlari ham ancha kam uchrashi tabiiydir.

Toponimning hududida yashayotgan yoshi ulug‘ insonlardan so‘rab-surishtiranimizda ham Chilonzor nomini tilga olishadi, biroq

¹ Қаранг: Дониёров Х. Қичоқ диалектларининг лексикаси. Т., Фан, 1979. 14-97-бетлар.

² Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т., 2004. 73-75-бетлар.

o‘zлари chilon jiyda daraxtlari ekilgan joyni ko‘rishmaganligini ham aytib o‘tishadi. Demak, *jilon* // *ilon* со‘зидаги ж талаффузда *ch* undoshiga о‘тгани sababli va yomon narsalarni eslamaslik hamda tilga olmaslik maqsadida *jilon* deyish о‘rniga *chilon* deyib, hududni esa ***Chilonzor*** deyish an’ana bo‘lib qolgan: *ilon* > *jilon* > *chilon* > *chilon+-zor* > *chilonzor* > ***Chilonzor***. Bu holatni Jizzax viloyati hududidagi Molguzar toponimi asli Morguzar¹ (*ilonlar* ко‘п joy, *ilonlar* guzari – ayni vaqtida bu hududda ilon kamayib ketgan) ekanligi bilan qiyoslasak ham, ushbu toponimning nomlanishi jarayonidagi yuqorida ko‘rsatilgan holat ancha oydinlashadi.

Xullas, mazkur toponimning etimoni *ilon* // *jilon* shaklidagi со‘з bo‘lib, xalq vakillari efemizm holatiga rivoya qilgan holda *jilon* со‘zining о‘rniga *chilon* со‘zini qо‘llagan va unga –*zor* topoformantini ham qо‘shib, joy nomini hosil qilishgan.

T

TANGATOPTI // Tangatopti (Jiz. v. Baxmal т. joy; Qash. v. Yakkabog‘ т. tepa) toponimining kelib chiqishi haqida uchta taxmin bor:

1. Toponim uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *tanga*, *top*, -*ti*. To‘ylarda, kelin salomlarda tanga sochish an’anasi hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Sochilgan tangalarni yig‘ish uchun odamlarning oyog‘i ostidan ularni topib olish kerak bo‘lgan. Mana shu an’ana toponimning shakllanishi uchun ekstralingvistik omil hisoblanadi. Bu - xalq etimologiyasi.

2. yer qazilgan vaqtida topilgan qadimiy va qimmatli *tanga*(lar)ga nisbatan о‘sha joy **Tangatopdi** deb atalgan. *Tanga+-ni+top+-di* shaklidagi birikma fonetik jihatdan tovush tushish hodisasiga uchrab, *tanga topdi* holatiga kelgan. Toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayoni tufayli *tanga topdi* birikmasi joy nomiga ko‘chgan: *tanga+-ni+top+-di* > *tanga topdi* > ***Tangatopdi***.

Tangani topdi birikmasi obektni nomlash uchun tanlanib, toponimik derivatsiya jarayonida toponimga ko‘chgan: *tangani topdi* > *tanga topdi* > ***Tangatopdi***. Xullas, toponim uchun *tangani topdi* birikmasi etimon bo‘lib kelgan. Toponimik obektlarning bu tarzda

¹ Мор тожикча сўз бўлиб, илонни англатади. Моргузар топоними талаффузда Молгузар ҳолатига келиб қолган: р > л ўзгариши рўй берган. Аслида Моргузар бўлган.

nomlanishi toponimlar tarkibida juda kam uchraydi. Bunday nomlanish ko‘pincha mikrotoponimlarga xos alohidilik xususiyatlarini ifodalaydi.

3. Toponim *tang*, *to‘b* (*to‘p*), *-di* ma’noli qismlaridan iborat. *Tang* so‘zi fors-tojikcha bo‘lib, odatda, ikki ma’noda ishlatilgan. Uning birinchi ma’nosи o‘rganilayotgan toponimga oid: «*oralig‘i, eni, hajmi yetarlicha katta bo‘lmagan, tor, chog‘»¹. Ikkinci ma’nosи bo‘lgan *og‘ir ahvolda qolmoq* toponimga tegishli ma’no emas.*

Tub so‘zi beshta ma’noga ega bo‘lib, birinchi ma’nosи biz qidirayotgan «*tag, ost*» degan ma’noni ifodalaydi². Toponimdagи *di* ma’noli qism aslida *deh* bo‘lib, fors-tojik tilida «*qishloq*» ma’nosini beradi³. Toponimdagи *tang* va *deh* so‘zлari fors-tojikcha bo‘lsa, *tub* so‘zi esa turkiy so‘z sanaladi. Nomlash ehtiyoji bilan tanlangan bu apellyativlar quyidagicha tarzda toponim sifatida shakllangan: *tang* + *tub* + *deh* > *tanga tubdeh* > *tanga tupdeh* > *tanga topde* > *tangatopdi* > **Tangatopdi**. Bu jarayon uchta so‘z orasida bo‘lgani uchun *a* unlisi orttirilgan, *b* undoshi *p* undoshiga aylangan⁴, *u* unlisi *o* unlisiga (*u* > *o*) o‘zgargan, «*qishloq*» ma’nosidagi fors-tojikcha *deh* so‘zidan *h* undoshi tushib qolgan va *ye* unlisi *i* unlisiga (*ye* > *i*) almashgan. Demak, toponimning etimoni *tanga tubdeh* birikmasi bo‘lib, «*tor joydagi qishloq*» ma’nosini ifodalaydi. Bizningcha, Yakkabog‘ tumanidagi toponim uchun ikkinchi taxmin mos, chunki u yerdan oldingi davrlarda yashirilgan tangalar topilgan. Uchinchi taxmin esa Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi toponimning shakllanishiga xosdir.

TASBULOQ // Tasbuloq (Nav. v. Namangan t. q.; Sam. v. Narpay t. buloq) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxmin bor:

1.Joy nomi *tashlab ketilgan buloq* birikmasidan shakllangan: *tashlab ketilgan buloq* > *tashlan buloq* > *tash buloq* > *tas buloq* > *tas buloq* > **Tasbuloq**. Bu toponim to‘g‘risidagi xalq etimologiyasidir.

2.Mazkur toponim quyidagi tarzda qayd etish mumkin: *tashli buloq* > *tash buloq* > *tas buloq* > *tasbuloq* > **Tasbuloq**. Toponim tarkibidagi tosh so‘zi *keng, hajman ortiqlik* ma’nosiga ega⁵. Toponimni

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 116-117-бетлар.

² Юқорида берилган асарнинг 215-бети.

³ Фарҳанги забони тоҷики. Жилд I. -М., 1969, 231-бет.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. С.40.

⁵ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Индекс луғат. -Т., Фан, 1967.166-бет.

toshli buloq deyish sinxron nuqtai nazardan to‘g‘ri. Diaxron jihatdan joy nomi *keng buloq* degan ma’noni ifodalaydi, deb qayd etish o‘rinli. **Tasbulوq** toponimining etimoni esa *tashli buloq* birikmasi sanaladi va u *keng buloq* ma’nosini bildiradi. Xullas, ushbu joy nomi gidrotoponimlardan biri sanaladi.

TASQUDUQ // Tasquduq (QqR., Nav., Xor., Sam. v. quduq) – toponimining shakllanishi to‘g‘risida bir necha taxminlar mavjud:

1. Toponim suv chiqmay qolganda *tashlab ketilgan quduq* ma’nosidagi shu birikmasidan shakllangan: *tashlab ketilgan quduq* > *tashlan quduq* > *tash quduq* > *tas quduq* > **Tasquduq**. Bu toponim to‘g‘risidagi xalq etimologiyasi emas, chunki cho‘lli hududlarda ko‘pincha quduqlardan suv chiqmay qolishi tez-tez eslanadigan jarayondir.

2 Bu joy nomi ikkita ma’noli qismdan iborat: *tas, quduq*. Toponimning birinchi ma’noli qismi oldin *tash* shaklida bo‘lgan. Til taraqqiyoti davomida va qozoq tilining ta’sirida ushbu so‘z tarkibida fonetik o‘zgarishlar ro‘y berib, *sh* tovushi *s* tovushiga o‘tgan, *-li* topoformanti esa tushib qolgan: *sh* > *s*, *tash* > *tas*, *tashli quduq* > *tash quduq*. Bu fonetik o‘zgarishlar toponimning shakllanishi jarayonida ro‘y bergen: *tashli+quduq* > *tash quduq* > *tas quduq* > **Tasquduq** > **Tasquduq**. Mahmud Koshg‘ariyning qayd etishicha, *tosh* so‘zining *keng va hajman ortiqlik* kabi ma’nolari bor¹. Bundan anglashiladiki, ushbu toponim *keng quduq* yoki *yeri keng quduq* ma’nosini ifodalaydi. Uning etimoni *tash quduq* birikmasi sanaladi.

TATARQAZG‘AN // Tatarqazg‘an (Bux. v. Jondor t. quduq) - gidronimi uchta ma’noli qismdan iborat: *tatar, qaz, -gan*. Unga quduq TA qo‘silgan: Tatarqazg‘an qudug‘i. Toponimning shakllanishiga oid ikki xil faraz mavjud:

1. Traktor bilan qazilgan quduq talaffuz jarayonida shu holga kelib qolgan. Sababi, XX asrning 20-30-yillarida xalk traktorni *tartar* deb atashgan va shu tarzda obektning nomi ham shakllana borgan: *tartar* > *tatar+qazvan* > *tartar qazgan* > *tatar qazgan* > **Tatarqazg‘an**.

2. Kishilar o‘zlariga yaqin odamlarga, do‘st-birodarlariga hazillashish ma’nosida laqab qo‘yib chaqirish tendensiyasi ham shu toponimning nomlanishiga xos bo‘lishi mumkin. Chunki undagi

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Индекс лугат. -Т., Фан, 1967.166-бет.

topoasoslardan biri bo‘lgan tatar so‘zi toponimda asli laqab, ya’ni antroponimlardan biri: *tatar qazg‘an* > **Tatarqazg‘an**.

2.Bizningcha, toponimning birinchi ma’noli qismi bo‘lgan tatar so‘zi turkiy etnonimlardan biri. Gidronimning ikkinchi ma’noli qismi bo‘lgan *qaz* - *yerni chuqur hosil qilish maqsadida o‘ymoq* ma’nosini ifodalovchi buyruq-istak maylidagi fe’l¹.

Uchinchi ma’noli qismi *-gan* qo‘sishimchasi *-gan* ko‘rinishli sifatdosh yasovchi qo‘sishimchaning varianti. Toponim *ot+sifatdosh* ko‘rinishidagi *tatar qazgan* predikativ birikmadan toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida nomlanish talabi va joy nomining motivlanishi tufayli toponimik leksikaga ko‘chib, joy nomiga aylangan: *tatar + qaz + -gan* > *tatar qazgan* > Tatarkazg‘an.

Ayni shu joy nomi predikativ birikma tarzida shakllangan, unda *tatar* so‘zi topoasos bo‘lib kelgan. Bu so‘z turkiy etnonimlardan biri². Shuning uchun u etnonim asosida yuzaga kelgan gidronimlardan biri. Ushbu gidronimning etimoni deb *ot+sifatdosh* ko‘rinishidagi predikativ birikma bo‘lgan: *tatar qazgan* sanaladi. Bu predikativ birikmada ham hyech bir o‘zgarishsiz, tobe va hokim qismlar birikib, bir butun holatda toponimga ko‘chishi yuz bergan: *tatar qazgan* > **Tatarqazg‘an**. *-gan* topoformantining hozirgi kunda qo‘llanmasligi, ammo o‘zbek tili shevalarida ishlatilishi e’tiborga olinsa, unda ushbu quduq ~ gidronimning paydo bo‘lganiga ancha vaqt bo‘lganligini sezish mumkin. Hyech bo‘limganda, u XIX asrning ikkinchi yarmi yoki XX asrning boshlarida qazilgan quduqlardan biri. Sababi, cho‘l hududlarida hamda cho‘lga yaqin joylarda quduq suvisiz kun ko‘rib bo‘lmaydi. Mana shu hol esa obektning nomlanishi uchun ekstraliningvistik omil. Uning so‘z bilan atalishi ekstraliningvistik omilning lingvistik omillar bilan qaror topishi hisoblanadi.

Tatar kishi qazigani uchun ham u shunday nomlangan, ya’ni toponimikaning negativlik holatiga mos holda yaratilgan³. Demak,

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Индекс лугат. -Т., Фан, 1967.280-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.439.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.503-бет.

² Кораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978.53-62-бетлар; Ўзбек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981.60-бет; Абу Тоҳирхожа. Самария // Мерос. -Т., Камалак, 1991. 42-бет.

³ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. -Т., Фан, 1985.40-45-бетлар; Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари // ЎТА. -Т., Фан, 1985. 2-сон. –Б. 33-37.

predikativ birikmadan shakllangan toponimning faollashuvida, so‘zsiz, toponimlarning nomlanish tamoyillari va omillari amalda qo‘llanganki, bu holat onomastik konversiya jarayonida aks etgan.

TAXTAPUL // Taxtapul (Toshkent shahridagi tarixiy toponim) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir qancha mulohazalar bor:

1.Pul taxlanadigan joy oldingi davrda **Taxtapul** deyilgan. Bu fikr toponimga sinxron qarashning bir ko‘rinishi, ya’ni joy nomini ishonarli tahlili amalgalashuviga oshirilmagan.

2.Toponimdagи *pul* so‘zi fors-tojikcha ikkita omonim so‘z bo‘lib, ikkinchi omonim so‘z *ko‘prik* degan ma’noni anglatadi¹. Bu holda joy nomi taxta *ko‘prik* degan ma’noni beradi: *taxta+pul* > *taxta pul* > *taxtapul* > **Taxtapul**. XX asr boshigacha bo‘lgan davrda *ko‘prik*lar qimmat bo‘lsa hamki, asosan taxtadan qilingan. Oldingi davrlarda boshqa joylarda bo‘lgani kabi Toshkent shahridagi katta ariqlar ustida *ko‘prik*lar taxtadan qurilgan.

3.Yuqoridagi fikrlarga hamohang holda M.T.Mirakmalov quyidagilar ta’kidlaydi: “Pul termini asosan toponimlar tarkibida saqlanib qolgan bo‘lib, *ko‘prik* ma’nosini beradi. Masalan, Tojikistonda – **Puligirdob, Pulichuqur, Pulbog‘, Saripul, Pulisangin** (Toshko‘prik, Norin GESi qurilgan joy). O‘zbekistonda - **Taxtapul**². **Pulisirot** toponimidagi birinchi komponent bo‘lgan *pul* so‘zi ham *ko‘prik* ma’nosida qo‘llanilgan. Demak, toponimning etimoni *tayyorlangan ko‘prik* ma’nosidagi *taxta pul* so‘z birikmasidir. Mazkur toponim ijtimoiy ahamiyatga molik joy nomlaridan biri bo‘lib, sotstoponimlar sirasiga kiradi.

TERMIZ // Termiz (Sur. v. sh.) - toponimi haqida quyidagi farazlar bor:

1.Uni qadimgi davrda yunonlar issiq ma’nosidagi termos³ so‘zi bilan nomlashgan. Keyinchalik termos > termoz > termiz > Termiz. Ushbu holda joy nomi yunon tilidan turkiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zdan shakllangan toponim bo‘lib chiqqan. Bu holat okkozional etimologiya sanaladi, chunki bir til leksemasi fonetik jihatdan ma’lum o‘zgarishlar asosida ikkinchi tilga o‘tgan yoki shu til

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. Т., "Ўзбекистон миллый энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007.321-бет.

² Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари.Т., Фан ва технологиялар, 2009. 94-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 166-бет.

so‘zligiga o‘xhash bo‘lib qolgan. Aytilgan faraz qiyoslash tamoyili jarayoniga oid bo‘lsa ham, u okkozional etimologiyaning bir ko‘rinishi.

2. Toponimning kelib chiqishi va nomlanishini shaxs nomi, aniqrog‘i, yunon sarkardalaridan birining ismi bo‘lgan Demetriy bilan bog‘lashadi¹. Bu taxminga qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi, xalq bosqinchilarning nomini toponimlarda ko‘p asrlar davomida saqlamagan. Bunga qadim tarix guvoh. Shu o‘rinda ba’zi joylarda uchraydigan Iskandar toponimi haqida ham gapirish lozim. Toponim uchun Iskandar antroponimi asos, ya’ni etimon. Antroponimga esa badiiy asarlarda qo‘llanadigan qahramon nomi asos bo‘lgan, ammo tarixiy shaxs bo‘lgan Aleksandr Makedonskiy nomidan toponim shakllanmagan.

3. Toponim ho‘l, suvi ko‘p ma’nosidagi tar so‘ziga biz so‘zini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan: *tar+biz* > *tarbiz* > *tarmiz* > **Termiz**. Bunda biz so‘zidagi b undoshi m undoshiga almashgan². Suvli joy, suvli joylikdanmiz degan ma’nolar toponimga yuklangan. *Tar* so‘zining *ho‘l*, *suvi ko‘p* degan ma’nolariga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ayon. Bu so‘zning ma’nosini asoslashga tarvuz so‘zi vosita bo‘ladi. Tarixan qaraganda *tarvuz* so‘zi ikkita ma’noli qismga ajralgan: *tar*, -*vuz* yoki -*vuz*. Undagi tar leksemasi ho‘l, nam, suvli degan ma’nolarda qo‘llangan. Ushbu faraz geografik jihatdan to‘g‘ri, topoobekt daryo bo‘yida joylashgan. Ammo *tar* so‘zining *suvli*, *suvi ko‘p*, *ho‘l* ma’nolari ushbu so‘zning keyingi davrdagi ma’no taraqqiyoti bilan bog‘liq. Sababi, qadimgi turkiy tilga oid lug‘atlarda *tar* so‘zining bu ma’nosini qayd qilinmagan. Shu bilan birga «*Termizning tarixga kirgan ilk nomlaridan biri Taramasta - Taramata (baqracha - daryo qirg‘og‘i) bo‘lgan*» degan fikr ham bor³.

4. Toponim tirishmoq, tirishib-tirmashmoq ma’nosidagi tir topoleksemasiga biz topoleksemasini qo‘shish bilan shakllangan: *tir+biz* > *tirbiz* > *tirmiz* > *termiz* > **Termiz**. Unda *i* > *ye*, *b* > *m* shakllaridagi tovush o‘zgarishlari bo‘lgan⁴. Bu farazga qo‘shilib bo‘lmaydi.

¹ Турсунов С., Кичкилов Х. Термиз йилномаси. -Т., Шарқ, 2001. 47-бет.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.40-41.

³ Турсунов С., Кичкилов Х. Термиз йилномаси. -Т., Шарқ, 2001. 5-б.

⁴ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.23,40.

5.Mazkur toponim *termoq* ma’nosidagi *ter*¹ o‘zagiga *biz* so‘zini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan: *ter+biz* > *terbt* > *termiz* > **Termiz**. Ushbu holda ye tovushining cho‘ziqligi yo‘qolgan². Bu yerda qo‘llangan *ter* so‘zidan *terlaganda chiqadigan suyuqlik* ma’nosidagi *ter*³ so‘zini farqlash kerak. Bu fikrga qo‘shilmaymiz. To‘rtinchi va beshinchi fikrlarda toponimni hosil qilgan topoleksemalarga xos o‘xhashlik juda aniq. Biroq u sinxron planda ro‘y bergen. Diaxron planda esa bu holat uchramaydi.

6.Bu toponim ekin maydoni ma’nosidagi *tar*⁴ so‘ziga –miz qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan: *tar+-miz* > *tarmiz* > **Termiz**. Ushbu holda ikkinchi ma’noli qismdagi i unlisiga moslashib, *a* > *ye* ko‘rinishdagi fonetik o‘zgarish, ya’ni singarmonizm ro‘y bergen. Joy nomi *ekin maydonimiz* degan ma’noni ifodalaydi. Mazkur fikr *tar* so‘zining yangi bir ma’nosini ko‘rsatishi bilan ahamiyatli.

7. H. Hasanov ushbu toponim haqida quyidagilarni yozgan: «Bu eng qadimiylardan bo‘lib, janub tomondagi xalqlar tomonidan aytilgan *taro mata* - «*nariyoqdagi qishloq*» so‘zlaridandir (“Avesto” yozuvlarida bor), ya’ni Amudaryoning narigi yog‘i - shimoli bo‘ladi. Dastlab *Tarmita*, *Tarameta* deb talaffuz etilgan, X asrdan boshlab *Termiz* bo‘lib qolgan. Tarixda uning Aleksandriya, Demitris, yevkrovtediya, Shaxri Somoni kabi vaqtincha nomlari ham uchraydi⁵. Biroq muallif joy nomi haqida aytgan fikrlariga birorta dalilni keltirmaydi. Shu o‘rinda Abu Rayxon Beruniy *tar* komponentli so‘zlar to‘g‘risida quyidagilarni aytganini eslash kerak: “*Tarxun So‘g‘d* podshosining nomi. Keyinchalik *tarxun* so‘zi Samarqand podsholarining shohlik unvonini ham anglatgan, *tarxon* esa shohlikni bildirmaydi, saroydagi amal-lavozimni bildiradi”⁶. Demak, *tarxun* – turkiy-xunlar yashagan joy, So‘g‘d podshosi esa turkiy-xunlar yashagan joyning oliv

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.116-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.331-бет.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 18-, 42-, 116-бетлар.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001.316-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.331-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. 237-бет.

⁵ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 53-бет.

⁶ Ҳасанов Ҳ.Беруний асарларида топонимика //Беруний ва ижтимоий фанлар. -Т., Фан, 1972.75-128-б.

hukmdori bo‘lgan; taxon – turkiylar amaldori degan ma’nolarni anglatadi.

8.M. Y. Masson va G. A Pugachenkolar toponimning kelib chiqishini grek-baktiriy podshohi Demetriy yoki sanskrit tilidagi daryoning u qirg‘og‘idagi aholi punkti ma’nosidagi taromato birikmasiga bog‘lashganini Sh. S. Kamaliddinov o‘zining monografiyasida qayd etgan¹. Bu taxminda ham qiyoslash kayd etilgan olimlarning fikrlarida o‘z ifodasini topgan. Agar turkiylarning ko‘chmanchi deb, kamsitilishi XX asrda turli ko‘rinishlarda amal qilganini e’tiborga olsak, u holda M. Y. Masson va G. A Pugachenkolarning ushbu tononim haqidagi fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarash lozimligi anglashiladi.

9.Toponim tar va biz(miz) shaklidagi ikki so‘zning birikishidan yuzaga kelgan: *tar+biz* > *tarbiz* > *tarmiz* > *termiz* > **Termiz**. Tarqa so‘zining o‘zagi tar qadimgi turkiy tilda quyidagi ma’nolarni ifodalagan: *tor*; *kichik suvlarda qo‘llanadigan oddiy qayiq*; *yog‘ quyqasi*; *ish haqi*; *haydalmoq, targalmoq, toymoq*². T. Nafasov toponimning **Tara-mastxa, Tarmita, Taramita, Taramata, Tarameta, Taramat, Tarmid, Tar-miz** tarzida tarixiy manbalarda qayd etilgan shakllari borligini qayd etgan³. Shuningdek, toponimning Tarmid va Tarmiz shakllari daryo qirg‘og‘i, narigi tomondagi joy, manzil ma’nolarini anglatishi manbalarda ko‘rsatilgan⁴.

10.M.A. Mamedovning fikricha, *Tabriz - Tebriz - tabor+iz. Tabor – shabur* etnonim, turkiy xalq. Etnonim yasama so‘z: *ta-to-tau, par-bar-var -ar -qishloq, joy, yurt, urug‘, qabila, oila. Tabor - tabur - tog‘lik, tog‘xalqi; - z// -iz* qo‘shimcha lari ko‘plik va jamlikni bildiradi⁵.

Bizningcha, toponim tarkibidagi *tar* so‘zining o‘zagi *haydalgan, tarqalgan, toygan* ma’nolarini anglatadi. Joy nomi tarkibidagi **-miz** topoleksemasi esa *biz* so‘zining o‘zgargan shakli, bunda *b* > *m* tovush

¹ Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX- начала XIII вв. -Т., Ўзбекистон, 1996.с.100-101.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.536. Маҳмуд Кошфарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 162-, 180-бетлар.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 176-бет.

⁴ Турсунов С., Кичкилов Ҳ. Термиз йилномаси. -Т., Шарқ, 2001. 5-б. Абдуллаев Р. Термиз атамаси ҳақида // -Термиз университети газетаси. 2002 йил 19-март. 1-бет.

⁵ Локшина С. М. Краткий словарь иностранных слов. -М., Русский язык, 1977. с.72-74.

o‘zgarishi ro‘y bergen¹. Bu so‘z qadimgi turkiy tilda ham mavjud bo‘lgan². Demak, toponim quyidagicha tarzda shakllangan: *tar+biz* > *tarbiz* > *tarmiz* > *termiz* > **Termiz**. Bunda toponim tarkibidagi *tar* topoleksemasida *a* > *ye* tarzidagi fonetik o‘zgarish ro‘y bergen: *tar* > *ter*³. Ushbu toponim toponimik derivatsiya jarayonida apellyativ leksikadan onomastik leksika sathiga ko‘chgan. Shuningdek, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi tarqa so‘zi ham tar so‘ziga *-iq*, *-a* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil bo‘lganini e’tiborga olish lozim⁴. O. T. Molchanova *tar* so‘zining tog‘li Oltoy toponimiyasida ishlatalishi ham uning topoleksema sifatida qo‘llanganligini qayd etgan⁵. Demak, *tar* va *biz* topoleksemalaridan hosil bo‘lgan **Termiz** toponimi tarqalganlar yoki shu topoobektgacha tarqalganlar yashagan joy degan ma’noni beradi. Uning etimoni tarqalgan *biz* ma’nosidagi *tarmiz* (*biz*) so‘z birikmasi. Haqiqatan ham, bu topoobektdan so‘ng Amudaryo va turkiylar kam yashaydigan Afg‘oniston mamlakati boshlanadi. Bu esa turkiylarning mana shu obektgacha yetib borganini ko‘rsatadi.

Turkiy urug‘, qabila va xalqlarning shu obektgacha tarqalishi tarixiy jarayon ko‘rinishidagi ekstralengvistik omil bo‘lib, uning *tar* va *biz* shaklidagi lingvistik omil vositasida ifodalanishi haqiqatga yaqin.

11. Ushbu toponim turar joy ma’nosidagi *turug ‘lag yer(yer)*⁶ shaklidagi birikmaning turli xil ko‘rinishidagi fonetik o‘zgarishlardan toponimik direvatsiya jarayonida hosil bo‘lgan: *turug ‘lag yer* > *turug ‘yer* > *tur per* > *turyez* > *turmez* > *turmiz* > *termiz* > **Termiz**. Bunday jarayonda birinchi so‘zda u > ye (u > e > ye)⁷, ikkinchi so‘zda esa y >m (y > n > m)⁸ va r > z¹ shaklidagi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergen.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001.18-,42-, 116-бетлар. Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.40.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.104.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001.9-10-бетлар. Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.13-14.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.324-бет.

⁵ Молчанова О. Т. Топонимический словарь горного Алтая. -Горно – Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979.с.301-302.

⁶ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлиқ. I т. -Т., Фан, 1960.457-бет.

⁷ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 128-бет.

⁸ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.с.54, 68.

Birinchi so‘zning ikkinchi va uchinchi bo‘g‘inlari vaqt o‘tishi bilan hamda topoobektga xos nomlanishning motivlanish jarayonida tushib qolgan. Toponim *tur,-ul,-lag*, *yer(yer)* shaklidagi to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan. Uning etimoni - atributiv birikma ko‘rinishidagi *turug ‘lag’* *yer(yer)* birikmasi sanaladi. Bu fikr oldingi fikrni qo‘llab quvvatlaydi. Sababi, topoasos vazifasidagi ikkala so‘z ham turkiy tillarga oid.

12. T. Nafasov mazkur toponimni turkiy etnonimlardan biri bo‘lgan tabor // tabur bilan bog‘laydi². Ushbu etnonimning fonetik o‘zgarishlarga uchrab termiz > Termiz holiga kelishini o‘ylash kerak. Ammo uning yasama so‘zligi hamda qishloq, joy, yurt, urug‘, qabila, osha ma’nolarini ifodalashi³

biz ilgari surayotgan taxminni ma’lum ma’noda tasdiqdaydi. Shuningdek, turar joy ma’nosida qo‘llanuvchi *turug ‘lag yer (yer)* birikmasi mazkur toponimga oid topoleksemalarning turkiy tillardagi so‘zlardan shakllanganligini bildiradi. Bunda sinxron va diaxron nuktai nazaridan toponimga munosabat o‘z ifodasini topgan.

Toponim haqidagi yettinchi fikrga agar turkiylarning ko‘chmanchi deb kamsitilishining turli davrlarda har xil ko‘rinishlarda amal kilgani e’tiborga olinsa, unga tanqidiy nazar bilan qarash lozimligi anglashiladi. Shuning uchun ham bu farazga qo‘silib bo‘lmaydi. Sakkizinchi farazda toponimni qiyoslash aniq bilinib turibdi. Demak, uning etimologik tahlilida fonetik va leksik tamoyillar bilan birga qiyosiy tamoyil ham amal qilgan. Toponim haqidagi sakkizinchi farazda qayd etilgan *tarqalganlar* yoki *shu topoobektgacha tarqalganlar yashagan* joy degan ma’nosi bilan birga sakkizinchi farazda ifodalangan turar joy ma’nosi o‘zaro muvofiqlashishini kuzatish mumkin. Binobarin, to‘qqizinchi, o‘ninch, o‘n birinchi va o‘n ikkinchi fikrlarda toponimning shakllanishi va ma’nosi lingvistik omillar asosida yoritilgan. Bu toponim XU1 asrgacha to‘liq shakllangan.

TOMCHI // Tomchi (Qash. v. Chiroqchi t. q. va buloq) – toponimning shakllanishi to‘g‘risida ikkita faraz bor:

¹ Махмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 166-бет.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.175-176-бетлар.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.175-176-бетлар.

1. **Tomchi** - yomg‘ir parchasi, suvning kichik parchasi. Toponim oldin buloq nomi bo‘lgan. So‘ngra buloq nomi kishloq nomiga aylangan: **Tomchi > Tomchi**. U suvi tepadan oqib turuvchi buloq ma’nosini beradi. *Tomchilab turgan buloq* ba’zan maxsus nomlanadi ham: **Suvtushar** (Shahrisabz t. q., buloq, ariq)

2. Ushbu toponim ikki ma’noli qismdan tashkil topgan. Birinchi qismi tom so‘zi topoasos bo‘lsa, ikkinchi ma’noli qism -chi esa topoformant (, ya’ni toponim, ba’zan etnonim yasashda qo‘llanadigan etnoformant hamdir). Bu topoformant boshqa toponimlarda etnoformant bo‘lsa, mazkur toponimda esa topoformant vazifasida kelmoqda. Joy nomi apellyativ leksika sathida oddiy yasama so‘z sifatida shakllangan: *tom+-chi*. U toponimga aylanguncha *tomchi* yasama so‘zi bir necha ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, toponimlashuv hodisasi ta’sirida toponimga aylangach, quyidagi toponimik ma’noni bildiradigan holga kelgan: **Tomchi** - uy-joy quruvchi kishi.

So‘ngra onomastik konversiya hodisasi tufayli tomchi yasama so‘zi onomastik leksikaga ko‘chib, joy nomini anglatgan: *tom+-chi > tomchi > Tomchi*. U uy-joy quruvchi kishi ma’nosini ifodalagan. Ba’zi olimlar, jumladan, T. Nafasov -chi topoformantini etnonim yasovchi qo‘shimcha (etnoformant), dsb ko‘rsatsa ham¹, ushbu toponim tarkibidagi -chi topoformanti etnotoponimni yasagani yo‘q. Kundalik hayotda qo‘llanuvchi uy-joy quruvchi kishi ma’nosidagi tomchi yasama so‘zi uning etimoni.

TUMSHUQ // Tumshuq (Sur. v. Denov t. tepe) oronimi bo‘yicha ikkita taxmin bor:

1 Ushbu joy nomi ikkita ma’noli bo‘lakdan iborat: tum, -uq. Tumtaymok, tumshaymoq so‘zlaridagi tum o‘zagi aynimoq, xafa bo‘lmoq ma’nolarini ifodalaydi². Bu o‘zakka qo‘shilgan -uq qo‘shimchasi tumshuq so‘zini shakllantirgan: *tum+-uq > tumuq > tumshuq*. Natijada, ularning orasida *sh* undosh tovushi orttirilgan. Tog‘, tepalik va orolning burni, uch tomoni³ xalq iutqida tumshuq deb ataladi va ko‘chma ma’noli birikmalarni shakllantirib, nutqda qo‘llab ham yurishgan: *Tumshug‘i ko‘tarilib qolgan. Tumshug‘iga narvon qo‘ymoq*.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 28-, 84-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 223-бет.

³ Фуломов П. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1994. 20-бет.

2. Ushbu joy nomidagi tumshuq so‘zida qush va hayvonlarning, shuningdek, insonning burni bilan og‘zi ham umumlashtirib nomlangan. Uning etimologik tahlilida lingvistik omil bilan birgalikda geografik usul amal qilgan. Bo‘rtib chiqib turish *tog‘* va *tog‘ oldi* hududlarida uchraydigan tabiiy geografik holatlardan biri. Toponimning shakllanishida geografik omil va nomlanish tamoyilining nisbiylik holati asosiy vosita bo‘lgan. Demak, uning etimoni *bo‘rtib chiqib turgan* joy ma’nosidagi *tumshuq* so‘zi bo‘lib, undan onomastik konversiya jarayonida joy nomi paydo bo‘lgan: *tumshuq* > **Tumshuq**.

TOLDIK // Toldik // Tollik (Nav. v. Mingbulok T. k.) - toponimi to‘g‘risida ikkita taxminiy fikr bor:

1.Bu joy nomi *toldik* degan ma’noni bildiradi. Aholi charchab horiganda ushbu so‘zni ishlatishib, dam olishgan joy shunday nomlangan: U *toldik* so‘zidan shakllangan: *toldik* > **Toldik**.

2.Mazkur toponim ikkita ma’noli kismdan tashkil topgan: *tol*, *-dik*. Toponimni charchadik ma’nosidagi *toldik* yasama so‘zi bilan bog‘lash o‘rinsiz. Sababi, *tol* fitonim, *-dik* esa *-lik* qo‘srimchasingin fonetik o‘zgargan shakli: *-lik* > *dik*. Bunda hosil bo‘lgan yasama so‘z tarkibidagi ikki bir xil tovushdan biri boshqa bir tovushga (*l* > *d*) aylangan, ya’ni bu fitotoponimda dissimilyasiya hodisasi ro‘y bergen. Tol so‘zining uchta ma’nosi bo‘lib, birinchi ma’nosi bo‘lgan ingichka uzun bargli, surx novda otib o‘sadigan daraxt yoki buta¹ joy nomida mavjud.

Demak, toponim tol daraxti bor bo‘lgan obekt ma’nosini ifodalagan. Toponimning shakllanishi jarayonida ro‘y bergen fonetik o‘zgarishlar quyidagicha holatda amalga oshgan: *tol* > *tol+lik* > *tollik* > **Tollik** > **Toldik**. Uning etimoni *tollik* yasama so‘zi.

TOSHKENT // Toshkent toponimining kelib chiqishi haqida etimologik tahlilida bir necha taxminiy fikr berilganki, ularning mazmun-mohiyati va obrazli nomlanishi orqali joy nominining tarixiy oltin bitikligini anglatib turibdi:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Suratu-l-arz kitobi» asarida **Toshkent** avval *Torband*, *Burji hijora*, *Tosh qal‘a*, *Shosh* deb qayd qilingan². Bizningcha, arab yozuvidagi *Torband* toponimida o‘unlisi noto‘g‘ri o‘qilgan, aslida *a* bo‘lishi kerak. Qishloq, shahar

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 198-199-бетлар.

² Мұхаммад ибн Мусо Ал Хоразмий. Математика, астрономия, география. Т., Фан, 1983. 268-269-бетлар.

ma’nosidagi *kand* so‘zi tarkibidagi *k* undoshi arab yozuvining turli ko‘rinishlarida *b* shaklida o‘qilib ketilgan. A unlisining *o* unlisiga o‘tishi esa keyingi jarayon. *Torband* aslida *Tarkand* shaklida¹ yozilishi lozim edi. *Toshli qal'a* arabchada *Burji hijora* deb atalgan². U holda *Chosh(Choch)* va *Shosh* nomlarining kelib chiqishini faqat arab tiliga bog‘lash shart emas, balki u turkiy va arab tillarining unsurlaridan shakllangan. Sababi, obektning *Chosh (Choch)* va *Shosh* shaklidagi nomlari fors-tojik va xitoy manbalarida ham uchraydi³. Demak, muallif **Toshkent** toponimining *Torband* (*Tarband // Tarkand*) shaklini UIII asrdagi ko‘rinishi deb, to‘g‘ri ko‘rsatgan.

2. Bu shahar oldin **Tarkan** deb, so‘ngra esa **Toshkent** deb atalgan⁴.

3. Xitoy manbalarida **Shi**, **Chach** deb qo‘llangan⁵. Xitoyliklar **Toshkentning** oldingi nomi bo‘lgan **Shi** va **Chach // Chosh** ni o‘zgartirmay qo‘llashgan.

4. Ushbu toponim X11 asrda **Tarband** deb qo‘llangan⁶.

5. E. M. Murzaev uning ma’nosini «*tosh shahar*» degan holda ye. D. Polivanovning ushbu toponimni *taj // taji // tadjik* etnonimiga bog‘lashiga qo‘shilmaydi⁷.

6. Sh. Qodirova ushbu toponimning shakllanishini *Tarig ‘kentga bog‘laydi*⁸: *Tarig ‘(kent) > Tar(kent) > Shash(kent) > Tashkent*. Bunda toponimning asosi deb boshqa so‘z tanlangan, etimoni haqida to‘xtalinmagan.

7. H. Hasanov: “*Ehtimol, «Toshkent» so‘zi bu yerdagi dastlabki tosh binoga qarab paydo bo‘lgandir. Kelgusi arxeologik tekshirishlar va filologik tahlillar bu masalaga aniqlik kiritsa kerak*” deydi⁹. Bundagi xato *ehtimol* so‘zida aks etib turibdi.

¹ Древнетюркский словарь. Лгр., Наука, 1969. –С.109.

² Мухаммад ибн Мусо Ал Хоразмий. Математика, астрономия, география. -Т., Фан, 1983. 269-бет.

³ Qorayev S. Toponimika. -Т., О ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 292-бет. Хуршут Э. Ши-Чач-Ташкент. -Т., Ўзбекистон, 1992. -54 6.

⁴ Маҳмуд Кошфарий. Девону луғотит турк. Уч томлиқ. I т. -Т., Фан, 1960. 414-бет; Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. –С.536.

⁵ Хуршут Э. Ши-Чач-Ташкент. -Т., Ўзбекистон, 1992. 3-50-бетлар.

⁶ Древнетюркский словарь. Лгр., Наука, 1969. –С.109.

⁷ Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. -М.,Мысль,1974. –С.230-232.

⁸ Кадырова Ш. М. Микротопонимы Ташкента. АКД. -Т.,1970.-С.7-12.

⁹ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 101-бет.

8. Tarixiy taraqqiyot tufayli toponim tarkibida *Chosh – Shosh – Tosh* shaklida fonetik o‘zgarishlar bo‘lganini M. Mirtojiev qayd etgan¹, ammo uning etimoni to‘g‘risida gapirmagan.

9. S. Qoraev bu haqda: “*Sof turkiy nom bo‘lgan Toshkent so‘zining tarixiy manbalarda qayd qilina boshlanganiga ming yildan oshdi*”, - degan. Muallif boshqa asarida uning etimologiyasi to‘liq o‘rganilmagan, deydi².

10. Z. Do‘simov va X. Egamov: «Toponimning eng ko‘p tarqalgan etimologiyasi **Toshkent** –«tosh qal'a, tosh shahridir», - deb yozishgan³.

11. Toponim **Choch, Shosh, Shoshkent, Madinat ash-Shosh, Binkat, Tarkand** va **Toshkent** deb atalganini, *choch* so‘zi qadimdan *tog‘* va *tosh* ma’nolarini anglatishini, **Choch** avval toqqa, so‘ng daryoga, keyin vohaga, vohadan shaharga ko‘chganligini A. Muhammadjonov ko‘rsatgan⁴. Bunda geografik va arxeologik dalillar uning etimologik tadqiqiga yo‘naltirilgan.

12. Mazkur topominni, ya’ni “Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shaklida uchraydi. Choch so‘zi so‘g‘d tilida tosh demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan. Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb ko‘rsatganlar. Binkat hozirgi Eskijo‘va va Chorsu oralig‘ida bo‘lgan. Binkat nomi forscha bo‘lib, ko‘rimli shahar demakdir (bin – ko‘rinish, ko‘zga tashlanish, kat – so‘g‘dcha “shahar, qishloq, manzigoh” degan ma’nolarni bildirgan). Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Qomusi Mas’udiy” asarida “Binkat – bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda “Toshkand”, yunonchadan arabchaga tarjima qilinsa – “Burj al-hijora (“Tosh minora”) deb yozgan”⁵. Bular, ming afsuski, taxminiy fikr, chunki aytilgan manba hamda asarlarning nashri va sahifasi ko‘rsatilmagan.

¹ Миртожиев М. М. Тошкент сўзининг маъноси // Шарқ юлдузи. 2-сон. 1981. 237-238-бетлар; Миртожиев, М., Махмудов Н. Тил ва маданият. -Т., Ўзбекистон, 1992. -110 б.

² Қораев С. Тошкент топонимлари. -Т., Фан, 1991. 13-бет; Караев С. К. Топонимия Узбекистана. -Т., Фан, 1991. 100-102-бетлар.

³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 132-бет.

⁴ Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (тарихий ва археологик лавҳалар). -Т., Шарқ, 2002. 53-59-бетлар.

⁵ Хўжамов М., Лафасов М., Муллажонова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. -Т., Мумтоз сўз, 2014. 134-137-бетлар.

13. Bu joy nomining **Choch** nomi ham ancha mashhur bo‘lganligini “Sug‘d elchisi Fatufarining Choch diplomatik missiyasi” misolida M.Is’hoqov maxsus to‘xtalgan¹.

14. A. Devonaqulov bu joy nomining **Toshkand**, **Choch**, **Shosh**, **Gang** shaklidagi ko‘rinishlarini fors tilidagi tarixiy asar va lug‘atlar, shuningdek, “Shohnoma” asosida izohlashga harakat qilgan².

15. Toponimning **Binkent** varianti arab geograflarining ishlarida berilganligini ye. M. Pospelov qayd etgan³.

16. Bizningcha, topominning **Torband** // **Tarband** // **Tarkand** variant-lari obektning M. Koshg‘ariygacha bo‘lgan nomi. **Toshkent** esa **Tarkand** shaklida XI asrda ham qo‘llangan. Birinchi bo‘lib obektning **Torband** // **Tarband** // **Tarkand** nomlanishi, so‘ngra **Toshkand** // **Toshkent** deb atalishi fikrimizni tasdiqlaydi. Toponim M. Koshg‘ariy davrigacha **Torband** // **Tarband** // **Tarkand** deyilgan. Muallif yashagan davrdan boshlab esa obekt **Tarkand** va **Toshkent** nomlari bilan atalgan. Keyinchalik birinchi nom arxaiklashgan, ikkinchi nom esa obekt uchun asosiy nom bo‘lib qolgan. Joy nomi ikki morfemadan iborat: *tar* va *-kan*. *Tar* so‘zining «*zich*, *tig‘iz*, *jips*, *mahkam*» ma’nolari bor⁴. Uning ikkinchi ma’noli bo‘lagi bo‘lgan *-kan* (*-kand*) esa “*qal‘a*, *qo‘rg‘on*, *o‘ralgan joy*” ma’nolarini ifodalaydi. U holda **Tarkan** “*zich*, *mustahkam* *o‘ralgan qal‘a*, *qo‘rg‘on*” ma’nolarini anglatadi.

Tar so‘zining “*zich*, *mustahkam*” ma’noni ifodalashiga qarab, u «*qattiq*, *mustahkam*» ma’nosidagi *tosh* so‘ziga fonetik o‘zgarishlar tufayli o‘tgan. Bunda *r* > *sh* fonetik o‘zgarishi ro‘y bergen: *tar* > *tash* > *tosh*. *Chosh* (*Choch*) *Shosh* so‘zlari bilan *Tarkan* so‘zining o‘zaro munosabati bilan *r* undoshi *sh* undoshiga (*r* > *sh*), *a* unlisi esa *o* (*a* > *o*) unlisiga almashgan:

Chosh(kand) > *Shosh(kand)* > *Tarkand* > *Tarkan* > *Tazkan* > *Tashkand* > *Toshkan(d)* > **Toshkent**.

¹ Исҳоқов М.Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. -Т., Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. 26-37-бетлар.

² Девонақулов А. Асрори номҳои кишвар. -Душанбе, Ирфон, 1989. 151-157-б.

³ Пospelов Е. М. Школьный топонимический словарь. -М.,1988. С.188.

⁴ Древнетюркский словарь. Лгр., Наука, 1969. –С.536.; Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 414-бет.

Tar so‘zidagi r tovushi kand // kent leksema ko‘rinishlariga ega bo‘lgan ushbu so‘zga qo‘shilishi bilan quyidagi fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan¹:

1. ch > sh. 2. sh > t. 3. r > d // t². 4. d > d' > z (z > y; z > s > sh)³. 5. r > z > z' (z > sh; z > s > ch > sh). 6. r > l > sh. Demak, r undoshi birdaniga *sh* undoshiga o‘tmagan, oldin *d* undoshiga (*r* > *d*) o‘tgan, so‘ngra esa *d* undoshi *z* undoshiga (*d* > *z*) o‘tgan. Eng oxirida *z* > *s* > *sh* o‘zgarishlari (*r* > *d* > *z* > *s* > *sh*) tufayli *r* > *sh* o‘tishi ro‘y bergen. Bu fonetik hodisalar ikki so‘zning birikishi natijasida ro‘y bergen: *tar+kan* > *tarkan* > *tazkand* > *taskand* > *tashkand* > **Toshkand** > **Toshkent**. *Tosh+kent* birikuvidan bu joy nomi vujudga kelmagan, balki regressiv assimilyasiya hodisasi ro‘y berib, *sh* tovushi ta’sirida *t* > *ch* fonetik o‘zgarishi amalga oshgan. *Chosh+kent* birikuvidan onomastik konversiya tufayli *Choshkent* yuzaga kelgan, *ch* tovushi *sh* tovushiga o‘tgan⁴: *Choshkent* > *Shoshkent*. So‘zdagi bir xil undoshlardan biri boshqa bir undoshga aylanishiga ko‘ra *Shoshkentning Toshkentga aylanishi qonuniy fonetik jarayon: sh > t* hodisasi ro‘y bergen. Mazkur obekt nomining *Choshkent* > *Shoshkent* > **Toshkent**; *Shash* > *Shosh*; **Tashkand** // **Toshkand** ko‘rinishlari bor. Masalan, Bobur **Toshkand** deb qo‘llagan⁵. Unga yasovchi asos bo‘lgan *Chosh* so‘zi qadimda mahalliy aholi tilida «*tog‘, tosh*» kabi ma’nolarni ifodalagani kabi bugungi kunda «*xirmon, xirmon joy*» degan ma’nolarni anglatadi⁶.

Eski shahardan boshqa joylarda dehqonchilik qilingan. Shahar janubidagi **Eskichoshtepa yo‘li** ham fikrimizni tasdiqlaydi. “Dehqonchilik gullab yashnagan joy, xirmon joyli yer” ma’nosidagi *Shoshkent* va *Choshtepa* yoki *Choshkent* atamalari **Tarkan** holatidagi joy nomining **Toshkent** ko‘rinishiga kelishi uchun vosita bo‘lgan. Bu joy nomi xalq nutqida **Toshkan** tarzida aytilishi ham undagi *kent* elementining turkiy

¹ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 149-, 152-, 161-162-, 170-171-бетлар. Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Лгр., Наука, 1970. –С.159-178.

² Каранг: Бу фонетик ўзгаришларни Б.А.Серебренников ва Н.З.Гаджиевалар ҳам қайд этишган (257,71-).

³ Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Лгр., Наука, 1970. –С.160.

⁴ Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. -Т., Ўқитувчи, 1996. 59-бет.; Тўйчибоев Б. Яйлов, қишилов, керага ва олтин сўзларининг шаклланиши // ЎТА.3-сони. -Т., Фан, 2000. 59-бет.

⁵ Бобур Захриддин Мухаммад. Бобурнома. -Т., Юлдузча, 1989. 92-94-бетлар.

⁶ Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (тарихий ва археологик лавҳалар). -Т., Шарқ, 2002. 54-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 381-бет.

tillarga oidligini ko‘rsatadi¹. *Tosh shahri* deyish uning ma’nosini buzadi. Toponimining shakllanishiga “mustahkam o‘ralgan qal‘a” ma’nosidagi *tarkan* so‘zi etimon vazifasini bajargan va tarixiylikka xos tadrijiylikni ifodalagan.

TOYLOQ // Toyloq // Tayloq (Sam. v. t.; Qash. v. G‘uzor t. q.; Farg‘ona v. Dang‘ara t.q.) - toponimining shakllanishi to‘g‘risida uchta faraz bor:

1.Mazkur topomin tekislik ma’nosini anglatadi. Joy nomi *tekis yer* va *tekislik* ma’nosidagi toyopoq so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli (*a* > *o*; *p* > *l*)dan toponimlashuv tufayli hosil bo‘lgan: *taypoq* >*toyloq* > **Toyloq**.

2.T. Nafasov toponimning ma’nosini *tuyaniig bolasi* deb ko‘rsatgan². Aslida bu so‘z *toychoq*, *kichik toycha* ma’nolarini ifodalaydigan *tay* so‘zidan *-loq* topoformanti (-loq qo‘sishchasi emas)ni qo‘sish bilan shakllangan: *tay* +*-loq* > *tayloq* > *toyloq* > **Toyloq**³. Bu yasama so‘z totem, urug‘ nomi va kishi ismi ma’nolarida ham qo‘llangan.

3.Topomin joylashgan hudud tog‘ va tekislikdan iborat. Bunday hududda asosan otlar yetishtirilgan. Shuningdek, qoraqalpoqlarning *toyopoqli* degan urug‘i ham bor⁴.

Uchala fikrda ham asos bor: *toyopoq* > *tayloq*; *tay* > *tay-* *-loq* > *tayloq* > *toyloq* > **Toyloq** > **Toyloq**. Kichik toy, toychoq ma’nolaridagi tayloq yasama so‘zini ifodalagan: *tayloq* > *toyloq*. So‘ngra bu yasama so‘z ham etnonimni, ham kishi ismini anglatgan: *tayloq* > *toyloq* > **Toyloq**. Keyinchalik etnonim obektga nom sifatida qo‘llangan, ya’ni etnonim topomin (etnotopomin)ga ko‘chgan: *tay*+*-loq* > *toyloq* > *Toyloq* > **Toyloq**. Uning etimoni toyloq etnonimi bo‘lsa, ushbu etnonimning etimoni esa tekislik ma’nosidagi taypoq so‘zi. Bu etnonim qozoq va qirg‘iz tillarida *tekislik* degan ma’noda qo‘llanadi⁵.

¹ Караев С. Топонимия Узбекистана. -Т.,Фан,1991.-Б.4-9;Древнетюркский словарь. -Л.,Наука,1969. -С.132.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 171-бет.

³ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.527. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.344-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.198-бет.

⁴ Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. -С., 1997.126-бет.

⁵ Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. Алма-ата, 1974. с.203. Юдахин К.К. Киргизского-русский словарь. М., 1965. с.690.

Vaqt o'tishi bilan toponimning etimoni bildirgan ma'no maxsuslashib, quyidagi semantik o'zgarishlar ro'y bergan:

- 1) tekislik ma'nosidagi *taypoq* so'zi *toyloq* shaklida o'zgargan;
- 2) *toyloq* so'zi kichik toy ma'nosini ifodalagan;
- 3) keyinchalik ushbu so'z kishilar sig'inadigan narsa nomi, ya'ni etnonim (totem) ma'nosini anglata boshlagan;
- 4) etnonim kishi ismini ham ifodalagan;
- 5) etnonim topoobektning nomini ham bildirgan.

Toponim diaxron, fonetik, leksik va toponimlarning yasalishi tamoyillari bilan etimologik tahlil etilgan. U onomastik konversiya jarayonida semantik o'zgarishlarga uchrab, shakllangan etnotoponimlardan biri.

TONGOTAR // Tongotar (Jiz. v. Baxmal t. tepa) - toponimining shakllanishida *tong* so'zi topoasos bo'lib xizmat kilgan. Bunday deyishga asos ushbu so'zning quyosh chiqishdan oldingi payt ma'nosini ifodalashi. Uning omonim so'zligini e'tiborga olib, birinchi *tong* omonim so'zining avvalgi ma'nosini bilan otar so'zligidagi birinchi omonimik so'zlikning oldingi ma'nosini birikib, joy nomiga asos bo'lgan predikativ birikmani hosil kilgan: *tong+otar* > *tong otar*. Onomastik konversiya hodisasi tufayli mazkur predikativ birikma toponimga aylangan.

Otar so'zining o'zagi *otmoq* so'zi, -*ar* sifatdosh yasovchi qo'shimcha. Toponimni tashkil qilgan *tong*, *ot*, -*ar* ma'noli qismlar o'zbek tiliga¹ oid - *erta tong otar*, *birinchi quyosh chiqadigan joy* ma'nolari bilan yasalgan *tong otar* predikativ birikmasi mazkur toponim uchun etimon. Uning kam qo'llanishi ham nomlanish jarayoniga bog'liq.

TOG'AY // Tog'ay (Far. v. O'zbekiston t. joy) toponimining kelib chiqishi haqida ikki xil faraz bor:

1. Inson va hayvon organizmining qismlaridan birining nomi shogay. Shunga asoslanib, topoobektlar nomi ham Tog'ay deb atalgan. Bu toponimning togay etnonimi va to'qay so'zlari bilan bog'lash holatlari bor. Ammo tog'ay etnonimi ushbu toponim uchun ikkilamchi jarayon, ya'ni oldin toponim hosil bo'lган. So'ngra shu topoobektda yashaganlar ma'nosida tog'ay etnonimi yuzaga kelgan. Bu etnonim bilan atalgan obekt Xorazm viloyati Xazorasp tumanida

¹ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.532. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.202-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. 547-бет.

qishloqlardan birining nomi sanaladi: **Tog‘ay**. *To‘qay* so‘zining **Tog‘ay** toponimiga bog‘lab bo‘lmaydi. Sababi, *o* ‘unlisining *o* unlisiga o‘tishi fonetik jarayon sifatida uchramaydi¹. Bu xalq etimologiyasi.

2. Bu joy nomi ikki topoleksemadan tashkil topgan: *tog‘* (*ta:g‘*), *oyoq*. *Tog‘* yerning tepalikka nisbatan baland ko‘tarilgan qismi ma’nosini bildirib, USh-XU1 asrlarda *ta:g‘* tarzida aytilgan. Keyinchalik *a:* unlisi *o* unlisiga cho‘ziqligini yo‘qotib *o‘tgan*: *ta:g‘* > *tog‘*². Oyoq gavdaning tayanib turiladigan va harakatlanish uchun xizmat qiladigan a’zosi bo‘lib, qadimgi turkiy tildagi qadamlamoq ma’nosidagi *a:d* fe’lining ay shaklidan -*aq* qo‘shimchasi qo‘shish bilan yasalgan: *a:y+-aq* > *a:yaq* > *ayaq* > *oyoq* > *oyoq*³. Ayni shu so‘zning azaq tarzidagi shakli ham bor⁴. *Ta:g‘* va *ayaq* so‘zlari o‘zaro birikib, so‘z birikmasini hosil qilish jarayonida fonetik hodisalardan biri bo‘lgan tovush tushishi hodisasi ro‘y berган: *ta:g‘+ayaq* > *ta:g‘ayaq* > *ta:g‘ay* > *tog‘ay*. Mazkur holda *ayaq* so‘zidagi ikkinchi bo‘g‘in talaffuz jarayonida tushib, birinchi topoleksemadagi *a:* unlisi cho‘ziqlikni yo‘qotib, *o* unlisiga o‘tgan: *a* > *o*⁵. Bunda toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayoni asosida xosil bo‘lgan birikma toponimga ko‘chgan: *tag‘+ayoq*, > *ta:g‘ayaq* > *tag‘ay* > *tog‘ay* > **Tog‘ay**.

Binobarin, ikkinchi fikrda asos bor. *Tog‘ning tugashi yohud tog‘ning oxiri* degan ma’no mazkur toponimning ma’nosи bo‘lib, uning etimoni *ta:g‘ ayaq* (*ta:g‘ oyoq*) birikmasi. Ushbu toponim ko‘p qo‘llanadigan lug‘aviy asoslardan hosil bo‘lgan bo‘lsa ham, kam qo‘llanadigan va kam obektli toponimlar jumlasiga kiradi.

ТUYATORTAR // Tuyatortar (Zarafshon daryosidan Jizzax v. hududiga suv keltiradigan kanal Qash. v. Qarshi t. ariq) – joy nomining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminiy fikrlar bor:

1. Bu toponimining nomlanishiga gidronimning to‘lib-toshib oqishi ekstralengvistik omil va sabab bo‘lgan. Yaqin-yaqingacha Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarining cho‘lli hududlarida tuyalar asosiy

¹ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. 15-18-бетлар.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. III том. -Т., Фан, 1963.167-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 351-352-бетлар.

³ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 112-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 250-бет.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 112-бет.

⁵ Гуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 338-бет.

transport vositalaridan biri hisoblangan. Mana shu hayvonlar kuchli va harakatchan bo‘lishsa hamki, ushbu ariqdan o‘ta olishmagan. Bu holat ariqning nomlanishiga asos bo‘lgan.

2.Toponim to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan: *tuya*, -ni (belgisiz), *tort*, -ar¹. Joy nomi oldin predikativ birikma bo‘lgan: *tuyani tortar*. Bu birikma qismlarini bog‘laydigan vosita tushum kelishigining -ni qo‘srimchasi. Ushbu qo‘srimcha birikmaning tobe qismi bilan hokim so‘zini bog‘lashda bir vosita rolini bajarib, obektli birikmani yuzaga kelgan: *tuyani tortar*.

Toponim tarkibidagi -ni topoformanti, ya’ni tushum kelishigi qo‘srimchasi bo‘lgan -ni talaffuzdagi ellipsis jarayoni natijasida tushib, *tuyatortar* ko‘rinishidagi qo‘shma so‘z holatiga kelib qolgan. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z toponimik derivatsiya tufayli toponimga aylangan: *tuyani tortar* > *tuyanitortar* > *tuyatortar* > **Tuyatortar**. Bu toponimning etimoni obektli birikma: *tuyani tortar* birikmasi. Obektli birikmalardan shakllangan joy nomlarining etimonlari tarkibida tushum kelishigi qo‘srimchasi bo‘lgan -ni topoformantining ellipsis hodisasiga uchrashining odatiy bir holligiii mana shu toponim ko‘rsatib turadi.

Xorazmda quduqlardan, Zarafshon va Qashkadaryo vohalarida daryolardan suv chiqarish uchun chig‘ir inshootlaridan foydalanishda ba’zan tuyalar qo‘llangan: *tuya bilan tortar* > *tuya tortar* > *tuyatortar* > **Tuyatortar**. Mana shunday gidronimik inshoot tuya bilan ishlatilgani uchun *chig‘ir* termini o‘rnida *tuyatortar* deb atalgan. Bu atama ham chigiriqqa nisbatan, ham shu gidronimik qurilma joylashgan hududga nisbatan nom sifatida ishlatilgan: *tuyatortar* > Tuyatortar. Qashqdaryo viloyatining Qarshi tumanidagi **Tuyatortar** toponimi gidronimik obektning nomi. U arikdagisi suvning ko‘pligiga ishora ma’nosini bildiradi. Haqiqatan ham, o‘sha arikdan suv ko‘p va tez oqqani uchun kuchli hayvon bo‘lgan tuya ham o‘ta olmaydi, Ushbu toponim shu tarzda nomlangan obekt nomidan quyidagicha shakllanganligi bilan farqlanadi: *tuyani ham tortar* > *tuyani tortar* > *tuya tortar* > *tuyatortar* > **Tuyatortar**. Bu ikki toponim ilk shakllanish davridagi ba’zi bir apellyativlari bilan farqlangani kabi ma’noda ham farqqa ega. Birinchi obektning nomi tuya bilan tortar ma’nosini ifodalaydi. Ikkinchisi obektning nomi esa *tuyani ham tortadigan* suvgaga ega bo‘lgan ariq

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 240-бет.

ma’nosini anglatadi. Bu ikki obektning ma’nosini topishda geografik va rekonstrukqiya usullari bilan etimologik taxdil olib borildi.

Demak, qayd etilgan obektli birikmadan paydo bo‘lgan **Tuyatortar** toponimi chig‘iriqqa nisbatan qo‘llanilgan *tuyatortar* atamasi va **Tuyatortar** joy nomiga o‘xhash bo‘lgan. Bu hol ham obektli birikma qolipli toponimlarga xos xususiyatlar jumlasiga kiradi.

TUYAQISILDI // Tuyaqisildi (Qash. v. Qamashi t. adir; Sur. v. Denov t. tepa) -toponimda to‘rtta ma’noli qism bor: *tuya, qis, -il, -di*. Uning birinchi ma’noli qismi bo‘lgan *tuya* so‘zi XIII-X1U asrlarda *teva* tarzida talaffuz etilgan¹. Tobe aloqaning moslashuv turi orqali tobe hamda hokim so‘zlar o‘zaro birikib, bir butun holda predikativ birikmani hosil qilgan hamda joyga nom berish zaruriyati va ekstralivingistik omillarning lingvistik faktlar bilan nomlanish talabi tufayli bu birikma toponimik derivatsiya jarayonida joy nomiga o‘tgan: *tuya qis+-il+-di > tuya qisildi > Tuyaqisildi*.

Uning etimoni *tuya qisildi* ko‘rinishidagi predikativ birikma. Toponimni tashkil qilgan *tuya qisildi* predikativ birikmasi ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, *eng tor joy, eng tor dara* ma’nolarini anglatadi. Demak, predikativ birikmadan yuzaga kelgan toponimlarni topib, belgilashda ularning tarkibidagi ma’noli qismlarni tahlil qilish hamda ulardagi belgisiz shaklda muhrlangan ma’noli bo‘laklarning bor yohud yo‘qdigini hisobga olish zarur.

TO‘NG‘IZTAROQ // To‘ng‘iztaroq (Qash. v. Shax. t. dala) -toponimining kelib chiqishi va obrazli nomlanib, shakllanishi haqida ikki xil taxmin bor:

1. Toponim ikki ma’noli qismdan iborat: to‘ngiz, taroq. Undagi to‘ngiz so‘zi og‘zaki nutqda yomon degan ma’noni anglatadi. Ikki so‘z birikib, *yomon, qo‘pol taroq* degan ma’noni ifodalamokda: to‘ngiz - taroq > to‘ngiz taroq > to‘ng‘iztarog > To‘ng‘iztarog‘. Uning etimoni *yomon va qo‘pol taroq* ma’nosidagi *to‘ng‘iz taroq* birikmasi sanaladi. Bu fikr toponimning ma’nosini ochib bermaydi.

2. Toponim tarkibida ikkita ma’noli qism bor: *to‘ng‘iz, taroq*. Uning tarkibidagi *to‘ng‘iz* so‘zi *yovvoyi ho‘kiz, cho‘chqa* degan ma’noni bildiradi², yovvoyi hayvonlardan biri hisoblanadi. Undagi taroq so‘zi¹

¹ Аттухфатуз закияту филлүғатит Туркия. -Т., Фан, 1968. 26-бет.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.575. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 370-371-бетлар. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.250-бет.

soch, soqol tarash uchun ishlatiladigan yog‘och, metall, suyak va shu kabilardan yasalgan tishli buyum degan ma’noni anglatadi. Ushbu so‘z toponim tarkibida daraxtlar tartibsiz o‘sgan dalaga ishora qiladi. Mazkur ikki so‘z birikkandan hosil bo‘lgan toponim daraxtlar tartibsiz o‘sgan dala ma’nosini ifodalagan. Hozirgi kunda bu daladan daraxtlar olingan, ammo uning nomi o‘zgarishsiz qo‘llanmokda.

Demak, toponimga tabiiy geografik holatlardan kelib chiqib baho berish maqsadga muvofiq. Uning etimoni daraxtlar tartibsiz o‘sgan dala ma’nosidagi to‘ngiz taroq birikmasi. Ushbu birikma onomastik konversiya tufayli toponimga ko‘chgan: *to ‘ng ‘iz+taroq > to ‘ngiz tarog ‘ > to ‘ngiztarog ‘ > To‘ng‘iztarog ‘*. Bu esa joy nomlarini tahlil qilganda, u xoh oddiy izohli tahlil bo‘lsin, xoh etimologik tahlil bo‘lsin, farqi yo‘q, so‘zlarning ma’nosi bilan birgalikda onomastik konversiya va toponimik derivatsiya hamda ekstraliningvistik omillar tomonidan yuklagan ma’nolar ham olinib, asosli sharhanishi lozimligini ko‘rsatadi.

TO‘RTKO‘L // To‘rtko‘l (QqR shahar) - toponimining kelib chiqishi haqida uchta faraz bor:

1. Joy nomi haqida H. Hasanovning “*Ko ‘l so ‘ziga aloqasi yo ‘q. Yozganda ham To‘rtkul deb, yozish lozim edi. Choldevor, qoldiq do ‘ng, to ‘rtkul deyilgan*”² fikrini o‘ylab ko‘rish lozim. Chunki ushbu farazni rad etadigan bir necha dalillar bor: 1) boskinchilik va o‘zaro urushlar tufayli mamlakatimizning qaerida choldevor bo‘lman joy kolgan?! Boshqa joylar vayronaga aylantirilsa ham, ularning nomlanishi kul so‘ziga bog‘lanmagan; 2) topoobektning yonidan oqadigan Amudaryo nega e’tibordan chetda qolgan?! Daryo bo‘yida ko‘llarning bo‘lishi tabiiy hol.

Ko‘rinib turibdiki, H. Hasanovning mazkur toponim haqidagi yuqorida qayd kilingan fikri o‘rinsiz. Demak, toponimning etimonini to‘rt kul birikmasi deyish ham xato.

2.“*To ‘rtko ‘l qo ‘rg‘on, atrofi o ‘ralgan qishlok yoki balanddag‘i qishloq ma ‘nolariga ega*”³ deyilganda, tabiiy-geografik omillar majmui bo‘lgan ekstraliningvistik omillar e’tibordan chetda qolgan.

3. Toponim ikkita topoleksemadan tashkil topgan: to‘rt, ko‘l¹. Joy nomining ikkinchi ma’noli qismi XSh-X1U asrlarda ham ko‘l (kol)

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.128-бет.

² Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985.74-б.

³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 134-135-бетлар.

deyilgan². Uning joylashish joyi Amudaryo bo‘yida bo‘lib, har jihatdan suv bilan bog‘liq. Sababi, daryo yoqasida, albatta, ko‘llarning bo‘lishi aniq. Shuning uchun joy nomini tabiiy-geografik jarayonga bog‘lab asoslash to‘g‘ri bo‘ladi. Toponim tarkibidagi *to‘rt so‘zi ko‘plik*³ ma’nosini ifodalaydi: *to‘rt+ko‘l > to‘rt ko‘l > to‘rtko‘l > To‘rtko‘l*. Demak, uni *ko‘p ko‘l bo‘lgan joyning nomi* deyish o‘rinli. Bu toponimning etimoni *to‘rt ko‘l* shaklidagi birikma bo‘lib, uning etimologik tahlili jarayonida geografik, diaxron, toponimlar tarkibini o‘rganish usullari leksik tamoyil bilan birligida qo‘llangan.

U

UYCHI // Uychi (Nam. v. t.) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Joy nomi *ud > uy > uy-chi > uychi*⁴ holatida shakllangan. Joy nomida *d > y* fonetik o‘zgarishi ro‘y bergan⁵. Uni sinxron nuktai nazardan *uy quruvchi* ma’nosidagi toponim deb, tushunilgan.

2. Toponim *ud > uy > uychi > uychi > Uychi*, ya’ni ko‘tos, yovvoyi xo‘kiz, sigir kabilarni totem deb bilgan kishilar guruhi, ya’ni etnonimdan shakllangan etnotoponimlardan biri. Toponimdagi *ud > uy so‘zi hayvon, yovvoyi ho‘kiz, sigir* degan ma’nolarni anglatadi⁶.

Bizningcha, mazkur toponim to‘g‘risida keltirilgan birinchi taxmin noto‘g‘ri, ikkinchi taxmin esa etnonim topnimga asos bo‘lgani uchun o‘rinli. Uning etimoni *qo‘tos, yovvoyi xo‘kiz, sigir kabilarni totem deb bilgan kishilar guruhini bildiradigan etnonimdan shakllangan etnotoponimdir: ud > uy > uychi*.

ULACH // Ulach (Tosh. v. Bekobod va Oxangaron t.; Qash. v. Kitob va Shax. t. q., tepa) - toponimi ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan: *ula, -sh(ch)*. Fe’l turkumiga oid *ula* so‘ziga harakat nomi yasovchi *-sh* qo‘srimchasi qo‘silib, ulash yasama so‘zi yuzaga kelgan.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркӣ қатлами. -Т., Университет, 2001. 373-,225-бетлар; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. 313-бет.

² Аттуҳфатуз закияту филлуғатит Туркия. -Т., Фан, 1968. 16-бет.

³ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида "сехрли" рақамлар.-Т., Фан, 1991. 13-14-бетлар.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.80-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.605-бет; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 163-164-бетлар.

⁵ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.77-бет.

⁶ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.80-бет; Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.605-бет

Ula so‘zi turkiy tillarda *etnonim nomi* va *ulamoq* ma’nolarida qo‘llangan¹. Shuningdek, ulashning ulush shakli qadimgi turkiy tilda *qishloq, shahar* ma’nolarini ifodalaydi². Fonetik o‘zgarishlar tufayli³ -sh qo‘shimchasi -ch qo‘shimchasiga aylangan: *sh* > *ch*. *ulash* > *Ulach*. Hosil bo‘lgan yasama so‘z yuqoridagi ma’nolari bilan toponimik derivatsiya jarayonida onomastik leksika sathiga ko‘chib, joy nomiga aylangan: *ula+-sh* > *ulash* > *ulach* > **Ulach**. Demak, ushbu toponimining etimoni bir-biriga biriktirish, ulashmoq, ulamoq, bog‘lamoq ma’nolaridagi *ula(sh)* so‘zi. Vaqt o‘tishi bilan fonetik o‘zgarishlarga uchrab, ulach holatiga kelib qolgan. *Ula* so‘zi turkiy tillarda *etnonim nomi* va *ulamoq* ma’nolarida ishlatilgan⁴. Т. Nafasovning qayd etishicha⁵, *Ulach* - qishloq, qishda yashaydigan joy ma’nolarini anglatadi. Muallif sheva materiallariga asoslanib shunday fikr yuritadi. Shuning uchun uning toponim to‘g‘risidagi fikriga qo‘shilamiz. Sababi, yashash joyi bo‘lgan qishloq uylari bir-biriga ulab, bog‘lab qurilgan.

ULYUZ // Ulyuz (And. v. Marhamat t. tepa) - toponimining kelib chiqishi haqida ikki xil faraz mavjud:

1. Mazkur toponim u tomon ma’nosidagi ul yuz birikmasidan tashkil topgan: *ul+yuz* > *ulyuz* (ulyuz). Ushbu fikr ishonchsizroq. Sababi, u xalq etimologiyasi.

2. Bizning fikrimizcha, toponim haqiqatan ham ikkita ma’noli bo‘lakdan iborat: *ul*, *yuz* (*yuz*). Birinchi ma’noli bo‘lak *ul* so‘zi bo‘lib, u *ulug‘* so‘zining qisqargan shakli⁶: *ulug‘* > *ul*. Albatta, bu qisqarish nutqda birikma tarkibida ro‘y bergen: *ulug‘ + yuz* > *ulug‘ yuz* > *ulug‘yuz* > *ulyuz*. Natijada, birinchi so‘zning ikkinchi bo‘g‘ini bo‘lgan -ug‘ tushib qolgan. Bunday qisqarish tildagi tejamkorlik bilan bog‘liq⁷.

Toponim tarkibidagi *yuz* so‘zi - qabilaning nomi, ya’ni *etnonim*⁸. Shu etnonimning bir tarmog‘i katta va *ulug‘ urug‘* ma’nosida *ulug‘ yuz*

¹ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.608.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. І т. -Т., Фан, 1960.94-бет.

³ Гулямов А. Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Аффиксация. часть первая. Словообразующие аффиксы имен. АДД. -Т., 1955. с.7-9.

⁴ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.608.

⁵ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.190-бет.

⁶ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. І т. -Т., Фан, 1960.95-бет.

⁷ Элтазаров Ж. Тилдаги тежамкорлик тамойили ва қисқарув. -С., Самарқанд Давлат университети, 2004. 110-бет.

⁸ Охунов Н. Этноийконимларнинг ясалиши // Тил ва адабиёт таълими. -Т., 2000. 4-сон. –Б. 38-43.

deb atalgan¹. Bizningcha, toponim qadimiy qabilalardan biri bo‘lgan yuz qabilasining bir tarmog‘i bo‘lgan *ulug‘ yuz* etnonimining fonetik o‘zgarishga uchrashi asosida shakllangan. Demak, *ulug‘ yuz* so‘zlari ma’lum bir taraqqiyot bosqichini bosib o‘tib, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zga aylanadi. So‘ngra etnonimlashuv jarayoni oqibatida etnonimni hosil qilgan. Onomastik konversiya jarayoni tufayli esa etnonim fonetik o‘zgarishga uchrab, toponimga ko‘chgan: *ulug‘ + yuz > ulug‘ yuz > ulug‘yuz > ulug‘yuz > Ulyuz*. Toponimning etimoni *ulug‘ yuz* ko‘riishidagi so‘z birikmasi. Etnonimlar bilan shakllangan bunday toponimlar mamlakatimizda ko‘p uchraydi².

UCHMA // Uchma (Jiz. v. Forish t. q.) - toponimi kelib chiqishi haqida bir necha xil taxmin bor:

1. Toponim *chirog‘ing o‘chmasin* degan ma’nodagi o‘chma so‘zidan fonetik o‘zgarish bilan hosil bo‘lgan: *uch+ma > uchma > Uchma > Uchma*. Bu yerda o‘ unlisi u unlisiga almashgan³: o‘ > u. Toponim ikkita ma’noli bo‘lakdan (topoasos vazifasidagi topoleksema va topoformantdan) tashkil topgan: o‘ch, -ma. Ushbu tahlil xalq etimologiyasining bir ko‘rinishi.

2. Mazkur toponim arang so‘zi ma’nosida qo‘llanuvchi uchma-uch⁴ shaklidagi ravish so‘z turkumiga oid so‘zdan yuzaga kelgan. Bunda ravish so‘z turkumidagi so‘zning ikkinchi qismi ellipsis hodisasiga uchrab, so‘z tarkibidan tushib qolgan. Qolgan so‘z esa onomastik konversiya jarayonida joy nomiga aylangan: *uch+-ma > uchma+uch > uchmauch > uchma > Uchma*. Demak, bu toponimning etimoni takroriy so‘z bo‘lgan *uchma-uch* so‘zi hisoblanadi. Bu tahlil ham xalq etimologiyasining bir shakli.

3. Ushbu toponim yangi avlod shakllandi ma’nosidagi *uchirma*⁵ so‘zining tovush tushishi hodisasiga uchrashi natijasida paydo bo‘lgan: *uchirma > uchma > Uchma*. Unda joy nomi *uch*, *-ir*, *-ma* shaklidagi ma’noli qismlardan hosil bo‘lgan bo‘lib, uchirma yasama so‘zi uning etimoni sanaladi. Bu fikrga ham qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki bunda toponimga sinxron planda qaralgan.

¹ Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг Ўрганилиши. Т., Фан, 1982. 49-бет.

² Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // ЎТА. -Т., Фан, 2004. 4-сон. –Б. 67-71.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.15.

⁴ Ўзбек тили грамматикаси.1-том. Морфология.-Т.,Фан,1975. 286-бет.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 286-бет.

Tog‘ va tog‘ yon bag‘irlarida zich toshlardagi yoriqlar orasiga kunduzi qorning erigan suvi kiradi. Kechga borib u muzlaydi. Natijada, toshlar yorilib, parchalanadi. Yorilib, parcha-parcha bo‘lib ketgan toshlar tog‘ning quyisiga shamol natijasida siljish kabi turli tabiiy omillar tufayli vaqtı-vaqtı bilan tushib turgan. Bu hol tez-tez takrorlagani uchun tosh parchalari tushadigan joylar Uchma deb atalgan.

Mazkur toponim joylashgan hududidagi tik qoya, yurish kiyin bo‘lgan balandlikdan kishilar e’tiborsizlik tufayli yerga yiqilib tushishgan. Mana shundssh tik qoyalik, balandlik mavjud bo‘lgan joyni odamlar *yiqilib ketma*, *qulab tushma* degan ogohlantirish ma’nosida Uchma deb atashgan. Toponimning bu ma’nosini xalk geografik terminlaridan biri bo‘lgan uchma so‘zi ham asoslaydi: tog‘ yo‘li, jar yoqasi, tosh qulab turadagan cho‘qur jarlik¹. Bunda apellyativ leksikadagi *uchma* yasama so‘z² onomastik konversiya jarayonida toponimik leksika sathiga ko‘chgan: *uch+ma* > *uchma* > *Uchma*. Uning ilk ko‘rinishi *uchish* yasama so‘zi. Bunday nomlangan topoobektlar tog‘ va tog‘ oldi hududlarda uchraydi. Mazkur fikrga qo‘shilish mumkin. Ba’zi bir baland joylarni xalq vakillari uchma deydi, ammo ular to‘liq holda, hatto, mikrotoponim sifatida shakllanmagani kabi betakror obrazli nomlanishning bir ko‘rinishi hamdir.

Bizningcha, bиринчи, иккинчи, учинчи, то‘ртинчи farazlarda qayd qilingan uchma so‘zi toponimga nisbatan shakliy o‘xshashlikni hosil qilgan. Beshinchi fikr uning etimologik tahlili uchun o‘rinli. Balandlik, tik qoyaan qulab tushma, yiqilib ketma degan ma’noda nomlangan obektning nomlanishi ekstralengvistik omil bo‘lgan tabiiy geografik muhitga mos.

UCHQO‘RG‘ON // Uchqo‘rg‘on (Namangan v.t.) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1.Ushbu toponim ma’lum bir hududning boshlanish joyida, ya’ni uchida qo‘rilgan himoya vositasi bo‘lgan qo‘rg‘onni bildiradi: *uchida qurilgan qo‘rg‘on* > *uchdag‘i qo‘rg‘on* > *uch qo‘rg‘on* > **Uchqo‘rg‘on**. Agar XX asrgacha mamlakatimiz hududlari kichik-kichik bekliklarga bo‘linganligini hisobga olsak, beklik hududining boshlanishida, ya’ni *hududning uchida qurilgan himoya qo‘rg‘oni* ma’nosini bildiradi. Chunki avvallari Farg‘ona vodiysi ham alohida bekliklarga bo‘linganligi

¹ Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 19-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 287-бет.

va xitoylarning bosqiniga qarshi himoya qo‘rg‘onlari borligi bu taxminni ma’lum ma’noda asoslaydi.

2. Bu joy nomi uchta qo‘rg‘on bor hududni anglatgan: *uch+-ta* > *uchta + qo ‘rg‘on* > *uch qo ‘rg‘on* > **Uchqo‘rg‘on**.

3. Mazkur toponim xalq vakillari uchun sirli va sehrli raqamlar(i bo‘lgan *uch*, *besh*, *yetti*, *yigirma*, *qirq* va *yil* (*bir yil*))dan biri bo‘lgan uch raqami bilan nomlangan¹, ya’ni ko‘p ma’nosidagi uch raqami bu yerda topoassos vazifasida kelgan. Yuqorida eslatilgan raqamlar xalqning yaxshi kunida ham, yomon kunida ham qo‘llanadi.

Demak, **Uchqo‘rg‘on** toponimi sehrli va sirli raqamlardan biri sanalgan uch raqami bilan nomlangani kabi oldingi vaqtida *dushmanlardan himoya inshootlari* ko‘p degan ma’noni ham anglatadi².

Toponim beshta ma’noli bo‘lakning birikishidan hosil bo‘lgan tarixiy yasalmadir: *uch+qo ‘r+-i+-g‘+-on*. *Qo ‘rg‘on* so‘zi diaxron planda yasama so‘zligini, uning o‘zagi *qo ‘r* so‘zi ekanligini e’tiborga olish lozim. Biroq *qo ‘rg‘on* so‘zi bir butun holatga kelishi uchun tarixan *qo ‘r+i+-g‘+-on* shaklidagi so‘z yasalishi ro‘y bergen va –i unlisi tushib qolgan³.

Hosil bo‘lgan *qo ‘rg‘on* so‘zi *himoya to‘sig‘iga ega bo‘lgan shahar*, *qo ‘rg‘on* ma’nolarini anglatgan⁴. *Qo ‘r* va -*g‘on* morfemalari o‘zaro birikib, *qo ‘rg‘on* so‘zini hosil qilgan. Ushbu yasalish diaxron plandagi so‘z yasalishi hisoblanadi. Shu yerda ta’kidlashni istardikki, toponimlardagi so‘z yasalishi lingvistik plandagi so‘z yasalishidan farq qiladi. Shuning uchun ham onomastik so‘z yasalishi hisoblanadi.

Toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida aytilgan birinchi taxmin xalq vakillari tomonidan aytilgan bo‘lsa-da, unchalik ishonarli emas. Ammo joy nomi to‘g‘risidagi ikkinchi va uchinchi taxminlarda ma’lum bir ishonchli dalillik bor, ya’ni topoobekt xalqning sehrli va sirli raqamlaridan biri bo‘lgan *uch* so‘zi bilan nomlangan bo‘lib, oldingi davrda *himoya qo ‘rg‘onlari* ko‘p *hudud* degan ma’noni anglatadi. Bugungi kunda ham ushbu nom topoobekt uchun qo‘llanib, qadim tarixdan bir dalil – zarvaraq sifatida saqlanib qolingan.

¹ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида "сехрли" рақамлар.-Т., Фан, 1991. 35-57-бетлар.

² Ишбердин Э. Ф. Принципы номинации и этимологизации слов, относящихся к флоре и фауне // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990.-С. 337-341.

³ Маҳмудов Қ.Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т., Ижод дунёси, 2004. 73-бет.

⁴ Древнетюркский словарь. -Лгр., Наука, 1969. с.458.

F

FARG‘ONA // Farg‘ona joy nomining etimologik tahlili ham bahsli. Toponim voha, viloyat va shahar nomi. Uning yuzaga kelishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar bor:

1.Ushbu topominning kelib chiqishi hakida xalq vakillari quyidagi farazni aytishadi: Bu yerlarda avval barno va bir-biridan chiroyli qizlar bo‘lgan ekan. Shuning uchun odamlar ularni parilar, yashaydigan joylarini esa *parilar joyi va parixona* degan ma’noda **Parxona** deb atashgan.

2.Toponim haqida «Boburnoma» da maxsus to‘xtalingan, ammo uning lug‘aviy va etimologik ma’nosini ko‘rsatilmagan¹.

3.Urdu tilida Farg‘ona joy nomi Parkana shaklida yozilib viloyatning bir bo‘lagi, bir necha qishloqni o‘z ichiga olgan tuman ma’nosini anglatgan². Bunday izoh so‘zning lug‘aviy ma’nosiga tegishli.

4.Toponimning yuzaga kelishi to‘g‘risida H. Uzoqov “Farg‘ona”, “Vodil” va “Quvasoy” so‘zlarining etimologiyasi hakida” nomli maqola³ yozgan. Unda qayd etilishicha, toponim to‘g‘risida A. N. Bernshtam, Gerodot, Pliniy, R. Mukerdji, Hofiz Ubehiyning “Tuhfatul ahbob”, Muhammad bin Iod bin Abdulvahobning “Muayiidal Fuzalo”, Muhammad Qosim bin Hoji Muhammad Koshoniyi Sururining asarlarida Farg‘ona shahrining geografik tafsiloti va u tarixiy manba sifatida bayon qilingan, ya’ni O‘rta Osiyoda ko‘p tarqalgan so‘zlardan biri sanaladi. Ammo ularda toponimni ifodalovchi apellyativning ma’nosiga e’tibor berilmagan holda shu nomdagi shaharning geografik tavsifini berilgan. Shu sababli “*Mazkur so‘zning etimologiyasi barcha adabiyotlarda izohlashdan nariga o‘tmagan*⁴”. Demak, makolaning sarlavhasida so‘z bilan toponim, uning ichida esa etimologiya bilan birga izohlash bir-biridan farqlanmagan.

Muallifning qayd etishicha, bu nom oldindan qo‘llanib, «tog‘lar o‘rtasidagi vodiy va parikan nomli kabilia nomi ma’nolarini anglatishi tarixiy kitoblardan qayd etilgan. Maqolada toponimning kelib chiqishiga

¹ Бобир Захириддин Мұхаммад. Бобирнома. -Т., 1960. 5-, 9-бетлар.

² Урду-русский словарь. М., 1951. с. 150.

³ Узоқов Ҳ. Фарғона, Водил, Қувасой сўзларининг этимологияси ҳақида // Адабиётшунослик ва тилишшуносликка оид тадқиқотлар. -Т., 1965. –Б. 138-146.

⁴ Узоқов Ҳ. Фарғона, Водил, Қувасой сўзларининг этимологияси ҳақида // Адабиётшунослик ва тилишшуносликка оид тадқиқотлар. -Т., 1965. –Б. 140-бет.

oid bir faraz sifatida toklarni parxish qilish xalq tilida, ya’ni shevalarimizda parxish va parxona deyilishi ham aytib o’tiladi. Bir qator dalillarni tahlil qilib, muallif joy nomining yuzaga kelishida parixona // parxona shaklidagi xalk ta’birini to‘g’ri degan xulosaga kelgan.

5. Q. Mahmudov toponim **Parkan**, **Parkana** deb oldingi davrlarda qo‘llanganligini qayd etgan¹.

Bizningcha. joy nomining ma’nosini xalq etimologiyasiga bog‘lash maqsadga muvofiq. Demak, toponim *parixona*// *parxona* > *farxona* > *farg‘ona* > **Farg‘ona** shakllarida fonetik o‘zgarishlarga uchrab, hosil bo‘lgan. Bu holda i unlisi tushib kolgan², *p* undoshi *f* undoshiga, *x* undoshi esa *g* undoshiga o‘tgan. Toponimning etimoni *parixona* yoki *parxona* shaklidagi atributiv birikma. U *parilar yashagan* joy, *parixona* degan ma’nolarni ifodalaydi. Shuning uchun ham “*Har bir joy nomining kelib chiqishi bilan bog‘liq xalq etimologiyasi toponimik rivoyat sifatida epik shakl kasb etar ekan, o‘sha rivoyat syujeti lokallahsgan hudud doirasidagi tinglovchilar auditoriyasi orasida ishonch qozongan*”³. Mazkur toponim oldin kichikroq topoobektning nomi bo‘lgan, keyinchalik voha va viloyatning nomiga onomastik ko‘chish tufayli ko‘chgan.

X

XONKELDI // Xonkeldi (Qash. v. Shah. t. qir) - toponimi uchta ma’noli qismdan iborat: *xon*, *kel*, *-di*⁴. *Xon* so‘zi *hokim*, *davlat boshlig‘i* ma’nosini bilan ushbu toponim yuzaga kelgan.

Kel so‘zi yurish, chiqish, so‘zlovchi turgan tomonga, joyga yoki so‘zlovchi ko‘rsatgan, aytgan joyga yaqinlashmoq ma’nolari asosida xon topoassosiga birlashib, toponimni yasashga xizmat qilgan: *xon + kel -n- di* > *xon keldi* > **Xonkeldi**. Apellyativ leksikadagi xon keldi predikativ birikmasi nomlanish talabi bilan onomastik konversiya natijasida joy nomiga o‘tgan. *Xon* so‘zi tarixiy so‘z, oldin *xoqon* ko‘rinishida ham ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z “*hokimi mutlaq*” ma’nosini anglatadi.

¹ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. 55-57-бетлар.

² Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. 393-бет.

³ Сатторов У. Топонимик ривоятларнинг ўзига хос хусусиятлари // ЎТА. -Т., Фан, 2000. 6-сони.38-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 286-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 337-378-бетлар.

N. Abdurahmanovning fikricha, *xon* so‘zi *qan* so‘zidan kelib chiqqan¹. Bu holda so‘zda quyidagi o‘zgarishlar ro‘y bergan *k* > *x*, *a* > *o*; *kan* > *xan* > *xon*. Mazkur toponimning etimoni apellyativ leksikadagi *xon* va *keldi* so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan *xon keldi* predikativ birikma. Bir obektning nomi bo‘lib kelgani uchun u bir obektli toponim. Sababi, u faqat bir o‘rinda topoobektning nomi rolini bajargan. Bir qancha obektlar nomi bo‘lib kelgan toponimlar esa ko‘p obektli toponimlar deyiladi.

Chimboy (Tosh. shahrida mavze, Sam. va Qash. viloyatlarida qishloq, Qamashi tumanida tog‘) - toponimidagi *chim* ma’noli bo‘lagi esa urug‘ nomini anglatadi. Shuning uchun kayd etilgan topoobektlarga urug‘ nomi nom sifatida ko‘chgan². Buning isboti, *chim* ma’noli qismlardan iborat toponimlarning tarqalish chegarasidir: Samarqand viloyatida Chimboy, Chimboyobod; Kitob tumanida Chimboyariq, Chimboytepa; Yakkabog‘ tumani Chimboytepa; Toshkent shahrida Chimboyarik va Chimboy kabi toponimlar uchradi. “*Chim urug‘i vakshlari yashagan joy*” degan ma’no Chimboy toponimining ma’nosini ifodalaydi. Uning etimoni “*chim boy*” birikmasi sanaladi. Undan “*chimboy*” etnonimi hosil bo‘lgan. So‘ngra etnonimdan toponim vujudga kelgan: *chim+boy* > *chim boy* > *chimboy* > **Chimboy**.

XO‘JAELI // Xo‘jaeli // Xojeli toponimining etimologik tahlili asosida nomlarning shakllanish jarayonida tizimlilik xususiyati borligi, bu jarayon majmuida etnonimlashuv, toponimlashuv³ nomli alohida jarayonlar ko‘zga aniq ko‘rinishi, shuningdek, izohli tahlillar taraqqiyotida etimologik tahlilga borish yo‘li ham kuzatiladi. Bularni mazkur toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida keltirilgan quyidagi fikrlar misolida ko‘rish mumkin:

1. Nomning shakllanishiga kishi ismi, antroponim asos bo‘lgan: *Xo‘ja+eli*, ya’ni *Xo‘ja* degan kishi boshchiligidagi el, mahalla demakdir. Bunday holat hayotda uchrashi ham mumkin, uchramasligi ham mumkin. Ya’ni bu taxminning yarmi xalq etimologiyasiga⁴ xos bo‘lsa, yarmi hayot haqiqatiga mosdir. Shuningdek, “Xo‘jazoda erkaklar ismiga

¹ Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. -Т., Ўқитувчи, 1989. 135-150-бетлар.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.207-бет.

³ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. –С.143.

⁴ Тошалиев И. Халқ этиологиясига доир баъзи кузатишлар // Ўзбек тилида сўз ясалиши. Илмий ишлар тўплами. 608-сон. -Т., 1979. 38-50-бетлар. Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. –Ростов. Изд. Ростовского ун-та. 1986. –С.71-84.

qo'shiladi. *Madaminxo ja tol soyasida o'tirgan ekan, bularni ko'rib, darrov o'rnidan turdi*. M. Ismoilov, Farg'ona t. o.”¹. Agar uning nom sifatidagi tarixini ba'zi manbalarda yozilayotganidek musulmonlikdan avvalgi tarixga, ya'ni bundan 2400 yil oldingi tarixga bog'lab qo'ysak, unda ushbu toponimning kelib chiqishi xalq etimologiyasiga bog'langan bo'ladi.

2. Biror kimsaning yoki narsanining egasi; xo'jayini – Xo'jası. “Biror kimsaning yoki narsanining egasi; xo'jayin. *So'ng [mulozim] yaldoqlanib, xo'jasiga o'girildi*. S. Siyoev, Yorug'lik. ..*Xo'jası uning [otning] yollarini silayotganda, La'li unga g'amza qilib: -Otingizga namuncha xushtorsiz? — dedi*. H. G'ulom, Mash'al. *Mardon Yo'lchievichga qaraganda uy xo'jası Sarimsoq akaning yoshi ulug'roq edi*. J. Abdullaxonov, Oriyat”². Bunda xo'ja so'zi apellyativ leksikada bo'lgan holda onomastik xususiyatni kasb etishi jarayoni, deb tushunishi o'rinlidir. Misollarga e'tibor beraylik: “**Xo'jabeqa** Xo'jayin ayol; xo'jayinning xotini. *Hasanali xo'jabeqa ichki siriga uncha oshna emas edi*. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

Xo'jazoda [*f.* — xo'janing farzandi, avlodi] 1 Xo'jayinning o'g'li (*q. xo'jayin*). *Xo'jazodasidagi bu holat uni [Hasanalini] har turli mulohazalarga olib keta boshladi*. A. Qodiriy, O'tgan kunlar”³.

3. Tarixda o'zlarini choryorlarning‘ avlodlari deydigan musulmonlar nomi. “*O'zlarini choryorlarning‘ avlodlari deb hisoblovchi musulmonlarning faxriy nomi. Xo'jalar muayyan imtiyozlarga ega bo'lganlar*. «*O'zME»*”⁴. Bu yerda nom mifologik⁵ xarakterga ega bo'lgan.

4. Alovida imtiyozga ega bo'lgan urug'ning nomi, ya'ni etnonim. “*O'rta Osiyoda ilgari ma'lum imtiyozga ega bo'lgan oqsuyaklar va ularning avlodlari; zid. fuqaro. Abdurasul, men sizga aytsam, bizning Qamishkapa esidan uruqqa ajrab keladi: fuqaro va xo'ja. P. Tursun. O'qituvchi*”⁶. Shuningdek, tarixiy taraqqiyotda “**Xo'ja** (*q. xo'ja* 3) avlodidan kelib chiqqan kishi. *Keling, o'zbeklar sarasi.. Savdogar xo'jazodalar, Sizmi o'zbekning to'radi?* «Tohir va Zuhra». Bu yerda

¹ Ўзбек тили изоҳли лугати.Т., 2007. 4-жилди. 435-бет (хўжа сўзининг биринчи маъноси).

² Ўзбек тили изоҳли лугати.Т., 2007. 4-жилди. 435-бет (хўжа сўзининг иккинчи маъноси).

³ Ўзбек тили изоҳли лугати.Т., 2007. 4-жилди. 435-бет (хўжа сўзининг тўртинчи маъноси).

⁴ Ўзбек тили изоҳли лугати.Т., 2007. 4-жилди. 435-бет (хўжа сўзининг иккинчи маъноси).

⁵ Топоров В. Н. Из наблюдений над этимологией слов мифологического характера // Этимология. 1967. -М., Наука,1969.—С.11-21.

⁶ Ўзбек тили изоҳли лугати.Т., 2007. 4-жилди. 435-бет (хўжа сўзининг учинчи маъноси).

shakllangan etnonim tabiiy tarzda vujudga kelmagan, balki boshqa joyda shakllanib, keyin hozirgi hududga keltirilgan etnonimdir.

5. S.Qoraev ushbu toponimning birinchi komponenti haqida quyidagi fikrlarni aytgan: “Xo‘ja (forscha – “xo‘jayin, sohib”) – toponimlar tarkibida ko‘p marta takrorlanadigan va bir necha ma’noni anglatadigan so‘z:

1) sayidlardan keyin turadigan va dastlabki to‘rt xalifa – choryorlarning avlodlari deb hisoblanadigan hukmron tabaqa;

2) biron kimsa yoki narsaning egasi;

3) birinchi bo‘lib islom dinini qabul qilgan kishi. Nima uchundir keyingi vaqtarda ma’lum va mashhur xo‘jalarni xoja shaklida yozishmoqda. Barcha turkiy tillarda birinchi harfdan keyingi tovush o‘shaklida yoziladi. Xo‘ja va xudo so‘zlarining ildizi bir bo‘lsa kerak – har ikkalasi ham dastlab “xo‘jayin”, “hokim” degan ma’noni bildiradi”¹.

6. Xo‘ja, xo‘jalar, xo‘ja avlodi kabilarning yashash joylarining nomi *xo‘janing+eli* > *xo‘ja+eli* > **Xo‘jaeli** // **Xojeli** shakliga kelib qolgan. Ya’ni ushbu toponim to toponimga, aniqrog‘i, etnotoponimga aylanguncha, kishi nomi, narsaning egasi, o‘zlarini choryorlarning‘ avlodlari deydigan musulmonlar nomi, alohida imtiyozga ega bo‘lgan urug‘ning nomi, ya’ni etnonim va oxiri etnonim nomi shu etnonim vakillari yashagan hududga nom bo‘lgan².

Unda “eli” so‘zi oykonimik indikatorlardan biri³ hisoblanadi, ya’ni shu so‘z bilan qo‘llangan nom aholi punktining nomi ekanligini bildiradi. Demak, apellyativ leksikadagi so‘z tanlanib, onomastik leksikaga sathiga o‘tgan va etnotoponimga aylangan. Uning etimoni⁴ yoki ilk shakli “xo‘ja eli” birikmasidir. Keyinchalik etnonim nomi etnotoponimga aylangan va oxiri Qoraqalpog‘istondagi **Xojeli** // **Xo‘jaeli** deb ataladigan tumanning nomi bo‘lib shakllangan. Xullas, mazkur toponim haqidagi fikr-mulohazalar ma’lum ma’noda bir-birini to‘ldiradi.

¹ Кораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009.96-бет.

² Белецкий А. А. Принципы этимологического исследования (на материале греческого языка). Издательство Киевского государственного университета им. Т. Г. Шевченко. - Киев, 1950. -С.12-13.

³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 161-бет.

⁴ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. -С.167.

E

ELATON // Elaton (And. Izboskan t., Nam. v. Uchko‘rg‘on, Uychi, Yangiqo‘rg‘on t. q.) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar bor:

1.Joy nomi uchta ma’noli qismdan iborat: *el*, *-at*, *-on*. Toponim tarkibidagi el apellyativining quyidagi ma’nolari bor: “1. *Kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi*. 2. *El, el-xalq, qabila*. 3. *Bir joyli yoki bir qabilaga, urug‘ga mansub kishilar*. 4. *Yurt, diyor; mamlakat*”¹.

El so‘ziga jamlikni ifodalovchi - (a)t qo‘srimchasi qo‘shilgach, yangi bir so‘z xosil bo‘lgan: *el*-+-*at* > *elat*. Mazkur so‘z quyidagicha etimologik tahlil qilingan: “*Elat* bir urug‘-qabilaga mansub kishilar, qabilalar birlashmasi. *O‘zbek elati* XI asrda shakllangan. Bu so‘z el otidan jamlash ma’nosini ifodalovchi -(a)t qo‘srimchasi bilan hosil qilingan deyiladi: *el \ -at elat*”².

2. “Drevnetyurkskiy slovar”da el so‘zining qabilalar ittifoqi, xalq ma’nolari berilgan³. Shuningdek, bu kitobda elat so‘zi berilgan holda, bu so‘z fe’l so‘z turkimiga oid so‘z sifatida talqin qilingan⁴. Shu bilan birga ayni shu so‘zning *el*, *mamlakat*, *yurt hokimiyat*, *shahar* kabi ma’nolari ham bor⁵.

3. “**Elatan** – o‘zbek qipchoqlarning va qirg‘iz qipchoqlarning bir urug‘i, *laqay* qabilasi tarkibida ham uchraydi. Jomboy, Dehqonobod, Namangan, Uchko‘rg‘on, Izboskan tumanlarida **Elatan** qishloqlari qayd qilingan”, deb yozgan S.Qoraev⁶.

Hosil bo‘lgan *elat* so‘ziga eski o‘zbek tilidagi ko‘plik qo‘srimchasi bo‘lgan *-on* (-*an*)⁷ qo‘srimchasi birikib, *elaton* shaklidagi so‘zni hosil qilgan: *elat*+*-on* > *elaton*. Bu so‘z tarkibida ikkita qo‘srimcha mavjud: *-at*, *-on*. Ammo uning tarkibida topoformant bitta: *-on*, ya’ni elat so‘ziga *-on* qo‘srimgach, *elaton* apellyativi yuzaga kelgan. Mazkur turdosh so‘z

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 443-бет.

² Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. с.343. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 462-бет.

³ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.168-169.

⁴ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.169.

⁵ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 83-, 79-, 46-, 336-бетлар. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961.32-бет.

⁶ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача луғат. Т., 2009. 105-бет.

⁷ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961.99-бет.

toponimlashuv hodisasining toponimlik direvatsiya jarayoni vositasida obekt(lar)ni nomlash uchun tanlangan. Unga toponimik ma’no yuklangach, onomaetik leksika sathiga o‘tib, ma’lum bir obektga nom vazifasini bajara boshlagan: *elat+-on* > *elaton* > **Elaton**. Bu toponim ellar hamda qabilalar ittifoqi yashagan joy degan ma’noni ifodalaydi. Bu toponim to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bir-birini to‘ldirgan holda yakuniy xulosaga, ya’ni uning etimoni haqida bir fikrga kelishga imkon bergen.

Ellar, qabilalar ittifoqi ma’nosini anglatadigan *elaton* so‘zi ushbu toponimga etimon bo‘lgan. *elat* va *elaton* so‘zlarining ma’nolarida arxaiklashish ro‘y bergen. Ular bugungi kunda kam ishlatilgani uchun **Elaton** toponimi ham nisbatan olganda o‘z ma’nosini xiralashtirgan.

O‘

O‘RTABO‘Z // O‘rtabo‘z (QkR tekislik; Sam. v. Jomboy, Nurobod, Payarik t. tepa va k.) - toponimi ikkita ma’noli qismidan iborat: *o‘rta*, *bo‘z*. *Bo‘z* so‘zi ko‘kka moyil oqrang ma’nosi bilan joy nomi tarkibida qo‘llangan¹. Oqish rangdan kelgan tuproq *bo‘z tuproq* deyilgan. O‘rta² so‘zi toponimlar tarkibida hududiy bo‘lak ma’nosida ishlatiladi: *O‘rtabo‘z*, *O‘rtaqishloq* (Yakkabog‘ t.q.). Shuningdek, o‘rta so‘zi belgi va miqdor ma’nolarini ifodalab, bo‘zli tuproqning o‘rtacha rangini hamda holatini ko‘rsatadi.

Onomastik konversiya hodisasi natijasida bu birikma tarkibidagi ma’noli qismlar birlashib, bir butun holatda qo‘shma so‘z holiga kelib qolgan, shu tarzda joy nomiga ko‘chgan: *o‘rta+bo‘z* > *o‘rta bo‘z* > **O‘rtabo‘z**. *Oqish rangli bo‘z tuproqqa ega bo‘lgan hududli bo‘lak* yer degan ma’no toponimning ma’nosi sanaladi. Ushbu toponimning etimoni *o‘rta bo‘z* ko‘rinishidagi atributiv birikma. U nomlanish talabi va onomastik konversiya tufayli bir butun so‘zga aylanib, joy nomiga o‘tgan.

O‘RTACHIM // O‘rtachim (Sam. v. Ishtixon va Oqqaryo t. tepa; Qash. v. Qamashi t. q.) – toponimining shakllanishiga oid taxminlar mavjud:

1. Unga *chimboy* etnonimining bir tarmog‘i bo‘lgan o‘rtachim urug‘i nomi asos bo‘lgan: *o‘rta chim* > *o‘rtachim* > **O‘rtachim**. Bu

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.157-158-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 514-бет.

etnonim nomi joy nomiga ko‘chgan bo‘lishi bir taxmin, chunki etnonim chimboy etnonimining bir tarmog‘i hisoblanadi.

2.Toponim ikkita ma’noli qismdan iborat: *o‘rta, chim*. Uning birinchi topoleksemasi *o‘rta so‘zi bo‘lib, oraliq, qurshov, davra, yarim, markaz, muhit*¹ ma’nolarini ifodalaydi.

Ajriqli joy, ajriq ko‘p o‘sgan yerning chim deyilishi e’tiborga olinadigan bo‘lsa², ushbu toponim *ajriqli joyning o‘rtasi, ajriq o‘sgan yerning o‘rta qismi* ma’nosini anglatadi. Uning etimoni *o‘rta chim* birikmasi bo‘lib, onomastik konversiya hodisasi tufayli joy nomiga ko‘chgan. Taxminlarga e’tibor bersak, ikkinchi taxmin ancha asosli holdadir.

Q

QAYQI // Qayqi (Nam. v. Uchqo‘rg‘on t. k.) - toponimi tarixan olinganda *qaz,-gu*³ ko‘rinishidagi ma’noli qismlardan tashkil topgan va *z > y*⁴; *g > q; u > i*⁵ shakllardagi fonetik o‘zgarishlarni boshidan kechirgan holda bugungacha yetib kelgan: *qaz+-gu > qazau > qayg‘u > qayg‘i*.

Yuzaga kelgan qayqi so‘zi *dard-alam, g‘am-g‘ussa* ma’nosini ifodalaydi. Bu yasama so‘z onomastik konversiya tufayli apellyativ leksika sathidan toponimik leksika satxiga ko‘chib, obektning nomi bo‘lgan: *qayqi > Qayki* va *qayg‘u-alam bo‘lgan* joy ma’nosini anglatadi. Toponimning etimoni *dard-alam, g‘am-gussa* ma’nosidagi *qazg‘u* yasama so‘zi.

QAYNAR // Qaynar (Sam. v. Urgut t. q.; Qash. v. Kitob t. k.; Sur. v. Denov t. buloq) - joy nomi uchta ma’noli qismdan iborat: *qayn (qayin), -a, -(a)r. Qayna* so‘zi qadimgi turkiy tilda *bug‘ chiqarib vaqirla*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.514-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.489-бет.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.426-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.369-бет.

³ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.404, 407.Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. III том. -Т.,Фан, 1963. 165-бет. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.401-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 515-бет.

⁴ Маҳмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990.165-бет.

⁵ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.20.

ma'nosidagi *qayin* fe'liga¹ kuchaytirish hamda takroriylikni ifodalovchi -a qo'shimcha sini qo'shish bilan shakllangan: *qayin*-a > *qayina* > *qayna*. Ushbu so'zdagi *i* (*i*) unlisi talaffuzda tushib qolgan. Hosil bo'lган so'zga sifatdosh yasovchi -(a)r qo'shimchasi qo'shilgach, *qaynar* so'zi hosil bo'lган: *qayna*-ar > *qayna(a)r* > *qaytar*. Suvi pastdan yuqoriga ko'tarilib chiqadigan ***buloq qaynar*** deb atalgan Ushbu toponim *qayna*+ -r shaklidagi forma yasalishi hamda toponimik derevatsiya natijasida yuzaga kelgan. *Qayna* so'zi *qayin*-a > *qay'sha* > *qayna* > *qayna*² holatida yuzaga kelgan fe'l so'z turkumiga oid so'zlardan biri.

Qayna so'zi aslida *qay* (yoki hayt) *orhaga yurish* (qaytarish), teskarı harakat ma'nolari bilan bog'lanadigan fe'l o'zagidir: *qayit(qayna)*; *qaytar* - *bukla*. Choy yoki suvning (suyuqlikning) qaynashida ham uning ko'tarilib turib, qaytib tushishi nazarda tutiladi: *qaytindi*, *qayindi* kabi. Uning davomiyligi ~a qo'shimchasi orqali berilgan: *qayin*-a > *qayna*. Toponimning etimologik tahlili ana shu *qay* o'zagiga borib taqaladi. Qiyoslang: *tirik* // *tiril*, *qayir* // *qayt* // *qayil* kabi o'zak bog'li yoki tarixiy o'zak bo'lib qolgan³.

Mazkur toponim uchun etimon *qayna* o'zagiga ~(a)r sifatdosh yasovchi qo'-shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lган *qaynar* so'zi. Bu so'z apellyativ leksikada faol qo'llanadigan so'zlardan biri. Toponimlashuv hodisasi tufayli paydo bo'lган so'z joy nomiga ko'chgan: *qayna*-r > *qaynar* > **Qaynar**. Uning paydo bo'lishiga suvi otolib, toshib chiqadigan suv manbaining tabiiy xususiyati assosiy rol o'ynagan. Sababi, aholi doim oqadigan buloq atrofida to'planadi va bunday buloqlar ko'p hollarda **Qaynarbuloq** (Qash. v. Yakkabog' t.) deb ataladi. Uning nomlanishida geografik omilning ta'siri bor. Toponimning etimoni *qayin*-a > *qayna*-(a)r > *qaynar* holatida shakllangan *qaynar* yasama so'zi.

QAYRAG' OCH // Qayrag'och (Sam. v. Chelak va Urgut t.; Qash. v. Shax. t. tepa, joy) toponimining kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminiy mulohazalar mavjud:

1.Uning tarkibida ikkita ma'noli qism bor: *qayir* va *og'och* (*yog'och*). Ba'zilar *qayir* so'zini daraxtning po'stlog'i ma'nosida tushunishadi. Biroq ushbu ma'no biror yerda ko'rsatilmagan.

¹ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с. 407.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.508-бет.

³ Усмонов К. Тарихий ўзак масаласи. -Т., Ўқитувчи, 1994. 6-бет.

2. *Qayir* so‘zi *qattiq*, *puxta*, *bukilsa ham sinmaydigan* ma’nolarini anglatadi¹. *Og’och* so‘zi daraxt ma’nosini ifodalagan². Ushbu ikki so‘z birikib, so‘z birikmasini hosil qilgan, so‘ngra birikma tarkibidagi qismlar orasidagi grammatik munosabat yo‘qolib, qo‘shma so‘zga aylangan: *qayir+og’och* > *qayir og’och* > *qayrag’och*. Bunda *qayir* so‘zidagi i unlisi tushib qolgan, *og’och* so‘zidagi o unlisi a unlisiga almashgan: *o* > *a*. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z avval fitonimlashuv tufayli fitonimga, so‘ngra toponimik derivatsiya jarayonida joy nomiga ko‘chib, *qattiq*, *bukilsa ham sinmaydigan* daraxt o‘sgan joy degan ma’noni ifodalagan: *qayrag’och* > *qayrag’och* > **Qayrag’och**. Toponimning etimoni fitonimga asos bo‘lgan *qayir og’och* shaklidagi so‘z birikmasi. Hosil bo‘lgan toponim fitotoponim, chunki joy nomi tarkibidagi *og’och* atamasi va *qayir+og’och* > *qayrag’och* shaklida hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z fitonimni bildiradi.

QAYNAQUVDI // Qaynaquvdi (Qash. v. Shah. t. Suvtushar k. guzar) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Joy nomi suv qaynab toshgandagi holat – *qaynadi* – *quvildi* ma’nosidagi *qaynadi quvildi* birikmasidan shakllangan: *qaynadi+quvildi* > *qayna quvildi* > *qayna quvdi* > **Qaynaquvdi**. Bu taxminiy fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi.

2. Ushbu toponim uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *qayna*, *quv*, *-di*. Ushbu ma’noli bo‘laklarning birinchisi sinxron planda bir o‘zak morfemadan tashkil topgan. Ammo diaxron planda bu topoleksema ikki o‘zak morfemadan iborat: *qayin*³+*ona*. Mazkur ikkala qism talaffuz qilingan vaqtda fonetik hodisalardan biri bo‘lgan tovush tushishi hodisasi ro‘y berib, ular bir o‘zak morfema holatiga kelgan: *qayin + ona* > *qayinona* > *qayna*. Bu yerda ot so‘z turkumidagi *qayna* so‘zi toponim tarkibidagi topoasos vazifasini bajargan.

Ikki so‘zning birikishi tufayli *qayin +ona* > *qayinona* > *qayna* so‘zi hosil bo‘lgan. Bunda qo‘llangan *qayn* so‘zi *qayin* ko‘rinishida bo‘lib, *erning tug‘ishganlari* ma’nosini bildiradi. *Qayin* so‘zi *qazin* so‘zi bilan o‘zaro bog‘liq. So‘zdagi z tovushi y undoshiga almashgani (z > y)

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000. 511-512-бетлар.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.218.

³ Ўзбек тилининг изохли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.537-бет.

ni Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan¹. *Qazin* so‘zi *ayol* ma’nosini anglatuvchi *xatun* // *qatun* so‘zi bilan bog‘lanadi². Demak, *qazin* (*qayin*) va *ona* so‘zlari ayol degan ma’noni ifodalaydi. *Qayna* (*qayin ona*) so‘zi *xotii yohud ernen* *onasi* degan ma’noda qo’llanadi. *Qayin ota* > *qaynata - xotin* yoki *ernen* *otasi*. *Qayinuka* - er yoki xotinning ukasi. Toponimning ikkinchi ma’noli bo‘lagi quv so‘ziga fe’lning o‘tgan zamon formasini yasovchi *-di* qo‘shimchasi qo‘shilgan: *quv+di* > *quvdi*.

Toponim oldin qayin onasi quvdi tarzida aytildi, keyinchalik fonetik o‘zgarish ro‘y berib, hozirgi ko‘rinishga kelgach, predikativ birikma hosil bo‘lgan: *qayin onasi quvdi* > *qaynasi quvdi* > *qayna quvdi*. Uning zaminida esa predikativ birikma qolipli topomin shakllangan: *qayin onasi quvdi* > *qaynasi quvdi* > *qayna quvdi* > **Qaynaquvdi**. Obektlarning nomlanish jarayoni va joy nomlarining motivlanishidan ko‘rinib turibdiki, milliy an’ana, ya’ni ekstralivingistik omil ushbu toponimning yuzaga kelishi uchun yetakchi vosita vazifasini bajargan.

Qayna kuyovini yoqtirmay qolishi, *o‘zingga uy-joy qur*, deb turib olishi yohud dangkasa, ishyoqmas kuyovlarni ishslashga majbur qilishi sababli *qayna quvdi* predikativ birikmasi shakllangan. **Qaynaquvdi** topominining etimoni *qayin onasi quvdi* yohud *qaynasi quvdi* holatidagi predikativ birikma. *Qayin onasi quvdi* > *qaynasi quvdi* predikativ birikmadan toponimik derivatsiya jarayonida **Qaynaquvdi** toponimi yuzaga kelgan.

QAYIRMA // Qayirma (Nam. v. Chust t. k.; Qash. v. G‘uzor t. arik va k.) - ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan toponim: *qayir*, *-ma*. *Qayir* so‘z topoasos bo‘lib kelgan, *-ma* qo‘shimchasi esa topoformant. *Daryo va ko‘llar bo‘ylab cho‘zilgan, suv ko‘payganda suv bosib ketadigan pastak zahob yerlar qayir* deyilgan³. Mazkur so‘z ba’zi manbalarda berch yer ma’nosida izohlangan⁴. Unga borguncha baland-pastlik va turli burilishlardan o‘tib boriladi. *Qayir* so‘zining daryo va ko‘llar bo‘yida cho‘zilgan, suv ko‘paygan vaqtida suv bosib ketadigan pastak *zahob* yer ma’nosini arxaiklashgan. Hozirgi kunda bu so‘z *buril*

¹ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 68-бет.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 388-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.509-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.130-бет.

⁴ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с. 407. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961. 165-бет.

ma’nosini anglatadi, ya’ni uning ma’nosida o‘zgarish ro‘y bergan. Toponimning geografik joylashuvi ham arxaiklashgan ma’noni inkor etadi.

T. Nafasovning qayd etishicha, bu toponim barcha tumanlarda ariq va qishloq nomi bo‘lib keladi. Ammo u *qayir* so‘zini negadir turkiy hamda mo‘g‘ul tillariga oid bo‘lgan *xayr* so‘ziga bog‘lab tahlil qilgan¹. Bu izohga qo‘silib bo‘lmaydi. Mazkur oykonimni borib ko‘rish uchun ungacha turli baland-pastlik hamda burilishlardan o‘tib borish kerak. Geografik omildan ko‘rinib turibdiki, *qayir* so‘zini *xayr* so‘ziga bog‘lashning hyech bir zaruriyati yo‘q. Yana *qayir* so‘zining o‘zbek tiliga oidligi ham asosiy dalil². Toponimning ikkinchi ma’noli qism -*ma* topoformanti esa -*im* + -*a* ko‘rinishidagi murakkab qo‘sishimchadan iborat. Qiyoslang: *bos+im+a* > *bosma*; *ter+im+a* > *terma* kabilar.

Binobarin, ushbu toponimning nomlanishiga geografik omil asosiy vosita bo‘lgan, chunki bu oykonimgacha bo‘lgan dromonimlar (yo’llar) turli-tuman holatdagi qayrilish va baland-pastliklardan tashkil topgan, Mana shu holatni e’tiborga olgan aholi o‘zlari yashaydigan joyni Qayirma deb atashgan. Qayirma va qayrshish so‘zlarining ma’nolari kuzatilsa, turli burilishlar asosida qayrilish, burilshi ma’nolari yotadi. Qayirma joy nomi qayrshish so‘zining arxaik holati. Demak, Qayirma toponimining etimoni geografik omil vositasida topilgan qayrilish ma’nosidagi *qayirma* so‘zi. U onomastik konversiya hodisasidan so‘ng joy nomiga ko‘chgan: *qayir+ma* > *qayirma* > **Qayirma**.

QASHQADARYO // Qashqadaryo (O‘zbekiston Respublikasidagi alohida viloyat, daryo nomi) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi fikrlar bor:

1. Yoshi ulug‘ insonlarning aytishicha, boshqalardan ajralib turadigan taniqli, belgili narsa qashqa deyiladi. Bundan toponim belgili daryo degan ma’noni anglatadi³.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 246-бет.232-бет.

² Махмуд Кошгари. Девону луғотит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963.165-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.37-бет.

³ Диалектологик амалиётлар вақтида ёши улуғ инсонларнинг нутқидан эшилган ва дала дафтарларимизга ёзиб олинган.

2. “Qirg‘izlarda *qashqa* «yo‘lboshi» degan urug‘ bor (bu urug‘ o‘zbeklarda ham bo‘lsa kerak). Farg‘ona vodiysidagi **yettiqashqa**, Yuqori Chirchiq tumanidagi **Beshqashqa**, Bog‘ot tumanidagi **Qashqalar** degan toponimlar o‘sha urug‘ nomi bilan atalgan”¹.

3. Toponimdagи *qashqa* topoasosi apellyativ leksikada “1. *Ot yoki mol peshonasidagi oqjoy, oq nishona; shunday nishonali ot, mol.* 2. *Betning ko‘rinadigan yerida urilishdan qolgan nishona, mas, yara, chaqa*”, degan ikkita ma’noga ega². Bunda ham toponim *nishonli daryo, belgili daryo* degan ma’nolarni bildiradi.

4. “**Qashqadaryo** gidromi qadimgi **Kesh** (to‘g‘risi - Kash) shahri (Shahrisabz) nomining fonetik jihatdan o‘zgarishi oqibatidir. Shahrisabz shahrining ikkinchi nomi **Kash-i dilkash** bo‘lgan, Qashqadaryo avval **Kesh** (Kash) daryosi deb, Amir Temur davrida **Xashqa** (Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik (tovush o‘zgarishlarga uchrab) **Qashqarud - Qashqadaryo** bo‘lib ketgan”³.

5. *Bizningcha, onomastik leksikadagi qashqa*⁴ topoasosininig o‘zagi *qash - qosh* hayvonning peshonasidagi *oq joy, nishonli, belgili, qir, tepalik, tik qirg‘oq, marza, alohida ajralib turadigan* degani; *qashqa tish* – kurak tish, *qashqa qum* – baland yalang qum tepaliklari, *qashqa tov* – boshqalardan ajralib turgan yuksak tog‘, *qashqa ot, otning qashqasiday* iboralari ham buni isbotlab turibdi.

Mana shu topoasosga daryo toponimik aniqlagichi toponimlashuv jarayonidagi topoobektlarni nomlash zaruriyati tufayli qo‘shilgan va mazkur toponim shakllangan: *qashqa > qashqa+daryo > qashqa daryo > Qashqadaryo*. Aslida, Kitob tumanidan oquvchi Oqsuv daryosi va Shahrisabz tumanidan oqadigan Tanqas daryosi birikib, **Qashqadaryo** gidronimini tashkil etgan. Ya’ni avval gidronim nomlangan, keyinchalik mamlakatimizdagi bitta viloyat shu nom bilan atalgan.

¹ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 115-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Бешинчи жилд. Т., "Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 270-бет.

³ Қораев С. Ер тилининг калити. Қисқача лугат. Т., 2009. 115-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т., Университет, 2000. 535-536-бетлар.

Mazkur toponim tarkibidagi qashqa topoasosi geografik nomlar tarkibida faol uchraydigan termin. Janubiy Sibirdan boshlab O‘rtal Osiyoda, Afg‘onistonda, Eronda¹ **Qashqa, Qashqabuloq, Qashqayo‘l, Qashqaoshuv, Qashqasoy, Qashqasuv, Qashqatepa, Qashqatov, Qashqaqum** kabi ko‘plab toponimlar (Ozarbajjonda - gashka) qayd qilingan. Gidronimlar tarkibida *qashqa* “tog‘ suvi”, “tez oqar toza suv”; qirg‘iz tilida *ko‘k qashqa suv* – “zilol tog‘ suvi”, *qashqa yo‘l* – “to‘g‘ri tog‘ yo‘li”, *qashqa yo‘l bilan yurish* – “aylanib yurmasdan to‘ppato‘g‘risiga yurish”, *otliq qashqadan chiqdi* – “otliq kishi tepa ortidan chiqib kelishi” ma’nolarini bildiradi.

Xullas, toponim to‘g‘risida yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda *qashqa* so‘zidan tuzilgan toponimlarni uchga bo‘lib o‘rganish lozim: 1) *qashqa* urug‘idan nom olgan toponimlar; 2) tog‘ suvi, tiniq suv; 3) ayrim tog‘ yoki tepalik (*qashqa yo‘l* – tik tog‘ yo‘li). Biz o‘rganayotgan Qashqadaryo toponimi esa etnonimdan shakllanmagan, balki quyidagi belgilar asosida tog‘ suvi, tiniq suv, ayrim tog‘ yoki tepalik (*qashqa yo‘l* – tik tog‘ yo‘li) shakllangan. Haqiqatan ham, Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismi *tog‘, tik tog‘ yo‘li bor va tog‘ suvi oqadigan joylardan* iborat. Bu toponimning etimoni nomlanishga zarur bo‘ladigan geografik omilni o‘zida ifodalab turadigan *qashqa daryo* birikmasi. Ushbu toponim gidronimlar asosida shakllangan joy nomlaridan biri hisoblanadi.

QIZARIQ // Qizariq (Nam. v. Yangiqo‘rg‘on t. k. va ariq) ushbu toponimning kelib chiqishi haqida uch xil taxmin bor:

1. Tub aholi vakillari joy nomining kelib chiqishini qiz so‘ziga bog‘lashadi: *qizlar qazigan ariq* > *qizariq* > **Qizariq**. Bu holda toponimning etimoni *qizlar qazigan ariq* birikmasi. Joy nomi haqidagi ushbu fikr xalk etimologiyasining bir ko‘rinishi hisoblanadi.

2. Toponimdagи *qiz* so‘zi kadimgi turkiy tilga oid *quz* so‘ziga bog‘langan²: *quz+ariq* > *quz ariq* > *quzariq* > *qizariq* > **Qizariq**. U holda mazkur toponim balandlikdagi ariq degan ma’noni anglatadi. Joy nomining etimoni *quz ariq* birikmasi. Ammo gidronimlardan biri bo‘lgan ariqlarning balandlikda bo‘lishi kamdan-kam holat.

¹ Словарь географических терминов и других слов, формирующих топонимию Ирана. Составитель В.И.Савина. М.,Наука, 1970. с.105.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.246-бет.244-бет.

3.Ushbu toponim ikkita ma'noli qismidan tashkil topgan: *qiz*, *ariq*. Ikkala ma'noli qism ham turkiy tillarga oid¹. Toponim tarkibidagi qiz so'zi asli qizil shaklida bo'lган. Ular o'zaro birikib, oldin so'z birikmasini, so'ngra qo'shma so'zni tashkil kilgan. Mana shu jarayonlar davrida tarixan qaralganda yasama so'z bo'lган *qizil*² so'zining ikkinchi bo'g'ini tushib qolgan, ya'ni tovush tushish hodisasi ro'y bergan³: *qizil+ariq > qizil ariq > qizilariq > qizariq*. Hosil bo'lган qo'shma so'z onomastik konversiya jarayonida toponimga aylangan: *qizariq > Qizariq*.

Toponim joylashgan yerga borib ko'rilmaga, haqiqatan ham, bu ariq o'tgan joy tuprog'inining qizg'ish rangdaligi kishini o'ziga tortadi. Obektning nomi tabiiy-geografik muhitga xos xususiyat bo'lган tuproqning qizg'ish rangdaligi asosida lingvistik omillarning vositalari bilan shakllangan. Bu toponim uchun etimon qizil ariq birikmasi. Demak, toponim va uning lug'aviy asosi bir-biridan toponimlashuv hodisasi ro'y bergen-bermagani hamda toponimik ma'no(lar) yuklangan-yuklanmagani bilan farqlanadi.

QIZILSUV // Qizilsuv (Qash. v. Yakkabog' t. daryo va q.) - toponimi ikkita ma'noli qismidan tashkil topgan: *qizil* va *suv*⁴. Birinchi so'z sifat so'z turkumiga oid, belgi ma'nosini bildiradi. Toponim avval daryoga, so'ngra qishloqqa nom sifatida qo'yilgan. Masalan. Yakkabog' tumanidagi katta daryolardan biri **Qizilsuv** deb ataladi. Tog' yon bag'ridagi bir necha qishloq ham shu nom bilan atalgan. Hozirgi kunda ularda yashovchi aholi cho'lga ko'chirilgani uchun hyech kim yashamaydi, uylarning xarobalarigina qolgan. Biroq kishilar u yerlarni azaliy nomi bo'lган **Qizilsuv** bilan atashmoqda.

Bu toponim tarkibidagi suv topoleksemasi daryo ma'nosini, *qizil* so'zi esa tog' va tepaliklardan yig'ilib oqayotgan suvning rang-tusini ifodalagan. Tog' va tog' oldi yerlar, asosan, qizg'ish, qizil tuproq

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.350-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.59-, 70-бетлар. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. -Т., Фан, 1960. 315-,96-бетлар.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.539-бет.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001.188-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.539-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.79-бет. Абдураҳмонов Н. Қадимги туркий тил. -Т., Ўқитувчи, 1989.67-,70-бетлар. Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. -С. 159-179.

bo‘lgani uchun u yerlardan oqib kelayotgan suv ham qizg‘ish rangda bo‘ladi. *Qizilsuv tog‘* va *tog‘* oldi joylardan loyqa hamda mayda *tog‘* jinslarini oqizadigan suv o‘zanini anglatadi.

Mazkur toponimning etimoni atributiv birikma qolipli *qizil* suv so‘z birikmasi. Onomastik konversiya, ya’ni toponimlashuv hodisasi tufayli so‘z birikmasining qismlari birlashib, bir butun so‘zga aylangan va shu tarzda joy nomiga ko‘chgan: *qizil +suv* > *qizil* *suv* > **Qizilsuv**. Ayni shu toponimning morfologik tuzilishi sifat+ot holatida bo‘lib, toponimning birinchi ma’noli qismi *qizil* so‘zi loyqa, mayda *tog‘* jinslarini oqizgan suvning rangi ma’nosini ifodalab turibdi. *Tog‘* oldi yerlarda qorlarning erishi tufayli oqib tushgan suv tuproqning rangiga mos holatda oqishi, ya’ni *tog‘dagi* qorning erib, *tog‘* tuprog‘iii oqizishi ushbu toponimning nomlanishi uchun ekstralengvistik omili sanaladi. Uning so‘z bilan ifodalanishi lingvistik omillar vositasida aks etishi hisoblanadi. Mana shu holat gidronimlarga xos bo‘lgan geografik omillarni ajratib turadi. Bunday toponimlarga yana **Oqsuv** (Far. v. Shohimardon q. va Qash. v. Kitob t. daryo), **Ko‘ksuv** (Far. v. Shohimardon q. daryo), **Qorasuv** (Far. va Qash. v. daryo) kabilar misol bo‘ladi.

QIZILQUM // Qizilqum (Nav. v. cho‘l) - toponimi rang-tusni bildiruvchi *qizil* so‘zi asosida yasalib, ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan: *qizil*, *qum*. Har ikki ma’noli bo‘laklar oldin so‘z birikmasini, so‘ngra esa qo‘shma so‘zni hosil qilgan: *qizil+qum* > *qizil* *qum* > *qizilqum* > **Qizilqum**. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z onomastik konversiya jarayoni natijasida toponimga aylangan: *qizil+qum* > *qizil* *kum* > *qizilqum* > **Qizilqum**. Uni H. Hasanov *sharqiy qum* va *oltin qum*, deb qayd etgan¹. Bu birikmaning ko‘chma ma’nodagi *oltin* ma’nosini toponimda mavjud bo‘lgan holda boshqa manbalarda uchramadi. Ushbu so‘zning *oltin* ma’nosini ifodalashi hisobga olinsa, shakllangan joy nomi oltini bor, oltinga boy hum degan ma’noni anglatadi. Bu fikrning isboti *Muruntov tilla koni*. Ushbu kon **Qizilqumda** faoliyat ko‘rsatib, tinimsiz ishlamoqda. Bu toponimining etimoni *qizil* *qum* so‘z birikmasi.

QIZIRIQ // Qiziriq (Sur. v. t.) toponimining shakllanishi haqida bir necha taxmin bor:

¹ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 117-бет.

1. Bu joy nomida ikkita ma'noli bo'lak mavjud: *qiz* va *iriq*¹. *Iriq* so'zi - *yirik* so'zining fonetik jihatdan o'zgargan holati. Ushbu holda toponim *qizi yirik* birikmasidan shakllangan. O'sha yerda yashayotgan kishilarning katta-kichikligiga e'tibor berilsa, bu taxminning ma'lum bir ekstralivingvistik asoslari borligiga ishonish mumkin.

2. Mazkur toponim ikkita ma'noli bo'lakdan iborat: *qiz*, *-ir*, *-iq*, ya'ni bir o'zak va ikki ergash morfemadan tashkil topgan. Ushbu o'zak va ergash morfemalar ma'lum bir rivojlanish taraqqiyotini bosib o'tgan: *qizir* so'zi - *isir* so'zining o'zgargan shakli. U holda *-iq* ot va sifat yasovchi qo'shimchalardir. So'z boshida *q* tovushi orttirilgan va regressiv assimilyasiya ro'y bergan. *Isiriq* - suvsiz yerda o'suvchi o'simlikning nomi. Shu o'simlik o'sgan yer, ya'ni topoobekt nomlanish va toponimik derivatsiya jarayonlarini boshidan kechirgan: *isiriq* > *qiziriq* > **Qiziriq**.

3. U uchta ma'noli qismidan iborat: *qizi*², *-r*, *-iq*. O'zak morfema – *qizi-moq* fe'li. Unga *-r* va *-iq* qo'shimchalari qo'shilib, yangi so'z yasagan: *qizi+-r+-iq* > *qiziriq* > **Qiziriq**. Odatda, kun isishi bilan cho'lda nafas olish qiyinlashadi. Shunga asoslanib, mazkur hudud **Qiziriq** deb nomlangan.

4. Joy nomida ikkita ma'noli qism bor: *qizil* va *ariq*. Ikki so'z birikib oldin so'z birikmasini, so'ng qo'shma so'zni hosil qilgan: *qizil+ariq* > *qizil ariq* > *qizilariq* > *qizariq* > *qiziriq* > **Qiziriq** (qiylaslang: *o'q+ariq* > *O'qariq*). Birinchi topoleksemadagi *l* undoshi, ikkinchi topoleksemadagi *a* unlisi talaffuzda tushib qolgan.

Shu to'rtinchi taxminda jon bor. Turli cho'kindi jinslarni oqizib keluvchi ariq, soy va daryolarning qirg'oqlaridagi tuproq qizg'ish bo'ladi. Shu holat uning nomlanishiga asos bo'lgan. **Qizildaryo** hamda **Qiziriq** toponimlarida bu narsa aniq bilinadi. Tog' jinslari va tuproq loyqalanib oquvchi daryo **Qizildaryo** deb atalgani kabi tuprog'i qizg'ish bo'lgan ariqlar oldin **Qizilariq** deb, so'ngra **Qiziriq** deb nomlangan. Bu yerda ekstralivingvistik omillardan biri bo'lgan - geografik omil bilan birga, leksik omilning nomlanish jarayoniga ta'siri seziladi: *ariqning qizil tuproqli rangda bo'lishi* - fikrimizning isboti. Toponimi turli fonetik o'zgarishlarga uchrab, shu holatga kelgan. Uning birinchi ma'noli bo'lagi *qizil* so'zi bo'lgan, o'zgarish jarayonida uning ikkinchi

¹ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000. 537-538-, 156-157-бетлар.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981. 371-бет.

bo‘g‘ini tushib qolgan: *qizil* + *ariq* > *qizilariq* > *qizariq* > *qiziriq* > **Qiziriq**. Uning ikkinchi topoleksemasi *ariq* so‘zi bo‘lib, birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi oldingi, keyingi bo‘g‘inlardagi *i* unlilari ta’sirida *i* unlisiga aylangach, singarmonizm ro‘y bergan: *qizil+ariq* > *qizil ariq* > *qizilariq* > *qizariq* > *qiziriq* > **Qiziriq**. Unga *qizil ariq* so‘z birikmasi etimon bo‘lgan.

QIZILUV // Qiziltuv (Tosh., Sir. v. *tog‘*, ovul, q. va joy) toponimi ikki topoleksemadan iborat: *qizil*, *tuv*. Uning shakllanishi haqida ikki xil faraz bor:

1. Ushbu toponim qizgish rangli bachand *tog‘* (*qizil tuv*) ma’nosini anglatadi. *Qizil* so‘zi¹ kayd etilgan joy nomida nomlanish talabidan kelib chiqqan va topoobektning xarakterli xususiyatlarini ifodalagan holda atoqli otga xos ma’noni ifodalashga xizmat qilgan. Ikkinci topoleksema bo‘lgan *tuv* so‘zi quyidagi fonetik jarayonni bosib o‘tgan: *ta:g‘* > *tag‘* > *tog‘* > *tov* > *tuv*. Bu so‘zning qirg‘iz tilida *too*² tarzida ishlatilishi ham *ta:g*³ so‘zining *tuv* tarzida o‘zgarishini asoslaydi. Mazkur toponimning etimoni *qizil tuv* ko‘rinishidagi so‘z birikmasi: *qizil+tuv* > *qizil tuv* > *qiziltuv* > **Qiziltuv**.

2. Ushbu toionim tarkibidagi *tuv* so‘zi bayroq ma’nosidagi *tug‘* so‘ziga borib taqaladi⁴. Bugungi kunda bu so‘zning qo‘llaniish faol emas. Demak, *tuv* so‘zi *tug‘* so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli. Toponim ikki topoleksemaning birikishi va onomastik konversiya natijasida toponimik leksika sathiga ko‘chgan: *qizil+tug‘* > *qizil tug‘* > *qizil tuv* > *qiziltuv* > **Qiziltuv**. Uning etimoni *qizil tug‘* birikmasi.

Bu farazlarni o‘ylab, qiyoslab ko‘rish uchun uning ikki obektga nom bo‘lib kelishini hisobga olish kerak. Shu o‘rinda *tog‘* so‘zi ham, *tug‘* so‘zi ham aslida balandlik ma’nosini ifodalashini e’tiborga tutish lozim. Xuddi shu ma’noda ularning etimonlari (*tov* // *tuv*) o‘xshash bo‘lib, bir ma’noda qo‘llangan. Sababi, kolib kelgan kishi yoki ko‘shining bayrog‘i, ya’ni *tug‘*ini ko‘tarish qadimdan odat bo‘lgan⁵. Keyingi ma’no taraqqiyoti jarayonida ushbu so‘z boshqa ma’nolarni

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.570-бет.

² Конобаев К. Топонимия южной Киргизии. -Фрунзе, Илим, 1980.155-170-бетлар.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.351-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.241-бет.

⁵ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.584.

anglatadigan bo‘lgan. Bu hol turkiy tillarga, xususan, o‘zbek tili so‘zlariga xos omonimik xususiyat¹.

Agar Toshkent viloyatidagi *Qiziltuv* (ovul, qishlok) toponimining geografik joylashuvi kuzatilsa, bu joy nomi tog‘li yerda joylashganini ko‘rish mumkin. Bu holda *tuv* topoleksemasi tog‘ so‘zidan shakllangan bo‘ladi. Shu bilan birga u yerda yashovchi qozoqlar tilida qizil bayroq birikmasi *qizil tuv* deb atalgani kabi tog‘ so‘zi ham *tuv* deyiladi. Demak, birinchi faraz Toshkent viloyatidagi topoobekt uchun mantiqan to‘g‘ri keladi.

Agar (sof turkiy topoleksemalarga ega bo‘lmasa ham) Poytug‘ (And. v.) toponimi o‘z vaqtida Qo‘qon xonligi hududining oxirgi nuqtasi, xonlik bayrog‘i ko‘tarilgan so‘nggi joy ma’nosini ifodalashini e’tiborga olinsa, u holda Sirdaryo viloyatidagi *Qiziltuv* toponimi ham xonlik chegarasini ko‘rsatadi, ya’ni xonlik hukmi, bayrog‘i yetib borgan joy degan ma’noni beradi. Ikkinci fikr esa Sirdaryo viloyatidagi obekt uchun o‘rinli. Demak, *Qiziltuv* toponimi ikki obektning nomi bo‘lib kelgan. U geografik va toponimlarning tarkibini o‘rganish usullari leksik tamoyil asosida etimologik tahlil etilgan. Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, mavjud ikki obekt bir xil nomga ega bo‘lsa-da, ular ifodalagan atoqli otga xos ma’nolar farqlanib turadi. Bu yerda ham topoasoslar, ham obektlar qiyoslanib, bir xulosaga kelingan.

QIZTOG‘ // Qiztug‘ (Qash. v. Dehqonobod t. tog‘) toponimining etimologik tahlilini ko‘rsatish o‘rinli. Toponim ikkita ma’noli qismidan iborat: *qiz*, *tog‘*. Qadimgi turkiy tilda *qiz* so‘zi *quz* shaklida aytilgan bo‘lib, *tog‘ning quyosh nuri tushmaydigan qismi* degan ma’noni ifodalaydi². Tog‘ yerning ancha baland bo‘lgan qismi, qadimgi turkiy tilda bu so‘z *ta:g‘* holatida aytilgan³. Ma’lum bir davrdan so‘ng so‘zdagi oldingi kator *a*: unlisi orqa qator lablangan *a* (*o*) unlisiga almashgan⁴: *ta:g‘ >tag‘ >tog‘*.

¹ Ўзбек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981.259-292-бетлар.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.475. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 315-бет. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. -Т., Ўқитувчи, 1988.244-бет.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.351-бет.

⁴ Маҳмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990.72-бет. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Об-щетюркские и межтуркские основы на гласные. -М., Наука, 1974.с.425. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963.167-бет.

Ushbu ikki ma'noli qismlar birikib oldin birikmani, so'ngra qo'shma so'zni va toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayoni tufayli onomastik leksika sathiga ko'chib, toponimga aylangan: *quz+tag'* > *quz tag'* > *quz tog'* > *quztog'* > *qыztog'* > *qiztog'* > **Qiztog'**. Bu yerda u unlisi m unlisi (*u* > *i*) ga, ы unlisi esa i unlisi (*m* > *i*) ga¹, a unlisi *o* unlisiga (*a* > *o*) o'tishidan iborat² fonetik hodisalar ro'y bergan. *Baland va quyosh nuri tushmaydigai tog'* ma'nosidagi bu toponimning etimoni *quz ta:g'* ko'rinishidagi birikma. Toponimning etimologik tahlili geografik va diaxron usullar bilan fonetik tamoyil vositasida amalga oshirilgan. *Qiz*, ya'ni *quz* ma'noli qismli toponimlar eramizning II, III, XU1 asrlarida ham qo'llangan³.

QIZKETGAN // Qizketgan (QkR Nukus sh. mavze) – toponimining kelib chiqishiga oid ikkita faraz bor:

1.Bu toponim yoshligida kasallik yoxud biron bir baxtsiz tasodif tufayli vafot etgan qizlarga nisbatan hur ketdi ma'nosida Qizketgan deb atalgan. Shunday qizlar yashagan yoki ko'milgan joy *Qizketgan* deb nomlangan. Bu tarzda tahlil qilish xalq etimologiyasi sanaladi.

2.Bizning qarashimizcha, toponimida uchta ma'noli qism mavjud: *qiz*, *ket*, *-gan*⁴. *-gan* sifatdosh shakli birikma tarkibidagi o'zaklarni birlashtirishda asosiy bog'lovchilik vazifasini bajargan. Agar ketmoq fe'lining birinchi ma'nosи biror joydan jo'namoq bo'lsa, bu birikma tarkibida ushbu so'z qochmoq ma'nosida ishlataligan. Shuningdek, uni tahlil qilish uchun Qoraqalpog'istonda *qiz qochdi* deb nomlangan xalq o'yini bugungi kunda ham an'anaviy tarzda davom etayotganini hisobga olish kerak. Bu esa joy nomining milliy-ma'naviy qadriyatlarning bir ko'rinishi bo'lmish xalq o'yinining o'ziga xos ramziy ifodasi ekanligini ko'rsatadi. Unda ekstralengvistik omilning ta'siri sezilib turibdi.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.296-,206-бетлар.

² Маҳмудов К. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990.72-бет. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974.425-бет. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963.167-бет.

³ Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. -Самарканд-Ташкент, 2000.83-87-бетлар. Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.475. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960. 188а-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.570-, 382-383-бетлар.

Bu toponim tarkibida ega va kesim munosabati aniq sezilib turibdi: -*qiz* - ega, *ketgan* - kesim. Mana shu holatda predikativ birikma shakllanib, toponimlashuv hodisasi natijasida joy nomiga aylangan. Uning etimoni qiz ketgan predikativ birikmasi.

QIRQQIZ // Qirqqiz (Sam. Urgut t.; Qash. Kitob t. tepa va tog') – toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminiy mulohazalar mavjud:

1.Undagi *qirq* so‘zi miqdorni anglatib, nutqda quyidagi ma’nolarda ham qo‘llaniladi: Payt, vaqt, chegara ma’nosи: *Qirqi bo’ldi. Chillasi chiqdi. Qirqi tugasin. Qirqi chiqsin.* Ular ko‘plikni, mikdoran ortiqlikni anglatadi. Sababi, oldingi davrda kishilar odatda ko‘p qo‘llaydigan son so‘z turkumiga oid so‘zlar quyidagilar bo‘lgan: *bir, uch, besh, yetti, yigirma, qirq.* *Qirq* so‘zi berilgan so‘zlarning so‘nggisi. Demak, unda *qirq* soni bilan birga ko‘p miqdor degan ma’no bor.

Bu so‘z tarkibida fonetik o‘zgarish ro‘y berib, shu holga kelib qolgan: *qir* > *qirq*¹. Bunda q undosh tovushi orttirilgan.

2. Toponim ikkita ma’noli bo‘lakdan iborat: *qirq* va *qiz*² .*Qirq* so‘zi etnonim. Mahmud Koshg‘ariy qirqqiz degan etnonimni qayd etgan³.

3.*Qirq* so‘zi omonim so‘z: *Qirq* - son⁴, *qirq* - fe’l (kirqmok). Joy nomidagi *qirq* so‘zi fe’l so‘z turkumiga oid emas, balki son so‘z turkumiga xos so‘z. Vaqt o‘tishi bilan bu so‘z etnonimga aylangan: *qirq* > *qirq*. *Qirq* etnonimi qipchoqlarning bir bo‘g‘ini. *Qiz* so‘zi oldin quz shaklida bo‘lib, *tik balandlik* ma’nosini bildiradi⁵. *Qirq* so‘ziga *qiz* so‘zi qo‘shilib, attributiv birikmani shakllantirgan: *qirq+qiz* > *qirq qiz*. So‘ngra qo‘shma so‘zni hosil qilgan: *qirq+qiz* > *qirq qiz* > *qirqqiz*. Hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayoni tufayli joy nomiga aylangan: *qirqqiz* > **Qirqqiz**. Toponim tik balandliklari ko‘p bo‘lgan *qirlik* ma’nosini anglatadi. Bunday tarzda nomlangan obektlar ko‘proq tog‘li hududlarda uchraydi. Binobarin, **Qirqqiz** joy nomining etimoni *qirq qiz* so‘z birikmasi.

QIZILCHA // Qizilcha (Navoiy v.Nurota t) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar bor:

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.246-бет.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.446, 449.

³ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.426-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.583-бет.

⁵ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.246-бет.

1.Qizilcha Navoiy viloyatining Nurota tumaniga qarashli maskan bo‘lib, u shu tumanning tog‘-yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan. Sababi, Nurota vohasida oqar suv manbalarining kamligi, geografik nuqtai nazardan qurg‘oqchil zonada joylashganligi bilan izohlanadi. **Qizilcha** qishlog‘i Nurota tog‘ tizmasitning Qoratov etaklarida joylashgan bo‘lib, uning shimoliy yon bag‘ri bepoyon Qizilqumga, shimol tomonidan Aydarko‘l sho‘rxokligi va Qozog‘istonning cho‘lli dashtlari bilan tutashib ketadi¹. Bu yerda qadimdan *boto‘bi, sozonboy, tuyaqli, qarito‘pi, urtichuqur* (og‘iz bo‘lig‘i chuqurligiga nisbat – B.X.), *dovkar, qatag‘on* kabi urug‘ vakillari istiqomat qilib kelishadi².

Qizilcha qishlog‘i Qoratovning unchalik baland bo‘lmagan qir va adirlilaridan iborat bo‘lganligi shu atrofdagi mahallif aholi tilida aytiladigan “*Jodir*” // “*Jadir*” atamasi orqali ikkinchi nomda tilga olinadi. Ma’lumki, tog‘ va tog‘ oldi zonalarida aholi punktlari nomlanishida tarixiy toponimik tamoyilga ko‘ra, eng muhim alomat geografik joylashgan o‘rniga va tabiiy geografik relefiga “mos” holatda atalib, uzoq vaqt saqlanib qoladi. Xo‘s, Qizilcha va Jodir toponimlarining bu yerda yashab kelayotgan aholi etnomadaniy o‘tmishi, turmush tarzi, azaliy mashg‘ulotlari, mahalliy xalq dunyoqarashining mahsulidan qidirish lozim. **Qizilcha** toponimining etimologik, aniqrog‘i, tarixiy o‘zagi “*qil*” yoki “*qizil*” so‘zleri mavjud. O‘rta Osiyo tabaiti va geografiyasini hamda toponimiyyasini puxta o‘rgangan olimlardan E.Murzaevning fikricha, **Qizbulqoq, Qizilqum** toponimlari o‘zagidagi “*qiz*”, “*qizil*” kabi atama turkiy tillardan kelib chiqqan va “*tepalik*”, “*qir-adir*”, “*do‘nglik*” ma’nolarini anglatgan³.

2. Z. Do‘simov va X. Egamovlar⁴ biz tahlil qilayotgan **Qizilcha** toponimiga aloqador “*qiz*” yoki “*xiz*” terminini “*balandlik, yuqori*” ma’nosida, fors-tojik tilida ham “*xiz*” so‘zi shu ma’noni ifodalaydi, deb qayd etishadi⁵. M.Koshg‘ariy bo‘lsa⁶, Qashqadaryo viloyatidagi Qiztog‘

¹ Толипов Ф.Мозийга бўйлашган маскан // Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола. Нижол, Тошкент, 2008. Б.12.

² Дала тадқиқот ёзувлари. Қизилча қишлоғи, 2011 йил июль.

³ Дала тадқиқот ёзувлари. Қизилча қишлоғи. 2011 йил июль.

⁴ Мурзаев Э.М.Словарь народных географических терминов. Москва, Мысль, 1984. 653 с.; Нафасов Т.Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўқитувчи, 1988. Б.245-, 262-263-бетлар.

⁵ Дўсимов З., Эгамов Х.Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. Т., Ўқитувчи, 1977. Б.15-34.

⁶ Кошғарий М.Девону лугатит турк. З томлик. I-III-томлар. Тошкент, ЎзФАН, 1960-1963. III том. Б.374.

degan tog‘ga nisbatan, Quztog‘ atamasini ishlataladi. Quz so‘zi O‘rxun-yenisey toshbitiklarida qayd etilgan. M.Koshg‘ariy bu so‘zni o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida bir necha o‘rinda izohlab o‘tgan. U xalq nutqidagi “*Kuzda qor o‘ksumas, qo‘yda yog‘ qisumas(arimas)*” maqolini keltirgan. Maqolda bu so‘zning ma’nosi – *baland tog‘*. Shuning uchun “Devonu lug‘otit turk”da bu so‘z ikki o‘rinda izohlangan: “*Quz tog‘ – quyosh tushmaydigan tog‘, tog‘ning quyosh tushmaydigan joyi*”, “*Quz tog‘ kun tushmas tog‘, faqat kun oqqandagina chapdan kun tushadigan tog‘*”. U kunning chap tomonida bo‘ladi.Unda doimo qor va sovuq bo‘ladi”.

3.“Qutadg‘u bilig”da “kuzda yurugli qalin ko‘p qutuz” (tog‘ning terskayida ko‘p ohu kezib yurur misrasida bu so‘z uchraydi.XI asrning bu ikki yodgorligidan ma’lum bo‘ladiki, quz so‘zi ikki ma’noga ega bo‘lgan: *yuksak tog‘, baland tog‘ning terskay tomonidagi hajmi kichik tizma* yo *balandlik*. **Qizilcha** toponimi tarkibidagi “qiz” so‘zi ma’nosi haqida T.Nafasovning fikricha, o‘zagida “qiz”, “quz” so‘zlari bo‘lgan toponim “*balandlik, tepalik, cho‘qqi, qoya*” mazmunini anglatgan. Muallif qizil - qizg‘ish rangdagi tuproqli tepe(baland)lik bo‘lib, O‘zbekistondagi **Qizmozor, Qizbandi, Qiziriq, Qizbuloq, Qizqo‘rg‘on, Qiztosh** kabi nomlar ham “qiz” yoki “kuz” so‘zi bilan bog‘langan¹, deb tushuntirishga harakat qiladi.

4. S.Qoraev O‘zbekiston viloyatlarida “qizil” komponentli toponimlar ko‘plab uchrashini quyidagi misollar asosida ta’kidlagan: Qizilbuloq, qiziljar, Qizilkesak, Qizilrabot, Qiziltepa, Qiziltom, **Qizilcha**, Qizilo‘y, Qizilqoq, Qizilqum kabi geografik nomlar rang va sifatni anglatishidan boshqa ma’nolari ham borligini uqtirgan va “*qizil*” *kalimasi oltin, tilloning epitetidir*, degan fikrni o‘rtaga tashlagan². Yana muallif Qizilsuv, Qizilsoy gidronimlarini suv qizil tuproqli o‘zandan oqqanidan qizg‘ish bo‘ladi. Zomin tumanidagi **Qizil buloqning** suvi qizil emas, o‘zan tuprog‘i qizilligidan bo‘lsa kerak, buloq suvidagi suv o‘tlari yashil emas, balki qizg‘ish-sariq rangdadir, deb uqtiradi.

5.Mahalliy aholining mazkur toponim to‘g‘risidagi suhbatlar mazmunidan kelib chiqadigan taxminiy xulosa shuki, **Qizilcha** toponimi o‘simlik ildizi rangi bilan bog‘liq.Chunki bu yerdan uncha uzoq bo‘lmagan soydan ba’zida mavsumiy (bahor va kuz oylarida) yog‘in

¹ Нафасов Т.Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати.Тошкент,Ўқитувчи,1988. Б.245-262-263-бетлар.

² Кораев С.Ўзбекистон вилоятлари топонимлари.Тошкент, ЎзМЭ, 2005. Б.80-81.

tufayli suv oqadi. Suv soy ichi va atroflarida “qizil” ildizli o’simlikning tomirlari tagidagi tuproq qatlamini yuvib ketadi. Soydagি suvning hajmi katta emasligini va kichraytirish ma’nosida “-cha” topoformant, ya’ni joy nomi yasovchi qo’shimcha qo’shilishi barobarida **Qizilcha** atamasi – toponimi paydo bo’lgan. Nom tabiiy-geografik xususiyatlarni aks ettiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

6. **Qizilcha** toponimi ikkinchi nom bilan mahalliy jihatdan faol toponim sifatida **Jodir** deb yuritiladi. Jodir yoki jodirliliklar atamasi Nurota tumani aholisiga tanish. **Jodir** toponimi O’zbekistonning boshqa yerlarida uchramaydigan geografik obektning nomi bo‘lib, ma’nosiga ko’ra *tog’ning etak qismi, yoyılma qiyalik qismiga nisbatan qo’llanilgan*. Bu nom o’zagidagi **Jodir** toponimining varianti sug’dcha “*chodra, chodrchik, jadra*” so’zlariga aloqador bo‘lishi mumkin¹. Chunki Panjikentdagi Mug‘ tog’idan topilgan qadimiy sug’diy yozuvlarda *chodra, chodir* so’zları mavjud. Ba’zida *Jodir* atamasini chalkash holatda ishlatish ko’zga tashlanadi. Xusan, jurnalist S.Mustafoevning maqolasida Nurotaning dastlabki nomlanishini “*jondor*” deb baholanishiga aslo qo’shilib bo’lmaydi². Chunki S.Mustafoev ta’rif bergen “*jondor*” atamasi to‘g’risida biron bir tarixiy qonuniyat va yana tilning fonetik hamda leksik xususiyatlariga mos keladigan manbaning o’zi yo‘q.

Bizningcha, bu toponimning shakllanishi va ma’nosi to‘g’risida bir necha taxminni yuqorida qayd etildi. Nurota vohasidagi **Qizilcha** toponimi o’ziga xos toponimik ob’eklardan biri bo‘lib, tabiiy sharoit, iqlim va imkoniyat shu toponimda o’z ifodasini topgan. Unga tutash hududlardagi joy nomlarida tub joy xalqining qadimiy davrlardan to hozirgi kungacha bo’lgan hayoti, ularning dunyoqarashi va o’z an’alariga xos jihatlar aks etganligi bilan **Qizilcha** (**Jodir**)toponimining individual jihatlarini to’ldirib, izohlab borishga ko’mak beradi: mazkur toponim rang ma’nosidagi **qizil** va **-cha** komponentlaridan shakllanib, toponimlashuv hodisasidan so’ng *tepalik va do’nglikdagi joy* degan ma’no nozikligini ifodalaydi. Qadimiy va eski turkiy til, shuningdek, eski o’zbek tili yozma materiallari, tarixiy obidalar hamda qardosh tillarning so’z xazinalari bo’lgan lug’atlari bu mantiqiy xulosani to’la tasdiflaydi. Qizil rangdagi tepalik ma’nosi toponimga xos toponimik ma’nodir. U

¹ Исҳоқов М. Унтуилган подшолиқдан хатлар. Тошкент, 1992. Б. 14-18.

² Мустафоев С. Жой номлари ҳакида // Дўстлик байроғи. 2001 йил 9 ноябрь.

yerning geomorfologik xususiyatlarini o‘zida ifodalaydigan toponimlardan biridir.

QISHLIQ // Qishliq (Qash. v. Kitob, Qamashi va Shah. t. q.) - toponimi ikkita ma’noli kismdan iborat: *qish*, *-liq*. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning *qishlik* - *uy* va *qishlash* uchun tayyorlangan har bir narsa ma’nolarini ko‘rsatgan. Ulardan *qishlik* *uy* ma’nosi toponim tarkibida kelgan. O‘zak va qo‘sishchaning birikishidan hosil bo‘lgan *qish+-liq* > *qishliq* so‘zi qish vaqtida yashaydigan joy, qishlaydigan makon ma’nolarni ifodalaydi. T. Nafasov uning kelib chiqishini qishliq urug‘iga bog‘lagan¹. Yasama so‘z obektni nomlashga ehtiyoj tufayli urug‘ nomiga, ya’ni etnonimlashuv tufayli etnonimga ko‘chgan: *qish+-liq* > *qishliq* > *qishliq*. Mazkur etnonim qishlaydigan joyda yashaydigan urug‘ ma’nosini anglatadi.

Vaqt o‘tishi bilan topoobektni nomlash ehtiyoji va joy nomining motivlashuvi tufayli onomastik konversiya natijasida urug‘ nomi toponimga ko‘chgan: *qish+-liq* > *qishpiq* > *qigiliq* > **Qishlik**. Ushbu toponim qishlaydigan joy va shu yerda yashovchi kishshar guruhining nomini, ya’ni etnonimdan shakllangan etnotoponim sanaladi. Uning etimologik tahlilida toponimlarning tarkibini o‘rganish usuli ma’noli qismlarni ko‘rsatishda ishlatilgan. Toponimning etimoni qishliq etnonimi bo‘lsa, bu etnonimning etimoni esa *qishliq* yasama so‘zi,

QOVUNKESDI // Qovunkesdi (And. v. Marhamat t.; Sam. v. Qo‘shabot t. dala) - toponimi to‘rtta manoli kismga ega: *qovun*², -ni (belgisiz holda), *kes*, -di. Ushbu obektli birikma amalda bu tarzda ko‘llangan: *qovun+-ni+kes+-di* > *qovunni kesdi*. Vaqt o‘tishi bilan bu birikmaning ma’noli qismlari orasidagi grammatik aloqa yo‘qolib, u bir tushunchani ifodalaydigan qo‘shma so‘zga aylangan: *qovunnikesdi* > *qovunkesdi*. ~ni topoformantining ellipsisiga uchrashi odatiy holligi e’tiborga olinsa, **Qovunkesdi** ko‘rinishidagi toponim tarkibida ham tushum kelishigi qo‘sishchasi topoformant sifatida belgisiz ko‘llangan.

Mazkur toponimning etimoni uning shakllanishi uchun asos bo‘lgan *qovunni kesdi* ob’sktli birikmasi. Dehqonchilik bilan bog‘liq urfodat bo‘lgan *qovunni kesmoq* ushbu toponimning nomlanishiga ekstralingvistik omil bo‘lib xizmat qilgan.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўқитувчи, 1988. 247-бет.

² Фуломов А., Тихонов А. -Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.339-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.591-бет.

QOZONKETGAN // Qozonketgan (QqR. Bo‘zatov t. markazining nomi) - toponimi to‘rtga ma’noli qismdan tashkil topgan: *qozon*, *-ga*, *ket*, *-gan*¹. Uning kelib chiqishi haqida to‘rt xil faraz bor:

1. Joy nomining yetakchi qismlaridan bo‘lgan ketgan so‘zi toponimlashuv hodisasingacha ro‘y bergan o‘ziga xos grammatik forma yasalishning bir ko‘rinishi hisoblanadi: *ket+-gan* > *ketgan*. Qozon ovqatlarni pishirish uchun ishlatiladigan maxsus idishlardan biri bo‘lib, hajman katta, o‘rtacha ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Mazkur idishlar yasaladigan joy yohud shunday idishlarni yasaydiganlar savdo qiladigan obekt nomlanish jarayoni talablariga asosan Qozonketgan deb atalgan. Obektning nomlanishida negativlik jarayoni e’tiborda bo‘lganligini ta’kidlash o‘rinli. U to toponimga o‘tguncha predikativ birikma holatida bo‘lgan: *qozon ketgan*. Nomlanish jarayoni va onomastik konversiya tufayli u joy nomiga ko‘chgan: *qozon ketgan* > **Qozonketgan**.

Joy nomi tarkibidagi *-gan* topoformanti birlashtiruvchilik vazifasini bajargan, chunki *-gan* topoformanti bo‘lmasa, ikki topoleksema o‘zaro birlashishi mumkin emas edi. Bu yerda birinchi almashinuv qonuni ro‘y bergan, ya’ni onomastik konversiya jarayonida turdosh so‘z apellyativ leksikadan onomastik leksika sathiga o‘tib, joy nomi vazifasini bajarib kelgan.

Joy nomi tarkibidagi birinchi ma’noli qism fonetik o‘zgarishga uchragach, unga ketgan so‘zi qo‘shilgan: *g‘ozing ketgan* > *g‘ozin ketgan* > *qozin ketgan* > *qozon ketgan* > **Qozonketgan**. Bu fikrda lingvistik (fonetik) asos bor, ammo ekstralolingvistik asosi yo‘q. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan fikrga qo‘silib bo‘lmaydi.

Toponim tarkibidagi qozon so‘zi² qazilgan ma’nosidagi qazg‘on yasama so‘zidan shakllangan: *qazgan ketgan* > *qozgan ketgan* > *qozg‘on ketgan* > *qozon ketgan* > **Qozonketgan**. Fonetik o‘zgarishlar natijasida a > o ga aylangan, g undoshi esa tushib kolgan. Uning etimoni qazgan ketgan birikmasi. Mazkur fikrga qo‘silmaymiz, chunki fe’l so‘z turkumiga oid so‘zning fonetik o‘zgarishlar bilan ot so‘z turkumiga aylanishi kam uchraydigan hodisa.

F. G. Sattarov Qozon toponimi haqida bir necha farazlarni ilgari surib, ulardan qazilgan ma’nosidagi *qazgan* va *ovqat pishirish uchun ishlatiladigan idish* ma’nosidagi *qozon* so‘zini Qozon toponimining

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.593-бет. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981.382-383-бетлар.

² Саттаров Г. Ф. Происхождение полисонима «Казань» // СТ. 1985. N 5. –С. 34-43.

shakllanishi uchun asos bo‘lgan so‘zlar sifatidagi taxminni ilgari suradi¹. Demak, *qazilgan ma’nosidagi qazgan*² so‘zidan tovush tushishi va tovush o‘zgarishi: a > o³ natijasida idishni nomlovchi qozon so‘zi yuzaga kelgan: *qazilgan* > *qazg‘on* > *qazon* > *qozon*. Idishning nomini ifodalovchi qozon so‘zi onomastik konversiya jarayoni tufayli onomastik leksika sathiga ko‘chib, joy nomiga aylangan: *qozon* > **Qozon**. Bular toponimning birinchi ma’noli qismi haqidagi fikr.

Qozonketgan toponimi Qozon shahriga ketilganlikni ifodalagan: *qozon+-ga* > *ket+-gan* > *qozonga ketgai* > *qozonga ketgan*. Ushbu holda joy nomi tarkibidagi -ga topoformanti ellipsisiga uchragan: *qozon+-ga* > *ket+-gan* > *qozonga ketgan* > **Qozonga ketgan** > **Qozonketgan**.

To‘rtala taxminda ham ma’lum asos bor. Birinchi farazda qozon tay-yorlovchshar to‘g‘risida gap borgan bo‘lsa, ikkinchi taxminda g‘ozning boshqa joyga ketishi bilan bog‘liq jarayon asosida topoobektning nomlanishi qayd etilgan. Uchinchi farazda Qozon, Qozonketgan toponimlarining shakllanishi haqida to‘xtalilgan. Keyingi taxminda esa qo‘shti ellarga borib, savdo-sotiq qiluvchilar haqida ishora bor. Shuningdek, qoraqalpoqlar boshqa xalqlar bilan qadimdan hamkorlikda yashashgan. Bizningcha, so‘nggi taxminda lingvistik omillar bilan birga ekstralingvistik omillar ham o‘zaro mos tushgan. Demak, **Qozonketgan** toponimi uchta emas, to‘rtta ma’noli qismdan tashkil topgan: *qozon*, -*ga*, *ket*, -*gan*. Uning etimoni *qozonga ketgan* ko‘rinishidagi obektli birikma bo‘ladi. Nomlanishda negativlik jarayoni amalda bo‘lgani uchun toponim obektli birikmadan shakllangan joy nomlaridan biri sanaladi. Bu esa toponimning etimologik tahliliga diaxron usulda ham qarash shartligini tasdiqdaydi.

QONJIG‘ALI // Qonjig‘ali (Sur. v. Jarqo‘rg‘on t., Qash. v. Shah., Chir., Kitob, G‘uzor t. q.) toponimining kelib chiqishi haqida ikki xil talqin bor:

1. Toponim uchta ma’noli qismdan iborat: *qon(qoon)*, *jig‘a*, -*li*. Qon so‘zi davlat boshlig‘i, hukumdor degan ma’nolarni ifodalaydi⁴:

¹ Саттаров Г. Ф. Происхождение полисонима «Казань» // СТ. 1985. N 5. –С. 34-43.

² Маҳмуд Кошгарий. Девону луготит турк. Уч томлик. I т. -Т., Фан, 1960.411-бет.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.10.

⁴ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.417-бет.

qoon > qon > xon. Bunda q tovushi x tovushiga o‘tgan¹: q > x. T. Nafasov toponim tarkibidagi jiga so‘zini fors-tojik tilidagi «*bosh kiyim ustiga taqilib, yuksak lavozim egasi ekanligini bildiruvchi belgi, bayroq, qadimda arava, qora uy ustiga taqilgan tuv - lattali nishon*», deb ko‘rsatgan². Bu fikr boshqa manbada ham bor³ (349,283-). Qoon jig‘asi, ya’ni xonning jig‘asini taqib yurishga loyiq ko‘rilgan nufuzli turkiy urug‘ nomini bildiradi. Bu toponim ellipsisga uchragan holda quyidagicha shakllangan: *qoonning jig‘ali kishisi > qonning jig‘ali kishisi > qon jig‘ali > qonjigali > Qonjig‘ali*. Toponimning etimoni qoonning jig‘ali kishisi birikmasi.

2. Agar toponimning shakllanishiga diaxron usulda lisoniy jihatdan yondashilsa, boshqa manzarani ko‘rish mumkin. Uning ma’noli qismlaridan biri bo‘lgan jig‘a so‘zi tarixan yig‘ so‘ziga -a qo‘shimchasining qo‘shilishi bilan o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lib chiqadi: *yig‘+-a*. Sababi, y tovushining *j* tovushiga o‘tishi (*o‘ > j*) turkiy tillarda uchraydi⁴, hozirgi kunda bu fonetik o‘zgarish o‘zbek tilining shevalarida mavjud. Ammo *yig‘a* so‘zi *jig‘a* so‘zining o‘zi emas, boshqa so‘z sanaladi.

Turkiy qabilapardan biri bo‘lgan qipchoq qabilasining ilk yashagan joyi Dashti Qipchoq ekanligi hisobga olinsa, toponim tarkibidagi *jig‘a* so‘zi fors-tojikcha *jig‘a* emasligi va ikki so‘zdan iboratligi ayon bo‘ladi. Bulardan anglashilib turibdiki, mazkur toponim quyidagi shakllanish jarayonini boshidan kechirgan: *qonning+yig‘+-gani > qonning yig‘gani > qonjig‘gani > qonjig‘ani > qonjig‘ali > Qonjig‘ali*. Toponim shakllanayotgan vaqtida qan so‘ziga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi -ning qo‘shilgan, keyinchalik u ellipsisga uchragan. Shuningdek, ikkinchi so‘zdagi *n* undoshining *l* undoshiga o‘tishi ham ro‘y bergen: *n > l*. Binobarin, toponim xon yiqqan, xon tomonidan yig‘ilgan ma’nolarini ifodalaydi. Haqiqatan ham, qadimgi davrda xon, davlat boshlig‘i o‘z fikri, salohiyati bilan kishilarni atrofiga yiqqan. Ushbu toponim oldin turkiy etnonimlardan birining nomi bo‘lib, keyinroq etnonim toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida obektning

¹ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986. с.29.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.235-236-бетлар.

³ Ўзбек халқ шевалари луғати. -Т., Фан, 1971. 283-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001.51-53-бетлар.

nomiga aylangan: *qonning +yig+-gani* > *qonning yig‘gani* > *qonjig‘gani* > *qonjig‘ani* > *qonjig‘ali* > **Qonjig‘ali**. Uning etimoni *qon(xon)ning yig‘gani* yoki *qon(xon)* *yig‘gani* ko‘rinishidagi birikma bo‘lib, undan *qonjig‘ali* etnonimi shakllangan.

Bizningcha, ikkala talqin ham mazmunan o‘zaro birlashadi. Sababi xonning jig‘asini taqib yuradigan nufuzli urug‘ vakillari boshchiligidida, albatta, ma’lum kishilar guruhi mavjud bo‘lgan. Ularga kishilarni boshqaradigan ma’lum bir imkoniyatlar berilgan. Shunday imkoniyatlar egasi, xonning ishonchli va yaqin kishilari hisoblangan. Xonning yiqqani (qon (xon)ning yig‘gani) unga doim sodiq bo‘lgan, bu joy nomining shakllanishi uchun birlamchi jarayon. Xonning sodiq kishilari esa yuksak lavozim egasi ekanliklarini bildirish uchun bosh kiyimi ustiga taqiladigan belgi - *jig‘ani* taqib yurishgan, bu toponimning yuzaga kelishi uchun ikkilamchi jarayon sanaladi. Demak, toponimning shakllanishiga ikkinchi talqin birlamchi jarayonni, birinchi talqin esa ikkilamchi jarayonni ifodalab, bir butunlikni anglatgan.

QORASUV // Qorasuv (Tosh. sh.; Qash. Shah. t.; Sam. v. Jomboy t.; Far. v. q., daryo, mahalla, mavze) toponimining shakllanishi to‘g‘risida quyidagi taxminlar bor:

1. Mazkur joy nomi ikkita ma’noli qismdan tashkil topgan toponim: *qora* va *suv*. yer tagidan chiqadigan suvni xalq vakillari *qora* *suv* deb ataydi. Mana shu atalish joy nomining nomlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Yerdan chiqayotgan suvning *qora* *suv* deb atalishi odatiy hol bo‘lib, shu *qora* *suv* birikmasi toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayoni tufayli toponimga aylangan. A. N. Kononov *qora* so‘zi belgi bildirish bilan birgalikda, yana *katta*, *kuchli*, *toza*, *yer*, *shimol*, *qudratli* va *ulug‘* kabi ma’nolarga egaligini ko‘rsatib o‘tgan¹.

2.H. Hasanov **Qorasuv** toponimini «*Buloq suvi, tekis yerda sekin oqadi. Shoh-shabba, haishk oqib kelayotgan suv ham qorasuv, deyiladi*», deb izohlagan. U geografik nomlar tarkibida uchraydigan mahalliy terminlardan biri². Shu bilan birga, tog‘ bag‘ri va etaklaridan boshlanuvchi gidronimlar ham **Qorasuv** deb atalgan.

¹ Кононов А. Н. Способы и термины определения стран света у тюркских народов // ТС. 1974. -М., Наука, 1978. -С. 72-89. Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. -С. 159-179.

² Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 50-, 118-бетлар.

3. T. Nafasov unda yilning barcha fasllarida bir xil miqdorda loyqa suv oqadigan gidronim degan ma’no mavjudligini ko‘rsatgan¹. Farg‘ona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydigan bu gidronimlar xuddi shu ma’noni beradi.

Bizningcha, **Qorasuv** deb nomlangan topoobektlarni kuzatib, bu so‘z birikmasining onomastik konversiya jarayoni tufayli apellyativ leksika tizimidan onomastik leksika tizimiga o‘tganiga ancha vaqt bo‘lganini bilish mumkin. Qaysi bir **Qorasuv** joy nomini so‘rab-surishtirmang, aholi ularning nomlanishini bir-necha asr oldingi vaqtga, eng kamida bir asrga bog‘laydi. Demak, *qora* so‘zi belgi btdiruvchi (rang), yerdan sizib chiquvchi va ko‘p miqdorda oqadigan suv (hajm) kabi ma’nolari bilan **Qorasuv** toponimi tarkibida topoleksema sifatida qo‘llangan. Bu toponim mamlakatimizda ko‘p tarqalgan joy nomlaridan biri sanaladi. Qorasuv (Tosh. sh., Qash. v. va Sam. viloyatlarida) toponimi (u gidronim va oykonim bo‘lib keladi)ning etimoni *yerdan sizib chiqkan suv* ma’nosidagi **qora suv** birikmasi sanaladi. Farg‘ona vodiysidagi Qorasuv gidronimi esa **yerdan sizib chiqqan suv** ma’nosini ifodalamaydi, balki katta va ko‘p suv oqadigan gidronim ma’nosini anglatadi. Bu haqida A. N. Kononov maxsus to‘xtalgan².

Toponim ko‘p qo‘llangani uchun uning ma’nosi bilinib turganday bo‘ladi. Aslida esa uning ma’nosini tadqiq etish bilan bilish mumkinligi yuqoridagilardan sezilib turibdi.

Shu o‘rinda **Qorasuv** (Nam., Far.v.daryo; Qash. v. Shah. t. daryo va q.; Tosh. sh. ariq va mavze) gidronimi va toponimi to‘g‘risida to‘xtalish lozim. Undagi qora so‘zi ham katta, ulug‘, buyuk kabi ma’nolarni anglatadi³. Suv apellyativi aslida daryo ma’nosini bildirgan, ammo *qora* so‘zi bilan birlashib, toponimni qosil qilgach, unga daryo indikatori qo‘shilgan: *qora + suv > qora suv > qorasuv > Qorasuv +daryo > Qorasuv daryo*. Demak, toponim ulug‘ va katta suv oqadigan daryo ma’nosini bildiradi. Uning etimoni *qora suv* birikmasi. Bizningcha, bu toponim avval gidronimiga, so‘ngra oykonimlarga nom sifatida berilgan.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. -Т., Ўқитувчи, 1988.253-бет.

² Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. –С. 159-179.

³ Содикова М. Қора сўзи ва унинг маънолари // ТМ. -Т., 1960. –Б. 24-31. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Шарқ, 2001. 14-15-,429-430-бетлар.

QORAQUM // Qoraqum (Bux. v. cho'l) - toponomining shakllanishi haqida quyidagi taxminlar bor:

- 1 H. Hasanov bu toponimni *g'arbiy qum* deb ataydi¹.
- 2.A. N. Kononov uni *shimoliy cho'l* ma'nosida izohlagan².
3. Ushbu toponim "*ustini o'simlik qoplab yotadigan, mustahkamlangan qumlar*" deb ham talqin etilgan³.

Toponim ikkita ma'noli qismdan iborat: *qora, qum*. Ikki o'zak morfema oldin birlashib, so'z birikmasini hosil qilgan: *qora+qum* > *qora qum*. So'ngra so'z yasashning kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'z toponimik derivatsiya jarayoniga asos bo'lgan: *qora qum* > *qoraqum* > **Qoraqum**. Shu o'rinda qora so'zi boshqa toponimlar tarkibida ham ko'p uchrashi va o'zidan keyin keladigan so'zlar bilan birikib, turli xil ma'nolarni anglatishi turli ilmiy manbalarda berilganligini e'tiborga olish shart⁴. Masalan, K. Shoniyofov mazkur so'zda buyuk, ulug' degan ma'nolari mavjudligini o'zbek xalqining shakllanishi misolida dalillar bilan ko'rsatgan⁵. Bu holda toponimning kelib chiqishini ikki xil talqin qilish mumkin:

Mana shu so'z toponimda rang ma'nosini quyoshning botishidan oldingi paytda ko'rinaradigan qoramadir qum holatida ifodalagan. Bu toponim shu ikki topoleksemaning birikishi va onomastik konversiya jarayoni tufayli yuzaga kelgan: *qora+qum* > *qora qum* > *qoraqum* > **Qoraqum**. Mazkur toponim *o'tish ham, yurish ham qiyin bo'ladigan qoramadir qumli katta cho'l* degan ma'noni ifodalagan; mazkur toponimdagи *qora* so'zi *buyuk, ulug'* ma'nolarini ifodalashi⁶ uning *ulug'* yoki *katta qumlik* ma'nosini anglatishiga dalildir. Bizningcha, ikkinchi talqin ancha ishonchli. Sababi, bu obekt nomlangan vaqtda, ya'ni o'tmishda qumlikning chegarasi cheksiz bo'lgan. Toponimning birinchi talqini esa bugungi kun nuqtai nazaridan

¹ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т., Ўзбекистон, 1985. 50-, 118-бетлар.

² Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // ТС. 1975. -М., Наука, 1978. –С. 159-179. с.166.

³ Қораев С. Географик номлар маъноси -Т., Ўзбекистон, 1978. 151-бет.

⁴ Кононов А. Н. Способы и термины определения стран света у тюркских народов // ТС. 1974. -М., Наука, 1978. –С. 72-89. Қораев С. Географик номлар маъноси. -Т., Ўзбекистон, 1978. 174-,181-бетлар. Ўзбек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981.59-бет. Содикова М. Қора сўзи ва унинг маънолари // ТМ. -Т., 1960. –Б. 24-31.

⁵ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Шарқ, 2001. 14-15- ,429-430-бетлар.

⁶ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Шарқ, 2001. 14-15-,429-430-бетлар.

bayon qilingan. Ikkala talqin uchun ham etimon apellyativ leksikadagi *qora qum* birikmasi sanaladi.

QORAQISMOQ // Qoraqismoq (Tog‘lik hududdagi soy) toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminiy fikr-mulohazalar bor:

1. Mazkur toponim uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *qora, qis, -moq*. *Qora* so‘zi rangni anglatadi. *Qismoq* so‘zi esa *qisilgan* degan ma’noni ifodalaydi. Shu bilan birgalikda bu so‘zning yana quyidagi ma’nosini ham bor: *ovqat qilayotganda qozonning tagiga olishi ham qismoq* deyiladi. *Qismoq* qozonning qattiq qizib ketishidan undagi masalliqning ma’lum bir qismi kuyib, qozonga yopishib qolishidan hosil bo‘lgan ovqatning sal kuyganining nomi: *qis+-moq > qismoq*.

2. Toponim tarkibidagi topoasos bo‘lgan *Qora* so‘zi *rang, katta, buyuk, ulug‘* kabi ma’nolarni ifodalaydi¹. Toponimda bu so‘z *katta, ulug‘* ma’nolarini bir butun holda ifodalab kelgan.

Mazkur gidronim doim loyqa bo‘lib oqadigan soylik va shu soylikda cho‘kkan katta loyqa ma’nolarni anglatadi: *qora+qis+-moq > qora > qismoq > qoraqismoq > Qoraqismoq*. Bu toponimning etimoni *qora qismoq* ko‘rinishidagi predikativ birikma. Demak, toponimning yuzaga kelishida gidronimning tabiiy geografik xususiyatlari yetakchi vositalardan biri bo‘lgan.

QORATELPAK // Qoratelpak (Sam. v. Urgut t. tepe) toponimida ushbu so‘z qorarang va nisbatan kattaroq ma’nolarini ifodalaydi. Sababi, bosh kiyim bo‘lgan telpakning rangi har xil bo‘lishi tabiiy bir hol. Shuningdek, telpak tikadiganlar nisbatan katga telpaklarni ham rangiga qaramasdan *qoratelpak* deb atashgan. Bu toponimning etimoii hora telpak birikmasi: *qora +telpak > qora telpak > qoratelpak > Qoratelpak*. *Qora telpak kipgan kishi, qora telpakli kishilar* yashagan joy ma’nosida mazkur toponimning nomlanishida kasb-hunar leksikasi yetakchi vosita rolini bajargan. M. Sodiqova *qora* so‘zining turkiy tillarda katta, baland kabi ma’nolarga egaligini misollar vositasida bayon qilgan². Toponim uchun etimon qora telpak birikmasi etimon bo‘lib kelgan.

¹ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Шарқ, 2001.59-бет. Содикова М. Қора сўзи ва унинг маънолари // ТМ. -Т., 1960. –Б. 24-31. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Шарқ, 2001. 14-15-,429-430-бетлар.

² Содикова М. Қора сўзи ва унинг маънолари // ТМ. -Т., 1960. –Б. 24-31.

QORAQO‘RG‘ON // Qoraqo‘rg‘on (Sam. v. Urgut t. q.), *Qorako ‘l* (Bux. v. t.), *Qoratau* (QqR tog‘), *Qoraqiya* (Jiz., And. v. koya) kabi bir qancha toponimlar tarkibida ham katta, baland ma’nosidagi qora so‘zi ishlatiladi. *Qo‘rg‘on* so‘zi onomastik va apellyativ leksikada ham qo‘llanadigan yasama so‘z hamda onomastik birlik. *Ko‘l* gidronim nomi. *Tau* so‘zi *tog‘* so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli. Qirg‘iz tilida *tog‘* so‘zi too tarzida aytildi¹. *Tik bo‘lmagan balandlik* qiya deyiladi. *Qoya* so‘zi esa tik balandlik va chiqish ancha mushkul bo‘lgan joy degan ma’nolarni ifodalaydi. *Qora* so‘zi XGU-XU asrlarda ham geografik nomlar tarkibida ishlatilganligi haqida ma’lumot bor².

Yuqorida berilgan joy nomlarining etimonlari quyidagilar: **Qoraqo‘rg‘on** toponimining etimoni *katta qo‘rg‘on* ma’nosidagi *qora qo‘rg‘on* so‘z birikmasi. Bu birikma toponimlashuv hodisasi orqali toponimga ko‘chgan: *qora+qo‘rg‘on > qora qo‘rg‘on > qoraqo‘rg‘on > Qorako‘rg‘on*. **Qoratelpak** (Sam. v. Urgut t. k.) toponimi uchun etimon qora telpak birikmasi. *Katta, keng ko‘l* ma’nosini ifodalovchi *qora ko‘l* birikmasi *Qorako ‘l* (Bux. v. t.) toponimining etimoni sanaladi. *Katta, ulug‘, tog‘* ma’nolarini anglatuvchi *qora tau*, ya’ni *qora tog‘* birikmasi esa **Qoratau** toponimi uchun etimon. Uzoqdan ko‘rinuvchi katta qiya ma’nosini ifodalovchi *qora qiya* so‘z birikmasi **Qoraqiya** (Jiz., And. v. koya) joy nomining shakllanishi uchun etimon rolini bajargan.

Qo‘rg‘on komponentli toponimlar mamlakatimizda ko‘p uchraydi: **Uchqo‘rg‘on tumani** (Nam. v. t.), **Beshqo‘rg‘on**, **Qirqqo‘rg‘on** (Marg‘ilon sh. guzar), **Kattaqo‘rg‘on tumani** (Sam. v. t.), **Qo‘rg‘oncha qishlog‘i** (Qash. v. Kitob t.; Far. v. Bog‘dod t. ikkita qishloq nomi), **Qo‘rg‘onqishloq** (And. v. Baliqchi t. q.) va boshkalar. Bu so‘z bilan shakllangan joy nomlari Respublikamiz hududidan tashqarida ham uchraydi. Masalan, *qo‘rg‘on* so‘zi bilan yuzaga kelgan toponimlar Rossiya FR, Qozog‘iston Respublikasida anchagana miqdorni tashkil qiladi³.

Qo‘rg‘on so‘zi umumturkiy so‘zlardan biri. Ushbu so‘z bugungi kunda bitta ma’noli bo‘lak holiga kelib qolgan. Bu so‘zni diaxron

¹ Конобаев К. Топонимия южной Киргизии. -Фрунзе, Илим, 1980.156-бет.

² Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. -Т., Ўзбекистон, 1997.137-138-бетлар.

³ Абдрахманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Фылым, 1975. 208 с. Подольская Н. В. Проблемы ономастического словообразования // ВЯ. -М., Наука, 1990. N3. –С. 40-53. Моллазаде С. М. Топонимия северных районов Азербайджана. -Баку: Маариф, 1979.382-бет.

yo‘nalishda *qo ‘rg ‘o-n*, *qo ‘r-g ‘on*, *qo ‘rg ‘on* tarzida ikki manoli bo‘lakka bo‘lish mumkin. Mazkur so‘z apellyativ va onomastik leksikada faol ishlatiluvchi yasama so‘zlardan biri. So‘z o‘zagi bo‘lgan qo‘ri ma’noli bo‘lagi *qo ‘riqgoh* ma’nosida qo‘llanadi. Mazkur so‘z qadimda ham faol ishlatilgan.

Bu so‘z *qo ‘ri,-g ‘a , -n* ko‘rinishidagi topoasos va formantlarini qo‘shish bilan yasatgan¹: *qo ‘ri+ -ga > qursha+ -n > qo ‘rshan > qo ‘rgan > qo ‘rg ‘on*. Bu so‘zning qo‘rg‘on holatidagi shakli *qo ‘r-g ‘on*, *qo ‘rg ‘o-n*, *qo ‘ri-g ‘a-n* holatlaridan ma’noli bo‘laklarga ajratilgan². *Qo ‘rg ‘on* so‘zining etimoni *qo ‘ri* o‘zagiga -ga, -n qo‘shimchalari bilan yasalgan *qo ‘rg ‘an* so‘zi bo‘lib, u qo‘riqlanadigan joy ma’nosini ifodalaydi. Keyinchalik bu so‘z ot so‘z turkumiga ko‘chgan va toponimik derivatsiya hodisasi tufayli joylarga nom bo‘lib, ko‘pincha toponimlarning biror bir ma’noli qismi bo‘lib kelishi odatdagi hol. *Qo ‘rg ‘on* so‘zi o‘zining etimonini saqlay olgan: *qo ‘rig ‘an*. Bu so‘zning *qal‘a*, *shahar*, *qishloq*, *guzar* ma’nolari keyingi ma’no taraqqiyoti tufayli yuzaga kelgan.

Qo‘rg‘on ko‘rinishidagi ma’noli bo‘laklardan iborat toponimlarning etimonlarini topish uchun *qo ‘ri* so‘zining tarixni o‘zida jamlaydigan *qo ‘riqlamoq* shaklidagi arxaik ma’nosи diaxron usulda aniqdandi. *Qo ‘rg ‘on* so‘zi hozirgi kunda o‘zining *qo ‘riqlamoq* shaklidagi ilk ma’nosini o‘zgartirib, *aholi punkti*, *qishloq*, *guzar* ma’nolarini ifodalaydi. Lekin bu so‘z to‘g‘ri holatiga kelgunga qadar ham ikki qismdan iborat bo‘lgan: *qur+qur+i* kabi. Bunda *qur* so‘zi *ajana* ma’nosini bildiradi (*qurshamoq* so‘zini qiyoslang). Har holda *qo ‘ra* (*molning qo ‘rasi*) so‘zi ham shunga aloqador. Demak, qo‘rg‘on so‘zi tarixan *qo ‘r (kur)+-i+-qo ‘rg ‘-on* shakllaridan iborat bo‘lgan: *qo ‘r+-g ‘on > qo ‘rig ‘on > qo ‘rg ‘on* kabi. Bizningcha, mana shu holat til rivojlanishiga xos tabiiy-tarixiy haqiqatga mos.

QORATEPA // Qoratepa (Qash. v. Qamashi, Qarshi, Kasbi t.; Far. v. O‘zbekiston, Yozyovon, Buvayda t.; Sam. v. Ishtixon va Urgut. t. tepa, q.) - toponimi haqida ikki xil faraz bor:

¹ Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.с.457-458.

² Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнгурев Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977.349-бет. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Т., Университет, 2000.588-589-бетлар.

1. Joy nomi ikkita topoleksemadan iborat: *qora*, *tepa*. Bu toponim tarkibida *qora* so‘zi *katta*, *baland* ma’nolarida¹ ishlataligancha. Ushbu so‘z birikmasi toponimlashuv hodisasining onomastik konversiya jarayoni natijasida semantik o‘zgarishlarga uchrab, atributiv birikma qolipli toponimga aylangan: *qora+tepa* > *qoratepa* > **Qoratepa**. Uning etimoni *qora tepa* so‘z birikmasi. Tog‘dan pastga tushilganda tekislik va soyliklardagi qishloqlar uzoqdan qora tepalar tarzida namoyon bo‘ladi. Bu qishlokdir **Qoratepa** deyilgan.

2. Toponimni *qarovul tepa* so‘z birikmasi asosida tahlil etish mumkin. Bunda so‘zlar tarkibidagi tovush va bo‘g‘inlarning talaffuz {-vul) jarayonida tushishini e’tiborga olish kerak: *qarovul +tepa* > *qarovultepa* > *qarotepta* > *qoratepa*. Bunda birinchi bo‘g‘indagi a unlisi va ikkinchi bo‘g‘indagi o unlisi bilan o‘rin almashgan. Ushbu holatda *qarovul tepa* birikmasi mazkur toponim uchun etimon bo‘lib kelgan. Bizningcha, ushbu ikki holatda ham birikmalarning toponimlashuvi bir vaqtda amalga oshgan.

QUDUQCHA // Quduqcha (Sam. v. Payariq t.; QkR Xo‘jayli t., Qash. v. Qamashi, G‘uzor t. quduq)- joy nomi ikki ma’noli qismiga ega: *quduq*, -*cha*. Quduq so‘zi apellyativ leksikada ko‘p qo‘llangani holda onomastik leksikada kam qo‘llanadigan xususiyatga ega. Joylarga nom berish jarayonida quduq gidronimik obektlar jumlasiga kiradi. U geografik omil natijasida toponim vazifasini bajaradigan holga kelgan. Albatta, kovlangandan keyin suv chiqqan chuqurliklar quduq deb nomlangan. Uning atrofi kichik himoya inshooti bilan to‘sib qo‘yilgan. Ushbu so‘zga diaxron planda qaralganda o‘zgacha holatni ko‘rish mumkin. Quduq so‘zining shakllanishini asoslarydigan quyidagicha qarashlar bor:

1. Mazkur so‘zning shakllanishiga *qudug‘* so‘zi asos bo‘lgan. Bu so‘zning o‘zagi *qud* bo‘lib, -*ug* esa ot yasovchi qo‘shimcha . *Quduq* so‘zi «suv sol» ma’nosidagi quy fe’lining qadimgi turkiy tildagi qud shaklidan yasalgan: *qud+-ug* > *qudug* > *quduq*². Uni quyidagicha ko‘rinishda boshqacha talqin etish ham mumkin. Qadimgi turkiy tilda past ma’nosidagi *quyi* sifatining *qudi* shaklidan -*q* qo‘shimchasi qo‘shib quduq so‘zi yasalgan: *qudi+-q* > *qudiq* > *quduq*. Demak, *quduq* so‘zining etimoni *quyi* so‘zi. Bunga misol qilib, **Turkmanquyi** (Qash. v.

¹ Содикова М. Қора сўзи ва унинг маънолари // Тилшунослик масалалари. -Т., 1960. –Б. 24-31.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т., Университет, 2000.571-бет.

Muborak t. quduq va yaylov) toponimini ko‘rsatish o‘rinli¹. Sababi, bu toponimda qo‘llangan *quyi* so‘zi *quduq* ma’nosini bildirgan.

2. Ushbu so‘zning yuzaga kelishyda UN-X asrlarda qo‘llangan quzug‘ so‘zi asos bo‘lgan. Chunki *quzug* so‘zi o‘sha vaktlarda quduq ma’nosini anglatgan². Xulosa qilinadigan bo‘lsa, *quzug*‘ va *qudug*‘ so‘zlarida qisman bo‘lsa ham fonetik o‘xhashlik bor. Quduq so‘zining etimoni deb *quzug* (*qudug*) so‘zini ko‘rsatish mumkin. Kichik suv inshooti, suv chiqadigan chuqur yer ma’nolaridagi **Quduqcha** toponimining etimoni quduq so‘ziga -cha topoformantining qo‘shilishi bilan yuzaga kelgan *quduqcha* so‘zi.

Bu toponim *quduq* so‘zi bilan yuzaga kelgan: **Quduq** (Qash. v. G‘uzor t.) gidronimi topoasos bo‘lib xizmat qilgan: *qud-* + *-ug*‘ > *qudug*‘ > *quduq* > **Quduq**; *quduq+-cha* > *quduqcha* > **Quduqcha**. Demak, **Quduqcha** toponimi **Quduq** gidronimining -cha topoformantini qabul qilib, toponimlashuv natijasida **Quduqcha** gidronimi yuzaga kelgan. Bu gidronim ikki marta gidronimlashuv hodisasini boshidan kechirgan³:

1) *quduq* > **Quduq**; 2) *quduq+-cha* > *quduqcha* > **Quduqcha**.

Demak, ushbu toponimning etimologik tahlilida diaxron va geografik usullar tarixiy-tadrijiylik tamoyili bilan birgalikda qo‘llangan.

QUSHQO‘NDI // Qushqo‘ndi (Tosh. v. Tosh. t. k.) ot+fe'l qolipli predikativ birikmadan shakllangan toponim. Uni statistik tamoyilga asoslanib etimologik tahlil qilish mumkin. Undagi ma’noli qismlar qanchalik tanish bo‘lmisin, toponimlar tizimida shu tarzda faqat bir marta qo‘llangan. Bu hol esa toponim tarkibida fonetik o‘zgarish bo‘lganligini anglatadi. Uning shakllanishi haqida ikkita taxminiy fikr-mulohaza bor:

1. Biror belgi, holat, xususiyat va jarayonga asoslanish asosida obektlar nomlangani kabi ushbu obekt ham qushning qo‘nishi asosida atalgan: *qush+qo‘ndi* > *qush qo‘ndi* > *qush qo‘ndi* > **Qushqo‘ndi**. Gapga teng bo‘lgan ushbu predikativ birikma obektning nomiga ko‘chgan.

Agar mamlakatimizning hamma yerida odamlarning, shuningdek, qushlarning yashashiga cheksiz imkoniyatlari borligini hisobga olinsa, u holda mazkur farazning xalq etimologiyasi ekanligi ayon bo‘ladi.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988.180-бет.

² Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969. с.464.

³ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. с.49.

2. Toponim ikki ma'noli qismdan iborat: *qush*, *qundi*. Mana shu ma'noli qismlar apellyativ leksika tarkibida o'zgacha shaklda bo'lgan: *qo'sh*, *o'ndi*. Agar XX asrning 50-yillarigacha ekin maydonlari qo'l kuchi va ho'kiz qo'shilgan qo'sh bilan haydalganligini hisobga olsak, yerni bahorda yumshatib haydash uchun navbatga turganlardan biriga navbat kelsa, ular o'zaro *qo'sh o'ndi* deyishgan.

Ular obektlarga nom berish zaruriyati va toponimlashuv jarayoni natijasida fonetik o'zgarishlarga uchrab, toponimga ko'chgan: *qo'sh+o'ndi* > *qo'sh o'ndi* > *qo'sh qundi* > *qo'sh qo'ndi* > **Qo'sh qo'ndi**. Uning tarkibidagi *qo'sh* so'zi XU1 asrdagi toponimlarda ham *qo'llanganligi* manbalarda berilgan¹. Toponimning bunday holga kelishi uchun quyidagi fonetik va tabiiy jarayonlar amalda bo'lgan fonetik jarayonlar:

1) ikki so'z o'rtasida q undoshi orttirilgan: *qo'sh o'ndi* > *qush qo'ndi*. Natijada, undoshlarga xos bo'lgan assimlyasiya hodisasi ro'y bergen²;

2) ikki so'zning birikishi tufayli q undoshi orttirilgani kabi birinchi ma'noli qismdagi *o'* unlisi u unlisiga almashgan: *o'* > *u*³. Turkiy tillarda bunday fonetik o'zgarish ro'y berishini G. I Ramstedt qayd etganligini E. V. Sevortyan maxsus ko'rsatib o'tgan⁴;

3) tabiiy sharoit - bunga sabab mazkur obektning atrofida dehqonchilik qilish imkoniyati yaxshi bo'lgan. Kishilar traktor bo'lмаган oldingi vaqtida ikki xil usulda yerlarini shudgor qilishgan: a) bel degan asbob yordamida yerni yumshatib chiqish. Bu ish ancha qiyin va og'ir bo'lsa ham amalga oshirilgan; b) ot yoki ho'kizga *qo'shilgan* shudgor qilish asbobi - *qo'sh* bilan ekin maydonlarini yumshatishgan;

4) nutqda *qo'llanuvchi qo'sh o'ndi* predikativ birikmasidan e'tiborsizlik, shuningdek, ohangdoshlik tufayli shakliy jihatdan farqlanadigan *qo'sh qo'ndi* predikativ birikmasi hosil bo'lgan va unda toponimlashuv hodisasi tufayli obektning nomi shakllangan: *qo'sh o'ndi*

¹ Қаранг: Ўринбоев А., Бўриев О. Фиёсиiddин Наққошнинг Хитой сафарномаси. -Т., Фан, 1991. -54 б.

² Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004.80-бет.

³ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.15-бет.

⁴ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М., Наука, 1974. с.26.

> *qo'sh qo'ndi* > *qush qo'ndi* > **Qushqo'ndi**. Talaffuz jarayonida toponimdag'i ikki o‘ unlisidan birinchi unli u unlisiga o‘tgan: *o’ > u*¹.

Ushbu **Qushqo'ndi** toponimi joy nomlarining obrazli nomlanishiga misol bo‘ladi. Hosil bo‘lgan toponimga *qo'sh qo'ndi* predikativ birikmasi etimon hisoblanadi. Apellyativ leksikadagi *qo'sh qo'ndi*, ya’ni *yerni yumshatish asbobi bilan yerni shudgorlash jarayoni o'ndi*, *kuchaydi*, *oshdi* degan ma’nolardan faqat birinchi ma’nosи (o‘nmoq) toponimning etimoniga ko‘chgan.

QO‘YLIQ // Qo‘yliq (Tosh. sh. bozor, daha, mahalla) toponimining kelib chiqishi haqida ikki xil taxminiy fikr mavjud:

1. Uning shakllanishini muqaddaslashtirilgan **Qo‘yliq** ota toponimiga nisbat berishadi. Qo‘ylari ko‘p bo‘lgan kishi bu yerda qo‘y boqqan. U vafot etgach, obekt uning nomi bilan nomlangan deyiladi. Bu xalq etimologiyasi. Sababi, toponimning shakllanishiga qo‘y so‘zi topoassos bo‘lmaydi.

Mazkur toponim haqida H. Hasanov quyidagi fikrni aytadi: «*Toshkent chekkasidagi joy. Qo‘y so‘ziga dahli yo‘q. «Quyi – daryoning quyisi, tubi, tekis joyi».* Haqiqatan ham shunday: Chirchiq daryosining qayirida, past yeridagi bu qishloq - «*quyilish*», «*pastlik*» ma’nosida atalib, so‘ngra *qo‘yliq* bo‘lib ketgan»². Bunda dalillash ishonchli va aniq emas.

Chirchiq daryosi uning yonidan oqadi. Bu daryo **Qo‘yliq**ning yonidan quyilib oqqanday oqib o‘tadi. Ushbu toponim toqqa nisbatan pastlikda joylashgan. Mana shu joylashish toponim uchun geografik omil vazifasini bajargan. So‘z oldin *quyliq* tarzida bo‘lgan, so‘ngra u fonetik o‘zgarishlarga uchrab, *quyi+-lik* > *quyliq* > *qo‘yliq* > **Qo‘yliq** shakliga kelib qolgan. Talaffuzdagi fonetik jarayon tufayli *u* unlisi *o’* unlisiga aylangan, *i* unlisi esa tushib, *-lik* topoformantining *-liq* shakli ham mavjud. Biroq ma’noda o‘zgarish bo‘lмаган: **Qo‘yliq** joy nomi pastlikdagi, quyidagi, quyilikdagi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Toponim ikki ma’noli qismdan iborat: *quyi*, *-liq*. Birinchi ma’noli qism *quyi* so‘zi bo‘lib, sifat so‘z turkumiga oid, *-liq* topoformanti *-lik* affiksining bir varianti. *-li* formasining *-liq* *-lik*, *-lig* ko‘rinishlari jaiubiy Qirg‘iziston toponimlari tarkibida uchraydi, shuningdek, *-lik*, *-liq*

¹ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М., Наука, 1986.15-бет.

² Ҳасанов Ҳ. Ер тили. -Т., Ўқитувчи, 1977.57-бет.

formantlari X1Y-XY asrlarda ham qo‘llangan¹. Topoasos *quyi* so‘zi bo‘lgaii uchun unga topoformant ham moslanib, -lik ko‘rinishidan -liq variaitli holatga kelgan. *Quyi* topoasosga -lik (-liq) topoformanga qo‘shilishi bilan *quyilik* (yohud *quyliq*) so‘zi paydo bo‘lgan. Toponimik derivatsiya tufayli *quyliq* so‘zi joy nomi sifatida *qo‘yiliq* holatiga kelgan: *quyi+-lik* > *quyilik* > *quyliq* > **Quyliq**. Talaffuz jarayonida o‘zak oxiridagi i tovushi tushib qolgan. *Kuyilik* so‘zi Qo‘yliq toponimi uchun etamon. Undagi *u* unlisining *o* unlisiga o‘tashi (*u* > *o*), *k* undoshining *q* undoshiga o‘tishi (*k* > *q*) hamda i unlisining tushib qolishi yasama so‘zda ro‘y bergen assimilyasiya hodisasi bilan bog‘liq. **Qo‘yliq** toponimini *qo‘y* so‘ziga bog‘lashning foydasi yo‘q. -liq qo‘shimchasining uchinchi ma’nosini bilan bu toponim shakllangan². Bizningcha, bu toponim, uning hududidagi **Qo‘yluqota** degan mukaddas joy quyilikda joylashgani uchun ham shu tarzda nomlangan.

Qozoq toponimikasida ham *Kuylk*, *Kuyshgs* ko‘rishishqiagi toponimlar uchraydi³. Demak, bu joy nomining etimoni pastlikdagi, quyidagi (holi punkti ma’nosini anglatuvchi *quyiliq* ko‘rinishidagi so‘z hisoblanadi. *Quyiliq* shakli vaqt o‘tishi bilan talaffuzdagi fonetik o‘zgarishlar va toponimik derivatsiya jarayonida **Qo‘yliq** shakliga kelib qolgan. Uning geografik joylashishi boshqa toponimlardan farqlovchi belgi.

QO‘NG‘IROT // Qo‘ng‘irot (QkR. t.; Xor. v. Hazorasp, Qo‘shko‘pir t. q.). Toponimga asos bo‘lgan qo‘ng‘ir so‘zi “qora-sariq rang” manosini ifodalaydi⁴. Mazkur so‘zga ot so‘zi qo‘shilgach (*qo‘ng‘ir+ot*), *qo‘ng‘irot* so‘zi yasalib, ushbu ma’no otga ko‘chgan: *qora-sariq rangdagi ot*. Shu ma’nodagi lug‘aviy asos etnonimga o‘tish va *qorasariq ot yetshshiradigan* yoki *minadigan qabila* nomini ifodalagan: *qo‘ng‘irot*. Keyinchalik etnonim shu qabnla yashagan joyning nomini ifodalagani uchun toponimga ko‘chgan: *qo‘ngir+ot* > *ko‘ngir ot* > *qo‘ng‘irot* > **Qo‘ng‘irot**. Etnonimning etimoni qo‘ng‘ir ot birikmasi bo‘lsa, joy nomi uchun esa qo‘ng‘irot etnonim hisoblanadi.

¹ Конкобаев К. Топонимия южной Киргизии. -Фрунзе, Илим, 1980.35-37-бетлар. Бафоев Б. Навоий асарлари тилида -чи, -чилик морфемалари // ЎТА. -Т., Фан, 1995. 2-сон. –Б. 18-25.

² Фуломов А., Тихонов А. -Н., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем лугати. -Т., Ўқитувчи, 1977. 429-бет.

³ Абдраҳманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Фылым, 1975. 31-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Иккинчи том. -М., Рус тили, 1981.638-бет.

QO‘G‘AY // Qo‘g‘ay (Nam. v. Uchko‘rg‘on t.; Qash. v. Deh, t. q) - toponimi topoasos va topoformantdan iborat: *qo‘g‘a, -y. “Qo‘g‘a - ichi govak bo‘lib, yumshoq, xo‘l va quruqligida ham sinmaydigan, egiluvchan, poyasining qirralari kesimta shaklida bo‘lgan ko‘p yillik o‘simplik. Undan bo‘yincha, to‘qum, arqon, ip va xurjunsimon asboblar yasalgan”*¹. Shunday o‘simplik o‘sadigan joyning nomi *qo‘g‘a so‘zining oxiriga y undoshini orttirib, qo‘shish bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zdan onomastak konversiya jarayoni tufayli shakllangan: qo‘g‘a+-y > qo‘g‘ay > Qo‘g‘ay.* Toponimning etimoni *qo‘g‘a so‘ziga -y qo‘shimchasini qo‘shish bilan (qo‘g‘a+-y) hosil bo‘lgan qug‘ay yasama so‘zi.* Topoasosi *qo‘g‘a so‘zi bo‘lgan toponomalar bir-biri bilan qiyoslansa, ular quyidagicha farqladi:*

1. Namangan viloyatidagi Uchqo‘rg‘on tumanidagi obekt nomi *qo‘g‘a so‘ziga -y topoformanti qo‘shilgach, toponimik derivatsiya jarayoni bilan shakllangan: qo‘g‘a+-y > qo‘g‘ay > Qo‘g‘ay.*

2. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi obektlar esa *qo‘g‘a so‘ziga -li topoformanti va buloq indikatorini qo‘shish bilan, shuningdek, toponimik derivatsiya hamda onomastik konversiya jarayonlari bidan nomlangan: qo‘g‘a+-li > qo‘g‘ali > Qo‘g‘ali; qo‘g‘a + buloq > qo‘g‘a buloq > qo‘g‘abuloq > Qo‘g‘abuloq.* Birinchi toponim *qo‘g‘a o‘simpligi* bor joy ma’nosini beradi. Uning etamoni *qo‘g‘ay shaklidagi yasama so‘z.* Ikkinci toponim *qo‘g‘a o‘simpligi o‘sigan buloq* ma’nosini ifodalab, *qo‘g‘a buloq* birikmasi uning etimoni sanaladi.

G‘

G‘UZOR // G‘uzor (Qashqadaryo v.t.) toponimining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlar bor:

1. Bu toponimning shakllanishi xalq vakillarining aytishicha, toponim joylashgan hududda *mard, tanti, g‘ururli va orli* kishilar yashab kelishayotgani uchun *g‘ururli orli* degan so‘zlarning turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab, bir butun birikishidan hosil bo‘lgan: *g‘ururli+orli > g‘urur+orli > g‘urorli > g‘uzorli > g‘uzor > G‘uzor.* Bu tahlildan ko‘rinib turibdiki, taxmin ancha ishonchsiz.

2. Mazkur joy nomiga fors-tojikcha *guzar* (*guzashtan - o‘tmoq*) fe’li asos bo‘lgan. O‘tmoq fe’li ma’nosidagi *guzashtan* (> *guzasht* >

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1988. 265-бет.

guzash > guzar) so‘z(lar)i toponim joylashgan hududdagi katta daryodan o‘tish joyi ma’nosini anglatadi. *Guzashtan* so‘zi o‘zbek va tojiklar yashaydigan hududda *guzash > guzar > g‘uzor* shakllarida fonetik o‘zgarishlarga uchrab, ushbu toponim uchun topoasos vazifasida kelgan. Bu fikrni M.Mirakmalov ham quyidagicha tarzda asoslab ko‘rsatadi: “*Guzar – kechuv, suvdan o‘tadigan joy, dovon; shaharning gavjum joyi*”¹. Guzar so‘zi shevada “*Daryodan, soydan qayiqlar o‘tadigan joy; kechik*”, degan ma’noda qo‘llanilganligi ham tabiiy holdir². Demak, fors-tojikcha guzashtan so‘zi ushbu toponimga topoasos bo‘lguncha, xalq tilida turli fonetik o‘zgarishlarga (o‘zlashgan so‘zdagi -an, -t tovushlari birin-ketin tushgach, o‘zlashgan so‘zda talaffuzda *sh > r* fonetik o‘zgarishi ro‘y bergan, ya’ni ikki tilning ta’siri bilan nom uchun tanlangan so‘zda tovush o‘zgarishiga) uchrab quyidagi holatga kelib qolgan: *guzashtan > guzasht > guzash > guzar > g‘uzor > G‘uzor*.

3. Toponimga asos bo‘lgan *guzar* so‘zini N.Oxunov *mahalla* ma’nosidagi so‘z deb ta'birlagan³. Bu ma’no daryo va soylik uzoq bo‘lgan hududlarda qo‘llanilgan *guzar* so‘zida o‘z ifodasini topganki, bu ma’no “O‘zbek tilining izohli lug‘atida shu so‘zning to‘rtta ma’nosidan biri sifatida bu tarzda berilgan: “1. *Qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do‘konlari bo‘lgan obod, gavjum joy.* 2. *folk.* Yo‘l. *Qalmoqlar yurtiga guzarim tushdi.* «Alpomish». 3. *shv. Daryodan, soydan qayiqlar o‘tadigan joy; kechik.* 4. *map. Buxoro xonligida: mahalla*”⁴. Bizningcha, mazkur ma’nolar toponimning shakllanishiga ma’lum darajada turtki bergen.

4.Joy nomi uchun topoasos bo‘lgan *guzar* so‘zining uchinchi ma’nosidan anglashilib turibdiki, “*Daryodan, soydan qayiqlar o‘tadigan joy; kechik*” ma’nosи dialektal ma’no deb ko‘rsatilgan.

Agar *guzar* so‘zi bugungi kundja mahalla ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, unda shu so‘zning o‘tish, kechuv joyi ma’nosи arxaiklashgan bo‘lishi ham tabiiy hol. Mahalla, mahalla markazi ham *guzar* so‘zi bilan atalishiga yana bir asos kishilar mahalla markazidan o‘tishib, o‘z

¹ Миракмалов М. Халқ табиий географик терминлари. Т., Фан ва технологиялар, 2009. 146-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 517-бет.

³ Охунов Н. Жой номлари таъбири. Т., Ўзбекистон, 1994. 15-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 517-бет.

uylariga borishgan yoki boshqa hududga ketishgan. Unda *guzar so‘zi ham mahalla; ham o‘tish joyi, kechik ma’nolarini anglatishini hisobga olish lozim.*

Bizningcha, birinchi taxmin xalqona etimologiyaga asoslangan tahlil edi. Kishilar toponimning ma’nosini o‘zlaricha tushuntirishga harakat qilishning oqibatida shu taxmin shakllangan. Ikkinci va uchinchi taxminlarda toponimning kelib chiqishiga yo‘nalish bor, lekin to‘rtinchi taxmin esa toponimning etimologik tahlilida o‘ziga xos ilmiy mukammallikka ega toponimik tahlil namunasidir.

Toponim daryodan o‘tish joyini anglatishi bilan o‘zining gidronimik xususiyatini namoyish qilgan, ya’ni bu joy nomi gidrotoponimlardan biridir. Uchinchi taxminda esa topoasos bo‘lgan *guzar so‘zining ko‘proq mahalla* ma’nosini anglatishi, ba’zan esa *o‘tish joyi* ma’no nozikligini bildirishi ifodalangan. Bunda so‘zning shevaga xos dialektal ma’nosi *arxaik* ma’no (“*o‘tish joyi*”) bo‘lib qolgan. Biroq mana shu ma’no toponimning asil toponimik ma’nosi ekanligini sezish qiyin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Абдрахманов А. Топонимика жане этимология. -Алматы, Ылъы, 1975.-208 с.

Абдрахманов А. А. (Алма-Ата) Актуальные проблемы тюркской топонимики // ОУ. -Т., 1989.-С. 15-16.

Абдрахманов А. А. Этимологическое исследование некоторых этнонимов общих для узбекского и казахского народов // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизах, 1985. -С. 20-21.

Абдрахманов А. К вопросу о методах этимологического исследования топонимов Казахстана // Тюрская ономастика. -Алма-Ата, Наука, 1984.-С. 120-130.

Абдумуратов К. А. Почему так названо? (На материале Каракалпакской топонимии) -Нукус, 1970. -129 с.

Абдураҳмонов А., Маҳматмуродов Ш. Ургут 100 минг ёшда. -С, Зарафшон, 1993.

Абдураҳмонов Д. Бешкент район топонимикаси // О'збек шевалари лексикаси. -Т., Фан, 1966. -Б. 383-401.

Абдураҳмонов Н. Қадимги туркий тил. -Т., Ўқитувчи, 1989. -150 б.

Абдуллаев Р. Термиз атамаси ҳақида // -Термиз университети газетаси. 2002 йил 19-март.

Абдуллаев Ф. Этимология бўйича кузатишлар // Ўзбек халқ ижоди. -Т., Фан, 1967.-Б. 154-161.

Абу Тоҳирхожа. Самария//Мерос. -Т.Дамалак, 1991. -Б. 5-81.

Агеева Р. А. Происхождение имен рек и озер. М. Наука, 1985. -142 с.

Адилов М., Пашаев А. Азарбајҹан ономастикаси.-Баку, 1987.88 с.

Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы. -Нукус, Каракалпакстан, 1986. -200 с.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоһли лугати. 4 томлик. Том II.-Т.,Фан, 1983.-644 б.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоһли лугати. 4 томлик. Том III.-Т.,Фан, 1984.-624 б.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоһли лугати. 4 томлик. Том IV. -Т., Фан, 1985. -635 б.

Алмаматов М. Тил тарихи дарсларида топонимик

материаллардан фойдаланиш // Ўзбек тили ва адабиёти таълими. 2002 йил. 6-сон.-Б. 12-15.

Аслонов А. Шоғиркон тумани гидронимлари // ЎТА. -Т., Фан, 2000.-Б.35-37.

Атажонова А. Ж. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луг‘авий асослари. ФФНА. -Т., 1996. -27 б.

Атаниязов С. Туркманистанмы топонимиаси. -Ашигабад., Ылим, 1981.-224 с.

Аттуҳфатуз закияту филлуғатит Туркия. -Т., Фан, 1968. -278 б.

Ахманова Г. И., Данхинова И. А. Атрибутивное отношение в топонимической системе англоязычных стран II ВЯ. 1970. Н6. -С. 79-83.

Ахманова О. С, Мелчук И. А., Падучева Э. В., Фрумкина ИИ. М. О точных методах исследования языка. -М., Издательство Московского университета, 1961. 162 с.

Ахмедова. Нега Турон деб аталади?//Турон тарихи. -Т., 1992. 1-сон.—Б. 5-6.

Ахмедов Т. М. О древнесемантических реликтах аг//ак, гара// кара и сары в тюркских топонимах // ОУ. -Т., Ўқитувчи, 1987. -С. 23-24.

Ахунов Н. Особенности топонимов типа прилагательное + существительное // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизах, 1985. -С. 26-27.

Байчоров С. Я. Этимология этнонима ас // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Ылим, 1990. -С.279-289.

Баранов Х. К. Арабско-русский словар. -М., 1962. -1189 с.

Баскаков Н. А. Проблемы языкоznания в журнале "TURK D1L1" (1960-1970) // ВЯ. № 6. 1970. -С. 105-110.

Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Т., Фан, 1983.-157 б.

Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. -Т., Фан, 1991. -152 б.

Бафоев Б. Кўл сўзининг маънолари ва тарихи // ЎТА. -Т., Фан, 1992.2-сон. -Б. 17-19.

Бафосв Б. Навоий асарлари тилида -чи, -чилик морфемалари // ЎТА. -Т., Фан, 1995. 2-сон. -Б. 18-25.

Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // ЎТА. -Т, Фан, 2004. 4-сон. -Б. 67-71.

Бегматов Э. Ономастик сўз ясаш масалаларига доир // ЎТА. -Т., Фан, 1965. 3-сон.-Б. 53-58.

Бегматов Э., Жумаев А., Сатторов Г. Ўзбек ономастик термино-логияси ва уни нормалаш проблемалари // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. -Т., Фан, 1986. -Б.8-10.

Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. -Т., Фан, 1997. 3-сон. -Б. 3-9.

Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. -Т., Фан, 1997. 4-сон. -Б. 7-9.

Бегматов Э. Жой номлари - маънавият қўзгуси. -Т., Ма’навият, 1998. -64 б.

Бекмухамедов Х. Ю. Тарих терминлари изоһли луғ‘ати. -Т., Ўқитувчи, 1977. -184 б.

Бектасова В. К. (Алма-Ата) Словообразовательная структура топонимов Северной зонқ центрального Казахстана // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джиззах, 1985. -С. 32-33.

Белецкий А. А. Принципы этимологического исследования (на материале греческого языка). Издательство Киевского государственного университета им. Т. Г. Шевченко. -Кiev, 1950. -247 с.

Белецкий А. А. Лексикология и теория язкознания (ономастика). -Кiev, Издательство Киевского университета, 1972.-208 с.

Битанова А. С. Глагольные конструкции в казахской топонимике Кустанайской области // Питание ономастики. -Кiev, 1965. -С. 234-236.

Благова Г. Ф. В. В. Радлов и изучение топонимии Сибирии // Развитие и методов топонимических исследований. -М.,Наука. 1970. -С.80-90.

Бобур Заһриддин Мухаммад. Бобурнома. -Т.,1960. -512 б.

Болотов В. И. Теория имен собственных. -Т., -98 с.

Бо‘риев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида марказий Осиё. -Т., О‘збекистон, 1997. -166 б.

Валдман К. Н. Нерегулярные фонетические изменения топонимов и принцип экономии // Вестник ЛГУ. 1976. № 20. -С. 47-52.

Варбот Ж. Ж. О словообразовательном анализе в этимологических исследованиях // Этимология. -М., 1963. -С. 194-212.

- Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. - Ростов. Изд. Ростовского ун-та. 1986. -120 с.
- Вержбовский А. А. Основы всеобщей этимологической грамматики языков земли. -Минск, Наука и техника. 1969. -694 с.
- Веселов П. В. Терминология. Стандартизация терминов // - Русская речь. Н 3. -М., Наука, 1969. -С. 67-71.
- Виноградов В. В. Историко-этимологические заметки // Этимология. -М., 1963. -О. 85-109.
- Воронин С. В. Этимология и фоносемантика (на материале тюркских и некоторых других языков) // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990. -С. 62-70.
- Гавлова Э. К методам этимологических исследований // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. - М., Наука, 1984. -С. 6.
- Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареалной лингвистики. -М., Наука, 1975.-304 с.
- Гарипов Т. М. (Уфа) К изучению тюркских названий населенных пунктов Башкирии // ОВ. -М., Наука, 1980. -С. 97-101.
- Гарипова Ф. Г. Исследования по гидронимии Татарстана. -М., Наука, 1991. -294 с.
- Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. - Душанбе, Ирфон, 1989. 1-том. -374 с.
- Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. -Душанбе, Ирфон, 1989. 2 том. -480 с.
- Гелдиханов М. Местные географические термины Туркменистана. АКД. -Баку, 1973. -23 с.
- Головин И. В. Принципы определения ценности лингвистических исследований // Методологические проблемы общественных и гуманитарных наук. -М., Наука, 1981. -С. 58-71.
- Головина Э. Д. О характере номинации в микротопонимике // - ВТ. № 5. -Свердловск. 1971. -С. 99-120.
- Горнунг Б. В. О границах применения сравнительно-исторического метода в языкознании // ВЯ. -М, Наука, 1952. Н 4. - С. 20-38.
- Гулямов А. Г, Проблемы исторического словообразования узбекского язжа. Аффиксация. част первая. Словообразующие аффиксы имен. АДД. -Т., 1955. -50 с.

Гулямов А. Г. О некоторых особенностях аффиксов с уменьшительно-ласкательным значением в узбекском языке // Научные труды. Вшуск 268. Языкознание и литературоведение. -Т., 1964. -С. 15-22.

Гулямов А.Г. Об аффиксе -лик в узбекском языке // Научные труды Выпуск 260. Языкознание. -Т., 1964. -С. 50-57.

Гулямов А.Г. Об одной этимологической неточности // сб.Этимология.Вга.18.Изд-во МГУ. -М.,1970. -С. 76-79.

Дадабоев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского язжа. -Т., Фан, 1990. -213 с.

Дадабоев Н. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. -Т., 2003. -239 б.

Дансинова И. А. Методология и методика синхронического изучения топонимических систем. АДД. -М., Изд. Московского университета, 1983. -25 с.

Дамдинсурен Ц., Лувсандендэв А. Орос монгол тол (русско-монгольский словарь). Улаанбаатар, 1982. 840 бет.

Девонакулов А. Асрори номҳои кишвар (Тайнм сокровенним наименований). Душанбе, Ирфон, 1989. -224 с.

Джанузаков Т. Дж. Материалы древней топонимии Казахстана как база этимологических исследований // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Илм, 1990. -С. 295-301.

Джураев А. Б. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. -Т.,Фан, 1991.-220 с.

Дмитриев Л. В. Некоторые тюркские этимологии // Языки народов Сибири. Кемерово, 1979. Вш. З. -С. 37-46.

Добродомов И. Г. Улу(г)бий // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990. -С. 302-306.

Додмхудоев Р. Х. Памирская микротопонимия. -Душанбе, 1975. -160 с.

Донидзе Г. И. Глаголные топонимии в тюркских языках // ТВ. Новые исследования. -М., Наука, 1964. -С. 45-48.

Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.-Т., 1968.-98 б.

Дорошевский В. Диалектология и сравнительно-исторический метод языкознания //ВЯ. -М.,Наука, 1956. № 5. -С. 68-73.

Древнетюркский словарь. -Л., Наука, 1969.-676 с.

Дулзон А. П. Вопросы этимологического анализа русских тоионимов субстратного происхождения // ВЯ. -М.,1959. № 4. -

С.37-48.

- Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. ДД. -Т., 1986. -294 с.
- Дўсимов З. Шимолий Хоразм топонимларининг ясалиши // ЎТА.-Т., Фан, 1965. 5-сон. -Б. 75-82.
- Дўсимов З. Топонимлардаги фонетик ҳодисалар // ЎТА. -Т., 1970. -Б.80.
- Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изохли луғати. -Т., Ўқитувчи, 1977. -174 б.
- Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиши масаласига доир // ЎТА. - Т.,Фан, 1980. -Б.44-48.
- Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик тамойиллари //ЎТА. -Т., Фан, 1984. 4-сон.-Б. 12-15.
- Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари // ЎТА. -Т., Фан, 1985. 2-сон. -Б. 33-37.
- Дўсимов З. Хоразм топонимлари. -Т., Фан, 1985. -104 б.
- Дўсимов З., Тиллаева М. Жой номларининг сири. -Хива, Хоразм Маъмун Академияси, 2001.-52 б.
- Дўсимов З., ТиллаеваМ. Топонимика асослари.-Т., 2002. -88 6.
- Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. -Т., Ўқитувчи, 1994. - 312 с.
- Жанузаков Т. Д. Некоторые аспекты теории и методики ономастических исследований в тюркских языках // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985.-С. 33-34.
- Жанузаков Т. Д. Состояние и перспективы развития казахской ономастики // Тюркское языкознание. Материалы III всесоюзной тюркологической конференции. -Т., Фан, 1985. -С. 351-355.
- Жилкубаева А. Семантическое поле слова ас 'пиша' в тюркских язжуах // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гылым, 1990. -С. 310-313.
- Жусчкевич В. А. О методологии топонимических исследований // Ономастика Поволжья, вып.1. -Ульяновск, 1969. -С. 17-22.
- Жусчкевич В. А. Общие и региональные географические закономерности топонимики. АДД. -Минск, 1970. -35 с.

Жучкевич В. А. Общая топонимика. -Минск, Вышэйшая школа, 1980. -288 с.

Жо‘раев М. О‘збек халқ эртакларида "сөһрли" рақамлар.-Т., Фан, 1991.-152 6.

Жо‘раев М., Сайдова Р. Бухоро афсоналари. -Т., Абдулла Qодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. -125 б.

Закиров А. А. Топонимия Джизакской области Узбекской - ССР.АКД.-М, 1991. 20 с.

Зейналов Ф. Р., Новрузов М. Д. Об этимологии слова altun // СТ.№ 5. -Баку, 1984. -С.45-50.

Зинин С. И. Микротопонимия Тошкента // Общественные науки в Узбекистан. -Т,, 1967, №7, с.55-57.

Зинин С. И. Микротопонимия колхоза Свердлова Аккурганского района. Ташкентской области // -Т., Научные труды ТашГУ, 1973. Вш. 449, с. 143-152.

Зинин С. И. Основные этапы становления микротопонимии Ташкента // Топонимика в региональных географических исследованиях. -М., 1984, с.83-85.

Имя нарицательное и собственное. -М., Наука,1978. -207 с.

Имя-этнос-история. М.,1989. -202 с.

Исаев Д. Жер-суу аттарынын сырьы. -Фрунзе, Мектеп, 1977.-150 с.

Ишодов М.Содиков Q., Омонов Q. Мангу битиклар. Т., Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. 114 бет.

Ишаев А. Манг‘ит со‘зининг этимологияси нацида // ЎТА. - Т., Фан, 1958. 2-сон. -Б. 63-65.

Ишбердин Э. Ф. Принципы номинации и этимологизации слов, относящихся к флоре и фауне // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Иылм, 1990. -С. 337-341.

Йо‘лдошев Р. "Илонли" этнотопоними то‘г‘рисида // О‘ТА. -Т., Фан, 2001. б сон.-Б. 62-63.

Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гиш, 1990. - С. 5-25.

Кадырова Ш. М. Микротопонимы Ташкента. АҚД. -Т.1970.-28 с.

Камалиддинов Ш. С. «Китаб алансаб» абу Са'да Абдалカリма ибн Мухаммад ас-Сам'ани как источник по истории и истории

культур Средней Азии. -Т., Фан, 1993. -183 с.

Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычны истосчникам IX- начала XIII вв. - Т., О‘збекистон, 1996. -422 с.

Камолиддин Шамсиддин. Қадимий исмлардан ясалган жой номлари // ЎТА. 2003 йил. 2-сон. -Б.45-51.

Караев С. К. К этимологии слов "Шибир" и "Сибир". Общество науки в Узбекистане. -Т., Фан, 1966. №7. -С.72-75.

Караев С. К. Топонимия Узбекистана. -Т., Фан, 1991.-130 с.

Караев С. К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание учёной степени доктора географических наук в форме научного доклада. -Т., 1998.-50 с.

Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. Т., Турон замин зиё, 2015. 498 с.

Каримов И. О‘збекистон XXI аср бо‘саг‘асида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тарағбиёт кафолатлари. -Т., О‘збекистон, 1997.-326 б.

Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йо‘қ. Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. -31 б.

Каримова Л. Ба’зи топонимларнинг этимологиясига доир // Научные труды ТашГУ. -Т., 1976. 501-сон. -Б. 117-120.

Каримова Л. О‘збек тилида топонимларнинг о‘рганилиши. Т., Фан, 1982.-96 б.

Карпенко Ю. А. О синхронической топонимике // ПТ. -М., 1964. -С.45-57.

Карпенко Ю. А. История этимологического метода в отечественной топонимике // Развитие методов топонимических исследований. -М., Наука, 1970. -С.9-19.

Керимбаев Э. А. Этнокультурный основы номинации и функцирования казахских собственных имен. АДД. -Алма-Ата, 1992. -61 с.

Киргизско-русский словарь. 1 т. (А-К). -М, 1965. -504 с.

Киргизско-русский словарь. 2 т. -М., 1985. -476 с.

Клевцова С. Д. Русско-персидский словарь. -М., Русский язж, 1982.-901 с.

Клепикова Г. П. К проблеме использования данных лингвистической географии в историко-этимологических исследованиях // Международнш симпозиум по проблемам этимологии,

исторической лексикологии и лексикографии. Тезис докладов. - М., Наука, 1984. -С. 15-16.

Ковалева Н. Б. К вопросу о принципах номинации в топонимике // ВТ. Н 5. -Свердловск, 1971. -С.133-136.

Койсубаев Э. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. Алма-ата, 1974.

Койсубаев Э. Словарь топонимов Казахстана (на казахском языке). -Алма-Ата, Мектеп, 1985. -256 с.

Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике. Вш. З. -М., Наука, 1963. -С. 171-175.

Коскинен А. А. Статистическое исследование топонимии острова Пасхи // Топонимика Востока. -М., Наука, 1969. -С. 202-205.

Конкобаев К. Топонимия южной Киргизии. -Фрунзе, Илим, 1980.-172 с.

Кононов А. Н. Способы и термины определения стран света у тюркских народов // ТС. 1974. -М., Наука, 1978. -С. 72-89.

Кононов А. Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках //ТС. 1975. -М., Наука, 1978. -С. 159-179.

Кононов А. Н. Актуальные проблемы тюркского языкознания // ВЯ.-М., 1984.№6.-С.3-13.

Кубрякова К. С. О понятиях синхронии и диахронии // ВЯ. -М., Наука, 1968. № 3. -С. 45-52.

Курбанов А. Вопросы Азербайджанской ономастики. - Бакк 1986. 78 с.

Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // ЎТА. -Т., Фан, 1974. 2-сон.-Б. 84-85.

Латипов Ж. Марг‘илон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси. ФФНД. -Т, 1975.-219 6.

Лаусчюте Ю. Роль экстравербальных факторов в этимологии // Международного симпозиума по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. -М., Наука, 1984. -С.21- 22.

Леонтьев А. А. Психологическая структура // Семантическая структура слова. -М., Наука, 1971. -С. 7-18.

Лингвистический энциклопедический словарь (А-Я). .- М., Советская энциклопедия, 1990. 684 с.

Литвин И. П. О некоторых особенностях функционирования

топонимов в обществе // Топонимия и общество.-М.,Наука,1989.-С.120- 124.

Локшина С. М. Краткий словарь иностранных слов. -М., Русский язык, 1977.-351 с.

Лвов А. С. Об учете вспомогательных приемов при этимологизировании // Этимология - 1967. -М, Наука, 1969.-С. 180-191.

Майдонова Л. М. Процесс номинации и номинативный варианты // ВТ. Н 6. -Свердловск, 1971. -С. 23-34.

Маллицкий Н. Г. Тошкент маһалла ва мавзелари. -Т., G‘. G‘улом номидаги адабиёт ва сан’ат нашриёти. 1996. -24 б.

Мамедов М. А. О географическом названии Тебриз // Известия АН Азерб. ССР. Серия литер., язмка и искусства. -Баку, 1974. -С. 72-74.

Мамедов Н. Г. О номинации орографических об’ектов // ОУ. -Т., О‘читувсчи, 1987. -С. 44-45.

Материалы конференци о проблемах Азербайджанской ономас-тики. -Баку, 1987. 334 с.

Материалы научно-теоретической конференции, посвященной проблемам азербайджанской Азербайджанской ономастики. -Баку, 1988. 308 с.

Матвеев А. К. Значение принципа семантической мотивированности для этимологизации субстратных топонимов // Этимология - 1967. -М.,Наука, 1969.-С.192-199.

Матвеев А. К. Взаимодействие языков и методы топонимических исследований // ВЯ. Н 3.1970. -С.76-83.

Матг‘озиев А. Қадимги туркий тилга хос лексик элементлар // ЎТА. -Т.,Фан,1976. -Б.58-63.

Махмуд Кошгариј. Девону луг‘отит турк. Уч томлик. 1 т. -Т., Фан, 1960.-500 6.

Махмуд Кошг‘арий. Девону луг‘отит турк. Уч томлик. II т. -Т., Фан, 1961.-428 6.

Маһмуд Кошг‘арий. Девону луг‘отит турк. Уч томлик. III том. -Т., Фан, 1963.-464 6.

Маһмуд Кошгариј. Девону луг‘отит турк. Индекс луг‘ат. -Т., Фан, 1967.-544 6.

Маһмудов Q. Ахмад Юғнакийнинг "Нибат ул-хақойиқ" асари нақида. -Т., Фан, 1972. -300 6.

Маҳмудов Q. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -Т., Фан, 1990. -226 б.

Маҳмудов Q. О‘збек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., Ижод дунёси, 2004. -102 б.

Методи топонимических исследований.-Свердловск,1983.-135 с.

Мирзо Улуг‘бек. То‘рт улус тарихи. -Т.,Cho‘лпон, 1994.-351 б.

Миртожиев М. М. -Тошкент со‘зининг ма’носи // Шарқ юлдузи. 2-сон. 1981.-Б. 237-238.

Миртожиев М. Номлар ҳақида о‘йлар. Жой тарихини англатсин // Тошкент оғшоми. 1990 йил 25 сентябр.

Миртожиев М. М. О‘збек тили фонетикаси.-Т., Университети, 1991. -88 б.

Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Т., О‘збекистон, 1992.-110 б.

Миртожиев М. Ажра-, айир-, айил- фе’ллари генезиси ва улар уяси // ЎТА. -Т., Фан, 2000. 1-сон. -Б.60-63.

Миракмалов М. Т. Место народных географических терминов формирований по физической географии. АКД. -Т., 1998.-22 с.

Моисеев Б. А. Синонимичные группы диалектных слов (варианты названий) // Вопросы теории и методики русского языка. -Ульяновск, 1969. -С. 74-78.

Мокиенко В. М. Закон "относительной негативности" и региональная топонимика // ВТ. Н5. Свердловск, 1971. -С.79-85.

Молчанова О. Т. Структурно словообразовательное классификации географических имён // Языки и топонимия. -Томск, 1976. -С.184-192.

Молчанова О. Т. Топонимический словарь горного Алтая. Горно - Айтское отделение Алтайского книжного издательства, 1979. -398 с.

Молчанова О. Т. Тюркских и монгольских исходных основ в географических именах Горного Алтая // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гаш, 1990. -С. 348-354.

Моллазаде С. М. Топонимия северных районов Азербайджана. Баку: Маариф, 1979. 206 бет.

Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. -М.,Мюл,1974. 382 с.

Мурзаев Э. М. География в названиях. М., Наука, 1979. -166 с.

Мурзаев Э. М. Апеллятив в топонимах Средней Азии // ОСА.

- Фрунзе, Илим, 1980.-С.198-211.
- Мурзаев Э. М. Словар народлх географисческих терминов. -М., Мисл, 1984.-654 с.
- Мурзаев Э. М. Тюркская этнотопонимия // Этническая топонимика. -М., 1987. -С. 36-61.
- Мусабекова Н. Ch. Этнолингвистический анализ тюркских гидронимов Азербайджана // Этническая топонимика. -М., 1987. -С. 69-77.
- Мусаев К. М. Лексика тюркских язшов в сравнителном освещении. -М., Наука, 1975. -358 с.
- Мусаев К. М. Лексикология тюркских язжов. -М., Наука, 1984. 228 с.
- Мухатаева А. Ж. Народная и научная этимология этнографических топонимов в казахском эпосе // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Гиш, 1990. - С. 355-359.
- Муhammad ибн Мусо ал-Хоразмий. Математика, астрономия, география. Т., Фан, 1983. -488 б.
- Муhammadжонов А. Хива атамасининг этимологияси һақида // ЎТА. -Т., Фан, 1997. -Б. 67-71.
- Муhammadжонов А. Бухоро шаһри - 2500 ёшда (Археологик лавҳалар ва тарих) // -Т., Фан, 1998. -53 б.
- Муhammadжонов А. «Кармина» ёки «Кармана» топонимининг этимологияси һақида // ТошДУ хабарлари.-Т., ТошДУ, 1999.4-сони. -Б. 52- 55.
- Муhammadжонов А. «Даһкат» ойкоимиининг этимони ва «кат» субстрати // ЎТА. -Т., Фан, 2000. 1-сони. -Б. 57-60.
- Муhammadжонов А. -Андижон - Сойбо‘йи демакдир // Мозийдан садо. 2 (14). 2002. -Б. 44-45.
- Муhammadжонов А. Қадимги Тошкент. -Т., Шарқ, 2002. -78 б.
- Муhammadжонов А. Айрим топонимлар семантикаси // ЎТА. -Т., Фан, 2004. 2-сони. 39-42-бетлар.
- Муhammadжонов А. «Калобод», «Калковуз», «Калос», «Миёнкол» гидронимлари ва «кал», «кол», «колот» субстратлари һақида // ЎТА. -Т., Фан, 2004. 5-сони. 43-47-бетлар.
- Муhammad G‘иёсуддин. G‘иёс ул-луг‘от. Жилд 1. - Душанбе, Адиг, 1987.-Шб).
- Муhammad G‘иёсуддин. G‘иёс ул луг‘от. Жилд ИИ. -Душанбе,

Адиб, 1988.-416 б.

Найимов С. Н. Бухоро области топонимияси. -Т., 1984. -24 б.

Найимов С. Н. Бухоро вилояти жой номларининг қисқаси изоҳли луг‘ати. -Бухоро, 1997. -63 б.

Наршахий. Бухоро тарихи // Мерос.-Т., Камалак, 1991.-Б.82-174.

Нафасов Т. Қашқадарё област топонимлари. КД. -Т., 1968.-301 б.

Нафасов Т. Об’ектларнинг номланишига доир // О‘збек тилшунослиги масалалари. -Qарши-Тошкент, 1976. -Б.56-59.

Нафасов Т. Жили компонентли гидронимлар // ЎТА. 1988. 5-сон. -Б. 43-45.

Нафасов Т. О‘збекистон топонимикаси. Махсус курс программаси. -Т., 1988. -22 б.

Нафасов Т. О‘збекистон топонимларининг изоҳли луг‘ати. -Т., О‘читувчи, 1988. -288 б.

Нафасов Т. О‘збек номномаси. Qарши, Насаф, 1993. -154 б.

Нафасов Т.chinоз этимологиясини биласизми? // Тил ва адабиёт та’лими. 2012.3-сон.44-бет.

Не’матов Н. О‘збек тили тарихий фонетикаси. -Т., О‘читувчи, 1992.-92 б.

Никонов В. А. Пути топонимического исследования // ПТ. -М., Наука, 1964. -С. 58-87.

Никонов В. А. Введение в топонимику. -М., Наука, 1965. -178 с.

Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. -М, Мысл, 1966.-510 с.

Никонов В. А. Научное значение микротопонимии // Микротопонимия. -М., Издательство Московского университета, 1967. -С. 5-14.

Никонов В. А. Фоностатистические схемы гидронимии Уганды // Топонимика Востока. -М., Наука, 1969. -С.50-63.

Нуржонов К., Хо‘жаниёзов Г‘. Амударё. Т., Абу Али Ибн Сино номидаги Тиббиёт нашриёти, 2004. 150 бет.

Общее язмознание. Методы лингвистических исследований. -М., Наука, 1973. -318 с.

Олговиch С. И. Этимология и орфография. -Томск, Издательство Томского университета, 1984. -200 б.

Ономастика Востока.-М.,Наука,1960. -286 с.

Ономастика и норма. -М, Наука, 1976.-256 с.

Ономастика Калмыкии. -Элиста, 1983. -148 с.

- Ономастика Узбекистана. -Т., О‘китувсчи, 1987. -92 с.
- Ономастика Узбекистана. -Т., О‘китувсчи, 1989. -208 с.
- Оразов М. Исторический принцип этимологических исследований в казахском языке // Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, «Гылм», 1990.-С.122-126.
- Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. -Т., Фан, 1997. -128 б.
- Отажонова А. Хоразм этнотопонимлар ва уларнинг луг‘авий асослари. НДА. Т., 1997. -24 б.
- Откупщиков Ю. В. Диалектный материал и этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. - М., Наука, 1984. -С. 38-39.
- Охунов Н. Особенности топонимов типа "прилагательное + существительное" // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. -С. 26-27.
- Охунов Н. Топонимлардаги бинар оппозиция нодисаси // ЎТА. 1986. 2-сон.-Б. 57-60.
- Охунов Н., Бозоров О. Формообразующие аффиксы как компоненты топонимии Узбекистана и Азербайджана // Материалы конференции о проблемах азербайджанской ономастики. -Баку. 1987. -С. 132-135.
- Охунов Н. Словообразующие аффиксы как топоформанты топонимии Узбекистана и Азербайджана // Азербайджан ономастикаси масалалари. П.-Баку, 1988. -С. 194-196.
- Охунов Н. Тил ва жой номлари.-Т., О‘збекистон, 1988.-24 б.
- Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. - Т., Фан, 1989.-56 б.
- Охунов Н. Жой номлари та’бири. Т., О‘збекистон, 1994. -86 б.
- Охунов Н. Фарғ‘она водийси этноийконимлари // |ТА. -Т., Фан, 2000. 1-СОН.-Б. 20-23.
- Охунов Н. Этноийконимларнинг ясалиши // Тил ва адабиёт та’лими. 2000. 4-сон. -Б. 38-43.
- Охунов Н. “Ёв”, “Урганжи”, “Унгут” топонимларининг этимологик таҳлили // Тил ва адабиёт та’лими. 2012.5-сон.43-бет.
- Панцер Б. Этимологии и деривация: проблема разграничения // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. -М., Наука, 1984. -С. 39- 40.

- Персидско-русский словарь. М., 1960. -668 с.
- Пизани В. Этимология (История-проблемы-метод). Перевод с италиянского Д. Э. Розенталя. -М., Наука, 1956. -188 с.
- Подолская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. -М., Наука, 1988. -188 с.
- Подолская Н. В. Проблемы ономастического словообразования // ВЯ. -М., Наука, 1990. Н3. -С. 40-53.
- Попов А. И. Об историческом методе в топонимических исследованиях // Развитие методов топонимических исследований. -М., Наука, 1970. -С. 25-38.
- Поспелов Э. М. Математико-статистические методы в топонимике // Вопросы географии. Сборник 70. -М., Наука, 1966. -С. 38-46.
- Поспелов Э. М. Топонимика в школной географии. -М., Просвещение, 1981. -142 с.
- Поспелов Э. М. Школьный топонимический словарь. -М., 1988. 224 с. Принципы топонимики. -М., Наука, 1964. -151 с.
- Проблемы этимологии тюркских языков. -Алма-Ата, Г1лш, 1990. -400 с.
- Проблемы Азербайджанской ономастики. ИИ. -Баку, 1988. 308 с.
- Радлов В. В. Опыт словаря тюркских народов. 1 т. Част 1. -Санкт-Петербург. 1893. -982 с.
- Радлов В. В. Опыт словаря тюркских народов. 1 т. Част 2. -Санкт-Петербург, 1893. -1914 с.
- Радлов В. В. Опыт словаря тюркских народов. 2 т. Част 1. -Санкт-Петербург, 1899. -1052 с.
- Радлов В. В. Опыт словаря тюркских народов. 2 т. Част 1. -Санкт-Петербург, 1905.-1260 с.
- Развитие методов топонимических исследований. -М., Наука, 1970.-112 с.
- Рамазанова М. Н. О цветовом и нецветовом значении формантов ак и кара в ойкономии Ташкентской области // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985.-С. 8-9.
- Рахматов Т. Этимология топонима Самарканда // СТ. 1973. 4-сон. ~ (С. 43-50).
- Рахматов Телман. Топонимия города Самарканда и его

окрестностей. АКД. М., 1973. -31 с.

Раҳматуллаев Ш, Миртожиев М., Qодиров М. О‘збек тилининг қисса этиологик луг‘ати. Биринчни қисм (унли билан бошланадиган туркий со‘злар). -Т., Университет, 1997. -128 б.

Раҳматуллаев Ш., Qодиров М. О‘збек тилининг қисса этиологик луг‘ати. Иккинчни қисм (б-й ундошлари билан бошланадиган туркий со‘злар). -Т., Университет, 1998. -108 б.

Раҳматуллаев Ш., Qодиров М. О‘збек тилининг қисса этиологик луг‘ати. Учинчни қисм (к-т ундошлари билан бошланадиган туркий со‘злар). -Т., Университет, 1999. -142 б.

Раҳматуллаев Ш. О‘збек тилининг қисса этиологик луг‘ати. То‘ртинчни қисм. -Т., Университет, 1999. -144 б.

Раҳматуллаев Ш. О‘збек тилининг этиологик луг‘ати. -Т., Университет, 2000. -600 б.

Раҳматуллаев Ш. О‘збек тили луг‘атиинг туркий қатлами. -Т., Университет, 2001. -350 б.

Раҳматуллаев Ш. О‘збек тилининг этиологик луг‘ати. II (араб со‘злар ва улар билан ҳосилалар). -Т., Университет, 2003. -599 б.

Ризаев С. А. Статистическая структура лексики языка "Дивана" Хамзи Хакимзаде Ниязи .Т., Фан, 1989. -248 с.

Сатторов Г. Ф. Происхождение полисонима «Казан» // СТ. 1985. Н 5. -С. 34-43.

Сатторов У. Топонимик ривоятларнинг о‘зига хос ҳусусиятлари // ЎТА. -Т.. Фан, 2000. 6-сони. -Б.36-39.

Са’дуллаев А. Қадимги О‘збекистон илк ёзма манбаларда. -Т., О‘читувчи, 1996.-110 б.

Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских язжов. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М, Наука, 1974.-767 с.

Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских язмков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". -М., Наука, 1978.-350 с.

Севортян Э. В. Этимологической словарь тюркских язисов. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г", "Д". -М, Наука, 1980.-395 с.

Севортян Э. В., Левитская Л. С. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "Ж", "И". -М- Наука, 1989. -292 с.

Серебренников Б. А. О методах изучения топонимических названия // Н6. -М., Наука, 1959. -С. 36-50.

Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -М, Наука, 1986. -300 с.

Собиров О. Достонларда халқ эстетик идеалининг акс этилиши // По'лкан шоир. -Т., Фан, 1976. -Б. 100-105.

Содицова М. Qора со'зи ва унинг ма'нолари // ТМ. -Т., 1960. -Б. 24-31.

Сталтмане В. Обзор диссертационных работ по советской ономастике (1947-1972гг.) // Ономастика и норма. -М., Наука, 1976.-С226- 245.

Старостин Б. А. Некоторые методологические проблемы теории собственных имён. // Имя нарицательное и собственное. -М.,Наука,1978. -С. 34-42.

Степанов Ю. С. Методы и принципы современной лингвистики. -М., Наука, 1975.-312 с.

Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. -Самарканд-Ташкент, 2000. -543 с.

Султанев О. А. Принципы номинации в казахской топонимике Кокчетавской области // ВТ. Свердловск, 1978. -С. 62-72.

Суперанская А. В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. -М., Наука, 1969. -188 с.

Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. -М., Наука, 1973.-366 с. 285.

Суперанская А. В. Лингвистический аспект ономастических исследований // ВО. Ш. -Самарканд, СамГУ, 1976. -С. 5-12.

Суперанская А. В. Апелляция - онома // Имя нарицательное и собственное. -М., Наука, 1978. -С. 5-33.

Суперанская А. В. Что такое топонимика? -М.,Наука, 1985.-176 с.

Суперанская А. В. Теоретические проблемы региональных топонимических исследований II Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. -С 10-11.

Суперанская А. В., Сталтмане В. Э., Подольская Н. В., Султанов А. Х. Теория и методика ономастических исследований. -М, Наука, 1986. -256 с.

Супрун А. Э. Системност лексики и этимология // Этимология - 1967. -М., Наука, 1969. -С. 88-97.

Тиллаев М. Хоразм ономастик тизимида «Авесто» элленментлари // Тил ва адабиёт та'лими. -Т., 2004. 2-сони. 95-96-бетлар.

Толковый словарь татарского языка. В трех томах. 1. А-Й. - Казан, Татарское книжное издательство, 1977. -476 с.

Топоров В. Н. О некоторых теоретических основаниях этимологического анализа// ВЯ. 1960. Н3. -С. 49-63.

Топоров В. Н. Из области теоретической топономастики // ВЯ.1962. № 6. ~С. 3-12.

Топоров В. Н. Из наблюдений над этимологией слов мифологического характера // Этимология. 1967.-М., Наука,1969.-С.11-21.

Топоров В. Н. О некоторых теоретических аспектах этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. -М., Наука, 1984. -С. 44- 47.

Топонимика Востока. -М., Наука. 1961. -201 с.

Топонимика Востока. -М., Наука, 1962. -211 с. 299.

Топонимика Востока. -М., Наука, 1969. -240 с.

Тошалиев И. Халк этимологиясига доир ба'зи кузатишлар // О'збек тилида со'з ясалиши. Илмий ишлар то'плами. 608-сон.-Т.,1979. -Б.38- 50.

Тошалиев И. Бадий этимология - стилистик приём сифатида // О'збектили стилистикаси масалалари. -Т., 1982. -Б. 29-30.

Трубачев О. Н. Приемы семантической реконструкции // Международный симпозиум по проблемам этимологии, исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. - М., Наука, 1984. -С.47-51.

Турдалиев Б., Ну'монов Т., Найдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. 1-китоб. Наманган-1995. -122 б.

Турдимов Шомирза. Го‘ро‘г‘ли номи хусусида // ЎТА. 3-сони. -Т.,Фан, 2000. -Б. 62-65.

Туркменско-русский словарь. -М., Советская Энциклопедия, 1968.-832 с.

Турсунов С, Кисчилов Н. Термиз йилномаси. -Т., Шарқ, 2001. - 127 6.

Туробов А. Самарқанд вилояти этноийконимларининг таҳлили. ФФНД. -Т., 1999.-130 6.

Туробов А. Топонимик аниqlагисчли этноийконимлар // ЎТА. 2000. 2-сон. -Б. 30-32.

То‘йчибоев Б. О‘збек тилининг тараqqиёт босқисчлари. -Т., О‘қитувчи, 1996. -176 6.

То‘йчибоев Б. Яйлов, қишлоғ, керага ва олтин со‘зларининг шаклланиши // ЎТА. 3-сони. -Т., Фан, 2000. -Б.66-69.

Узоғов Н. Фаргона, Водил, Қувасой со‘зларининг этимологияси нақида // Адабиётшунослик ва тилшуносликка оид тадқиқотлар. -Т., 1965. -Б. 138-146.

Уйгурско-русский словарь. Составил Э. Н. Наджип. -М., Советская энциклопедия, 1968. - 828 с.

Улуханов И. С. Мотивация и производность // ВЯ. -М., Наука, 1992. № 2. -С. 5-20.

Умняков И. Л, Алескеров Ю. Н. Самарқанд. Т., О‘збекистон, 1968. -160 б.

Уринбаев Б. У., Бегматов Э. А., Караев С. К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблема) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1985. -С. 3-5.

Усмонов К. Тарихий о‘зак масаласи. -Т., О‘қитувчи, 1994. -55 б.

Улуғов Н. Қазноқко‘л. Qo‘g‘айариқ. Канноп // // Тил ва адабиёт та’лими.2011.12-сон.84-бет.

Фалсафа. Қомусий луг‘ат. Т., О‘збекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2000. 495 б.

Фарғанги забони тоҷики. Жилд И. -М., 1969, -952 с.

Фарғанги забони тоҷики. Жилд ИИ. -М., 1969, -949 с.

Фазилов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники. XIX века. Том И. -Т., Фан, 1966. -651 с.

Фазилов Э. О‘збек тилидаги сепки, тулки, эски со‘зларининг этимологияси нақида // ЎТА. -Т., Фан, 1962. 5-сон. -Б.78-80.

Фазилов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники. XIY века. Том П. -Т., Фан, 1971. -780 с.

Хасанов Х. Узбекская топонимия // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизах, 1985. С. 16-17.

Хасанов Х. К этимологии названия "Тян-Шан" // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана. -Т., Фан, 1987. -С. 136-

139.

Холмо‘минов Х. Бойсун раён микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // О‘збек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. -Т., 1988.-Б. 73-75.

Худайберганов С. Числителню в составе Киргизских топонимов // Ономастика Средней Азии. -Фрунзе, Илим, 1980. -С. 164- 170.

Худжамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандаринской области Узбекской ССР. АКД. -Т., 1973. -25 с.

Хуршут Э. Ши-Chach-Ташкент. Т., О‘збекистон, 1992. -54 с.

Хуррамов Q. О‘збек халқ, географик лексикасининг қайси тил элементларидан шаклланганлиги нацида // О‘збек тилшунослиги масалалари. -Тошкент-Қарши, 1976.-Б. 59-62.

Хо‘жамов М., Лафасов М., Муллажонова Р. Тарихий о‘лкашунослик ва туризм. Т., Мумтоз со‘з, 2014. 224 бет.

Сориев З. Тарих атамаларининг қисқасиша изоҳли луг‘ати. -Т., Шарқ, 1999.-1446.

Чувашско-русский словарь. -М., Русский язык, 1982. -712 с.

Шамсиев Порсо, С. Ибронимов. Навоий асарлари луг‘ати.-Т., Фан, 1972 -784 б.

Шанский Н. М. В мире слов. -М., Просвещение, 1971. -254 с.

Шестая конференция по ономастике Поволжья 26-28 сентября 1989 г. Тезисы докладов и сообщений. Волгоград, 1989. -179 с.

Шералиев Э. О‘збек тилининг тарихий диалектологиясидан материаллар. Хо‘жанд, 2013. 106 бет.

Шоабдурахмонов Ш. “О‘збек тилининг таркибий-этимологик луг‘ати” усчун материаллар // ЎТА. -Т., Фан, 2001.1-сон.-Б. 27-29.

Шониёзов К. О‘збек халқининг шаклланиш жараёни. Т., Шарқ, 2001. 164 б.

Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Лгр., Наука, 1970. -202 с.

Элтазаров Ж. Тилдаги тежамкорлик тамойили ва қисқарув. -С, Самарканд Давлат университети, 2004. -110 б.

Эназаров Т. Ж. Жой номларини йиг‘иш со‘роғлиги. Т., 1995. 32 бет (проф. К. Назаров билан ҳамкорликда).

Эназаров Т. Ж. “О‘збекистон топонимикаси” номли маҳсус

курсни о‘чишиш методикаси. Т., 1999. 80 бет.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг этимологик таддицининг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари (Туркий топонимлар мисолида). I китоб. Т., 2001. 128 бет. 8 б.т.

Эназаров Т. Ж. Туркий содда топонимларнинг этимологик таддици. 2-китоб. Т., Университети, 2002. 58 бет. 4,1 б.т.

Эназаров Т. Ж. О‘збекистондаги ба’зи топонимларнинг этимологик талқини (“О‘збекистон топонимикаси” номли маҳсус курсни о‘тиш учун материаллар). Т., 2004. 7,5 б.т.

Эназаров Т. Ж. Жалолқудуқ жой номининг этимологияси һақида // О‘збекистонда ижтимоий фанлар. -1999. 5-6-сонлар. 86-87-бетлар.

Эназаров Т. Ж. В мире слов. О значении слова “Нисор” // Преподавание языка и литературы. -1999. 4-сон. -С. 90.

Эназаров Т. Ж. Катта, кисчик, о‘рта ... қо‘ргончалар // Фан ва турмуш. -1999. 5-6-сонлар. 35-бет.

Эназаров Т. Ж. Топонимия Кизирика // Преподавание языка и литературы. -1999. 5-6-сон.-С.70-71.

Эназаров Т. Ж. Бойбо‘ри ва Бойовул. Сим-сим // Сог‘лом авлод учун. -1999. 10-11-сонлар. 17-бет.

Эназаров Т. Ж. Қамсчинми ёки кемшикми? // О‘збек тили ва адабиёти.2000.2-сон.37-бет.

Эназаров Т. Ж. Хут, худ, қут ... барака // Гулистон. -2000. 3-сон. 63-бет.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг этимологик таддицида қо‘лланётган ба’зи бир терминлар һақида // О‘зМУ хабарлари. 3-сон.-2000. 51-54-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Она тили дарсликларида этимологик таҳлил // Тил ва адабиёт та’лими. -2000. 5-сон. 87-89-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг жамият тарағбиётидаги о‘рни // Ижтимоий фикр – инсон һуқуqlари. -2000. 3-сон. 86-88-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Этимологический анализ некоторых топонимов // Преподавания языка и литературы. -2000. –С. 21-23.

Эназаров Т. Ж. Жой номларининг мукаммал таснифи этимологик таҳлил асосидир // Геодезия, картография ва кадастр журнали. 2000 йил. 1(3)-сон. 12-16-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг номланиш принципи һақида // О‘збекистонда ижтимоий фанлар. -2001. 3-сони. 47-50-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Географик атамаларга э’тибор лозим //
Бошланг‘исч та’лим. -2001 йил.4-сон. 11-бет.

Эназаров Т. Ж. Туркий компонентли топонимларнинг
мотивлашуви // Тил ва адабиёт та’лими. -2002. 1-сони. 57-62-
бетлар.

Эназаров Т. Ж. Миллий мафкура ва топонимлар // Халқ та’лими.
-2001. 2-сон. 103-107-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимлар этимологияси дидактив омиллардан
бири сифатида // Та’лим ва тарбия. -2001. 1-2-сонлари. 13-14-
бетлар.

Эназаров Т. Ж. Этимологический анализ некоторых топонимов
// Преподавание языка и литературы. -2002. № 5. –С. 43.

Эназаров Т. Ж. Экстраграфистик омиллар – туркий
компонентли топонимларнинг этимологик тадциқ қилинишини
та’минловсни барқарорлик омиллари // Геодизия, картография ва
кадастры.-2002. 1-2(7)-сонлар.17-22-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Касби ва Булунг‘ур топонимларининг
этимологияси нацида // Тил ва адабиёт та’лими. -2003. 2-сон. 94-96-
бетлар.

Эназаров Т. Ж. Термиз топонимининг этимологик таҳлили //
Халқ та’лими. -2003. 2-сон. 75-77-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Касби топоними // О‘збек тили ва адабиёти. -
2003. 3-сони. 62-63-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимлерди изертлео‘дин салыстырмалы
усылы // Эмио‘дэря. -2004. № 2. 122-124-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг этимологик таҳлилида
нацидатга яқинлик муаммоси // Тил ва адабиёт та’лими. -2004. 4-
сони. 84-86-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг номланишини асословсни
тамойил // Фарғ‘она Давлат университети. Илмий хабарлар. Илмий
журнал. 2004. 2-сони. 67-69-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Топонимларнинг этимологик тадциқида
реконструкция усули // ILM SARCHASHMALARI. -2005. 1-сон. 59-
62-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Самарқанд топонимининг этимологик таҳлили //
Тил ва адабиёт та’лими. -2006. 2-сони. 90-92-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Туркий топонимларни этимологик таҳлил
чилишнинг барқарорлик воситалари // Государственный язык.

Проблемы изучения и исследования. 2-китоб. Ош, 1996. –С. 240-243.

Эназаров Т. Ж. Жой номларини таҳлил қилиш муаммолари // Мамлекеттик тил. Окутулушу жана изилдениши. Ош, 1998. 264-267-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Проблемы этимологического анализа топонимов Узбекистана // Наука. Образование. Техника. Международный научный журнал. Выходит два раза в год. Ош, 2002 . N 1(7). –С. 5-6; 100.

Эназаров Т. Ж. Ном қо‘йиш һам сан’ат // Нутқ маданияти масалалари. Илмий то‘плам. Т., 1993. 227-228-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Бадиий асарларда жой номлари // Сборник научных трудов. ТГТУ, 1996. –С.3-5.

Эназаров Т. Ж. Луг‘ат устида ишлаш то‘г‘рисида // О‘збек тилининг доимий анжумани. З-йиг‘инининг тезислари. Т., О‘читувчи, 1995. 114-бет.

Эназаров Т. Ж. О‘кув луг‘атларни яратиш – долзарб вазифа // Тил ва адабиёт та’лими.Т.,2007.4-сон.4-6-бетлар (наммуаллифликда).

Эназаров Т. Ж. Янги о‘кув луг‘атлари // Тил ва адабиёт та’лими.Т.,2007.4-сон.90-91-бетлар (наммуаллифликда).

Эназаров Т. Ж. Тошкент топонимининг этимологик таҳлили // О‘збекистон география жамияти Ахбороти.30-жилд.Т.,2008. 47-49-бетлар

Эназаров Т. Ж. Шевашунослигимиз һақида о‘йлар //“Айюб Г‘уломов ва о‘збек тилшунослиги масалалари” .Т.,2008.19-21-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Янги луг‘ат // О‘збекистон адабиёти ва сан’ати.Т.,2008. 30 май. №22 (3954). 2-бет.

Эназаров Т. Ж.Номни то‘г‘ри қо‘ллаш – бу одоб одобилик рамзи // География: тарих, назария, методлар, амалиёт. Т., 2010. 94-96-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Номшунослик масалалари. Т., 2010. 7 б.т.

Эназаров Т. Ж.О‘збек номшунослиги (монография) (М.Нусанова ва А.Есемуратов билан һамкорликда).Тошкент, Навро‘з, 2015. 14 б.т.

Эназаров Т. Ж. Номларнинг таснифланиш масаласи // О‘збекистон География жамияти ахбороти. Топонимика ва

умумгеографик масалалар. 42-жилд. Тошкент, 2013. 26-29-бетлар.

Эназаров Т. Ж. О‘збек диалектологиясида илмий мактаблар ва илмий назарий концепциялар // “Маҳмуд Замахшарий, Маҳмуд Кошг‘арий ва Алишер Навоийнинг лингвистик мероси ҳамда унинг туркий тилларни о‘рганишдаги о‘рни”. Халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд, 2018. 20-26-бетлар (наммуаллифликда).

Эназаров Т. Ж. “Муҳокамату-л-луг‘атайн”да шева таддици ва образли номланиш // Алишер Навоий ва XXI аср. Республика илмий-назарий анжумани. Тошкент, 2018 йил. 8 феврал. Тошкент, TURON-IQBOL, 2018. Алишер Навоий ва XXI аср. Республика илмий-назарий анжумани. Тошкент, 2018 йил. 8 феврал. Тошкент, TURON-IQBOL, 2018. 275-277-бетлар.

Эназаров Т. Ж. Диалектологик кваламетрия хусусида // “Маҳмуд Замахшарий, Маҳмуд Кошг‘арий ва Алишер Навоийнинг лингвистик мероси ҳамда унинг туркий тилларни о‘рганишдаги о‘рни”. Халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд, 2018. 20-26-бетлар (наммуаллифликда).

Этимология-1968. -М., Наука, 1971.-279 с.

Этнонимы. -М., Наука, 1970. -268 с.

Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // ЎТА. -Т., 1966. 1-сон. -Б.15-20.

Яйленко В. П. Енисейцы кеты в этнической истории древней Средней Азии // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. Вт.1. -М.Л990. -С.37-39.

Юдахин К.К. Киргизского-русский словар. М., 1965.

О‘збекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том. -Т., О‘збекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. -736 б.

О‘збекистон Миллий Энциклопедияси. 2-том. -Т., О‘збекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. -704 б.

О‘збек тили грамматикаси. 1-том. Морфология. -Т., Фан, 1975. -610 б.

О‘збек тили лексикологияси. -Т., Фан, 1981. -312 б.

О‘збек шевалари лексикаси.-Т., Фан, 1966.-454 б.

О‘збек шевалари лексикаси. -Т., Фан, 1991. -280 б.

О‘збек тилининг изоһли луг‘ати. Биринчи том. -М., Рус тили, 1981. -631б.

О‘збек тилининг изоһли луг‘ати. Иккинчи том. -М., Рус тили,

1981. -715 б.

О‘збек халқ шевалари луг‘ати. -Т., Фан, 1971.-407 б.

О‘ринбоев А., Бо‘риев О. Г‘иёсиддин Нақдошнинг
Хитой сафарномаси. -Т., Фан, 1991. -54 б.

О‘ринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах, 1992. 53 б.

О‘ринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изохи. С,
1997.-202 б.

О‘ринбоев Б. Асрлардек барнаёт номлар. -С, Зарафшон, 2003.
-264 б.

Qәлендер Эбдимуратов. Неге услай аталған? Нукус,
Qарақалпақстан, 1965. 80 бет.

Qадимги Кеш - Шаһрисабз тарихидан лавҳалар. -Т., Шарқ,
1998. -208 б.

Qазак тылны қысқаша этимологик созлиги. -Алматм: 1966.
-188 с.

Qодирова Ш. Тошкент микротопонимиясининг номланиш
принципларига доир // ЎТА. 1966. 6-сон. -Б. 38-40.

Qодирова Ш. Тошкент микротопонимиясининг этимологик
характеристикаси // ЎТА. -Т., Фан, 1969. 3-сон. -Б. 56-59.

Qораев С. Географик номлар ма’носи -Т., О‘збекистон, 1978.-204
б.

Qораев С. Тошкент топонимлари. -Т., Фан, 1991. -62 б.

Qоратоев О. Q. Qирғ‘изларнинг о‘рта асрлар ко‘чманччи
о‘збеклари

билин бо‘лган этник алоқалари // "Амир Темур ва унинг жаҳон
тарихидаги о‘рни" мавзуидаги халқаро конференция тезислари. -Т.,
О‘қитувчи, 1996. -Б. 50-51;

Qудратов Т.Нафасов Т. Лингвистик таълил. Qарши, 1978.-148 б.

Qудратуллаев Н. "Бобурнома"да этимологик ма’лумотлар
// ЎТА. -Т., Фан, 2001. 6-сон. -Б. 39-41.

Qо‘лдошев М. -ли аффиксли топонимлар // ОУ. -Т., 1989. -Б.
104-105.

G‘уломов А. Этимологик кузатишлардан // ЎТА. Т.,Фан,1968. 4-
сон.-Б. 15-19.

G‘уломов А. Со‘злар haётидан // ЎТА. -Т., Фан, 1969. 4-сон. -Б.
21 26.

G‘уломов А. Со‘злар haётидан /7 ЎТА. -Т., Фан, 1969. 6-сон. -Б.

57- 62.

Г‘уломов А., Тихонов А. -Н.. Qо‘нг‘уров Р. О‘збек тили морфем луг‘ати. -Т., О‘қитувчи, 1977. -462 б.-

Г‘уломов П. Географиядан қисқача русча-о‘збекча атамалар ва

тушунчалар луг‘ати. -Т., О‘қитувчи, 1993. -63 б.

Г‘уломов П. Жо‘ғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луг‘ати. -Т., О‘қитувчи, 1994. -140 б.

Г‘уломов П. Н. Топонимика ва географик атамашунослик. -Т., 2000. -34 б.

Насанов Н. Географик номлар имлоси. -Т., Фан, 1962. -136 б.

Насанов Н. География терминлари луг‘ати. -Т., Фан, 1964. -1116.

Насанов Н. О‘рта Осиё жой номлари тарихидан. -Т., Фан, 1965. -80 б.

Насанов Н. Беруний асарларида топонимика // Беруний ва ижтимоий фанлар. -Т., Фан, 1972. -Б. 125-128.

Насанов Н. Эр тили. -Т., О‘қитувчи, 1977. -102 б.

Насанов Н. Сайёҳ олимлар. -Т., О‘збекистон, 1981. -262 б.

Насанов Н. Географик номлар сири. -Т., О‘збекистон, 1985. -120 б.

Ножиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луг‘ати. -Т., О‘збекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. -164 б.

Нофиз Таниш Ибн Мир Муhammad Бухорий. Абдулланома. Т., Фан, 1969. 391 б.

Нусанов Н. XY аср о‘збек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. ФФДА. -Т., 2000. -57 б.

SHARTLI QISQARTMALAR

АДД - Автореферат диссертаций представленной на соискание ученой степени доктора филологических наук.

АК - Автореферат диссертации представленной на соискание ученой степени кандидата филологических наук.

And v. - Andijon viloyati.

ATM - Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari.

Bux v. - Buxoro viloyati.

v. - viloyat.

- ВО - Вопросы ономастики.
 ВТ - Вопросы топоономастики.
 ВЯ - Вопросы язмкознания.
 Deh. - Dehqonobod.
 D. - daryo.
 DD - Doktorlik dissertaçiyasi.
 DDA - Doktorlik dissertaçiyasi avtoreferati.
 Deh.t. - Dehqonobod tumani.
 Jiz. v. - Jizzax viloyati.
 KD - kandidatlik // nomzodlik dissertatsiyasi.
 М. - Moskva.
 Nav. v. - Navoiy viloyati.
 Nam. v. - Namangan viloyati.
 NDA - Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.
 ND - nomzodlik dissertatsiyasi.
 OV - onomastika Vostoka.
 OCA - Ономастика Средней Азии.
 ОУ - Ономастика Узбекистана.
 Par. - Parkent.
 ПТ - Принципы топонимики.
 S. - Samarqand (Samarkand).
 Sam. v. - Samarqand viloyati.
 Sari. - Sariosiyo.
 Sir. v. - Sirdaryo viloyati.
 s. - soy
 Sur. v. - Surxondaryo viloyati.
 T. - Toshkent.
 t. - tuman.
 Tosh. v. - Toshkent viloyati.
 Tosh. sh. - Toshkent shahri.
 TS - Tyurkologicheskiy sbornik.
 tf. - topoformant.
 Far. v. - Farg‘ona viloyati.
 FT - Fan va turmush.
 XGT - Xalk geografik terminlari
 Xor. v. - Xorazm viloyati.
 Chir. - Chirolychi.
 sh. - shahar.

- Shah. - Shahrisabz.
Sher. - Sherobod.
e. - etnonim.
et. - etnotoponim.
ett. - etimologik tadqiqot.
Yak. - Yakkabog‘.
UAS - O‘zbekiston adabiyoti va san'ati.
O‘TA - O‘zbek tili va adabiyoti.
UTIL - O‘zbek tilining izoxli lug‘ati.
O‘TEL - O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.
Qash. v. - Qashqadaryo viloyati.
QqR. - Qorakalpog‘iston Respublikasi.
q. - qishloq
>- ...gandanga o‘tish va o‘zgarish belgisi.
// - 1. Hodisalarining parallel qo‘llanilishini anglatadi.
2. Maqola hamda ilmiy ma'ruzalarining nomidan keyin
qo‘yilib, ular uchun manba bo‘lgan ilmiy manbalarni anglatadi.

MUNDARIJA

So‘zboshi-----	3
Etimologik lug‘at, etimologik tahlil va ularga oid terminlar----	9
Etimologiya va etimologik tahlil tushunchasi-----	12
Etimologik tahlil turlari -----	13
Etimon tushunchasi -----	14
So‘z va toponimning etimologik tahlili masalasi-----	14
Toponimlarning etimologik tahlilida haqiqatga yaqinlik muammosi -----	15
Mazkur lug‘atda qo‘llanilgan terminlar-----	16
Toponimlar tilsimi-----	22
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati -----	177
Shartli qisqartmalar -----	198

“O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi” nomli ishning mualliflari haqida ma’lumot

T. J. ENAZAROV – ToshDU (ayni vaqtdagi O‘zMUDA) 1989 yildan to 2017 yilgacha ishlagan. 2017 yildan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Leksikografiya va dialektologiya kafedrasи professori, filologiya fanlari doktori, dialektolog va nomshunos olim. “*O‘zbek dialektologiyasi*” hamda “*O‘zbek nomshunosligi*” bo‘yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

U shevalarimizning “oltin bitigi” bo‘lgan dialektizmlar O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida ko‘rsatilganidek, bitta sof leksik dialektizmdan iborat bo‘lib qolmaganligini, balki uning o‘n(10)ta alohida turi borligini va ular asosida yetmishdan ortiq dialektal lug‘atlar tayyorlash mumkinligini isbotlab bergen. Chunki u nomlar(kishi ismi, taxallusi va laqablari; topominlar - oronim va oykonim, gidronim va paragononim, agroonim va kosmonim, dromonim va dignitonim kabilalar)imiz dialektizmlarning bir turi sifatidagi mavqieni ham shu olim asoslab bera olgan. Shuningdek, ko‘rsatilgan sohalarda o‘ntaga yaqin kitobi, bir qancha ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e’lon qilingan.

A. Y. ESEMURATOV – O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoralpoq gumanitar ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi, filolog. Qoraqalpoq topominikasi bo‘yicha bir necha kitob va ilmiy maqolalar muallifi.

J. T. JUMANAZAROV – Toshkent shahri Shayxontohur tumani 320-maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, filolog. U o‘zbek topominikasi sohasida ilmiy kuzatishlar olib borib, bir necha maqola e’lon qilgan.

Y.T. QODIROVA – Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 1-maktab tarix fani o‘qituvchisi, tarixshunos, tarixiy topominlar bo‘yicha ilmiy kuzatishlarini davom ettirmoqda.

G. T. JUMANAZAROVA - Toshkent shahri Shayxontohur tumani 320-maktab tarix fani o‘qituvchisi, tarixshunos, tarixiy topominlar bo‘yicha ilmiy kuzatishlarini amalga oshirgan, bir qancha maqolalari nashr etilgan.